

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

GIMUSH R.I., MATMURODOV F.M., SHAMIRZAEV E.A.

XALQARO MENEJMENT

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etgan

Gimush R.I., Matmurodov F.M., Shamirzaev E.A. Xalqaro menejment. O'quv qo'llanma. TAQI, 2007 y. 137 bet.

Qo'llanmada xalqaro miqyosdagi iqtisodiyot xo'jalik tarkiblaridagi fiskal samaralari va ishlab chiqarish funksiyalari keltirilgan. Tashqi iqtisodiy faoliyat me'yoriy jihatlari bayon etilgan. Xalqaro va milliy moliyaviy menejment miqdoriy dinamikasi ko'rsatilgan. Adabiyotda xorijiy investitsiya munosabatlarini huquqiy asoslari mavjud. Xalqaro sub'ektlarning amaldagi faoliyati hikoya qilinib fuqarolarning chet eldagi kasb faoliyati hamda xorijiy ishchi kuchlarini mamlakatda faoliyat ko'rsatishga jalb qilish tushintirilgan.

В пособие рассматриваются фискальные эффекты и производственные функции в хозяйственно-экономических структурах международного масштаба, отражены нормативные положения внешнеэкономической деятельности. Показана динамика международного и национального финансового менеджмента. В пособии даны правовые основы взаимоотношений предприятий, основанных на использовании иностранных инвестиций. Раскрыта практическая деятельность международных субъектов, даны основы профессиональной деятельности граждан за рубежом и привлечения иностранной рабочей силы.

In the instuction bijcal advantages anol producion buntion in the international structure of an economic bacilities (economy) are given. The external economic actions are reflected. Are specified quantitative dynamics (changes) of management. The international and naional quantitaive binancial paramers of management are specified. In the literature legal bases of boreign of unvestmens are available for reader. Practical activiies of the international subjects and professional work of citizens broad, and also atracion of a foreign labour in the counry are refleced.

Ushbu o'quv qo'llanmadan iqtisodchi talabalar, menejment fani o'qituvchilari, turli boshqaruv tuzilmalari menejerlari va iqtisodiyot amaliyoti mutaxassislari hamda horijiy aloqa mutaxassislari foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

1. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, i.f.d. Sa'dullayev D.

2.«Qurilish sohasi menejerlarini tayyorlash va qayta tayyorlash markazi» direktori, dotsent Gaziev U.A.

Ushbu o'quv qo'llanmani Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 5.340.200 – Menejment (tarmoq bo'yicha, 3.06.06 o'quv kursi) ta'lim yo'nalishi bakalavrlariga o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etgan.

Mundarija

bet
5

Kirish	
1.bob. Xalqaro menejmentni strategiyasi va tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari	
1.1.Xalqaro menejment: strategiyasi, xo'jalik tarkiblaridagi fiskal samaralari va ishlab chiqarish funksiyalari	
1.1.1.Xorijda Amerikani transmilliy korporatsiyasi (TMK): strategiyasi, yo'nalishi shakllari	
1.1.1.1.TMK strategiyasi va yo'nalishi shakllari	8
1.1.1.2.To'g'ri xorijiy investitsiya harakatida yangi yo'nalishlar	10
1.1.1.3.Yangi tashkiliy shakllar	11
1.1.2.Vertikal integrallashgan xo'jalik tarkiblaridagi fiskal samaralari	
1.1.2.1.Vertikal integrallashgan xo'jalik tarkiblaridagi fiskal holat	13
1.1.2.2.Integrallashgan va integrallashmagan tizimlardagi foyda	14
1.1.2.3.Birlashgan tizimlarda soliqlardagi absolyut iqtisod	15
1.1.2.4.Integrallangan (birlashgan) tizimlardagi soliqlarda nisbiy iqtisod	17
1.1.3.Jahon iqtisodiyotini tahlilida ishlab chiqarish funksiyalari	
1.1.3.1.Ishlab chiqarish fondlarini turlari	18
1.1.3.2.Intellektual kapitali hisobiga olingan mamlakatlararo tadqiqot	19
1.1.3.3.Mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va geografik ahvolini hisobga olish	20
1.1.3.4.Axborotli texnologiyani (AT) iqtisodiy o'sishiga ta'siri	22
1.2.Tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari	24
1.2.1.Tashqi iqtisodiy faoliyat me'yoriy jihatlar	
1.2.2.Respublika Vazirlar Mahkamasining Tashqi iqtisodiy aloqalar kompleksi	28
1.2.3.Tashqi iqtisodiy aloqalar va xorijiy investitsiyalar departamenti faoliyati	30
2 bob. Xalqaro moliyaviy menejment va xorijiy investitsiya munosabatlari	35
2.1.Xalqaro moliyaviy menejment dinamikasi	
2.1.1.Iqtisodiyot tarmoqlari va mulkchilik shakllari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi	
2.1.2.O'zbekiston respublikasi va MDH davlatlari bo'yicha inflyatsiyaning dinamik holati	39
2.1.3.Davlat byudjeti daromadlari harajatlarini tarkibi va bajarilishi	43
2.1.4.Valyuta bozori va tashqi savdo	48
2.1.4.1.Milliy valyutani xorijiy valyutaga nisbatan munosabatlari	
2.1.4.2.Savdo balansi, eksport va import hamda tashqi savdo dinamikasi tuzilishi va hamkorlik chegaralarining kengayishi	50
2.1.5.Respublikada tashqi va ichki innovatsion jarayonlarning moliyalanishi va rivojlanishi	57
2.1.6.Xorijiy sarmoya iqtisodiyotimizga jalb qilish vositasi: yevroobligatsiyalarning respublika iqtisodiyoti uchun ahamiyati	62
2.1.7.Lafferni fiskal nuqtalarini invariantligi va invariantligini buzilishi muammolari	63
2.1.8.Subsidiarlik (mablag'' bilan yordamlashuv) yevroitifoqni tamoyili va mexanizmidir	67
2.2.Xorijiy investitsiya munosabatlari	72
2.2.1.Chet el investitsiyalari	
2.2.2.Xorijiy sarmoyalar bo'yicha agentlikni faoliyati va xorijdan mablag'' jalb qilish	78
2.2.3.O'zR xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni huquqiy ekspertizadan, davlat ro'yxatidan o'tkazish va tugatish	80
2.2.4.Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan xorijiy valyutadagi tushumni majburiy	84

sotish tartibi	
2.2.5.Xorijiy investorlar harid qiladigan aktsiyalar paketlari va ob'yektlar uchun haq to'lash shakllari	87
3 bob. Xalqaro sub'ektlar va inson resurslarini boshqarish	90
3.1.Xalqaro sub'ektlarning amaldagi faoliyati	
3.1.1.Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar	
3.1.1.1.O'z Respublikasida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning asosiy ko'rsatkichlari, importi va eksporti	
3.1.1.2.Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qo'shma korxonalarning MDH va boshqa xorijiy davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi	93
3.1.2.Tashqi iqtisodiy faoliyatda kichik tadbirkorlik sub'ektlarining ishtiroki	95
3.1.3.Iqtisodiyot tamoqlarida tashqi va ichki munosabatlarni rivojlantirishni yo'llari	99
3.1.3.1.Xizmat infratuzilmalarini rivojlantirish yo'llari	
3.1.3.2.Respublikada innovatsiya faoliyatini ustuvor yo'nalishga aylantirish tadbirlari	101
3.1.4.Hukumat darajasi orasida vakolatni chegaralash: jahon tajribasi	104
3.1.4.1.Kafolat (muxtor vakillik)ni – chegaralash tamoyillari	
3.1.4.2.Muxtor vakillikni chegaralash g'oyasi	106
3.1.4.3.Iqtisodiyotda vakillikni chegaralash	107
3.1.4.4.Yer, yer osti va agrar sho'basida vakillikni taqsimlash	107
3.1.4.5.Ijtimoiy doiradagi vakillikni chegaralash	109
3.1.4.6.Infratuzilma tarmoqlarida vakillikni chegaralash	110
3.2.O'zbekistonni xorijdagi vakolatxonalari va inson resurslarini boshqarish	112
3.2.1.Respublika vazirliklari, idoralari, davlat boshqa organlari, tashkilotlari va korxonalarining chet ellardagi vakolatxonalari	
3.2.2.O'zbekiston Respublikasining Elchixonasi faoliyati	115
3.2.3.O'zR Diplomatik vakolatxonalari va Tashqi ishlar vazirligi xodimlarining diplomatik martabalari	118
3.2.4.O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet eldagi kasb faoliyati	120
3.2.5.Respublikada xorijiy ishchi kuchlarini jalb qilish va ulardan foydalanish	122
Adabiyotlar	125
Glossariy	127
Ilovalar	128

Kirish

Tarixiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, har bir mamlakatda ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va mehnatni taqsimlash afzalliklaridan to'liq foydalanish imkoniyatini yaratuvchi xo'jalik tizimi bilan yaqin integratsiyasiz hech bir davlat dunyo iqtisodiyotining yuqori rivojlanish darajasiga erishmagan. Mamlakat rahbariyatini tashabbusi bilan boshlangan mamlakatimizning dunyo xo'jalik tizimiga integratsiyalashuvi jarayonida qonunchilik, me'yoriy-huquqiy bazalar va malakali xodimlar bilan ta'minlash g'oyasi ilgari surildi va hayotga tatbiq etila boshlandi.

Hozirda O'zbekiston jahon iqtisodiy hamjamiyatining teng huquqli a'zosi. Mamlakatimiz obro'-e'tibori uning samolyot, avtomobil, traktor, paxta terish kombaynlari ishlab chiqarishi tufayli yanada mustahkamlanmoqda, chunki bunday mahsulotlar faqat rivojlangan davlatlardagina ishlab chiqariladi. Buning asosiy jihati shundaki, O'zbekistonda - murakkab ishlab chiqarishni tez va mohirlik bilan o'rganishga qodir bo'lgan yosh xodimlarning yyetarligidir. Respublikaning tashqi savdo saldosi barqaror, eksport tuzilmasida iste'mol uchun tayyor mahsulotlar ulushi doimiy o'sib bormoqda.

Iqtisodiyotni kelgusida tezkor rivojlantirish, chuqurlashtirish, eksportni ko'paytirish va import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni tashkil etish uchun chet el investitsiyalarini jalb qilish ko'lamini oshirish talab etiladi. Bunday og'ir vazifalar bajarilishi uchun davlat boshqaruvi tashkilotlari, xo'jalik sub'ektlari birlashmalari kuchlarini tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishga safarbar qilish talab qilinadi.

Ushbu maqsadlarni, ro'yobga chiqarish uchun qisqa muddatlarda quyidagilar tashkil etildi: tashqi iqtisodiy aloqalar majmuasi; tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki; "Asaka" bank; "O'zmarkazimpeks" DATSK; "O'zsanoatmashimpeks" DATSK; "O'zinterimpeks" DATSK; "Markazsanoateksport" DATSK; "O'zmaxsusimpeks" DK; "O'ztashkitrans" DAK; "O'rta Osiyo Trans" XAT DAK; "O'zinvestloyiha" respublika injenering kompaniyasi; "O'zbekinvest" MK; "O'zeIKbyuro" (O'zbekistondagi Yevropa ittifoqi komissiyasining texnikaviy yordamini muvofiqlashtirish byurosi).

Tashqi iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish sohasidagi faoliyatlari hukumatning Tashqi iqtisodiy aloqalar majmui tomonidan muvofiqlashtiriladi.

Mamlakat Prezidenti tashqi munosabatlar borasida shunday degandi "O'zbekistorming milliy manfaatlariga mos keladigan ko'p tomonlama faol tashqi siyosatni amalga oshirish - davlatimizning mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va g'oyat muhim vositasidir".

O'zbekiston iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish holatida, hamda kichik va xususiy biznes salohiyatining kundan-kunga oshib borayotganligini inobatga olib, tovar mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish, aholi bandligini ta'minlash va mulkdorlar sinfini shakllantirishni tezlashtirish uchun mahalliy hom-ashyo negizida buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish yirik va kichik korxonalar o'rtasidagi kooperatsiya aloqalarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy davlatlarning yirik va kichik korxonalar hamkorligini rivojlantirishga oid tajribalarini o'rganish bugungi kunda kichik biznesni ishlab chiqarish maydonlari bilan ta'minlash, mahsulotni sotish jarayoni va marketing xizmatini tashkil etishdagi muammolarni xalq etishda muhim ahamiyatga egadir.

Hozirgi kunda dunyoda 10 mingga yaqin moliya-sanoat va transmilliy korporatsiyalar mavjud bo'lib, ular tarmoq korxonalari bilan birga moliya, sug'urta va boshqa infratuzilma sub'ektlaridan iborat zamonaviy ishlab chiqarish sohalaridan tashkil topgan.

Ular dunyoning 150 ta mamlakatida 180 mingtaga yaqin filiallarga ega bo'lib, jahon sanoat ishlab chiqarishning va tashqi iqtisodiy operatsiyalarning yarmiga yaqinini hamda yangi zamonaviy

texnika, texnologiya va "nou-xau"larga patentlar va litsenziyalarning 80 foizga yaqinini tashkil etadi.

Boshqa tomondan esa, rivojlangan davlatlarda ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesning ulushi o'smoqda, Buning asosiy sababi kichik korxonalarning yirik korxonalarga nisbatan tez egiluvchanlik xususiyatlariga ega ekanligidir. Lekin, kichik firmalar yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishga ega bo'lmaydi, balki yirik korxonalarning korporativ xizmatiga kiradi va ularning faoliyati doirasida xizmat ko'rsatadi.

Eng muhimi, yirik va kichik korxonalar o'rtasidagi munosabatlar nafaqat bozor raqobatlariga asosida balki barqaror hamkorlikka asoslanadi. Bu esa, ularning o'zaro jipslashuvini yanada kuchaytiradi. Ya'ni, kichik biznes zamonaviy hamkorlik jarayoniga to'siq bo'lmay, balki "buyurtmaviy ishlab chiqarish" tizimini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyo tajribasida yirik va kichik biznes hamkorligida shartnomaviy tizim munosabatlari o'zining har tomonlama samaradorligini namoyish etmoqda. Buning yaqqol misoli bo'lib, universal ko'rinishdagi franchayzing hisoblanadi. Bunda ko'proq yirik biznesning qiziqishi yuqori bo'ladi, chunki franchayzing, birinchidan, mahsulotlarni sotish ustidan nazorat o'rnatib, ularni sotish bilan bog'liq bo'lgan harajatlarni qisqartirishga olib kelsa, ikkinchidan, raqobatchilarga qarshi kurashning samarali quroli hisoblanadi. Uchinchi esa, qo'shimcha harajatlarsiz mahsulot sifati va markasini nazorat qiladi. To'rtinchidan, kichik tadbirkorlarning iste'molchiga yaqinligi, turli toifa va masofadagi bozorlarga kirib borish hamda bozorda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni tez va o'z vaqtida ilg'ab olish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda - yirik biznes tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish doirasini kengaytirishga shart-sharoit yaratib beradi.

Lekin, shuni alohida ta'kidlash joizki, aksariyat kichik va xususiy korxonalar yirik biznesga qaram bo'ladi yoki ularning nazoratida bo'ladi. Birinchidan, kichik biznesning yirik biznes bilan hamkorligini amalga oshirishi, unga kuchli tayanch, himoyachisi mavjud bo'lishini ta'kidlasa, ikkinchidan, kichik biznes faoliyati uchun doimiy moliyaviy ko'mak bazasi, kafolatlangan daromad olish imkoniyati tug'iladi.

Yirik, samarali faoliyat yuritayotgan va nafaqat o'z mamlakatida, balki xalqaro miqyosda yuqori mavqega ega bo'lgan korporatsiyalarning faoliyati shundan dalolat bermoqdaki, ularning kichik biznes bilan hamkorligida har tomonlama mustahkam munosabatlar o'rnatilgan. Buning uchun esa, yirik biznes tomonidan markazlashtirilgan moliyaviy va tartibga solishning bozor tamoyillariga mos mexanizm ishlab chiqilgan. Masalan, Yaponiyada yirik va kichik biznes o'rtasidagi hamkorlik vertikal integratsiyaga asoslangan. Bunda barcha texnologik bosqichlar - xom-ashyoga dastlabki ishlov berishdan to tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan jarayon bitta monopolistik guruh doirasida mujassamlashgan. Ushbu jarayon shunday tashkil etilganki, korxonaga kiruvchi barcha sub'ektlar bir-birlari bilan ishlab chiqarish jarayonida o'zaro mustahkam aloqada bo'lib, mahsulot ishlab chiqarishning ma'lum bosqichida bevosita ishtirok etadi va uning uchun javobgardir. Bu esa, nafaqat ishtirokchilar faoliyatining davomiyligini ta'minlaydi, balki ularning bir-biriga bog'liqligini yanada kuchaytiradi.

O'zbekistonda yirik va kichik biznesning kooperatsiya aloqalari asosan, yirik korxonalarning hom-ashyo, material, butlovchi jihozlar va turli xizmatlarni amalga oshirishga qaratilgan, Lekin, O'zbekistonda ushbu usulga kichik biznes sub'ektlari kam jalb etilgan. Buning o'ziga xos ob'yektiv va sub'yektiv sabablari mavjud. Jumladan, yirik korxonalar texnologik xususiyatlari nuqtai-nazaridan kichik biznesni jalb qilish imkoniyatiga ega bo'lmasa, o'zlarining yuqori malakali xodimlarini ish bilan band qilish uchun kichik korxonalar boshqarishi lozim bo'lgan ishlarni ham ular zimmasiga yuklashga majbur bo'lmoqda.

Respublika savdo va sanoat palatasi tomonidan ushbu muammoning muhimligini hisobga olingan holda, hududiy palatalar yordamida lokalizatsiya dasturini amalga oshirishda kichik biznes sub'ektlarining imkoniyatlari o'rganib chiqildi. Monitoring natijasida, hozirgi kunda mamlakatimizda minglab raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lgan

kichik biznes korxonalari mavjudligi aniqlandi.

Kursning predmeti xalqaro menejment munosabatlari, tashqi faoliyatda moliyaviy va miqdoriy bilishlar asosidir.

Xalqaro menejment kursining vazifalari jahon iqtisodiyotining fiskal, valyuta, savdo kabi savollarni va turli tashqi munosabatlarni o'rganishdan iborat.

Respublikada tayyorlangan adabiyotlarda xalqaro iqtisodiyotda tegishlilari mavjud. Jumladan, «Xalqaro menejment» fanidan ma'ruzalar matni Nazarova G.G., Solihova N.M. tomonidan tayyorlangan, unda xalqaro tadbirkorlikni rivojlantirish, xalqaro biznesda kadrlar siyosati, etikasi va inson resurslarini boshqarish masalalari qarab chiqilgan.

Mualliflar Rashidov O.Yu., Karlibaev R.X.ning «Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish» ma'ruzalar matnida investitsiya, moliya va tavakkalchilik bozorini baholash, investitsion samaradorlik va moliyaviy rejalashtirish savollari bayon etilgan.

Qo'llanmada xalqaro menejment va tashqi iqtisodiy faoliyatni nazariy, amaliy va huquqiy jihatlarini tahlil qilingan. Quyidagi mavzular uning asosiy mazmuni hisoblanadi:

-xalqaro miqyosdagi iqtisodiyot xo'jalik tarkiblaridagi fiskal samaralari va ishlab chiqarish funksiyalari;

-xorijda Amerikani transmilliy korporatsiyasi (TMK); strategiyasi, yo'nalishi shakllari;

-subsidiarlik (mablag'' bilan yordamlashuv) yevroittifoqni tamoyili va mexanizmi ekanligi;

-lafferni fiskal nuqtalarini invariantligi va invariantligini buzilishi muammolari;

-hukumat darajasi orasida vakolatni chegaralash: jahon tajribasi;

-valyuta bozori va tashqi savdo miqdoriy dinamikasi;

-tashqi iqtisodiy faoliyat me'yoriy jihatlarini;

-tashqi ishlar tizimi xodimlarining diplomatik martabalarini;

-xorijiy investitsiya munosabatlarini huquqiy asoslari;

-xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarini huquqiy ekspertizadan, davlat ro'yxatidan o'tkazish va tugatish tavsiflangan hamda asosiy miqdoriy ko'rsatkichlari, importi va eksporti;

-xalqaro sub'ektlarning amaldagi faoliyati hikoya qilinib fuqarolarning chet eldagi kasb faoliyati hamda xorijiy ishchi kuchlarini mamlakatda faoliyat ko'rsatishga jalb qilish;

-xorijiy investorlar harid qiladigan aksiyalar paketlari va ob'yektlar uchun haq to'lash shakllari.

1.bob. Xalqaro menejmentni strategiyasi va tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari

Tayanch iboralar:

Xalqaro menejment; tashqi iqtisodiy faoliyat; fiskal samaralar; ishlab chiqarish funksiyalari; integrallashgan va integrallashmagan tizim.

1.1.Xalqaro menejment: strategiyasi, xo'jalik tarkiblaridagi fiskal samaralari va ishlab chiqarish funksiyalari

1.1.1.Xorijda Amerikani transmilliy korporatsiyasi (TMK); strategiyasi, yo'nalishi, shakllari

1.1.1.1.TMK strategiyasi va yo'nalishi shakllari

Zamonaviy sharoitda AQSH ni ishlab chiqaruv kapitalini, eksportini asosiy kanali bo'lib ularning transmilliy korporatsiyasi (TMK) bo'lib qoldi, qiyosan unga to'g'ri investitsiya shaklidagi kapital eksportini 90 foizdan ortig'i to'g'ri keladi. TMK dunyo iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ustunlik qiluvchi omili bozor ishlab chiqaruvchi va mehnatni halqaro bo'linishida bosh kuchga aylanib qoldi. TMK ni to'g'ri investitsiyasi hozirgi vaqtda ko'proq milliy iqtisodiyotlarini birlashtirishda va baynalminallik ishlab chiqaruv tizimini tuzishda – dunyo iqtisodiyotini globallashtiruvchi moddiy yadroga aylantirishda muhim rol o'ynamoqda.

Oxirgi o'n yillar davomida AQSH va boshqa rivojlangan mamlakatlar korporatsiyalari, TMK uchun yagona dunyo bozorini faqat qismi bo'lgan, ichki va tashqi bozorlar orasidagi tafovutni asta-sekin yo'q qila boshlab, to'g'ri investitsiyalarini xorijga chiqarish miqyoslarini uzluksiz ravishda ko'paytirishdi. Uni miqiyosini korporatsiyalar tomonidan bajarilgan operatsiyalarini ko'lamini aniqlandi. To'g'ri xorijiy, ayniqsa amerikaniki, investitsiyalarini eksport doirasida 90 yillar oxirida ular roli keskin o'sishdan darak beradi.

Uch yil (1998-2000) ichida AQSH to'g'ri investitsiyalar shaklidagi kapitalni 412, 8 mlrd. dollar miqdorida xorijga chiqarishdi. 2000 yilda yangi to'g'ri xorijiy investitsiyalar 142,6 mlrd. dollarga yetdi (Qiyoslab ko'rsak: o'rtacha yillik ko'rsatkich 1986-1991 yillarda-26 mart).

2001 yilda xorijga chiqarilgan kapital 27 foizdan ko'proqqa qisqarib 103,7 mlrd. dollarni tashkil etdi. Bu birinchi navbatda rivojlangan mamlakatlardagi iqtisodiy ahvolni yomonlashganidan, hamda AQSH korporatsiyalari tomonidan amalga oshirilgan, trans chegara qo'shilishi va o'ziga olish hajmlarini kamayishidan kelib chiqdi. 2002 yilda xorijga eksport qilingan to'g'ri investitsiyalar miqdori o'sdi va 119.7 mlrd. dollarga yetdi. Yaqin yillarda, ekspertlar fikricha, kapitalni chiqarish hajmi o'sib boradi, va amerika korporatsiyalari yirik xorijiy investorlar bo'yicha o'z o'rinlarini mustahkamlab olishadi.

Zimenkov R.I. iqtisod fanlari doktori, professor, Romanova E.M. kichik va o'rta ishbilarmonlik milliy fondi eksperti.

Bu doirada AQSH ochiqdan-ochiq peshqadamligini saqlab qolmoqda. 10 yil ichida (1993-2002) xorijda yig'ilgan to'g'ri investitsiyalar hajmi 2.7 marotabaga oshib yirik miqdorga – 1520,9 mlrd. dollarga yetdi yoki dunyoda yig'ilgan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni umumiy hajmida 22,2 foizni tashkil etadi. Qiyoslab ko'rsak, shu yilda Buyuk Britaniya ulushi 15 foiz, Fransiya-9,5 foiz, Olmoniya-8,4 foiz, Niderlandiya-5,2 foiz va Yaponiya-4,8 foiz. Shunday qilib, xorijda yig'ilgan kapital miqyosi bo'yicha hech bir davlat AQSHga teng kela olmaydi. To'g'ri xorijiy investitsiya asosida, savdoga qaraganda AQSH iqtisodiyotini boshqa mamlakatlar xo'jaliklari bilan juda qalin aloqalar asosida birlashtiruvchi umumiy (global) shakllanishi ro'y bermoqda.

1990 yillarda xalqaro investitsiyali faoliyatni liberallasuvi, yangi texnologiyalarni tarqalishi va raqobatni qattiq-qo'l bo'lishi amerikalik TMK chuqur integratsiya strategiyasiga o'tdi; globalli yoki regionalli yaxlit holga keltirilgan geografik ravishda tarqalgan bo'limlar va ishlab chiqarishni

bo'laklanish tizimlari ishlab chiqaruv va sotuv tarmog'iga aylanib qolishadi.

Alohida mamlakatlar u yoki bu xalqaro ishlab chiqarishni tuzish maqsadlariga qarab chuqur integratsiya strategiyasi turli shakllarini qabul qilishi mumkin. Ulardan biri xorijda bosh kompaniyasi tomonidan turli korporativ vazifalarini amalga oshirishdir – marketing, buxgalterlik operatsiyalari. Boshqa shakli bir butun qilib birlashtirilgan ishlab chiqarish tizimini tuzish bilan bog'liqdir.

Bunda ishlab chiqaruv jarayoni bosqichlari chiqarilayotgan mahsulotni o'rtacha narxiga asosan, hamda (bugungi logistikani yuragi) moddiy-texnik ta'minotdagi ustunliklarga qarab turli mamlakatlar orasida taqsimlanadi. Nihoyat chuqur integratsiya strategiyasi ishlab chiqaruvga xizmat ko'rsatuvchi vazifalar (funksiya)larni bir nechta tuzuvchilarga bo'lishi va harajatlarni kamaytirish maqsadida turli mamlakatlarda vazifalarni bajarilishi yoki sotilishi juda o'zgaruvchan tizimini qo'llashdan iborat bo'ladi.

Yaxlit holga keltirilgan ishlab chiqarish tizimini tuzish mexanizmi va yo'nalishi bir xil emas. Ular ishlab chiqarishni xorijga o'tkazish profili, uni joylashtirish mamlakati va TMKni o'zini faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Ba'zi bir korxonalar turli mamlakatlarda joylashtirilgan qator ixtisoslashtirilgan jarayonlarga osongina bo'linishi mumkin. Ayrim TMKlar, boshqalarga qaraganda, ishlab chiqaruv vazifalarni ko'p darajada xorijga o'tkazishga tayyordirlar. Ilmiy – tadqiqotli tajribaviy konstruktiv ishlar (ITTKI) bilan shug'ullanuvchi, boshqaruv va bo'linmalarni yuqori zvenolarini xorijga o'tkazish vazifalari juda murakkab va sustlik bilan, hal etiladi. Shuni qayd etish kerakki, ba'zi bir xorijiy mamlakatlar geografik joylashuvi, xorijiy investitsiyalarni yo'lga solish sohasidagi siyosati va tashqi iqtisodiy aloqalar boshqa shakllari, infratuzilmani rivojlanish darajasi tavakkalchilik darajasi va h.k.lar afzalligi tufayli, boshqalarga qaraganda, global ishlab chiqarish tizimiga osongina va tezroq integrallashgan bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, amerikalik TMK global ishlab chiqarish tizimini tuzishga nisbatan differentsiyalangan. Chuqur integratsiya strategiyasi bilan birga ular yuzani integratsiya an'anaviy strategiyasidan foydalanishlari mumkin. Ammo investitsiya, tashqi savdo va axborotli texnologiyalar sohasida, xalqaro siyosatni liberallashtirishiga qarab va albatta o'sib borayotgan raqobatlar ta'sirida, ishlab chiqarish samaradorligi, uni ustidan nazorat va joylashgan mamlakatlardagi TMKga to'g'ri munosabatda bo'lish kabi omillardan kelib chiqqan holda amerika TMKsi uchun har qanday ishlab chiqaruvni yoki uni qismini xorijga joylashtirish iqtisodiy tomondan foydali bo'lib qoladi. Shubhasiz, turli mamlakatlarda tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish jarayonini kuchayishi va raqobatni keskinlashuvi amerika TMKni xalqaro investitsiyaviy faoliyatida chuqur integratsiyali strategiya rolini yanada ko'proq ko'taradi.

AQSH TMK si o'zini xorijiy bo'limlarini ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqishga va o'zlashtirishga keng ko'lamda jalb etmoqdalar. Bunday yo'l ba'zi bir korporatsiyalar tomonidan 70-yillarda qabul qilingan edi. Hozirgi kunda u amerika TMKsini asosiy ommasi uchun tasniflashdir. Bir vaqtda korporatsiyalarni ilmiy-texnik muammolarni hamma majmuasini ishlab chiqishda mehnatni ichki firmaviy xalqaro bo'linishi ham jiddiy ravishda kengaydi.

ITTKIni amerika TMKsini xorijiy bo'limlarida tezda kengayishi quyidagi ma'lumotlarda bayon etiladi. Agarda 1975 yilda bu maqsadlar uchun harajatlari 1,3 mlrd. dollarini tashkil etgan bo'lsa, 1981 yilda 3,2 mlrd. dollarni, 1995 yilda esa ular 26 mlrd.dollargaetib 17 marotabadan ortiq o'sdi. 90 yillar oxirida AQSH TMK tomonidan ITTKI uchun ajratilgan har to'qqizinchi dollar ularni xorijiy bo'limlarini ilmiy markazlariga harajati qilindi. Xorijiy mamlakatlarni ilmiy xodimlari ishtirokida olingan ITTKI natijalari bosh kompaniyalarida faol foydalanilgan. San'atda ishlov beruvchi qator tarmoqlarda-farmatsevtika, kimyo, asbobsozlikda- xorijiy bo'limlarni ilmiy tajriba xonalari ahamiyati bosh kompaniyalariga qaraganda ko'proq bo'lgan.

1.1-jadval AQSH to'g'ri investitsiyasini geografik tarkibi.

E	1980 yil		1989 yil		2000 yil		2002 yil	
	Mrld doll	%	Mrld doll	%	Mrld doll	%	Mrld doll	%
Jami	215,6	100,0	373,4	100,0	1244,6	1000	1520,9	1000
Rivojlangan mamlakatlar shu jumladan	158,4	73,5	279,3	74,8	863,0	69,3	1049,7	68,9
G'arbiy Ovroqpa	96,3	44,8	176,7	47,3	637,7	51,2	895,4	58,9
Kanada	45,0	20,9	66,8	18,0	126,4	10,2	132,5	8,7
Yaponiya	6,2	4,0	19,3	5,2	55,6	4,5	57,1	3,7
Rivojlanayotgan mamlakatlar	53,3	24,7	90,6	24,3	367,5	29,5	456,4	30,0
Shu jumladan Lotin- Amerikasi	38,9	18,0	61,4	16,4	239,4	19,2	272,3	17,9
Osiyo	10,6	5,0	24,9	6,8	115,2	9,2	172,3	11,3
Afrika	3,8	1,7	4,3	1,1	12,9	1,0	11,7	0,8
O'suvchi iqtisodiyotli mamlakatlar					11,0	0,9	16,5	1,0
Bir nechta mamlakatlar loyihasidagi investitsiyalar	3,9	1,8	2,8	0,8	2,8	0,2	0,3	0,1

1.1.1.2.To'g'ri xorijiy investitsiya harakatida yangi yo'nalishlar

90-yillarni ikkinchi yarmida yangi yuz yillikni boshida AQSH TMKni geografik taqsimlanishi ham o'zgarishdan holi bo'lmadi (1.1-jadval). Birinchi navbatda bu amerika TMK si kapitalida an'anaviy doirasida tadbiriq etilgan, rivojlangan mamlakatlarga tegishli bo'ldi. 1983-yilda ularga 159,4 mlrd. dollar to'g'ri kelib AQSH hamma xorijiy investitsiyalari 76 foizdan ko'prog'ini tashkil etdi, 2002-yilda esa 1050 mlrd. dollar bo'ldi. Rivojlangan mamlakatlar ulushi 68,9 foizgacha kamaygan bo'lsa ham, ular oldingidan AQSH TMKsi tadbiriq qilinishini, oldingidek asosiy doirasi bo'lib qolmoqda.

Bugun amerika investitsiyalarini yirik mamlakatlari- retsipientlari Buyuk Britaniya (255,4 mlrd. dollar), Kanada (152,5 mlrd. doll.), Niderlandlar (145,5 mlrd.), Shvetsariya (70,1 mlrd.) va Yaponiya (65,7 mlrd. doll.) ES-15 mamlakatlariga 700 mlrd. doll. To'g'ri keladi yoki xorijdagi AQSH to'g'ri investitsiyalarini 46 foizini tashkil etadi.

OESR mamlakatlaridagi amerika kapitalini kontsentratsiyalanishi nafaqat tarixiy aloqalari bilan, qulay investitsiyaviy tartibi, katta hajmliligi va bozorni perspektiv o'sishi, aholi yuqori turmush darajasi, mehnat bozorini hususiyati bilan tushuntiriladi. Amerika investorlari uchun bu mamlakatlarda qator o'ziga hos afzalliklarni mavjudligi katta ahamiyatga ega, qisman rivojlangan infratuzilmasi, keng marketing tarmoqlari, hamda yuridik va jismoniy shaxslar kapitalini o'sishiga to'g'ri munosabatda bo'lishi, tadbirkorlik etikasi, faol innovatsiyaviy faoliyati kabi omillar ham. Hamma bu omillar va sharoitlar yig'indisi rivojlangan mamlakatlardagi faoliyatiga amerika investitsiyalarini qiziqishini tushuntiradi.

Rivojlangan mamlakatlarga BMT ma'lumotlari bo'yicha taxminan 130 ni tashkil etadi, 2002 yilda 456,4 mlrd. doll. to'g'ri keldi yoki 1987 yildagi 23 foizga qaraganda AQSH TMKsini 30 foizini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich bo'yicha AQSH kapitalini yyetakchi ekporterlari orasida

oldindadir, yig'ilgan xorijiy investitsiyalarini umumiy hajmidan rivojlanayotgan mamlakatlarga 20-23 foizi to'g'ri keladi.

80-yillar davomida, 90 yillarni birinchi yarmida AQSH to'g'ri investitsiyalarini hajmi bu mamlakatlar guruhida deyarli bir darajada saqlanib qoldi. Ammo 90-yillarni yarmida bu mamlakatlarga bo'lgan qiziqish kuchaydi, amerika investitsiyalarini oqib kelishini kuchaytirib 1982 yildagi 5,5 mlrd. dollarga nisbatan 2002 yilda 30.6 mlrd. dollar bo'ldi. Tegishli ravishda AQSHni horijdagi yig'ilgan investitsiyalarini umumiy hajmidagi rivojlanayotgan mamlakatlar ulushi ko'paydi.

AQSH kapitalini tadbqiq qilishni yangi doirasi bu iqtisodiyotli o'suvchi mamlakatlardir.

Unga amerika investitsiyalari asosan 90-yillarni o'rtalarida borishdi. Amerika statistlari ma'lumotlari bo'yicha yig'ilgan to'g'ri investitsiyalarni umumiy hajmi 2002-yilda 16.6 mlrd. dollarni tashkil etdi, yoki AQSHni hamma horijiy investitsiyalarini 1,1 foizidir. Bunda ularni deyarli qismi katta bo'lmagan davlatlar guruhiga qaratilgan, ya'ni Rossiya, Pol'sha, Vengriya va Qozog'istonda.

Amerika kapitalini bu regiondagi sust faolliqi, qisman, ko'p mamlakatlardagi qulay investitsiyaviy sharoitni yo'qligi, iqtisodiy ahvolni barqaror bo'lmasligi, ishlab chiqarish ma'muriyatini eskirishi, investorlar manfaati himoyasini ta'minlovchi mustahkam qonunshunoslik negizini yo'qligi bilan tushuntiriladi. Shu bilan bir vaqtda, qulay investitsiyaviy sharoiti bo'lgan mamlakatlar, g'arbiy ovropa TMKni tarixiy manfaatlar doirasi bo'lgan, hozirgi vaqtda ham ular Vengriya, Pol'sha, Chexiya, Slovakiya kabi mamlakatlarda asosiy investorlar bo'lib hisoblanadi.

Bu doiraga Amerika jamg'armasini ko'proq qismi (65,8 foiz) rivojlangan mamlakatlarga to'g'ri keladi. Yirik oluvchilar (mlrd. doll). Buyuk Britaniya (165,4), Niderlandlar (86,5), Shvetsariya (65,9), Kanada (60,6) va Olmoniya (36,8).

1.2-jadval.AQSH to'g'ri xorijiy investitsiyalarini tarmoqli tarkibi

Ko'rsatkichlar	1970 yil		1979 yil		1990 yil		2002 yil	
	Mrld doll	%	Mrld doll	%	Mrld doll	%	Mrld doll	%
Hamma tarmoqlar	75.	100	187.8	100	421.5	100	1520,9	100
Qazib oluvchilar	27.9	35.7	48.8	23.3	64.9	15.3	80.9	5.3
Shu bilan birga neftni	21.8	27.9	41,6	21.5	56.9	13.4	57.1	3.8
Qayta ishlovchilar	32.2	41.2	83.6	43.4	164.5	38.9	392.6	25.8
Xizmatchilar	17.9	22.9	60.4	31.4	190.1	44,8	1022,4	67.2
Shu bilan birga moliyaviy va sug'urta			27.5	14.3	112,4	26.5	297.4	19.6

1.1.1.3.Yangi tashkiliy shakllar

Oxirgi o'n yillar davomida kapitalni yirik eksporteri bo'lib AQSHni sanoat korporatsiyalari hisoblandi. 500 TMKga to'g'ri xorijiy investitsiyalarni chetga chiqarilishini asosiy qismi to'g'ri keladi. 90-yillar oxirida, huddi shunday, holding kompaniyalari kapitalni yirik eksporteri bo'lib qoldi, qoidaga asosan, o'zlari ishlab chiqaruv faoliyati bilan shug'ullanmay o'z nomlaridan, ishtirokchi tizimi orqali xalqaro investitsion bitimni amalga oshirishadi. AQSH savdo vazirligi ma'lumoti bo'yicha 2002 yilda holding kompaniyasi tomonidan 13 ta xorijiy davlatlarni har biriga qo'yilgan kapital hajmi 3 mlrd. dollardan oshib ketgan. Bu kompaniyalarni yig'ilgan to'g'ri investitsiyalari AQSH korporatsiyalari tomonidan olib chiqilgan kapitalni umumiy hajmini 28

foizini tashkil etdi, shu qatori Ovroq mamlakatlarida – 34 foiz, Lotin Amerikasida-32 va Osiyo mamlakatlarida 19 foiz. Shunday qilib, maydonga (mulkdorchilik shakli bo'yicha) kapitalni olib chiqishini yangi yirik sub'ektlari chiqdi. Xorijda Amerika korporatsiyalari tomonidan qo'llaniladigan shakl va usullar xazinasi (arsenali) juda ham turli. Ular faoliyatini an'anaviy shakli bosh kompaniyalari tomonidan nazorat qiluvchi bo'limlarni tuzishdir. XX asrni oxirgi 20 yili xorijiy bo'limlarini soni 2.4 marotabaga ko'paydi va 23 mingdan oshib ketdi.

70 yillarda amerika korporatsiyalari xorijda, mahalliy kapital ishtirokida qo'shma korxonalar tuza boshlashdi. Bular asosan uchinchi dunyo mamlakatlarida amalga oshirildi. Bunday qilishga, o'sha vaqtda ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha tarqalgan milliy lashtirish to'liqlari majbur qildi. Ammo, bu mamlakatlarni TMKga nisbatan bo'lgan munosabatlari chamali bo'lganda, korporatsiyalar xorijiy faoliyatni bu tashkiliy shakli sezilarli darajada qisqartirildi. U iqtisodiyotli o'tish mamlakatlarda ham keng tarqalmadi.

2000-yilda butun dunyo banki va Bruning instituti iqtisodchilari tomonidan tayyorlangan, iqtisodiy tahlilni Milliy byurosi ma'ruzasida bu tendensiya tasdiqlanadi.

Ma'ruza mualliflari bu sababni AQSHda amalda bo'lgan xorijiy korrupsiya amaliyoti haqidagi qonunda ko'rishmoqda. Bu qonunga asosan amerika investorlari, agarda ularni xorijiy sheriklari poraxo'rlikda qo'lga tushirishsa, yuridik javobgarlikka tortilishadi.

Xorijiy bo'limlarni tuzish bilan birga amerika korporatsiyalari xalqaro hamkorlikni nohissadorlik shakllarini qo'llamoqdalar. Bu litsenziyali bilim, TMKga xorijiy kompaniyalar ishida ishtirok etishga va patent hamda litsenziyalardan foydalanganlik uchun foyda olish imkoniyatini beradi; boshqaruv haqidagi bitim, bunga asosan TMK to'lov va kapitaldagi ulushi o'rniga xorijiy kompaniyalarni boshqaruvi va texnik xizmat ko'rsatishini tashkil etadi; xalqaro subkontraktatsiya, bunda TMK muhim ishlarni bajarishga yoki alohida mulklarni olib kelishga xorijiy kompaniyalar bilan sub shartnoma tuzishadi; Franchayzing turidagi kelishuv, trast shartnomalari va h.k. Bu vaqtda xorijiy faoliyatni turli shakllari TMKni aniq strategiyasiga bog'liq bo'lgan holda bir-birini almashtiradi yoki to'ldiradi.

Oxirgi yillarda hamkorlikni yangi shakllari paydo bo'lmoqda, masalan, Internetga asoslangan oneline rejimidagi mollarni sotib olish va xizmat ko'rsatish tizimi bo'lib undan ko'p TMKlar foydalanishadi, shu bilan birga raqobat qiluvchi General Motors, Ford Motor be Daiteer Chryceer.

Shunga o'xshash kapitalni tashkil qilishni nohissadorlik shakli, iqtisodiy jarayonlarni hamma ishtirokchilari faoliyatini chambarchas bog'lanib ketishga imkon beradi. Bunda AQSHni xorijiy ishlab chiqarishni miqyosi yanada ko'proq kengayadi.

Takidlash kerakki, Amerika TMKlari tomonidan ishlab chiqarishni global rivojlantirilishi xorijiy korporativ bo'limlarini tuzish uslubidagi sezilarli o'zgarishlar bilan izohlanadi. Agar 80 yillarda yangi xorijiy bo'limlar tuzilishi afzal bo'lsa, 90-yillarni ikkinchi yarmida xorijiy kompaniyalarini xalqaro qo'shib ketish va singishi roli kuchayadi. Boshqacha qilib aytganda amerika korporatsiyalarini o'ta kontsentratsiyalash jarayoni faollashdi. 1996 yilda paydo bo'lgan 06 AQSH xorijiy bo'limidan 191tasi qo'shilish va sinish usuli bilan, asosan g'arbiy ovropa kompaniyalaridan tuzildi.

Bu sohadagi haqiqiy shov-shuv amerika TMK tomonidan trans chegaralarni qo'shilishi va singishini narxli hajmi 168 mlrd. dollarga o'sdi. 2001-2002 yillarda trans chegara qo'shilishi va singishi hajmi sezilarli ravishda qisqardi. 2001 yild masalan , u 115 mlrd. dollarni tashkil etdi. Shunga qaramay xalqaro qo'shilish va singish, har holda, yaqin yillargacha AQSHni to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini o'sishini asosiy omili bo'lib qoladi.

Hozirgi qo'shilish va singish to'liqlarida, ayniqsa iqtisodiy faoliyatni alohida uchastkalarida jahon iqtisodiyotini taraqqiy globallasuvi va texnik taraqqiyotini jadallasuvi, katta rol o'ynaydi.

Globallashtiruv bank doirasidagi yirik qo'shilishni ham huddi shunday tushuntiradi. Bu tendentsiya keyinroq ham amalda bo'lib, yaqin yillarda qo'shilish va singish to'liqlarini bir pasda

so'nmaydi.

Ba'zan amerika TMKsi xorijiy mamlakatlar kompaniyasi bilan strategik ittifoq tuzilishiga murojaat etmoqdalar. Bunday shakllanish doirasida TMK eng turli vazifalarni yechishga intilmoqdalar. Shunday, Amerikani American Telephone and Teledraph (ATT) va inglizni British Telecom birlashishdi va telefon aloqasi korxonasini tuzishda. Yangi birlashma harakat qiluvchi hudud Shimoliy va Janubiy Amerika katta qismini, Ovropa, Osiyo va Okeaniya (200 ga yaqin mamlakat va hududlar)ni qamrab oladi. Fikrlar bo'yicha, birlashmani yillik aylanmasi 10mlrd. dollarni tashkil etadi. Har yillik foyda esa 1 mlrd. dollardan oshadi.

Ko'pincha TMK orasidagi strategik ittifoq ko'p muddatli bo'lib, hamma ishlab chiqaruv davrini turli bosqichlarini qamrab oladi – ilmiy ishlanmadan qo'shma ishlab chiqaruv va sotuvigacha. Bunda Amerika kompaniyalarini sanoatdagi qo'shilishidan bo'lgan asosiy foydalari mahsulotlarni yangi turlarini yaratishda qimmat narxli ishlardagi iqtisodiy, hamda yangi texnologiyadagi kapital jamg'armalari bilan bog'liqdir. Qo'shimcha iqtisodiy, boshqaruv apparatini saqlab turishdagi ma'muriy harajatlarni qisqarishidan olinadi. Ishlab chiqaruv miqyosidagi iqtisodiy, u muhim bo'lsa ham kamroq ahamiyatga ega.

Shunday qilib, milliy va jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlar, ularni xorijiy faoliyatini bir vaqtdagi faollantirilishi natijasida amerika TMKsi taktikasi va strategiyasiga tuzatishlar kiritadi. Investitsion jarayonlar miqyosini kengaytirilishi, xorijiy kapital jamg'armalarni tarmoqli va geografik diversifikatsiyalashtiriluvchi, investitsiyaviy faoliyati mexanizmini o'zgaruvchi holatlarga moslashuvi, yangi tashkiliy usullari va vositalaridan foydalanish amerika kompaniyalarini global xo'jalik yurituvchi sub'ektlariga aylantiradi.

1.1.2.Vertikal integrallashgan xo'jalik tarkiblaridagi fiskal samaralari

1.1.2.1.Vertikal integrallashgan xo'jalik tarkiblaridagi fiskal holat

Murakkab korporativ tarkibini tadqiqotiga bo'lgan qiziqish uzluksiz ravishda o'sib bormoqda. Bizni nazarimizda bu ikki asos bilan bog'liq. Birinchidan jahon iqtisodiyotini globallashtirish va trans milliy korporatsiyalar ta'sirini o'sishi, ishlab chiqarish va kapitallik birlashuvi integratsiyasini ulkan iqtisodiy ustunligini aniqlashdi. Bir necha texnologik jihatidan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarishni birlashuvi, alohida zvenolar tizimini miqyos samarasi va muvofiqlashuvini ta'siri tufayli, ularni iqtisodiy samaradorligini oshishiga olib keladi. Ikkinchidan, iqtisodiy o'sish mamlakatlarda, ular uchun tasnif bo'lgan ko'proq nostandartli mayl va samaralari xo'jalik integratsiyasi jarayoni ayniqsa sezilarli rol o'ynay boshladi.

Xulosa qilib quyidagilarni takidlash mumkin. Hozirgi vaqtda, vertikal integrallashgan tarkibi doirasidagi kuzatuv, turli nozik samaralarni tadqiqot qilish uchun instrumental negiz tashkil qilindi. Ammo, ishlab chiqaruv integratsiyasini muvofiqligi haqidagi qarorlarni o'z ichiga olgan fiskal samaralar hali ko'rib chiqilmagan. Texnologik ravishda bog'liq bo'lgan ishlab chiqaruvini bir xo'jalik majmuasiga qo'shilishi, soliqdan sezilarli ravishda iqtisod qilish mumkin. Boshqa tomondan, (integrallangan) birlashtirilgan tarkiblarni soliq mexanizmi bo'yicha ishlarni mavjudligi, qoida bo'yicha, umumiy andozalarni yasash va ular asosida hisob qilishlar bilan isbotlangan.

Shunday qilib quyidagi savollar ochiq holicha qolmoqda; vertikal birlashtirilgan tarkiblardagi fiskal samaralar asosida yozuvchi qonunlar soni qanday Texnologik integratsiyada korxonalarni iqtisodiy yutug'ini imkoniyatini miqyosi qanday.

Qo'yilgan savollarga javob berishga harakat qilamiz.

Muammoni qo'yilishi. Keyinchalik tahlilni aniqlash uchun quyidagi vaziyatlarni ko'rib chiqamiz. Qandaydir boshlang'ich mahsulot (resurs) soni ishlab chiqish bo'yicha, bir yagona texnologik zanjirga bog'langan korxonalar mavjud. O'z faoliyatida har bir korxona resurs sifatida juda past texnologik darajali (Milliy hisob-kitobda bunday harakatlar «Oraliq iste'moli» deb yuritiladi) korxona mahsulotidan foydalanadi. Bundan tashqari, har bir xo'jalik tarkibi mehnat haqiga W, miqdorda harajat qiladi. Asosiy kapital omili, binobarin, amortizatsiyaviy mablag''

berilgan chizmada biz tomondan ataylab hisobga olinmadi, bu vaqtda analitik chizma juda ixcham va ochiq bo'lib qoladi. Hohish bo'yicha asosiy fondlar muhokamaga amaliy jihatdan boshlang'ich andozani boshqa ko'rinishisiz ham olib chiqish mumkin.

Bizni analitik chizmamizni muhim elementi bo'lib fiskal omili bo'lib hisoblanadi. U 4 xil soliq turida ko'rsatilgan; A-foydaga soliq; B-aylanmadan soliq; V-qo'shimcha narxga soliq; M-ish haqi fondiga soliq (korxona hodimlari ish haqiga yozilgan ijtimoiy summa).

Bir ko'rinishda, bunday chizmada fiskal iqlimi juda ham to'liq e'tiborga olinmagani ko'zga ko'rinishi mumkin. Ammo bu unday emas. Gap shundaki, biz tomondan ko'rib chiqilayotgan soliqlar nafaqat hal qiluvchi bo'libgina qolmay, balki funktsional rejada hammabop (universal)dir. Boshqacha so'z bilan aytganda, ko'p boshqa soliqlar, yoki biz tomondan ko'rib chiqilayotgan soliqlarga qo'shib qo'yiladi, yoki o'zini harakati bilan ularga o'xshash bo'ladi. Naqd pul hisoblarini amalga oshirishda, aylanma solig'iga ekvivalent bo'lgan sotuvdan soliq ishga tushadi, va binobarin, uni rasmiyligi aylanma soliq rasmiyatiga o'xshashdir. Aylanmadan soliq shaklini aktsizlar ham egallaydi.

Ko'p soliqlar qo'shimcha narx hajmiga bog'liq bo'lgan holda qo'shib yoziladi, va binobarin, rasmiyatli nuqtai nazaridan bu soliqni boshlang'ich oyligi (stavka) ni ko'tarishadi holos. Masalan shunday, avtomobil yo'llaridan foydalanuvchilarga soliq. Resurslarga bo'lgan soliqlarni ko'p soni mavjud, masalan, korxona mulkiga, tabiiy resurslarga va h.k. Ammo ularni harakati, ish haqiga yozilgan summa harakatiga o'xshashdir. Qolgan soliqlar, qoidaga asosan. Ko'rsatilgan to'rtta negizli soliqlarni kombinatsiyasidir. Shunday qilib, bizni andozamizga kiritilgan soliq stavkalari, fikrimizga, mazmunli tahlil uchun yyetarli darajada. Keyingi tahlilni qulayligi uchun quyidagi faraz (gipoteza) ni qabul qilamiz; Dastlabki mahsulot Sj-i ni tayyorlashda (ishlov berishda) j-li texnologik darajada uni 1-b marotaba qimmatlashuvi paydo bo'ladi. Shunday qilib, biz tomondan uni (mahsulotni) tayyorlashda har bir texnologik o'ramida resurs narxini o'sishini teng sur'atli qoida qabul qilindi. Bunday yondashish avtomatik holda quyidagi nisbatni yozish mumkin.

$$S_j = (1Q_b)S_o \quad (1.1)$$

O'zini oddiyligiga qaramay bu formula ma'lum izohga muhtojdir. Gap shundaki, qancha ishlayotgan mahsulot (resurs)ni jismoniy hajmi va ishlov berish jarayonidagi samaradorlikni e'tiborga olmaymiz. Bunday yondashuvni qonuniyligi shu bilan bog'liqki, bizni chizmamizda dastlabki resurs soni qandaydir miqdori (portsiyasi) qayta ishlanadi. Bu vaqtda taxmin qilamizki, keyingi texnologik darajani hamma moddiy harajatlari butunlay va to'liq holda oldingi darajadagi tayyor mahsulot hisobiga qoplanadi va oramizdagi mahsulot ko'rilayotgan texnologik zanjir chegarasidan chiqib ketmaydi. Shunday qilib, bir texnologik darajadan boshqasiga o'sayotganligi sotuv narxini o'sish, faqat taalluqli narxi qo'shimcha bilan bog'langan.

Taxminimizni keyingi maqsadi ikki xo'jalik tizimini ishlash (rejim)i tarkibini tadqiqot qilishdir; birlashgan (integrallashgan) va birlashmagan (dezintegrallashgan). Birinchi hodisada hamma korxonalar yagona texnologik majmuaga birlashtirilgan, bunda har bir, korxona dastlabki resursni ishlash bo'yicha qandaydir bosqichda mustaqil sex sifatida chiqadi; Sotuvga faqat qayta ishlashni oxirgi texnologik darajasidagi tayyor mahsulot ketadi. Ikkinchi hodisada, oldi-sotdi operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan, iqtisodiy mustaqil korxona N sifatida qatnashadi; texnologik darajasi juda past bo'lgan korxonani tayyor mahsuloti, texnologik darajasi juda yuqori bo'lgan korxona uchun resurs (yarim tayyor) sifatida chiqadi taxminimizni bevosita vazifasi bo'lib berilgan ikki xo'jalik tizimini moliyaviy va fiskal samaradorligidir.

(Birlashgan) (Birlashmagan)

1.1.2.2.Integrallashgan va integrallashmagan tizimlardagi foyda

Boshida birlashmagan korxonalar faoliyatini ko'rib chiqamiz. Har bir alohida korxonani j-li texnologik darajasidagi foyda Pj quyidagicha aniqlanadi;

$$P_{jq} = (1-x) (S_j - W_j - S_j - D_j) \quad (1.2)$$

Bunda Dj- foydaga soliqdan tashqari, soliq chegirmalari.

$$D_j = BC_j - MW_j - v(C_j - C_j - 1) \quad (1.3)$$

Bunda foyda (1.2) quyidagicha yozilishi mumkin;

$$P_j = (1-x) \times \{ (1-B-v) C_j - (1-M) W_j - (1-v) C_j - 1 \} \quad (1.4)$$

Tahlilni soddalashirish uchun yana bir faraz (gipoteza) kiritamiz. Ya'ni sotilgan mahsulotdagi mehnatga haq to'lashni harajat ulushi hamma korxonalarda bir xil; $W_j | C_j - W$. Bunda, Narx qo'shimchasi S ni hisobga olgan holda, ishlab chiqaruvchiga toza foyda $Z_1 - P_j | C_j$ sifatida tekkan, umumiy tushum ulushi deb tushiniladigan, korxona rentabelligi Z_j quyidagicha aniqlanadi;

$$Z_j = (1-v) \{ 1 - B - V - W(1-M) - (1-V) | (1-S) \} \quad (1.5)$$

(1.5) formuladan ko'rinib turibdiki, ko'rilayotgan texnologik zanjirli hamma korxonalar rentabelligi bir xil;

Bu dalil (fakt) keyingi tahlilni ma'lum darajada soddalashtiradi.

Toza foyda Pdez-ni qanday miqdori dezintegrallashgan (birlashmagan) texnologik zanjirda to'planib qolishini aniqlaymiz buni ma'lum bo'lgan dalil bilan osonlikcha bajarish mumkin;

$$P_{dez-j} = 1N P_j \quad (1.6)$$

Bunda taalluqli amallarni bajargan holda quyidagi funktsional bog'lanishni olamiz.

$$P_{dez} = So(K!b)(1-2) \times \{ (1-B-v-W(1-M)(1-S) - (1-V) \} \quad (1.7)$$

bunda $K = (1-S)N - 1$.

Endi foydani Pinchi qanday miqdori integrallashgan (birlashgan) texnologik zanjirda to'planishini ko'rib chiqamiz.

Foyda kalkulyatsiyasini chizmasi bunda, oldingi hodisaga qaraganda birmuncha boshqacharoq; xo'jalik majmuasini umumiy tushumi birlashmagan chizmadagi N korxonani tushimi bilan mos keladi, moddiy harajatlari esa 1nchi korxonadagi moddiy harajatlarga teng. Bunda dastlabki formula quyidagicha ko'rinishda bo'ladi;

$$P_{int} = (1-v) \times \{ (1-B-V)CN - (1-v)Co - (1-M)Nj - 1 W_1 \} \quad (1.8)$$

Taalluqli amallardan so'ng (1.8) formula quyidagi funktsional bog'lanishga keladi;

$$P_{int} = So(1-v) \{ (1-B-V)(1-S)N - W|K|S(1-M)(1-S) - (1-V) \} \quad (1.9)$$

Shunday qilib, biz tomondan birlashgan va birlashmagan texnologik foyda uchun ifoda olindi. Ko'tgan natijamiz bu ifodaga to'g'ri kelmaydi.

Keyingi savol mantiqqa to'g'ri keladi; Biz tomondan ko'rib chiqilayotgan ikki tizimdan qaysi biri katta miqdorda foyda beradi? Boshqa savolni bir muncha boshqacharoq ifodalash mumkin; Foydada yutuq nimadan (ya'ni, qanday parametr)larga bog'liq?

1.1.2.3. Birlashgan tizimlarda soliqlardagi absolyut iqtisod

Qo'yilgan savolga javob berish uchun ikki tizim P ni foydalarni hajmdagi uzilish qiymatini ko'rib chiqamiz.

$$P = P_{int} - P_{dez} \quad (1.10)$$

Taalluqli amallarni bajargandan so'ng quyidagi formula paydo bo'ladi.

$$P = V(1-x)N - 1j - 1 C_j \quad (1.11)$$

Formulani quyidagi aniqlilik shaklida yozish mumkin.

$$P = So(V|S)(1-V)(1-S) \{ (1-S)N - 2 - 1 \} : \quad (1.12)$$

Endi xo'jalik yuritishni birlashgan va birlashmagan chizmasi uchun fiskal yig'implarni ko'rib chiqamiz. Bunda soliq kirimi Tdz uchun birlashmagan sxemani sotishdagi ifoda quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

$$T_{dez} = (V - MW)Nj - 1 (C_j - C_j - 1) - V(1-V) P_{dez} \quad (1.13)$$

Xo'jalik yuritishdagi birlashgan chizmani Tint sotishdagi soliqlar kirimi uchun ifoda birmuncha boshqacharoq ko'rinishda bo'ladi;

$$T_{int} = VSN - MW Nj - 1 C_1 - V(CN - Co) - V(1-V)P_{int}. \quad (1.14)$$

Endi birlashgan va birlashmagan tizimlardagi olinadigan soliqlar T miqdoridagini ko'rib chiqish

uchun uzilish kattaligini kiritamiz; $T = T_{int} - T_{dez}$.

Olingan nisbat ishlab chiqarishni birlashgan va birlashmagan, chizmalari asosida tashkil qilingan, xo'jalik tizimlaridagi yo'nalish va fiksalar samaralar kuchini bilishga yo'naltirilgan, qiziq hisoblash tajribalar o'tkazishga imkon beradi. Ammo, chiqarilgan formulalarni yuzaki, ko'z bilan tahlili ham qator qiziq dastlabki xulosalar chiqarishga imkon beradi. Ularni ba'zi birlarini ko'rib chiqamiz.

Birinchidan, birlashgan tarkibdagi foyda birlashmagan ishlab chiqarish ob'yektlaridagi birgalikdagi foydaga qaraganda doimo ko'proq. Bu bevosita (1.11) formulani o'ng qismini ijobiylikidan kelib chiqadi. Binobarin, texnologik ravishda bog'langan korxonalarni yagona ishlab chiqarish majmuasiga birlashtirish, iqtisodiy nuqtai nazardan oqlangan.

Ikkinchidan, ishlab chiqarish integratsiyasida foydadan yutuq to'la ravishda soliqlardagi iqtisod tufayli kelib chiqadi. Bu dalil (fakt) soliqlardagi foydalar va iqtisod qilishdagi yutuqni tengligidan uzluksiz ravishda kelib chiqadi va katta siyosiy iqtisodiy ahamiyatga ega, gap shundaki, ko'rilyotgan hodisada kapitallarni qo'shilishi iqtisodiy samaradorlikka olib keladi.

Binobarin, yirik biznes o'rta va kichik biznesga qaraganda katta bozor afzalliklariga ega, biroq yirik ishlab chiqarishni raqobatli afzalligi davlat hisobi orqali to'la erishiladi, bu vaqtda o'z byudjetiga taalluqli soliqlar yig'indisini tushira olmaydi. Shunday qilib vertikal birlashgan xo'jalik tarkibini moliyaviy samaradorligini oshirish davlat soliq tizimini fiskal samaradorligini avtomat holda tushib ketishini bildiradi. Bu dalil o'z o'zidan o'xshash texnologik integratsiyada shaxsiy sho'ba foydasi va davlat talofatini qiyos qilish muammosini qo'yadi.

Uchinchidan, integratsiyaviy samarani (1.10) absolyut miqdoriga ta'sir etuvchi fiskal asboblarda orasida faqat aylanmadan soliq va foydadan soliq qatnashadi; Qolgan soliqlar texnologik integratsiya jarayoniga nisbatan neytral bo'lib qolishadi. Bu xulosa (1.11) va (1.12) formulalardan kelib chiqadi va qiziqarli bo'lib ko'rinadi, foydani hisoblashda o'zaro o'ralashib, hamma fiskal asboblarda unda yoki bunda korxona ishini moliyaviy samaradorligini yakuniy natijasiga ta'sir etishi kerak.

To'rtinchidan, aylanmadan soliq va foydaga bo'lgan soliqlarni integratsiyaviy samara o'lchamiga bo'lgan ta'sir turli yo'nalishda bo'ladi; Bu xulosa (1.11) va (1.12) formulalardan kelib chiqadi. Aylanmadan soliq qancha ko'p bo'lsa, ishlab chiqarish integratsiyasini amalga oshirishda foydada yutuq shuncha ko'proq bo'ladi va teskarisi, foydada soliq qancha ko'p bo'lsa, korxonani moliyaviy yutug'i shuncha kam bo'ladi. Birinchi qarashda bunday qonuniyat kutilmagan hol bo'lib ko'rinadi (har holda foydadan soliq uchun).

Ammo, integratsiyaviy jarayonni juda diqqat bilan ko'rib chiqilishi olingan nisbatni tabiiyligini ko'rsatadi. Aylanmadan soliq har bir texnologik bosqichni tushumini kesadi va binobarin, ishlab chiqarish narxi qo'shilishida bu soliqda aniq iqtisod paydo bo'ladi. Foydaga bo'lgan soliq uchun mutlaqo boshqacha vaziyat tasniflidir. Gap shundaki, hamma qolgan fiskal ushlab qolishlar amalga oshirib bo'linganidan so'ng chiqarib tashlanadi. Bu paydo qiluvchi integratsiyaviy samara shu soliq harakatidan shunday bog'liqlik, huddi balansli foydani qolgan qismidan, binobarin, foydaga bo'lgan soliq qancha yuqori bo'lsa, shuncha integratsiyaviy samarani ham u shuncha ko'p kamaytiradi va integratsiyaga bo'lgan rag'batlar shuncha kam bo'ladi.

Beshinchidan, aylanmadan soliqni va uni xilma-xilligini qatnashmasligida integratsiyaviy samara ham yo'qoladi (1.11) formula. Bu vertikal integratsiyani amalga oshirishda soliqlardagi iqtisod samarasi hech hammabop bo'lmay, aylanmadan soliqqa o'xshash shunday o'ziga xos soliqqa juda qattiq bog'langan. Shu orada shunday doiralar ma'lumki, ular aylanmadan soliqni harakat chegarasidan chiqib ketadilar, va binobarin kapitalni qo'shilishi u yerda hech narsa bermaydi.

Oltinchidan, integratsiyaviy samara faqat uch yoki undan ortiq korxonalarni birlashuvida paydo bo'ladi. Bu qonuniyat (1.12) formuladan kelib chiqadi va noaniq bo'lib ko'rinadi. Haqiqatdan, katta ikki xo'jalik tarkiblarini qo'shilishi soliqlarda iqtisod samarasini beradi deb tuyo'ladi. Ammo, amallar bunday emasligini ko'rsatadi. Bunda so'z birlashtirish iqtisodiy

mazmunga ega bo'lganda, qandaydir-miltimal texnologik zanjirni ko'rish haqida kechadi.

1.1.2.4.Integrallangan (birlashgan) tizimlardagi soliqlarda nisbiy iqtisod

Biz tomondan olingan xulosani texnologik majmualarni integratsiyalashda soliqlardagi nisbiy iqtisodni tadqiqotiga moslab tafsiyasiz tekshirish mumkin. Haqiqatda, narxli ifodadagi foyda va soliqlar hajmi umumiy holda qiziqarli emas. Shunisini bilish muhimki, texnologik zanjirni dastlabki foydasi uni yagona xo'jalik tarkibiga integratsiyalashda katta foizga ko'payadi. Buning uchun birlashmagan (dezintegrallashgan) tizimdan integrallashganiga o'sishda quyidagi foydadagi nisbiy yutuq miqdorini $V_k = K|K_{dez}$ ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir $V_k = K_{int}|K_{dez} - 1$.

Shu tarzda korxonalarni yagona xo'jalik organizmga integratsiyalashda $VT = T|T_{dez}$, ekvivalentli ifoda $VT = 1 - T_{int}|T_{dez}$ dagi davlat solig'idagi tafovutni nisbiy ko'rsatkichini ko'rib chiqish mumkin.

Kiritilgan ko'rsatkichni parallel ko'rib chiqishni ishlab chiqarish fiskal antogonizmini kuchliligini o'rganish zaruriyati bilan bog'liqdir. Agar integratsiyalashda texnologik tizim foydasi yyetarli darajada kuchli ravishda ko'paysa (masalan 40 foizga), fiskal yig'imlari miqdori jiddiy bo'lmagan holda tushib ketadi, (masalan 8 foizga), bunda shuni aytish mumkinki, kapitalni o'xshash qo'shilishi to'liq oqlangan. U davlat byudjeti to'tgan yo'lga, bilinmagan holda, zarar yyetkazib, xo'jalik tarkiblarini investitsiyaviy va iqtisodiy faoliyatini o'sishga yordam beradi. Aks holda, shu ko'rsatkichlarni sonli baholanishi vaqti-vaqti bilan o'zgarganida dadil gapirish mumkinki, ishlab chiqarish ob'yektlarni mo'ljallangan inkorporatsiya qilinishi, makroiqtisodiy nuqtai nazaridan foydaga qaraganda ko'proq zarar keltiradi.

Foydadagi yutuq va soliqlardagi talofatlarni nisbiy samarasini qiyoslash uchun taalluqli elastikli ko'rsatkichidan foydalanish mumkin; $E = VP|VT$. Agarda E-1 bo'lsa, unda alohida texnologik katakchalarni (yacheykalarni) xo'jalik integratsiyasida xalq xo'jaligini maqsadga muvofiqligi haqida gapirish mumkin. Agarda E-1 bo'lsa, unda bunday integratsiyani zaruriyati juda gumonlidir.

Oddiy amallar $E = T_{dez}|P_{dez}$ nisbatni yozishga imkon beradi. Bundan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish –fiskal antogonizmni darajasi korxonani toza foydasi va undan olinadigan soliqlar miqdorini datslabki nisbati bilan butunligicha aniqlanadi.

Yuqorida yozilgan formulalar turli parametrlarni integratsiyadan oldingi va keyingi texnologik tizim ishiga ta'sirini batafsil tadqiqot qilishga imkon beradi. Ammo umumiy ko'rinishdagi bunday tahlil ancha qo'pol rasmiy chizmalarga aylanib qolishi mumkin. Shuning uchun biz uni o'tkazmaymiz va hech qanday matematik kuchlanishni nazarda tutmaydigan ikkita muhim sifati funktsional momentlarida to'xtaymiz.

Birinchidan, ko'pincha firmadan olingan soliqlar miqdori uni ixtiyorida qoladigan toza foydadan ko'p. Bu bildiradiki, E-1 iqtisotda ham, qoida bo'yicha, shunday vaziyat paydo bo'ladi, u ishlab chiqarish kompaniyalarini davlat uchun hech qanday ziyon keltirmaydigan qo'shimchaga undaydi.

Ikkinchidan, tahlil ko'rsatadiki, birlashgan va birlashmagan chiziqlarini foydadagi nisbiy uzilishi foydaga va bo'lgan soliqdan bog'liq bo'lmaydi. Shunday qilib bu fiskal asbob texnologik integratsiyani amalga oshirishda soliqlardagi nisbiy iqtisod jarayoniga nisbatan neytraldir. Korxonalarni ishlashidagi yana bir aspekt-harajat rentabelligidir. Yuqorida biz birlashmagan korxonalarni rentabelligi uchun (1.5) nisbatni yozdik. Ammo bu miqdorni birlashgan (integrallashgan) majmua harajatini rentabelligi bilan taqqoslash alohida qiziqish uyg'otadi, uni quyidagi ko'rinishda tasavvur qilish mumkin;

$$V_{int} = P_{int}|CN \quad (1.15)$$

Bunda oldingidek, xo'jalik tarkibini rentabelligi ostida ishlab chiqaruvchida toza foyda sifatida qoluvchi tushimni umumiy ulushi tushiniladi. (1.15) nisbat texnologik zvenolar sonlari va narxli ustamadan rentabellikni ko'rish mumkinki oddiy bo'lmagan bog'lanish berishni.

1.1.3.Jahon iqtisodiyotini tahlilida ishlab chiqarish funktsiyalari

1.1.3.1.Ishlab chiqarish fondlarini turlari

Zamonaviy iqtisodchilar noturkumli yo'nalishda, andozalanishni boshqa usullarini, ekonometrika va statistikani qo'shib olib borganda ishlab chiqarish funktsiyasi (ICHF) ma'muriyatini qo'llab hamma aytib o'tilgan omillarni iqtisodiy o'sishga va mehnat unumdorligini oshirishga ta'sirini baholashga o'rinib ko'rishmoqda.

Makroiqtisodiyotli ICHF birgalikdagi chiqarish (foyda) $U(A)$ harajatni turli shakllari yoki foydalaniladigan resurslar hajmlari orasidagi statistik mohiyatli aloqa ta'siri bo'ladi. Oldingi asrni 20-30 yillarida AQSH iqtisodiyotini tahlil qilishda qo'llanilgan oddiy Kob-Duglas ICHF quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi; $Y_t = f(K_t, L_t) - A_k d_t K_b t$; (1.16)

Bunda A-ishlab chiqarish samaradorligini tavsiflovchi ko'effitsient, Z va B- kapital (K) va mehnat (L) ga taalluqli ishlab chiqarishni elastiklik ko'effitsientlari, qaysiki noturkumlik nazariyasiga asosan, oxirgi mahsulotni o'sishida yoki birgalik foydani birligidagi taalluqli omilni foyda ulushi yoki oxirgi mahsulotni o'sishidagi ishlab chiqarishni har bir omilni rolini ifoda qiladi.

Ilmiy – texnik taraqqiyot (ITT) omilini hisobga olishi zaruriyati Ait-Aeji ko'effitsienti mohiyatini eksponenti bo'yicha o'suvchi andozalarni paydo bo'lishiga olib keldi. ITT yoki resurslarni birgalikdagi samaradorligini, yoki alohida resursni samaradorligini o'sishida ko'rinadi.

Bu bilan ICHF uch turga ajratiladi;

1. ICHF, unda ITT vaqt funktsiyasi bo'lib hisobga olinadi, va hech qanday mehnat bilan ham, hech qanday kapital bilan ham bevosita bog'lanmaydi (neytral ITT yoki ITT Xiksu) bo'yicha. Bunday ICHF quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

$$Y_t = A(t)f(K_t, L_t) - A_{eit} \cdot K_{td} \cdot L_{tB} \quad (1.17)$$

Bunda $A(t)$ -Aeji – ITT tushunchasini qisqaligi uchun birlashadigan, ko'p omillar samaradorligiga ta'sir etishini ko'rsatuvchi funktsiya.

2. ICHTni mehnatini tejashi bilan ITT (ITT Solou bo'yicha). Solouga asosan, mehnatga resurslaridan foydalanish samaradorligi vaqt o'tishi bilan o'sadi, kapitaldan foydalanish samaradorligi esa o'zgarmas bo'lib qoladi. Elektr asboblari, avtomatik liniyalarini, kompyuterlarni ishlab chiqarishga joriy qilinishi ITTni shu xiliga kiradi. ICHF mehnatni tejalishi bo'lgan ITT quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

$$Y = J(K, A(t))L \quad (1.18)$$

3. Kapitalni tejovchi ITT (uni jismoniy hajmi o'zgarmas bo'lganida kapital unumdorligi o'sadi) – juda kamdan-kam ko'rinish (Harrodu bo'yicha ITT). Umumiy ko'rinishda ICHF shunday yoziladi; $Y = t(A(t)K, L)$ (1.19)

ICHFni baholashda o'zgaruvchanlar qatori Y_t, K_t , va L_t ma'lum bo'lib hisoblanadilar, Y va B ko'effitsientlari mohiyati baholanadi. Bu masalani (1.17) andoza misolida batafsil ko'rib chiqamiz. Logarifmlash yo'li bilan bu andoza chiziqli ko'rinishga keltiriladi $\ln Y = \ln A - j_t - \ln K - \ln B$ (1.20)

Agarda (1.20)ni ikkala qismidan differentsial olinsa va bir yilda o'sishlar ko'rib chiqilyapti deb qabul qilinsa, qisman dz-1. quyidagini olamiz

$$Dy = Y_j - dk - BdL; \quad (1.21)$$

(1.21) ifodada mahsulot chiqarishni o'sish sur'ati uchta tuzuvchilarga ajratiladi.

J-ITT hissasi, Y dK kapitalini o'sishidagi hissa, BdL band bo'lganlar sonini o'sishidagi hissa. Agarda x va B kapital va mehnat bo'yicha ishlab chiqarish elastikligini ko'effitsienti deb e'tibor qilinsa va chegaralab qo'yilsa.

$$X = B - 1 \quad (1.22)$$

(odatda shunday qilinadi), unda intensiv omillarni rivojlanishi sur'atiga hissa izohlash mumkin, $X dK + BdL$ yig'indini esa ekstensiv omillar hissasi (1.22)ni chegaralab qo'yilganda (1.17) andoza logarifmlanganidan keyin baholash uchun qulay chiziqli ko'rinishga ega bo'ladi.

$$EnV/L=EnA-jt-xEnK/L; \quad (1.23)$$

Chiziqsiz usullardan foydalanishda andozani o'zi bevosita baholanishi lozim.

$$Y/L=Aejt (K/L)x; \quad (1.24)$$

bunda $Y|L$ – mehnat unumdorligi, $K|L$ esa fond bilan qurollanishi.

1.1.3.2. Intellektual kapitali hisobga olingan mamlakatlararo tadqiqot

Ko'p ishlarda vaqtincha NCHF vaqtincha parametrlari baholanadi. Bunda o'zgarishlar U, K va L ko'rsatkichi sifatida mehnat va kapitalni ishlab chiqarish dinamikasi haqidagi ma'lumotlardan foydalaniladi. 1950-1985 yillar davrida dunyoni 130 mamlakatlarini rivojlanishi haqida qator asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni nashr qilinishida Amerika iqtisodchilari Manki, Romer va Veyl (MRV)ni ICHF asosida mamlakatlararo statistik tadqiqot o'tkazish imkoniyati haqidagi fikrga undadi. Ko'p mamlakatlar bo'yicha statistikani mavjudligi ularga 1985 yil uchun statistik andoza yasashga imkon berdi, bu vaqtda vaqtinchalik ma'lumotlar jamg'arma me'yorlari, mehnat dinamikasi va parametrlarini hisoblash uchun qator zarur bo'lgan ko'rsatkichlarni o'rtacha mohiyatini baholash imkoniyatini berar edi.

MRVda R.Solouni ICHF andozasi ishlatildi. Dastlabki ma'lumotlar sifatida 98 mamlakat bo'yicha U, K va L mohiyatlari olindi. MRV ICHF parametrlarni ikki to'rini baholashdi. Boshida ular Solou andozasiga bevosita mos keladigan ICHFni olishdi. Keyin bu andozani intellektual kapital human capitale ko'rsatkichi bilan to'ldirishdi.

Boshlang'ich funktsiya quyidagi ko'rinishda;

$$Y_i = Kx_i (A(t)L_i)^B; \quad (1.25)$$

Bunda $X=V-1$, $0 < x < 1$. $A(t)$ –ITT koeffitsienti. L va A ekzogen sur'ati bilan o'sadi m va q tegishli ravishda. Umuman ish kuchini samarali birligi deb ataluvchini o'sish sur'ati m va q ga teng. Solou andozasidan bevosita foydalanish 50 foizga yaqin mehnat unumdorligini dispersiyasini ta'riflashga imkon berdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, jamg'arish va bandlik darajasi Solouni oldindan aytgan yo'nalishi bo'yicha foydaga ta'sir qiladi, ammo bu ta'sirni baholanishi deyarli oshirib yuborilgan.

Bu ITT tomonidan ekzogen holda berilgan iqtisodiy o'sishni andozasi texnik taraqqiyotini mehnat va kapital tavsifiga ta'sirini hisobga olmaydi. Qisman, unda jamg'arish va yangi bilimlaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishchi kuchiga ITTni ta'siri yoritilmagan. Juda aniq baholash olish uchun andozaga kapitalni intellektual (N) ko'rsatkichi kiritildi. "Intellektual kapital"da jamg'armani hisobga olgan holda yaratilgan, andozani kengaytirilgan variantini keltiramiz.

$$Y_t = Kx_t H B_t (A(t)L_t)^{1-x-B}; \quad (1.26)$$

unda H_i – intellektual kapital, $A(t)$ – ITT omili, $x-B < 1$.

Mamlakatlar bo'yicha dastlabki ma'lumotlar Sammers va Xeston ishlaridan olindi. Hisoblar uch guruh mamlakatlar uchun alohida o'tkazilgan edi. Birinchi guruh, eng ko'p sonli, 98 mamlakatni o'z ichiga olgan edi. Ikkinchi guruhga 75 mamlakat kirdi. Bu vaqtda 98 mamlakat to'plamidan 1960 yilgacha aholisi 1 mln. kishidan kam bo'lganlari chiqarib tashlandi. Bu mamlakatlar uchun ko'p tanlov bo'lmagani tufayli hatolar extimoli yuqori. Uchinchi guruhga 22 mamlakat – aholisi 1 mln kishidan ortiq OESR a'zolari kirdi.

Barqaror muvozanatlik (1985y) sharoitida ICHF parametrlarini baholashdan avval, mualliflar 1960-1985 yillar davridagi mamlakatlar bo'yicha yillik ma'lumotlardan foydalangan holda qator zarur bo'lgan tavsiflarni mohiyatini baholashdi. Bandlikni o'rta yillik o'sish sur'atini ko'rsatkichlari m (yoshi 15 dan 64 gacha ishlovchi aholi haqidagi statistika asosida), 1985-yil uchun YAIMga nisbatan yalpi investitsiya (I) ni o'rtacha mohiyatini munosabati tenglik nuqtasi. O'rtalashgan ma'lumotdan kelib chiqqan holda, shartli ravishda $q-d-0,05$ qabul qilindi. Bunda amortizatsiya me'yori.

"Intllektual kapital" ko'rsatkichiga mualliflar ta'lim, qurilish, bilim yurtlari uskunolari, ilmiy adabiyotlar nashriyoti uchun harajatlar haqida ma'lumotlarni kiritishni zarur deb hisobladilar.

Ammo, ko'p mamlakatlar uchun bunday statistikani yetishmovchiligini hisobga olgan holda, bu ko'rsatkich huddi hamma davr uchun o'rtachadek oliy ma'lumotli katta yoshli kishilar ulushi (shartli belgisi SCHOOL) shartli ravishda baholandi.

Hamma taxminlar natijasida empirik tenglama qurildi, uni parametrlari statistik ravishda baholandi.

Tenglamani tahlili shuni ko'rsatadiki, asosiy "Intellektual kapital" ni o'sishi bir bandlik hisobida chiqarishni o'sishiga olib keladi, bu vaqtda boshqa o'zgaras ko'rsatkichlarda bandlik o'sishi uni qisqarishiga olib keladi. Oldingi baholarga asosan asosiy kapitalni ulushi taxminan 1-3ga teng. "Intellektual kapital" ulushini oldingi bahosini berish juda ham qiyin bo'ldi. Nomalakaviy mexnati uchun ish haqini minimal mohiyatidan kelib chiqqan holda uni shartli baholash mumkin. (uni "Intellektual kapital" ga jamg'arma talab etmaydigan foyda deb hisoblash mumkin). AQSHda ishlab chiqaruv sanoatida o'rtacha ish haqidan minimal ish haqi 30-50 foizini tashkil qiladi. Bundan hamma ish haqini 50-70 foizi intellektual kapitaldagi jamg'armadan unum deb taxmin qilish mumkin.

"Intellektual kapital" tenglamasiga kiritish "ulush (hissa)ni" ko'taradi va asosiy kapitalni majmuaviy foydaga. Ikki andoza bo'yicha hisoblar natijasi tasdiqlaydiki, oliy ma'lumotli katta yoshlilar ulushini yoritadigan o'zgaruvchan, jiddiy hisoblanadi va uni tenglamaga kiritilishi determinatsiya koeffitsientini, birinchi ikki guruh uchun 0,59 dan 0,78 gacha va OESR mamlakatlari uchun 0,01 dan 0,24 gacha ko'taradi.

SCHOOL omilini kiritish, dastlabki andozaga nisbatan asosiy kapitalda koeffitsientni anchamuncha kamayishiga olib keldi. Olingan natijalar Solou andozasi taxminlarga to'g'ri keladi va uni mamlakatlararo tadqiqotida muvaffaqiyatli foydalanishni ko'rsatadi.

1.1.3.3.Mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va geografik ahvolini hisobga olish

70-yillarni boshida jahonda "Iqtisodiy o'sish" tushunchasidan kengroq, "iqtisodiy rivojlanish" tushunchasi shakllandi. U o'sishni iqtisodiy omillari bo'lgan bozor xo'jaligi uchun an'anaviyligi bilan chegaralanmay, balki tahlilga mamlakatlarni ijtimoiy, institutsiyaviy va siyosiy tarkibini o'z ichiga oladi. Ilgarigi bu omillar sonli o'lchovini murakkabligi tufayli iqtisodiy hisoblarda e'tiborga olinmas edi. BMTni ijtimoiy rivojlantirishni tadqiqot institutiga 1970 yilda ko'rsatkichlar to'plamini ishlab chiqdi, u majmuada rivojlanayotgan mamlakatlarni ijtimoiy va siyosiy darajasini tafsiflashiga yordam beradi.

Unumdorlik omillari (1988 y. AQSH ko'rsatkichlari –1.000)

Mamlakatlar	Y L	(K Y)	H L	A
AQSH	1,000	1,000	1,000	1,000
Kanada	0,941	1,002	0,908	1,034
Italiya	0,834	1,063	0,650	1,207
FGFR	0,818	1,118	0,802	0,912
Fransiya	0,818	1,091	0,666	1,126
Buyuk Britaniya	0,734	0,891	0,808	1,011
Gongkong	0,608	0,741	0,735	1,115
Singapur	0,606	1,031	0,545	1,078
Yaponiya	0,587	1,114	0,797	0,658
Meksika	0,433	0,868	0,538	0,926
Argentina	0,418	0,953	0,676	0,648
Sobiq SSSR	0,417	1,231	0,724	0,468
Indiya	0,086	0,709	0,454	0,267
Xitoy	0,060	0,891	0,632	0,106
Keniya	0,056	0,747	0,457	0,165
Zoir	0,033	0,499	0,408	0,160

Yangi ma'lumotlarni paydo bo'lishi mamlakatlararo farqini statistik tahlil qilish imkoniyatini

kengaytirdi.

Mualliflar mehnat unumdorligini oshirishda ijtimoiy va siyosiy omillar rolini statistik holda baholashga harakat qilmoqdalar. Tadqiqotlar ikki bosqichda o'tkazildi. Birinchi bosqichda ICHF yordamida mualliflar bir bandlik chiqaruvidagi mamlakat aro farqini tuzuvchilarga ajratib chiqdilar. Keyingi bosqichda ijtimoiy-siyosiy infratuzilmani samaradorlik ko'rsatkichiga ta'sirini baholashga harakat qilindi.

ICHF quyidagi ko'rinishda bo'ladi;

$$Y_i = K x_i (A_i \cdot H_i)^{1-x}$$

Bunda A_i i-li mamlakatdagi mehnatdan foydalanishni samaradorlik ko'rsatkichi $H_i = EF(ch)L_i$ – intellektual kapitaldagi jamg'armani hisobga olgan holdagi, ishchi kuchi. $F(ch)$ pul ma'lumotini ($F(0)-0$) taqqoslab ko'rish bo'yicha, 2 yil ma'lumoti bo'lgan ishchi kuchi birligi samaradorligini tavsiflaydi.

Samaradorlikni ko'rsatkichini ICHFdanda bevosita baholash mumkin. Buning uchun uni quyidagicha tasavvur qilishdi.

$$Y_i = (K_i)^a [(1-a)h_i]^{1-a}$$

bunda $Y = Y|L$ – mehnat unumdorligi, $h = H|L - e f(z)$ z yil ma'lumoti bo'lgan, ishchi kuchi birligini nisbiy samaradorligi.

Hisoblar olib borish uchun statistika Sammers va Xeston jadvallaridan olindi. Tahlilga 127 mamlakatlar ma'lumotlari kirdi. Hisoblar 1988-yildagi ma'lumotlar bo'yicha olib borildi. Mamlakatlarni tenglashtirish uchun, chiqarish ko'rsatkichi Y , neft va gaz qazib oluvchi tarmoqlar mahsuloti chiqarib tashlandi. Bandlik sonlarni ko'rsatkichi bilan baholandi. Kapital bo'yicha statistikani yo'qligi sababli qo'shimcha hisoblar o'tkazildi. Kapital hajmini ko'rsatkichi ijtimoiy usul bilan hisoblandi. 1960 yildan 1970 yilgacha bo'lgan davrda investitsiyalar haqidagi ma'lumotlar bo'yicha ularni o'sishining o'rtacha geometrik sur'ati g hisoblab chiqildi. Agar amortizatsiya me'yorini $d=6$ foiz deb qabul qilinsa, unda 1960-yildagi kapital mohiyatini K_{1960-I} $1960 | (q-d)$ formula bilan baholash mumkin. Parametr $a=1/3$ deb taxmin qilingan edi (bu o'rtacha mohiyat ko'pgina mamlakatlar uchun olingan baholarga to'g'ri keladi).

Qator mamlakatlarni tanlab olingan hisoblari 1-jadvalda keltirilgan. Mamlakatlarni tenglashtirish qulay bo'lishi uchun hamma ko'rsatkichlar AQSH uchun ta'luqli o'zaro nisbatida yangidan hisoblab chiqildi.

Jadvalda kapital hajmi ($K-U$) jamg'arma, bir bandlikdagi intellektual kapital ($H|L$) va mehnat unumdorligidagi ($Y|L$) samaradorlik (A) ni baholash natijalari keltirilgan. Samaradorlik kirim xuddi qoldiq hisoblanganligini qayd qilamiz.

Natijalarga asosan, Kanadadagi bir bandlikka chiqarish AQSHdan 94 foizini tashkil qiladi. Kanada AQSHga yaqin ishlab chiqarish kapital hajmli (100.02%) miqdoriga ega, a faqat intellektual kapitaldagi jamg'arma ko'rsatkichi 91 foiz. Bu ayirma, bir bandlikdagi chiqaruv farqini aniqlaydi, bu vaqtda ishlab chiqarish samaradorligini ko'rsatkichlari Kanada va AQSHda bir xil amaliy ahamiyatga egadirlar. Boshqa OESR a'zolari bo'lgan mamlakatlar, GFRdan tashqari, Amerikanikiga yaqin, hatto oshib ketuvchi samaradorlik ko'rsatkichi mohiyatiga ega.

Kam rivojlangan mamlakatlar uchun zaif samaradorlik bir bandlik chiqarish ko'rsatkichini past ahamiyatliligi asosiy sababi bo'lib hisoblanadi. Xitoyda u AQSH darajasini 6 foizini tashkil qiladi va bu farqni asosiy qismini ishchi kuchidan foydalanishni past samaradorligi bilan tushuntirish mumkin. Bir bandlikdagi beshta yuqori rivojlangan mamlakatlar bo'yicha 1988 yildagi chiqarish beshta kambag'al mamlakatlar chiqarish darajasidan 31,7 marotaba yuqoridir (o'rta geometrik hisobdan).

1.1.3.4. Axborotli texnologiyani (AT) iqtisodiy o'sishiga ta'siri

Oxirgi o'n yillikni tavsifli xususiyati bo'lib, aloqa va axborotni ishlab chiqarishni yangi vositalarini o'z ichiga oluvchi, zamonaviy yyetakchi mamlakatlardagi mislsiz sur'atli rivojlanish bo'ldi. Axborotli revolyutsiya natijasida bir vaqtda ikkita jarayon bo'lib o'tdi-AT bilan bog'liq bo'lgan mol va xizmatdagi narxlarni bir pastda tushib ketishi, va bu texnologiyalarni ishlab chiqarishga, moliya doirasiga va hayotga jadal holda tarqalishi. Olib yuruvchi telefon va internetdan foydalanuvchilar soni tez o'smoqda. Internetdagi axborot almashish oqimi har 100 kunda amaliyotda baravar o'smoqda. Ammo 90 yillarni o'rtalarigacha ATni tez tarqalishi iqtisodiy o'sishi va mehnat unumdorligini sur'atini amalga o'sishiga olib kelmoqda. R.Solou 1987 yilda aqlga to'g'ri kelmaydigan (paradoks)ni aytib o'tgan; «Kompyuterlashtirish ishlari statistika unumdorligidan tashqari, hamma joyda ko'rinadi», ICHF yordamida AT rolini baholashga yo'naltirilgan tadqiqotlar katta qiziqish ko'rsatadi.

Bu sohada, AQSH iqtisodiyotini o'sishiga ATni ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan, Amerika iqtisodchilari D.Oliner va E.Sishallar ishini belgilash mumkin. Mualliflar ICHF parametrlarini baholashda, unda AT ko'rsatkichlari ishlab chiqarishni mustaqil omillari sifatida kiritishgan.

Turli davrdagi ATni o'zlashtirish darajasidagi farqini belgilagan holda, mualliflar uchta davrlar uchun alohida ATni qurdilar; 1974-1990, 1991-1995 va 1996-1999 yillar, 90 yillar ikki davrga bo'lingan edi, chunki ularni ikkinchi yarmida iqtisodiy o'sish sur'atini ortishi kuzatildi.

Unda (real) aniq YAIM o'rtacha yillik o'sishi 4 foizga yaqinni tashkil etdi, Bu oldingi yilga qaraganda sezilarli yuqori. Bunday o'sishni manbasi, iqtisodiyotni shaxsiy noqishloq xo'jaligi sho'basidagi mehnat unumdorligini oshishi bo'ldi, bunda 1995-1999 yillardagi 1 odam-soatdagi chiqarishni o'rtacha yillik o'sishi 2,5 foizga yaqinni tashkil etdi, bunda oldingi 25 yil uchun bu ko'rsatkichni mohiyatidan deyarli 2 baravar yuqori.

Bu davrda bunday o'sishni asosiy sababi iqtisodiyotni shaxsiy sho'basidagi ITTni sezilarli jadallashtiruvidadir. Amerika firmalari ATga katta mablag'lar qo'yishdi. Kompyuterlar va periferiyaviy moslamalardagi investitsiyalar 1993-1999 yillarda real narxlarda 4 baravardan ortiq oshib ketdi.

1.3-jadval. AQSH shaxsiy noqishloq xo'jaligi sho'basida ishlab chiqarishni real o'sishi omillari, % da

Omillar	1974-1990 yillar	1991-1995 yillar	1996-1999 yillar
Chiqarish o'sishini o'rtacha yillik sur'ati ko'rsatkichlar ulushi	3,06	2,75	4,82
AT	0,49	0,57	1,10
PK	0,27	0,25	0,63
Programmali ta'minlash	0,11	0,25	0,32
Aloqa vositalari	0,11	0,07	0,15
Qolgan kapital	0,86	0,44	0,75
Ishlatilgan odam-soat	1,16	0,82	1,5
Ishchi kuchi sifati	0,22	0,44	0,31
MER	0,33	0,48	1,16

Logarifmni o'rta yillik ahamiyatini farqidek 100 ga ko'paytirgandek hisoblangan.

Hisoblar o'tkazish uchun statistika iqtisodiy tahlil Byurosi (VEA) va mehnat statistikasi Byurosi (BLS) nashrlaridan olindi. Mualliflar shuni alohida ta'kidladilarki, kompyuterlar bo'yicha ma'lumotlar ularni haqiqiy bozor narxi (Weaeth gltock) bo'yicha baholamay, balki ishlab chiqarish narxlari (projdctiye stjck) deb nomlangan, PKni tez ta'sirini, boshqa PKga nisbatan ular samaradorligini (bu ko'rsatkichlar BLS dan olingan) hisobga olish baholanadi. 1.3-jadval bilan ishlab chiqarishni har yillik o'sish sur'atiga har bir omil qanday ulush kiritganligi ko'rsatilgan. Jadvalni tahlili ko'rsatadiki, birinchi ikki davrda (1974-1990 va 1991-1995 yillarda) o'xshash tavsifga ega. Shaxsiy noqishloq xo'jaligi sho'basidagi ishlab chiqarishni real hajmi, har yili o'rtacha

3 foizga o'sdi. PK 1 yilda 0,25 foizga punktga yaqin dasturli ta'minlashni 1974-1990 yillar 0.1 f.p.ga va 1990-1995 yillarda 0,25 f.p.ga o'sishini ta'minladi. Aloqa uskunolari, ikkala davrlar chiqaruvida har yillik o'sishida 0.1 foiz punktga yaqin ulushini ta'minladi. Yig'indidagi ATni hamma kapitali birinchi ikki davrdagi yillik chiqaruvni 0, foiz punktga yaqinini ta'minladi.

Bu, ATni ishlab chiqarishni o'sishiga 90 yillar o'rtasigacha ta'sirini deyarli kamroqligini xulosalar tasdiqlaydi. O'n yillikni birinchi yarmida PK saroyi (parki) har yili 17 foizdan ko'proqqa o'sdi, ammo uni har yildagi foydasi 1,4 foizga tenglashdi, ishlab chiqarish o'sishidagi ulush esa 0,25 foiz punktga yaqinini tashkil etdi.

Manzara 90 yillarni ikkinchi yarmida birdaniga o'zgardi; PK ulushi ikki baravarga o'sib har yili 0,6 f.p.ga yaqinni tashkil qildi, ATni bu davrdagi umumiy ulushi amalda ikki baravarga ko'paydi. 90 yillarni ikkinchi yarmida juda yuqori ko'rsatkichlarni, mualliflar fikricha, ATni roli iqtisodiyotda qanday o'sgan bo'lsa, AT dagi kapital jamg'armani shunday jadallashgan o'sishini tasvir qiladi. Intensiv va ekstensiv omillarni beshta yyetakchi g'arbiy mamlakatlarda turli vaqt davridagi YAIMni o'sish sur'atidagi ulushi, 1.4-1.7- jadvallarda ko'rsatilgan.

1.4-jadval. 1961-2001 yillar davridagi ishlab chiqarish funktsiyalarini baholash natijalari, %.

1.7-jadval: 1991-2001 yillar davridagi ishlab chiqarish funktsiyalarini baholash natijalari, %.						
		E	Ulushi			e
			Ekstensiv omillar			
			Jami	Investitsiya	Band bo'lgan	
AQSH	3,42	44,83	55,17	37,30	17,87	1,53
YAponiya	4,82	44,61	55,39	55,39	0	2,15
Germaniya	2,77	71,32	28,48	22,97	5,51	1,98
Buyuk Britaniya	2,44	66,01	33,99	33,99	0	1,61
Fransiya	3,23	57,70	42,30	30,30	12,00	1,87

1.5-jadval. 1961-1980 yillar davrida ishlab chiqarish funktsiyalarini baholash natijalari. % da

		e	Ulushi			e
			Ekstensiv omillar			
			Jami	Investitsiyalar	Band bo'lgan	
AQSH	3,74	59.71	40.29	40.29	0	2.23
YAponiya	7.26	41.36	58.64	58.64	0	3.00
Germaniya	3.58	72.66	27.34	27.34	0	2.60
Buyuk Britaniya	2.42	66.15	33.85	33.85	0	1.60
Fransiya	4.43	52.32	47.68	36.17	11.51	2.32

1.6-jadval. 1981-2001 yillar davrida ishlab chiqarish funktsiyalarini baholash natijalari, % da

1.6-jadval. 1991-2001 yillar davrida ishlab chiqarish qudratining o'zgarish sur'atlarining sur'atlari, % ga						
		e	Ulushi			e
			Ekstensiv omillar			
			Jami	Investitsiyalar	Band bo'lgan	
AQSH	3,11	37.65	62.35	27.68	34.67	1.47
YAponiya	2.54	51.11	48.89	32.53	16.36	1.30
Germaniya	2.01	65.98	34.02	24.53	9.49	1.32
Buyuk Britaniya	2.46	60.95	39.05	32.05	0	1.50
Fransiya	2.11	70.74	29.26	29.26	0	1.49

Olingan natijalar ko'rsatadiki, oxirgi 40 yillarda intensiv omillar ulushi katta rol o'ynadi, garchi mamlakatlar vaqt va davrlar bo'yicha o'zgartirsa ham. U Yevropa mamlakatlarida juda yuqori bo'ldi – taxminan 2-3, Yaponiya va AQSHda esa 1-2 yaqinini tashkil qildi. Investitsiya hajmini ulushi o'rtacha 1-3 atrofida o'zgartirildi, faqat Yaponiyada u 1-2 bir qancha o'sib ketdi.

Band bo'lganlar soni, AQSHdan tashqari, VVPni o'sish sur'atiga deyarli ta'sir ko'rsatmadi. Oxirgisi, yuqori malakali immigrantlarni oqib kelishi bilan tushuntiriladi. Shunday qilib, ilg'or mamlakatlarda iqtisodiyotni rivojlanishi sur'atini 50 foizdan ko'prog'i yangi texnologiyalar bilan ta'minlanadi. Natijalarni keyingisi qiyosli tahlili, har bir mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ishlab chiqarishga ilmiy yutuqlarini joriy qilinishini xususiyatlarini chuqur o'rganilishini talab qiladi.

1.2.Tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari

1.2.1.Tashqi iqtisodiy faoliyat me'yoriy jihatlar

Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi. O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan yuridik shaxslar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining hududida doimiy yashash joyiga ega bo'lgan va yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatga olingan jismoniy shaxslar tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishga haqlidir. O'zbekiston Respublikasining davlat organlari, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishlari mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy printsiplari quyidagilardan iborat:

- tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining erkinligi va iqtisodiy mustaqilligi;
- tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining tengligi;
- savdo-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdan o'zaro manfaatdorlik;
- tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari davlat tomonidan himoya qilinishi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlari va ob'yektlari. Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlari hisoblanadilar.

Oldi-sotdi yoki ayirboshlash ob'yekti bo'lgan tovarlar, ishlar (xizmatlar), har qanday mol-mulkka, shu jumladan qimmatbaho qog'ozlar, valyuta qimmatliklariga, elektr, issiqlik energiyasi va boshqa turdagi energiyaga, transport vositalariga, intellektual mulk ob'yektlariga nisbatan, tashqi iqtisodiy faoliyatda foydalanilishi qonun hujjatlari bilan taqiqlanganlarini istisno etganda, tashqi iqtisodiy faoliyat amalga oshirilishi mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlari bunday faoliyatni amalga oshirishda teng huquqlarga egadir. Tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlari quyidagi *huquqlarga* ega:

qonun hujjatlari doirasida tashqi iqtisodiy faoliyatda qatnashish shakllarini mustaqil belgilash, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun o'z xohishiga ko'ra boshqa yuridik va jismoniy shaxslarni shartnoma asosida belgilangan tartibda jalb qilish;

tashqi iqtisodiy faoliyat natijalariga, shu jumladan milliy va chet el valyutasidagi daromadga qonun hujjatlariga muvofiq mustaqil ravishda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining *majburiyatlari*: tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risidagi hisobotni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdim etishi;

O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan tovarlarning O'zbekistonda belgilab qo'yilgan texnikaviy, farmakologiya, sanitariya, veterinariya, fitosanitariya, ekologiya standartlari va talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlarni belgilangan tartibda taqdim etishi shart. Tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlari zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa

majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning *asosiy yo'nalishlari* quyidagilardir:

xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik;

tashqi savdo faoliyati;

chet el investitsiyalarini jalb qilish;

O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investitsiya faoliyati.

Xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik ishlab chiqarish, moliya, bank va sug'urta faoliyati, ta'lim va kadrlarini tayorlash, turizm, sog'liqni saqlash, ilmiy-texnikaviy, madaniy, ekologiya, gumanitar va boshqa sohalarda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali aloqalarni o'rnatishi va kengaytirishiga qaratilgan tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdir.

Tashqi savdo faoliyati xalqaro tovarlar, ishlar (xizmatlar) savdosi sohasidagi tadbirkorlik faoliyatidir.

Tashqi savdo faoliyati tovarlarni, ishlarni (xizmatlarni) eksport va import qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tovarlarning O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan ularni qayta olib kirish to'g'risidagi majburiyatni olmasdan olib chiqib ketilishi, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, tovarlar eksportidir.

Tovarlarning O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga ularni qayta olib chiqib ketish to'g'risidagi majburiyatni olmasdan olib kirilishi tovarlar importidir.

O'zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan xorijiy davlatning yuridik yoki jismoniy shaxsi uchun ishlar bajarish (xizmatlar ko'rsatish), ularning bajarilish (ko'rsatilish) joyidan qat'i nazar, ishlar (xizmatlar) eksportidir.

Xorijiy davlatning yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan O'zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi uchun ishlar bajarish (xizmatlar ko'rsatish), ularning bajarilish (ko'rsatilish) joyidan qat'i nazar, ishlar (xizmatlar) importidir.

Chet el investitsiyalarini jalb qilish. Chet ellik investorlar tomonidan tadbirkorlik faoliyati ob'yektlariga hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan faoliyatning boshqa turlariga kiritilayotgan moddiy va nomoddiy ne'matlarning barcha turlari hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka bo'lgan huquqlar, shuningdek chet el investitsiyalaridan olinadigan har qanday daromad O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el investitsiyalari deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalarini amalga oshirish shakllari va tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investitsiya faoliyati O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi tadbirkorlik va boshqa faoliyat ob'yektlariga moddiy va nomoddiy ne'matlarni hamda ularga bo'lgan huquqlarni qo'yish bilan bog'liq tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlari harakatlarining yig'indisi O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investitsiya faoliyati deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investitsiya faoliyati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagi yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

yuridik shaxslar tashkil etish eki ustav fondlarida (kapitallarida) ulushbay asosda, shu jumladan mol-mulk va aksiyalar sotib olish yo'li bilan qatnashish;

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida vakolatxonalar, filiallar va boshqa alohida bo'linmalar ta'sis etish;

qimmatbaho qog'ozlarni, shu jumladan xorijiy davlatlarning rezidentlari tomonidan tasdiqlangan qarz majburiyatlarini sotib olish;

kontsessiyalarni, shu jumladan tabiiy resurslarni qidirish, izlab topish, qazib olish yohud

ulardan foydalanishga mo'ljallangan kontsessiyalarni qo'lga kiritish;

mulk huquqini, shuningdek erga hamda boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqini qo'lga kiritish.

O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investitsiya faoliyati xorijiy davlatning qonun hujjatlarida va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida *xorijiy davlatlarning savdo-iqtisodiy masalalar bo'yicha vakolatxonalari* O'zbekiston Respublikasi tegishli xorijiy davlatlar bilan tuzadigan xalqaro shartnomalar asosida ta'ris etiladi.

Ajnabiy yuridik shaxslar O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq vakolatxonalar ochishga haqlidirlar.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlari huquq va manfaatlarining kafolatlari. O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari ta'minlanishini kafolatlaydi. Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

O'zbekiston Respublikasining davlat organlari tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining ushbu qonunda belgilangan huquqlarini buzuvchi hujjatlar qabul qilgan taqdirda, ularga etkazilgan zararining o'rni qonun hujjatlariga muvofiq qoplanadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlari tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi o'z huquqlari va manfaatlariga daxldor bo'lgan va maxfiy tusda bo'lmagan axborotlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat organlaridan olishga haqlidir. Axborotning maxfiyligi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi va umum majburiy tusdagi qonun hujjatlari ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi va tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlari ulardan erkin foydalana olishlari shart.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

tashqi iqtisodiy faoliyatning qonunchilik negizini shakllantirish va takomillashtirish;

valyuta bilan tartibga solish;

soliq bilan tartibga solish;

tarif va notarif tartibga solish;

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlariga rioya etilishi uchun himoya, kompensatsiya va dempingga qarshi choralarni qo'llash;

tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilash, shu jumladan miqdoriy cheklovlar o'rnatish hamda tovarlarning ayrim turlari eksport va import qilinishi ustidan davlat monopoliyasini o'rnatish;

qurol-yarog'lar, harbiy texnika, ikki xil maqsadda ishlatilishi mumkin bo'lgan tovarlar va texnologiyalarga nisbatan eksport nazoratini o'rnatish; olib kiriladigan va olib chiqiladigan tovarlarni sertifikatlash;

texnikaviy, farmakologiya, sanitariya, veterinariya, fitosanitariya, ekologiya standartlari va talablarini belgilash;

tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlari uchun preferentsiya va imtiyozlar berish.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish qonun hujjatlariga muvofiq boshqacha usullarda ham amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi *Vazirlar Mahkamasi*:

tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqadi;

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizligini, iqtisodiy mustaqilligi va iqtisodiy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlaydi;

tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini tuzadi;

O'zbekiston Respublikasining to'lov balansini ishlab chiqadi;
chet eldan olinadigan kreditlar uchun O'zbekiston Respublikasi Hukumatining kafolatlarini beradi;

O'zbekiston Respublikasining chet ellardagi mulkiga egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish sohasidagi *vakolatli davlat organi* hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi:

tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida davlat siyosati olib borilishini, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlari himoya qilinishiga doir vazifalar bajarilishini ta'minlaydi;

tashqi iqtisodiy faoliyatning qonunchilik negizi takomillashtirilishiga doir takliflarni ishlab chiqadi;

qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlari doirasida tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlari faoliyatini muvofiqlashtiradi va tartibga solib turadi;

tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish sohasidagi davlat boshqaruv organlari ishini muvofiqlashtiradi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasida qonun hujjatlari bilan tovarlar *eksporti, importini taqiqlash hamda cheklash* belgilanishi mumkin va ular quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

milliy xavfsizlikni ta'minlash;

fuqarolar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, hayvonot va o'simlik dunyosini hamda atrof muhitni muhofaza qilish;

ijtimoiy axloq-odobga va huquq-tartibotga rioya etish;

O'zbekiston Respublikasi xalqining madaniy merosini saqlash;

madaniy boyliklarni noqonuniy olib chiqish, olib kirish va ularga bo'lgan mulk huquqlarini boshqaga o'tkazishdan himoya qilish;

O'zbekiston Respublikasining to'lov balansini saqlab turish;

O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini bajarish;

tiklab bo'lmaydigan tabiiy resurslar tugatilishining oldini olish;

O'zbekiston Respublikasining boshqa manfaatlarini himoya qilish.

Tovarlarning ayrim turlarini *eksport va import qilish faqat ularni olib kirish yoki olib chiqish uchun tegishli ruxsatnoma (litsenziya)* olinganidan keyin amalga oshiriladi. Tovarlarning ayrim turlarining eksporti va importini amalga oshirish uchun litsenziyalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organlar tomonidan beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ayrim tovarlar turlarini eksport va import qilishga nisbatan miqdoriy cheklovlar (kvotalar) belgilashi mumkin. Kvotalarni taqsimlash, qoida tariqasida, tanlov yoki kim oshdi savdosi asosida amalga oshiriladi.

Eksport va import qilinishi litsenziyalanishi hamda kvotalanishi zarur bo'lgan tovarlar ayrim turlarining ro'yxati, shuningdek litsenziyalarni berish va kvotalarni taqsimlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Qurol-yarog'lar, harbiy texnika, ikki xil maqsadda ishlatilishi mumkin bo'lgan tovarlar va texnologiyalarga nisbatan tashqi iqtisodiy faoliyat amalga oshirilayotganda O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek xalqaro majburiyatlarga rioya etish maqsadlarida O'zbekiston Respublikasida eksport nazorati tizimi amal qiladi. Eksport nazoratiga tushadigan tashqi iqtisodiy faoliyat ob'yektlarining ro'yxati, shuningdek ularni olib

chiqish yoki tranzit tarzida olib o'tish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Xorijiy davlat tomonidan O'zbekiston Respublikasining va tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining iqtisodiy manfaatlarini buzuvchi choralar qabul qilingan taqdirda, shuningdek ushbu davlat xalqaro shartnomalarga ko'ra O'zbekiston Respublikasi oldida qabul qilgan o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalari va printsiplariga muvofiq tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida javob choralari kiritishga haqlidir.

Tovar importining ko'payganligiga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan muhofaza choralari qo'llanilishi mumkin.

Muhofaza choralarining qo'llanilish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Demping narxlaridagi tovar importiga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan antidemping bojlari qo'llanilishi mumkin. Antidemping bojlarining qo'llanilish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Subsidiya bilan ta'minlangan tovar importiga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan kompensatsiya bojlari qo'llanilishi mumkin.

Kompensatsiya bojlarining qo'llanilish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan tovarlar O'zbekiston Respublikasida belgilangan texnikaviy, farmakologiya, sanitariya, veterinariya, fitosanitariya va ekologiya standartlari hamda talablariga muvofiq bo'lishi lozim. O'zbekiston Respublikasining hududiga:

ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan standartlar va talablarga mos kelmaydigan;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda sertifikat, markirovkasi yoki muvofiqlik belgisiga ega bo'lmagan tovarlarni olib kirish taqiqlanadi.

Respublikaning hududida *erkin iqtisodiy zonalar* uchun tashqi iqtisodiy faoliyatning alohida tartibi (bojxona, valyuta, soliq va boshqalar) o'rnatilishi mumkin bo'lib, u erkin iqtisodiy zonalar to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solib turiladi.

O'zbekiston Respublikasi bojxona bojlari, soliqlar va ularga teng kuchga ega bo'lgan yig'imlarni bekor qilishga, tovarlarni eksport va import qilishning miqdoriy cheklovlariga, tovarlarning erkin harakat qilishi yo'lidagi boshqa to'siqlarni bekor qilishga qaratilgan *erkin savdo* to'g'risida xorijiy davlatlar bilan xalqaro shartnomalar tuzishi mumkin.

1.2.2. Respublika Vazirlar Mahkamasining Tashqi iqtisodiy aloqalar kompleksi

Vazirlar Mahkamasi apparati tuzilmasida Tashqi iqtisodiy aloqalar kompleksi tashkil etilgan. Quyidagilar Tashqi iqtisodiy aloqalar kompleksining asosiy vazifalari:

tashqi iqtisodiy, savdo aloqalarini rivojlantirish va amalga oshirishga doir faoliyatni muvofiqlashtirish hamda tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish;

tashqi iqtisodiy aloqalarning ahvoli hamda tashqi iqtisodiyot xavfsizligi ustidan davlat nazoratini ta'minlash;

eksport salohiyatini rivojlantirishga, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini va uning jahon iqtisodiyoti tizimiga integratsiyalashuvini oshirishga y'naltirilgan chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish;

qulay investitsiya muhitini shakllantirishga, iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish;

eng muhim tashqi iqtisodiy, investitsiya va tashqi savdo shartnomalari (bitimlar, kontraktlar, protokollar va boshqalar) tayyorlanishi va amalga oshirilishi ustidan muntazam monitoring olib borilishini ta'minlash.

Tashqi iqtisodiy aloqalar kompleksi rahbari apparatining tuzilmasi: Tashqi iqtisodiy aloqalar va xorijiy investitsiyalar departamenti; II.Mutasaddilik qilinadigan vazirliklar, idoralar va tashkilotlar; III.Rahbarlik qilinadigan respublika komissiyalari

Bosh vazir O'rinbosari yordamchisi; 1-toifali ish yurituvchi-kotiba

I.Tashqi iqtisodiy aloqalar va xorijiy investitsiyalar departamenti

Departament boshlig'i

1-toifali ish yurituvchi-kotiba

Eksport salohiyatini kengaytirish va import O'rnini to'ldirish (ishlab chiqarishni mahalliyashtirish) masalalari guruhi

Guruh rahbari

Bosh mutaxassis

Yetakchi mutaxassis

Xalqaro moliya va iqtisodiy tashkilotlar bilan aloqalar hamda Jahon savdo tashkiloti bilan hamkorlik guruhi

Guruh rahbari

Bosh mutaxassis

Yetakchi mutaxassis

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish va xorijiy investorlar bilan ishlash masalalari guruhi

Guruh rahbari

Bosh mutaxassis

Yetakchi mutaxassis

Mustaqil Davlatlar HamdO'stligi mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorlik masalalari guruhi

Guruh rahbari

Bosh mutaxassis

Yetakchi mutaxassis

Tashqi iqtisodiy aloqalarni huquqiy ta'minlash guruhi

Guruh rahbari (yurist)

Bosh mutaxassis (yurist)

Yetakchi mutaxassis (yurist)

Tashqi savdo va transport aksiyadorlik korxonalari faoliyati monitoringi guruhi: Guruh rahbari; Bosh mutaxassis; Yetakchi mutaxassis

Eksport imkoniyatini rivojlantirishni rag'batlantirish Respublika kengashi kotibiyati

Yetakchi mutaxassis

II. Mutasaddilik qilinadigan vazirliklar, idoralar va tashkilotlar:

Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi

Xorijiy sarmoyalar bo'yicha agentlik

"O'zmarkazimpeks" davlat tashqi savdo aksiyadorlik kompaniyasi

"O'zsanoatmashimpeks" davlat tashqi savdo aksiyadorlik kompaniyasi

"O'zinterimpeks" davlat tashqi savdo aksiyadorlik kompaniyasi

"Markazsanoateksport" davlat tashqi savdo aksiyadorlik kompaniyasi

"O'zmaxsusimpeks" davlat korxonasi "O'ztashqitrans" davlat-aksiyadorlik transport-ekspeditorlik kompaniyasi

"O'rta Osiyo Trans" xalqaro avtotransportda yuk tashish davlat-aksiyadorlik kompaniyasi

"O'zinvestloyiha" respublika injiniring kompaniyasi

"O'zbekinvest" kompaniyasi; "O'zbyuroKES"

Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, "Asaka" banki.

Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi:

- tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksporti har yilgi prognozlarini ishlab chiqish, shuningdek investitsiya dasturiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar ishtirokidagi loyihalarning aniq ro'yxati va yig'ma ro'yxati bo'yicha;

Vazirliklar va idoralar - importning o'rnini to'ldirish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturlarini shakllantirish va amalga oshirish masalalari bo'yicha;

Tashqi ishlar vazirligi, boshqa vazirliklar va idoralar - xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan iqtisodiy hamkorlik masalalari bo'yicha;

Vazirliklar va idoralar, qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklar - tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish masalalari bo'yicha.

III. Rahbarlik qilinadigan respublika komissiyalari

Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash idoralararo komissiyasi;

Idoralararo bojxona-tarif kengashi;

Davlat mulkini xorijiy investorlarga sotishda tender savdolari o'tkazish bo'yicha davlat komissiyasi;

Asosiy oziq-ovqat mahsulotlari harid qilish bo'yicha tenderlar o'tkazishni muvofiqlashtirish davlat komissiyasi;

Gruziya portlari orqali o'tadigan O'zbekiston Respublikasi yuklarini muvofiqlashtirish masalalari bo'yicha ishchi guruh;

Konsalting firmalari va davlat boshqaruv organlarining o'zaro hamkorligini amalga oshirish bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash.

1.2.3. Tashqi iqtisodiy aloqalar va xorijiy investitsiyalar departamenti faoliyati

Tashqi iqtisodiy aloqalar va xorijiy investitsiyalar departamenti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi apparatining tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi. Departament o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga.

Departament o'z faoliyatini bevosita O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Raisi, Bosh vaziri rahbarligida amalga oshiradi hamda ularga hisob beradi, ijro intizomini mustahkamlash masalalari bo'yicha esa - Vazirlar Mahkamasi Apparati Rahbariga hisob beradi /1/.

Departament tarkibiga quyidagi guruhlar kiradi:

Eksport salohiyatini kengaytirish va import o'rnini to'ldirish (ishlab chiqarishni mahalliyashtirish) masalalari guruhi;

Xalqaro moliya va iqtisodiy tashkilotlar bilan aloqalar guruhi;

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish va xorijiy investorlar bilan ishlash masalalari guruhi;

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorlik masalalari guruhi;

Eksport salohiyatini rivojlantirishni rag'batlantirish Respublika kengashi kotibiyati.

Departament tarkibiga shuningdek mustaqil yuridik shaxs bo'lgan O'zbekistonda Evropa Ittifoqi Komissiyasining texnikaviy yordamni muvofiqlashtirish Byurosi (O'ZbyuroKES) ham kiradi.

Departament ishlari maqomiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi vazirining birinchi o'rinbosariga tenglashtirilgan Departament boshlig'i rahbarlik qiladi.

Departament bo'linmalari ishiga O'zbekiston Respublikasi vazirining o'rinbosariga tenglashtirilgan guruh rahbarlari rahbarlik qiladi.

Departament boshlig'i va bo'linmalar rahbarlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

Quyidagilar *Departamentning asosiy vazifalari* hisoblanadi:

a) eksport salohiyatini kengaytirish va import o'rnini to'ldirish (ishlab chiqarishni mahalliyashtirish) sohasida vazirliklar, idoralar va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, xo'jalik

birlashmalari, mahalliy boshqaruv organlarining respublikaning eksport salohiyatini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish;

jahon tovar bozorlarining kompleks marketing tadqiqotlarini o'tkazish va eksport tarkibini yanada takomillashtirish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish;

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi hamda Davlat bojxona qo'mitasi bilan birgalikda tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportining har yilgi prognozlarini shakllantirish va ularning bajarilishini nazorat qilish;

eksport mahsulotlari miqdorini ko'paytirish va turlarini kengaytirish potentsial imkoniyatlarini tahlil qilish;

tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirishga doir takliflar tayyorlash;

xom ashyo, materiallar va butlovchi buyumlar ayrim turlari importining o'rnini qoplash tarmoq dasturlarini shakllantirishga doir ishlarni tashkil etish;

ishlab chiqarishlarni mahalliyashtirish dasturlarini shakllantirish ishlarini muvofiqlashtirish va ularni amalga oshirish monitoringini olib borish;

respublika vazirliklari va idoralarining xorijiy mamlakatlar bilan harbiy-texnikaviy hamkorlik dasturlarini amalga oshirishga doir faoliyatning muvofiqlashtirish;

b) xalqaro moliya iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlik sohasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro moliya va iqtisodiyot tashkilotlari bilan aloqalarini rivojlantirish va mustahkamlash bo'yicha hamkorlik strategiyasini ishlab chiqishda qatnashish va chora-tadbirlarni amalga oshirish;

xalqaro moliya va iqtisodiyot tashkilotlarining imtiyozli kreditlari va grantlarini mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va dasturlarini amalga oshirish uchun jalb etish ishlarini tashkil qilish;

texnikaviy ko'maklashish vositalarini jalb etish hamda O'zbekiston Respublikasining donor mamlakatlar bilan moliyaviy va texnikaviy hamkorligi dasturlari monitoringini olib borish;

vakolatli tijorat banklarining xalqaro moliya institutlari mablag'larini O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalarini amalga oshirishga jalb etishga doir ishlarini muvofiqlashtirish;

v) xorijiy investitsiyalarni jalb etish va xorijiy investorlar bilan ishlash sohasida O'zbekiston Respublikasida qulay investitsiya muhitining ahvolini tahlil qilish va uni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;

xorijiy investitsiyalarni jalb etishning qonunchilik va normativ bazasini yanada takomillashtirish, qo'shma korxonalar tashkil etish va ularning faoliyatini yo'lga qo'yish, xorijiy investorlar manfaatlarini muhofaza qilish ishlarini muvofiqlashtirish;

potentsial investorlarni O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhiti to'g'risidagi axborotlar bilan ta'minlash ishlarini muvofiqlashtirish;

xorijiy kreditlar va bevosita investitsiyalarni investitsiya dasturlari hamda ustuvor loyihalarni amalga oshirish uchun jalb etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarish;

vazirliklar, idoralar va mahalliy boshqaruv organlariga xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tashkil etish va ularning faoliyatini yo'lga qo'yishga ko'maklashish;

O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar loyihalari ro'yxatini shakllantirishda va mazkur loyihalarning amalga oshirilishi ustidan monitoring tashkil etishda qatnashish;

Vazirlar Mahkamasi kotibiyatlari va Departamentlari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Hukumati kafolati ostida amalga oshiriladigan eng yirik va strategik jihatdan muhim investitsiya loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslanishlarini, mablag' bilan ta'minlash sxemalarini ko'rib chiqish va ekspertizadan o'tkazilishini tashkil etish;

g) MDH mamlakatlari bilan davlatlararo munosabatlarni rivojlantirish va mustahkamlash

bo'yicha takliflar tayyorlash;

MDH mamlakatlari bilan ikki tomonlama iqtisodiy hamkorlik shartnomalari va bitimlarini tayyorlash hamda ularning amalga oshirilishini nazorat qilish ishlarini muvofiqlashtirish;

vazirliklar va idoralarning mintaqaviy hamkorlik doirasidagi bitimlarni bajarish masalalarida o'zaro hamkorligini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, idoralari hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlari tomonidan imzolangan ikki tomonlama va ko'p tomonlama idoralararo bitimlarning bajarilishini nazorat qilish.

Departament o'z zimmasiga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

Departamentning yuritishiga tegishli masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Hukumat qarorlari, shuningdek Vazirlar Mahkamasi rahbariyatining topshiriqlari bajarilishini nazorat qilish;

a) eksport salohiyatini kengaytirish va import o'rnini to'ldirish (ishlab chiqarishni mahalliyashtirish) sohasida

tashqi iqtisodiy faoliyatning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish ishlarini muvofiqlashtirish va ular yuzasidan takliflar tayyorlash;

manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksporti hajmini ko'paytirish va ular turlarini kengaytirish bo'yicha eksport qiluvchi korxonalarni rag'batlantirish yuzasidan takliflar tayyorlash;

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi, boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksporti prognozini ishlab chiqish va uning bo'yicha Vazirlar Mahkamasi qarorini tayyorlash; importning o'rnini to'ldirish va mahalliy xom ashyo negizida ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturlarini ishlab chiqish, shakllantirish va amalga oshirish yuzasidan vazirliklar, idoralar, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining ishini muvofiqlashtirish;

O'zbekiston Respublikasi qurolli Kuchlarini jihozlash, mamlakatning korxonalari va tashkilotlarini harbiy-texnik mol-mulk va maxsus texnologiyalar bilan jihozlash masalalari bo'yicha Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlash;

b) xalqaro moliya va iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlik sohasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro moliya va iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorligi, shuningdek ham qarz olingan, ham qarz olinmagan operatsiyalarni kengaytirish strategiyasini ishlab chiqishda qatnashish;

xalqaro moliya va iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari, texnik ko'maklashish vositalarini jalb etish bo'yicha takliflar tayyorlash, O'zbekiston Respublikasining xalqaro moliya va iqtisodiy tashkilotlar va donor mamlakatlar bilan moliyaviy va texnik hamkorligi dasturlarini monitoring qilish;

xalqaro moliya va iqtisodiy tashkilotlar bilan bitimlar loyihalarini tayyorlash, shuningdek imzolangan bitimlar bajarilishini nazorat qilish;

xalqaro moliya va iqtisodiy tashkilotlarning O'zbekiston Respublikasidagi vakolatxonalari faoliyatiga ko'maklashish, ularga zarur iqtisodiy axborot tayyorlash va taqdim etish ishlarini muvofiqlashtirish;

respublika vazirliklari, idoralari va tashkilotlarining mablag'' bilan ta'minlash va sug'urtalashni tashkil etish yuzasidan xalqaro moliya institutlari, xorijiy mamlakatlarning eksport-kredit agentliklari bilan o'zaro hamkorligini muvofiqlashtirish;

v) xorijiy investitsiyalarni jalb etish va xorijiy investorlar bilan ishlash sohasida xorijiy

investitsiyalarni jalb etishning qonunchilik va normativ bazasini hamda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini takomillashtirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish;

xorijiy davlatlarning siyosiy va ishbilarmon doiralari, xalqaro moliya-iqtisodiy institutlar va xorijiy banklar respublikadagi investitsiya muhiti va amalga oshirilishida xorijiy investorlar qatnashishi mumkin bo'lgan loyihalar to'g'risida keng xabardor etilishini tashkil etish;

xorijiy investitsiyalar jalb etilgan holda amalga oshiriladigan respublikaning ustuvor investitsiya loyihalari bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

bevosita xorijiy investitsiyalar jalb etilishiga, shuningdek investitsiya loyihalari, shu jumladan texnik-iqtisodiy asoslash ishlab chiqilishiga ko'maklashish;

xalqaro tashkilotlarning texnik-iqtisodiy asoslash ishlab chiqilishiga mo'ljallangan kreditlari va texnik yordamidan samarali foydalanilishini va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi investitsiya loyihalari amalga oshirilishini ta'minlash;

Vazirlar Mahkamasining Komplekslari kotibiyatlari va Departamentlari ko'magida xorijiy investitsiyalar jalb etilgan holda amalga oshiriladigan ayrim investitsiya loyihalari bo'yicha Hukumat qarorlari tayyorlanishi, qabul qilinishi va ularning ijro etilishi nazorat qilinishi jarayonini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi, Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi va Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi huzurida tashkil etiladigan xorijiy investitsiyalar jalb etilishini axborot bilan ta'minlashga doir maxsus guruhlar faoliyatini muvofiqlashtirish;

xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatining tashkiliy masalalari o'z vaqtida hal etilishini monitoring qilish;

xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xorijiy investorlar bilan ishlash masalalarida "O'zinvestloyiha" respublika injiniring kompaniyasi, Xorijiy investitsiyalar bo'yicha agentlik va investitsiya jarayonining boshqa qatnashchilari faoliyatini muvofiqlashtirish;

g) Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorlik sohasida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari iqtisodiyotining rivojlanishi ahvolini va ularda iqtisodiy islohotlarning borishini tahlil qilish hamda ular bilan iqtisodiy hamkorlik qilish strategiyasining asosiy yo'nalishlari bo'yicha takliflar tayyorlash;

Vazirlar Mahkamasi Kompleksi kotibiyatlari va Departamentlari bilan birgalikda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlik shartnomalari va bitimlari tayyorlash va ularning amalga oshirilishini nazorat qilish ishlarini muvofiqlashtirish;

O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, idoralari va xo'jalik yurituvchi sub'ektlari Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari sub'ektlari bilan imzolagan ikki tomonlama va ko'p tomonlama idoralararo bitimlar bajarilishini nazorat qilish.

Departament quyidagi huquqlarga ega: Vazirlar Mahkamasi Komplekslari kotibiyatlari va bo'limlari va Departamentlaridan, vazirliklar, idoralar, korporatsiyalar, uyushmalar, birlashmalar, korxonalardan, shuningdek barcha darajalardagi davlat boshqaruvi organlaridan Departament vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha materiallarni so'rab olish;

xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, tashqi iqtisodiy aloqalar masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat mulki qo'mitasi, barcha darajalardagi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, shuningdek davlat-tijorat banklarining hisobotlarini eshitish va o'z vakolatlari doirasida ularga toshpiriqlar berish;

tashqi iqtisodiy aloqalar sohasidagi eng muhim muammolarni maslahatlashish, o'rganish va hal etish, ushbu sohada takliflar tayyorlash uchun vaqtinchalik ishchi guruhlar tuzish uchun O'zbekiston Respublikasi olimlari va mutaxassislarini hamda xorijiy ekspertlarni jalb qilish;

moliyaviy va texnik ko'maklashish yuzasidan xalqaro moliya va iqtisodiy tashkilotlarga va xorijiy agentliklarga so'rovlar berish;

xalqaro hamkorlik masalalari bo'yicha xalqaro konferentsiyalar, kongresslar, simpoziumlar va kengashlar ishida, davlatlararo va hukumatlararo hamkorlik masalalariga doir muzokaralarda vazirliklar va idoralar rahbarlari ishtirokida kengashlar o'tkazish, ularning hay'atlari ishida, Vazirlar Mahkamasi majlislarida, ijroiya hokimiyat mahalliy organlari majlislarida, vazirliklar, idoralar, korporatsiyalar, uyushmalar va korxonalaridagi kengashlarda qatnashish;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini tashqi iqtisodiy va investitsiya faoliyati yuzasidan takomillashtirishga doir takliflar kiritish;

O'zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralari bilan, shuningdek o'zaro hamkorlik masalalari bo'yicha xalqaro, xorijiy, moliyaviy va iqtisodiy tashkilotlar bilan mustaqil ravishda yozishmalar olib borish;

o'z vakolatlari doirasida O'zbekiston Respublikasining vazirliklari va idoralari axborotidan va ma'lumotlar elektron bazalaridan foydalanish;

"O'zmaxsusimpeks" davlat korxonasi orqali davlat haridlari portfelini shakllantirishda O'zbekiston Respublikasining harbiylashtirilgan tuzilmalaridan harbiy-texnik mol-mulkka va maxsus texnologiyalarga bo'lgan ehtiyoj to'g'risida axborotni belgilangan tartibda so'rab olish.

Departament quyidagilarga majburdir: xorijiy investitsiyalar jalb qilingan investitsiya loyihalari amalga oshirilishi samaradorligi monitoringi natijalarini, tovarlar (xizmatlar) eksporti va importining yillik va uzoq muddatli prognozini, importning o'rnini to'ldirish va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturlari bajarilishini, shuningdek Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari bajarilishi bo'yicha hisobotlarni Vazirlar Mahkamasi rahbariyati ko'rib chiqishi uchun taqdim etish;

vazirliklar va idoralar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlarining, Vazirlar Mahkamasi qarorlarining tashqi iqtisodiy aloqalar va xorijiy investitsiyalar jalb qilingan investitsiya loyihalari amalga oshirilishi yuzasidan bajarilishi ustidan ta'sirchan nazorat qilish;

xorijiy hukumat muassasalarining moliyaviy va iqtisodiy tashkilotlarining va yirik investorlarning o'zaro hamkorlik qilish to'g'risidagi takliflarini ishlab chiqish. Departament o'zi qabul qilgan qarorlar uchun amaldagi qonun hujjatlari doirasida javob beradi.

Nazorat savollari

1. Amerikani transmilliy korporatsiyasi strategiyasi va yo'nalishi shakllari nimalardan iborat?
2. Integrirlashgan va integrirlashmagan tizimlar deganda nimani tushunasiz?
3. Integrirlangan (birlashgan) tizimlardagi soliqlar holatini hikoya qiling?
4. Jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarish turlari qanday?
5. Axborotli texnologiyani iqtisodiy o'sishiga ta'siri qila oladimi?
6. Xorijiy investitsiyalar departamenti faoliyati qanday vazifalarni amalga oshiradi?
7. Tashqi iqtisodiy faoliyatning qanday asosiy printsiplari mavjud?
8. Tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining majburiyatlari sanab bering?

2 bob. Xalqaro moliyaviy menejment va xorijiy investitsiya munosabatlari

Tayanch iboralar:

Moliyaviy menejment: xorijiy investitsiya va investorlar; valyuta bozori; tashqi savdo Lafferni fiskal nuqtalarini; subsidiarlik.

2.1.Xalqaro moliyaviy menejment dinamikasi

2.1.1.Iqtisodiyot tarmoqlari va mulkchilik shakllari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi

Iqtisodiyotda izchillik bilan amalga oshirilayotgan tuzilmaviy o'zgarishlar va modernizatsiyalash jarayoni investitsion faollikni ta'minladi. Bunday sharoitda investitsion faollik joriy yilda 3012,9 mlrd. so'mlik kapital qo'yilmalarni o'zlashtirish imkonini berdi. Investitsiyalarning o'sish hajmi 107%ga teng bo'lib, 2004 yilga nisbatan 1,8 foizga bandiga yuqori bo'ldi. YAIMda investitsiyalarning ulushi 2004 yilgi 20,2% o'rniga 2005 yilda 19,8%ga teng bo'ldi. Investitsiyalash muhitida yaratilgan shart-sharoitlar iqtisodiy rivojlanishga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

Joriy yilda iqtisodiyot uchun muhim bir qator ob'yektlar: Tollimarjon issiqlik elektr energiyasi stantsiyasi (IES) ning energiya bloki, "Kogon-Gazli" va "Muborak-G'allaorol" magistral gaz quvurlarining muhim qismlari, Ko'kdumaloq konida gazni qazib olishda qo'shimcha chiqindi gazlardan foydalanishni yo'lga qo'yish, engil sanoatda paxtadan yigirilgan ip, trikotaj va tikuvchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha xorijiy ta'sischi ishtirokidagi bir qator qo'shma korxonalar ishga tushirildi.

Umumiy investitsiyalar hajmining o'sishi bilan asosiy kapitaldagi investitsiyalar hajmining mulkchilik shakllari bo'yicha o'zgarishi kuzatildi. Davlat sektoriga yo'naltirilgan investitsiyalarning ulushi 5,2 foiz bandiga kamayib, iqtisodiyotga kiritilgan barcha investitsiyalarning 36,2% ini tashkil qildi. Ushbu ko'rsatkichga mos ravishda nodavlat sektorga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 63,8% ga oshirildi (2.1-jadval).

2.1-jadval.Mulkchilik shakllari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning taksimlanishi tarkibi (%)

	04/1	04/1-11	04/-III	2004	05/I	05/I-II	05/-III	2005
Asosiy kapitalga investitsiyalar	100	100	100	100	100	100	100	100
Davlat mulki	40,8	43,7	42,8	41,4	32,3	40,3	39,8	36,2
Nodavlat mulki	59,2	56,3	57,2	58,6	67,7	59,7	60,2	63,8

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Iqtisodiyotning barcha sohalarini erkinlashtirish, soliq tizimini bosqichma-bosqich takomillashtirish sanoat ishlab chiqarishining moliyaviy jihatdan barqarorligini ta'minladi, bu esa o'z navbatida korxonalarning o'z (ichki) mablag'larini shakllantirishda foyda ulushining ko'payishini faollashtirdi, xususi sektorning investitsion faolligini oshirdi. Moliyalashtirish manbalari bo'yicha kapital qo'yilmalar umumiy tarkibida korxonalarning o'z mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan investitsiyalarining ulushi 5,3 foiz bandiga o'sib, 48,5% ga teng bo'ldi.

Zamonaviy texnologiyalarni tadbqiq qilish zaruriyati, tadbirkorlik bo'yicha chel el tajribasini o'zlashtirish va investitsiya muhitining yaxshilanishi borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar mamlakatda kapital qo'yilmalarning umumiy hajmida chet el investitsiyasi tarkibining o'zgarishiga olib keldi. Bunda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni olib kirishning faollashuvi kuzatildi. 2005 yilda ushbu ko'rsatkich umumiy xorijiy investitsiyalarning 68,7 % ini tashkil etdi. 2005 yilda iqtisodiyotga 356,4 mln. AQSH dollari miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kiritildi, bu ko'rsatkich 2004 yilga nisbatan 1,5 marta ko'pdir.

"MTS" KK, "Bilayn" SHK, "Ko'kdumaloq-gaz" KJK, "Jarqo'rgon neftni qayta ishlash" KJK, "Farm Glas" qo'shma korxonalari va boshqa korxonalardagi qurilish va asbob-uskunalarining

keltirilishi hisobiga investitsiyalar hajmi oshdi.

Korxonalar mablag'lari hisobiga shakllangan investitsiyalar ulushining keskin o'sishi hisobiga, kapital qo'yilmalarning umumiy hajmidagi aholi mablag'larining ulushi 11,8% gacha pasaydi yoki o'tgan yilga nisbatan 0,6 foiz bandiga past bo'ldi. AHOLI mablag'larining asosiy qismi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga yo'naltirilgan bo'lib, ushbu investitsiya salohiyatidan past darajada foydalanilmoqda.

Byudjetdan tashqari fondlar mablag'larining investitsiya loyihalarini amalga oshirishga faol jalb qilinishi investitsiyalar hajmining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Byudjetdan tashqari fondlar mablag'larining kapital qo'yilmalari tarkibidagi ulushi 2,3 foiz bandiga oshib, umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi 4,7% gacha oshdi. Byudjetdan tashqari fondlar, jumladan Respublika yo'l fondi mablag'lari respublika va mahalliy darajadagi avtomobil va temir yo'llarni qurish va qayta ta'mirlash uchun ajratildi.

Bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar natijasida qisqa muddatli va uzoq muddatli bank kreditlarining o'rtacha foiz stavkalari kamaytirildi va uning natijasida tijorat banklarining iqtisodiyotning real sektorini investitsiyalashtirish jarayonidagi ulushi 2,9 % gacha oshdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 0,6 foiz bandiga yuqori bo'ldi.

Investitsiya jarayonlarida davlatning ishtirokini qisqartirishga yo'naltirilgan mamlakatda o'tkazilayotgan ma'muriy islohotlar markazlashtirilgan mablag'lar hajmining pasayishiga olib keldi. 2005 yilda byudjet mablatlari hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalar hajmi 384 mlrd. so'm atrofida, hukumat kafolati evaziga kiritilgan chet el investitsiyalari hajmi 180,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Davlat byudjetining to'g'ridan-to'g'ri harajatlarining asosiy kapitalga qo'yilgan jami investitsiyalardagi ulushi 2,1 foiz bandiga, hukumat kafolati bilan jalb qilingan xorijiy investitsiyalarning ulushi esa 8,5 foiz bandiga qisqardi va bu mos ravishda 2005 yilgi jami investitsiyalar hajmining 12,8% va 6,0 % ini tashkil etdi.

2005 yilda asosan asosiy kapitalga investitsiyalar oqimining qayta taqsimlanishi bilan bog'liq bo'lgan sanoat va infratuzilma tarmoqlarining rivojlanishi iqtisodiy o'sishga katta ta'sir ko'rsatdi. Investitsiyalarga bo'lgan talab dinamikasi tarmoqlar va texnologik tuzilmalarning o'zgarishi omillarining jami ta'siri bilan aniqlanadi.

2005 yildagi investitsiyalar hajmining 50,1%i iqtisodiyotning tayanch tarmoqlari (sanoat, transport va aloqa) ga yo'naltirildi, bu esa kapital qo'yilmalarning salmoqli hajmining (65,3% gacha) ishlab chiqarish sohasida to'planishiga olib keldi. Ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 1968,3 mlrd.so'mni tashkil etdi (2.2-jadval).

2.2.-jadval. Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi (%)

	04/I	04/I-II	04/I-III	2004	05/I	05/I-II	05/I-III	2005
Jami	100	100	100	100	100	100	100	100
Ishlab chiqarish yo'nalishiga	63,4	55,7	56,2	64,1	67,4	61,1	62,2	65,3
Sanoat	28,1	23,3	26,7	28,5	33,1	28,5	30,1	29,9
Qishloq xo'jaligi	5,0	2,9	3,0	3,4	2,9	3,3	3,4	3,2
Qurilish	0,2	0,3	0,5	0,5	2,8	0,4	0,6	0,8
Transport va aloqa	21,7	19,0	17,1	23,1	22,0	23,1	21,6	20,2
Savdo va umumiy ovqatlanish	1,5	1,2	1,4	1,3	1,3	0,9	1,3	1,3
Boshqa sohalar	6,9	9,0	7,5	7,3	5,3	4,9	5,2	9,9
Noishlab chiqarish yo'nalishiga	36,6	44,3	43,8	35,9	32,6	38,9	37,8	34,7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi.

Sanoatda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2,5% ga oshdi. Uning jami kapital

qo'yilmalardagi ulushi 29,9 % ni tashkil etdi yoki 1,3 foiz bandiga o'sdi. Sanoatni rivojlantirish uchun o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lar hisobiga Kandim uglevodorod konlari o'zlashtirildi, shuningdek PXG Tazli" siquv kompressor stantsiyasida, Dex, konobod kaliyli o'g'itlar zavodida, shisha va oyna ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Kvarts" AJda va iste'mol majmuida faoliyat yuritayotgan bir qator qo'shma korxonalarda qurilish ishlari amalga oshirildi. Samarqand kimyo va Qo'qon superfosfat zavodlarida ta'mirlash ishlari olib borildi. «UzKeys - Traktor» qo'shma korxonasida universal chopiq traktorlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va Toshkent Issiqlik energiyasi stantsiyasini modernizatsiyalash ishlari davom ettirilmoqda.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar infratuzilma tizimlarini ustivor rivojlantirishni va transport va aloqa tarmoqlarini rivojlantirishga qo'shimcha investitsiyalar kiritishni ta'minlab berdi. Ushbu sohalarga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi ularning umumiy hajmida 20,2% ni tashkil etdi. Dizel lokomotivlar parki modernizatsiya qilindi, Toshguzar-Boysun-qumqo'rg'on temir yo'l yo'nalishi tizimlarini hamda bir qator xalqaro ahamiyatga molik avtomobil yo'llarini qayta ta'mirlash ishlari davom ettirilmoqda. Aloqa va axborotlashtirish agentligi tomonidan respublika telekommunikatsiya tarmog'ini modernizatsiyalashning ikkinchi bosqichi amalga oshirildi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 0,2 foiz bandiga qisqardi, bu infrastruktura ob'ektlari va don ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltirilgan qismining kamayishi bilan bog'liq bo'ldi. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalarning kapital qo'yilmalar umumiy tarkibidagi ulushi 3,2% ni tashkil etdi. Jizzax va Sirdaryo viloyatlari hududida suv xo'jaligi ob'ektlarini qurish, janubiy Qaraqalpog'istonda erning zaxini ko'chirish tizimini yaratish bo'yicha qurilish ishlari va Amu-Zang kanali nasos stantsiyalarini qayta ta'mirlash ishlari olib borildi.

Iqtisodiyotning tarmoqlari bo'yicha xorijiy kapitalning tarkibida ma'lum bir siljishlar yuz berdi. 2005 yilda xorijiy kapitalning hajmi 518,2 mln. AQSH dollarini tashkil qildi. Ishlab chiqarish sohasida uning ulushi 3,5 foiz bandiga oshdi yoki umumiy investitsiyalar hajmining 86,2% ini tashkil etdi. Sanoat tarmog'ini investitsiyalash uchun eng muhim tarmoq bo'lib bormoqda. Chet el kapitalining oshishi sanoat tarmoqlarida 9,2 foiz bandini tashkil etdi. Chet el investorlari uchun eng o'ziga jalb etadigan soha sifatida transport va aloqa tarmoqlari sakllanib bordi. Ushbu sohalarni rivojlantirish uchun yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi chet el kapitalining umumiy ulushida 30,2% ni tashkil etdi (2.3-jadval),

2.3-jadval. Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar tarkibi (%)

	04/I	04/I-II	04/I-III	2004	05/I	05/I-II	05/I-III	2005
Jami:	100	100	100	100	100	100	100	100
Ishlab chiqarish yo'nalishiga	81,8	78,7	73,6	82,7	90,6	90,6	88,7	86,2
Sanoat	45,1	37,5	39,3	39,0	65,3	54,4	57,6	48,2
Qishloq xo'jaligi	0,2	0,1	0,3	0,7	2,0	1,8	1,8	2,4
Qurilish	-	-	-	-	0,7	0,3	0,3	0,2
Transport va aloqa	26,3	33,0	28,6	37,9	21,9	33,7	28,8	30,2
Savdo va umumiy ovqatlanish	-	-	-	0,3	0,0	0,0	0,1	0,1
Boshqa sohalar	10,2	8,1	5,4	4,8	0,7	0,4	0,1	5,0
Noishlab chiqarish yo'nalishiga	18,2	21,3	26,4	17,3	9,4	9,4	11,3	13,8

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi.

Sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar tarkibida ma'lum ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Sanoatda investitsiyalarga bo'lgan eng ko'p talab yoqilg'i energetika va metallurgiya majmuiga to'g'ri kelgan bo'lsada, investitsiyalashning tarmoqlar bo'yicha diversifikatsiyasi tendentsiyasini kuzatish mumkin (2.4-jadval).

Yoqilg'i tarmog'ida investitsiya ulushi 28,4%ni tashkil etdi, bu o'tgan yilga nisbatan 8,1 foiz bandiga oshganligini ko'rsatadi va ushbu tarmoqning rivojlanishining yangi bosqichiga chiqqanligi bilan izohlanadi. Elektr energetikasiga investitsiyalar hajmi 0,8 foiz bandiga kamaydi, yoki 8,7 % gacha kamaydi. Metallurgiya kompleksida investitsiya ulushi 4,7 foiz bandiga yoki 21,1 % gacha oshdi buning asosiy omili qora metallurgiya sohasining rivojlanishi bilan bog'liq (3,6 foiz bandiga oshgan).

Mashinasozlik kompleksida (3,2% dan 3,1 % ga), kimyo va neft kimyosi sohasida (7,5 % dan 6,6 % ga) va engil sanoatda (21,0 % dan 15,4 % ga) investitsiyalar ulushining qisqarishi kuzatildi.

2.4-jadval. Sanoat tarmoqlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi (%)

	04/I	04/I-II	04/I-III	2004	05/I	05/I-II	05/I-III	2005
Sanoat, jami	100	100	100	100	100	100	100	100
Elektr energetikasi	11,4	11,9	11,1	9,5	9,5	8,5	7,6	8,7
Yoqilg'i	13,7	18,2	17,7	20,3	23,1	30,6	29,3	28,4
Metallurgiya	10,6	13,0	13,8	16,4	12,9	20,2	19,9	21,1
Mashinasozlik	2,1	2,4	2,4	3,2	2,4	2,6	3,2	3,1
Yengil sanoat	28,1	21,8	23,8	21,0	15,1	13,9	15,7	15,4
Oziq- ovqat sanoati	2,9	4,8	5,5	5,0	3,5	3,5	4,3	4,4
Kimyo va neft kimyosi	24,8	16,9	11,0	7,5	10,5	7,4	6,5	6,6
Qurilish materiallari	2,0	2,6	2,4	1,9	4,9	1,6	3,4	3,3
Boshqa tarmoqlar	4,3	8,4	12,3	15,2	18,1	11,7	10,1	9,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi.

Sanoat tarmoqlarida asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibining o'zgarishiga xorijiy investitsiyalar oqimining tarmoqlar bo'yicha o'zgarishi sabab bo'ldi. Uoqilg'i sanoatida xorijiy investitsiyalarning ulushi 18,6 % gacha, metallurgiya majmuida 16,7 % gacha o'sdi. Yoqilg'i sanoati va metallurgiya majmuiga xorijiy investitsiyalarning jiddiy sur'atda o'sishi uglevodorod konlarini o'zlashtirishning boshlanishi va mavjud tog' qazib chiqarish korxonalarining texnik uskunalari bilan qayta ta'minlanishi bilan bog'liq. (2.5 - jadval).

2.5-jadval. Sanoat tarmoqlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar tarkibi (%)

	04/I	04/I-II	04/I-III	2004	05/I	05/I-II	05/I-III	2005
Sanoat -jami	100	100	100	100	100	100	100	100
Elektr energiyasi	8,7	6,8	7,8	6,6	6,5	3,5	3,2	2,6
Yo'qilgi	2,0	2,3	1,3	4,5	6,3	24,1	22,7	18,6
Metallurgiya	0,1	0,0	0,0	5,5	11,4	16,9	15,6	16,7
Mashinasozlik	0,1	0,5	1,3	1,5	0,1	1,5	1,1	1,7
Yengil sanoat	55,2	56,3	61,5	50,1	31,9	32,5	35,5	38,5
Oziq-ovqat sanoati	0,7	3,3	2,6	3,6	2,6	3,0	4,4	5,5
Kimyo va neft kimyosi	32,1	24,7	15,5	9,2	1,2	0,5	0,8	0,9
Qurilish materiallari	0,0	2,2	1,4	0,8	8,7	-	3,9	3,5
Boshqa tarmoqlar	1,1	3,9	8,6	18,2	31,3	18,0	12,8	12,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi.

Investitsiya jarayonlarini tartibga solish mexanizmi sifatida Investitsiya dasturlarning amalga oshirilishi yangi qurilish ob'yektlari hajmining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Mashina va mexanizmlarni sotib olishga yo'naltirilgan harajatlarning kamayishi va qurilish-montaj ishlariga bo'lgan harajatlarning oshishi kuzatildi. Yangi mashina va mexanizmlarni sotib olishga sarflangan investitsiyalarning ulushi 4,8 foiz bandiga kamaydi va iqtisodiyotda amalga oshirilgan investitsiyalar umumiy hajmining 38,8 % ini tashkil qildi (2.6-jadval).

2.6 - jadval Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi (%)

	2000	2001	2002	2003	2004	2005	04/I	04/I-II	04/I-III	05/I	05/I-II	05/I-III
--	------	------	------	------	------	------	------	---------	----------	------	---------	----------

Jami	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Qurilish –montaj ishlari	61,0	48,2	53,1	48,4	45,6	47,0	50,4	53,8	50,9	48,5	54,2	52,6
Mashinalar, uskunalar, inventarlar	25,0	39,5	35,1	39,7	43,6	38,8	37,9	32,4	37,6	37,7	34,0	34,8
Boshqa harajatlari	14,0	12,3	11,8	11,9	10,8	14,2	11,7	13,8	11,5	13,8	11,8	12,6

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi.

Investitsiya jarayonlarining yanada faollashuvi ko'p jihatdan mahalliy va chet el investorlarini, birinchi navbatda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish va rag'batlantirish bo'yicha amaliyotda ishlab chiqilgan mexanizmlar va richaglarga ko'p tomonlama bog'liq.

2.1.2.O'zbekistan Respublikasi va MDH davlatlari bo'yicha inflyatsiyaning dinamik holati

2005 yilda iste'mol sektorida bahoning umumiy o'sishi 7,8 foizni tashkil qildi. Pullik xizmatlar narxlarining nisbatan sekin o'sishi inflyatsiyaning umumiy darajasiga ijobiy ta'sir etdi (2003 yilda 26,7% va 2004 yilda 22,1 % dan, 2005 yilda 13,5 % gacha) (2.7-jadval).

Oxirgi ikki yil davomida YAIM deflyatori bo'yicha inflyatsiyaning 15-16 % darajasida barqaror saklanishi kuzatilmoqda.

2.7-jadval. 2001-2005yy. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha inflyatsiyaning asosiy indikatorlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan bahoning o'sishi, %)

Yillar	Iste'mol baholar indeksi (IBI)	Oziq-ovqat tovarlari	Nooziq-ovqat tovarlari	Xizmatlar
2001	27,4	27,9	21,1	36,9
2002	27,6	28,0	19,3	41,3
2003	10,3	5,4	13,9	30,9
2004	1,6	-4,7	6,3	23,6
2005	6,4	4,2	4,9	17,1
04/I	0,7	-6,4	7,2	26,6
04/II	-1,3	-9,1	6,6	25,6
04/III	2,6	-2,6	5,8	20,4
04/IV	4,6	0,1	5,6	22,3
05/I	4,2	0,5	4,5	19,2
05/II	6,8	5,0	3,9	18,2
05/III	7,2	5,8	4,2	17,4
05/IV	7,2	5,6	6,9	14,2

Manba: UzR Davlat statistika qo'mitasi.

Yil davomida bahoning o'zgarishini, O'zbekistan sharoitidagi mavsumiy baho tebranishlar bilan izohlash mumkin. Misol uchun, meva-sabzavot mahsulotlari baholarini mavsumiy tebranishini keltirish mumkin. Odatda, meva-sabzavot mahsulotlari baholari qish va bar oylarida eng yuqori darajada, yoz va kuz oylarida esa eng past darajada bo'ladi. Jumladan, agar 1 kg kartoshkaning o'rtacha bahosi 2005 yilning dekabr oyida eng yuqori darajaga (309 so'm) ko'tarilgan bo'lsa, avgust oyida esa 192 so'mgacha pasaygan, 1 kg piyozning eng yuqori bahosi esa may oyida kutarilib 203 so'mni, eng past bahosi esa avgust oyida 193 so'mni tashkil qilgan. IBIni hisoblashda foydalaniladigan O'zbekiston Respublikasi iste'mol savatida meva-sabzavot mahsulotlarining ulushi 8,5 foizni tashkil qilgan. Yoz va kuz oylarda narxlarni sezilarli darajada kamayishini hisobga olib, mamlakat aholisi yil davomida saqlash va iste'mol qilish maqsadida asosan kuz oylarida bu mahsulotlarni sotib oladilar. Bu o'z navbatida shu davrda bahoning umumiy darajasini kamayishiga

ta'sir etadi.

2.8-jadval. 2004-2005 yillarda inflyatsiya darajasi (baholarning o'sishi, % da)

	O'rtacha oylik darajasi		O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan	
	2004 i.	2005 i.	2004 i.	2005 i.
IBI	0,3	0,6	3,7	7,8
Oziq-ovqat tovarlari	-0,1	0,5	-1,2	6,7
Nooziq-ovqat tovarlari	0,4	0,6	5,3	6,9
Xizmatlar	1,7	1,1	22,1	13,5

Manba: O'zR Davlat statistika qo'mitasi.

2.9-jadval. 2005 yilda O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha jami iste'mol (%)

Hududlar	Baho o'sishi	O'rtacha oylik
O'zbekiston Respublikasi	7,76	0,62
Xorazm	10,12	0,81
Buxoro	9,16	0,73
Tashkent sh.	8,47	0,68
Samarqand	8,29	0,67
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8,73	0,70
Sirdaryo	7,61	0,61
Farg'ona	7,34	0,59
Toshkent	7,14	0,58
Navoiy	6,66	0,54
Jizzax	6,62	0,54
Qashqadaryo	6,36	0,51
Surxondaryo	6,14	0,50
Andijon	6,05	0,49

Manba: O'zR Davlat statistika qo'mitasi.

2005 yilda inflyatsiya taklifini inflyatsiya talabidan yuqoriligi kuzatilgan: sanoat mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarni ulgurji baholarining o'rtacha oylik o'sishi 2,1% ga, iste'mol baholari esa 0,6 % ga oshgan. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar baholarining o'sish manbalarini omilli tahlili shuni ko'rsatdiki, 2005 yilda real sektordagi inflyatsiya darajasiga asosan energiya tashuvchilar baholarining o'sishi (49,9 %), milliy valyuta ayriboshlash kursining deval'vatsiyasi (8,8 %) va ish haqining o'sishi (8,7 %) ko'proq ta'sir qilgan (2.10-jadval).

2.10-jadval. 2005 yilda real sektorda inflyatsiya darajasining omilli tahlili

	IBIga ta'siri (%)	Jamiga nisbatan %
Jami omillarning ta'siri	28,1	100,0
Energiya tashuvchilar tariflarining oshishi	14,04	49,9
Birjadan tashqari ayriboshlash kursi	2,48	8,8
Ish haqi	2,45	8,7
Transport harajatlari	1,42	5,1
Boshqa omillar	7,72	27,5

Manba: O'zR Iqtisodiyot vazirligi.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish MDH davlatlarida 2005 yil yanvar-dekabrida IBI bo'yicha inflyatsiya darajasi - minus 0,6 % dan (Armanistonda) 11,1 % gachani (Moldovada)


tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkich Qozog'istonda -9,5 % va Rossiyada - 10,9 % ni , Ukrainada tashkil qilgan.

2.11- jadval. Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi, joriy narxlarda

	Asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish %da
2000	744,5	1
2001	1320,9	3,7
2002	1442,4	3,8
2003	1867,4	4,5
2004	2473,2	5,2
2005	3012,9	7,0
04/I	346,8	-0,4
04/I-II	912,0	2,2
04/I-III	1529,6	3,0
05/I	502,2	4,2
05/I-II	1272,8	5,4
05/I-III	2023,0	6,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi, %



2.1-chizma.

2.12-jadval. Asosiy kapitalga investitsiyalarning mulk shakllari bo'yicha taqsimlanish tarkibi

	2000	2001	2002	2003	2004	2005	04/I	04/I-II	04/I-III	05/I	05/I-II	05/I-III
Asosiy kapitalga investitsiyalar	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Davlat mulki	63,8	47,0	40,9	40,4	41,4	36,2	44,5	45,6	43,0	44,5	45,6	43,0
Nodavlat mulk	36,2	53,0	59,1	59,6	58,6	63,8	55,5	54,4	57,0	55,5	54,4	57,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi.


2.13-jadval. Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tarkibi (%)

	2000	2001	2002	2003	2004	2005	04/I	04/I-II	04/I-III	05/I	05/I-II	05/I-III
--	------	------	------	------	------	------	------	---------	----------	------	---------	----------


Jami	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Ishlab chiqarish yo'nalishiga	57,5	63,1	57,1	63,0	64,1	65,3	65,0	58,1	56,5	67,4	61,1	62,2
Sanoat	29,7	38,9	32,4	28,0	28,6	29,9	28,1	24,3	26,7	33,1	28,5	30,1
Qishloq xo'jaligi	5,7	5,5	5,8	4,3	3,4	3,2	4,2	3,0	3,0	2,9	3,3	3,4
Qurilish	0,5	0,6	0,4	0,5	0,4	0,8	0,2	0,3	0,5	2,8	0,4	0,5
Transport aloqa va	16,7	14,0	10,0	20,3	23,1	20,2	23,6	19,8	17,2	22,0	22,5	21,6
Savdo umumiy ovqatlanish va	4,3	1,6	2,6	3,3	1,3	1,3	1,6	1,3	1,4	1,3	0,9	1,3
Boshqa sohalar	0,6	2,6	5,9	6,6	7,3	9,9	7,3	9,4	7,7	5,3	5,5	5,3
Noishlab chiqarish sohalariga	42,5	36,9	42,9	37,0	35,9	34,7	35,0	41,9	43,5	32,6	38,9	37,8

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning sanoat tarmoqlari bo'yicha tarkibi, %



2.2-chizma.



2.3-chizma.

2.1.3. Davlat byudjeti daromadlari harajatlarini tarkibi va bajarilishi

Davlat moliyasi makroiqtisodiy barqarorlik va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, iqtisodiyotda tuzilmaviy o'zgarishlarni amalga oshirish, tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va aholi moddiy turmushining muntazam yaxshilashib borishi bilan chambarchas bog'liq.

2005 yilda davlat byudjeti daromadlari siyosati iqtisodiyotda soliq yukini yanada kamaytirish, soliq solish tartibini soddalashtirish, soliq ma'murchiligini takomillashtirishga yo'naltirildi.

Byudjet va soliq tizimida amalga oshirilgan islohotlarning asosiy natijalari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- soliq yuki kamaydi. Yuridik shaxslar daromadiga solinadigan soliq stavkasi 18 % dan 15 %ga, yagona ijtimoiy soliq 33 % dan 31 % ga pasaytirildi. Natijada, davlat byudjetidagi soliqlarning YAIMga nisbatan ulushi 22,6 % gacha qisqardi;

- hisob-kitoblarga ko'ra, faqatgina daromad soliq stavkasining kamaytirilishi hisobiga bo'shagan va korxona ixtiyorida qolgan mablag'lar 40 mlrd.so'mdan oshdi. Ushbu mablag'lar korxonaning investitsiya maqsadlariga yo'naltirilishi mumkin;

- yagona soliq to'lovining kiritilishi soliq to'lovchilar tomonidan soliq organlariga taqdim etiladigan hujjatlar sonini deyarli 10 barobarga qisqartirdi.

2.14-jadval. Davlat byudjeti daromadlar qismining bajarilishi (YAIM ga nisbatan %da)

Ko'rsatkichlar	2000	2001	2002	2003	2004	2005
Daromadlar, jami	28,5	26,0	25,2	24,2	22,5	22,6
1. To'g'ri soliqlar	7,5	7,4	6,8	6,4	6,0	6,1
2. Egri soliqlar	16,0	13,5	13,8	14,0	12,6	10,5
3. Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	2,8	2,4	1,9	2,3	2,6	4,6
4. Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	0,3	0,3	0,5	0,4	0,4	0,4
5. Boshqa daromadlar	1,9	2,4	2,2	1,1	0,9	1,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

Davlat byudjeti daromadlar qismining bajarilishi ko'rsatkichlari shuni ko'rsatadiki, ushbu

ko'rsatkich 2005 yilda 2004 yil bilan taqqoslaganda deyarli o'zgarmadi. Davlat byudjeti daromadlari YAIMga nisbatan 2004 yildagi 22,5 % o'rniga 2005 yilda 22,6 % ni tashkil etdi. Bundan tendentsiya egri soliqlarning kamayishi (2004 yildagi 12,6 % o'rniga 2005 yilda 10,5 %) va resurs to'lovlarining o'sishi hisobiga ta'minlandi. Egri soliqlar ulushining kamayishi aktsiz solig'i bo'yicha yig'implarning foizli qiymatining kamayishi hisobiga ro'y berdi. Biroq, yuridik shaxslarning mol-mulki solig'i stavkalarining oshishi natijasida resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i qatorida sezilarli o'sish kuzatildi (2004 yildagi 2,6 % o'rniga 2005 yilda 4,6 %). Lekin, shuni ta'kidlab o'tish muhimki, davlat byudjeti daromadlari hajmi istiqbol ko'rsatkichidan 39 % ga yuqori bo'ldi. Bu soliq bazasining kengayishi hisobiga ro'y berdi.

2005 yil yakunlariga ko'ra, daromadlar tarkibida to'g'ri soliqlar bo'yicha tushumlar darajasi davlat byudjeti jami daromadlarining 27 % ini tashkil qilib, o'zgarmasdan qoldi. Egri soliqlar bo'yicha tushumlar 2005 yilda 46,4 % ni tashkil etdi, bu esa 2004 yilga nisbatan 9,6 foiz bandiga kam. Egri soliqlar bo'yicha tushumlarning kamayishining sababi bir birlik mahsulotga aktsiz solig'ini hisoblab chiqarishning qat'iy belgilangan stavkaga o'tkazilganligidir. Yuridik shaxslar mol-mulk solig'i stavkasining 3,0 % dan 3,5% ga oshganligi sababli, resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i bo'yicha tushumlar 2004 yildagi 11,5 % dan 2005 yilda 20,2 % gacha sezilarli oshdi.

2.15-jadval. To'g'ri soliqlar tarkibi

	2000Y.	2001Y.	2002Y.	2003Y.	2004Y.	2005Y.
To'g'ri soliqlar	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100
1.Yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i	49,4	39,7	34,4	34,1	29,9	30,4
2. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yalpi daromad solig'i	-	-	-	-	8,5	7,8
3. Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi		7,8	13,1	14,1	10,2	10,0
4.Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq.	44,5	44,9	45,6	46,7	46,2	46,9
5.Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq	6,1	7,6	6,9	5,1	5,2	4,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

To'g'ri soliqlar tarkibida, jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqlar, 46 % dan ortiq ko'rsatkich bilan yuqori o'rin tutadi. Yuridik shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq; stavkasining kamayishiga qaramasdan, u bo'yicha tushumlarlarning to'g'ri soliqlar tarkibidagi ulushi oshishi kuzatildi va 2004 yildagi 29,9 % o'rniga 2005 yilda 30,4 % ni tashkil qildi. Bu holat korxonalar uchun kam samarali imtiyozlarni bekor qilish bilan izohlanishi mumkin.

2.16-jadval. Egri soliqlar tarkibi

	2000Y.	2001 i.	2002Y.	2003Y.	2004Y.	2005Y.
Egri soliqar	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
1.Qo'shilgan qiymat solig'i	47,3	48,8	43,9	39,6	42,5	51,1
2. Aktsiz solig'i	48,4	46,3	48,3	51,3	48,2	37,7
3. Bojxona boji	2,0	2,7	2,9	3,0	3,6	4,7

4. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yagona bojxona to'lovi	2,3	2,2	2,4	3,3	2,5	2,1
5. Jismoniy shaxslarning transport vositalarining benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moli uchun olinadigan soliq	—	—	2,5	2,8	3,2	4,4

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

Egri soliqlar davlat byudjeti jami daromadlarining yarmidan ko'p qismini ta'minlab beradi. Agar ushbu soliqlar tarkibini qarab chiqadigan bo'lsak, qo'shilgan qiymat SOLIG'I bo'yicha tushumlar egri soliqlar tarkibidagi ulushi bo'yicha birinchi o'rinni egalladi. 2005 yilda qo'shilgan qiymat solig'i ulushi 2004 yildagi 42,5 % o'rniga 51,1 % ni tashkil qildi. Qo'shilgan qiymat solig'i ulushining bunday keskin ko'tarilishi aktsiz solig'i bo'yicha tushumlar hajmining kamayishi bilan izohlanadi. 2005 yilda aktsiz solig'i bo'yicha tushumlarning egri soliqlar tarkibidagi ulushi o'tgan yildagi 48,2 % o'rniga 37,7 %ga teng bo'lishi kuzatildi. Ushbu pasayishning sababi respublika hududida ishlab chiqarilgan alkogol mahsulotlariga aktsiz solig'ining qat'iy belgilangan stavkasining o'zgarmaganligi bilan bog'liq. Boshqa egri soliqlarning stavkalarida esa inflyatsiya darajasi hisobga olinadi.

Davlat byudjeti harajatlari. Davlat byudjeti harajatlarining YAIM ga nisbatan 2004 yildagi 22,9 % o'rniga 2005 yilda 22,5 % gacha sezilarli bo'lmagan pasayishi markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish harajatlari (YAIMga nisbatan 2004 yildagi 2,7 % dan 2005 yilda 2,4 % ga) va boshqa harajatlarning (YAIMga nisbatan 2004 yildagi 5,6 % dan 2005 yilda 5 % ga) qisqarishi hisobiga ro'y berdi.

Iqtisodiyot uchun harajatlari YAIMga nisbatan 3,0 % ni tashkil qildi. Ijtimoiy soha va ijtimoiy himoyaga ajratiladigan harajatlarning biroz ko'payganligi kuzatildi.

2.17-jadval. Davlat byudjeti harajatlari, (YAIMga nisbatan %da)

Ko'rsatkichlar	2000	2001	2002	2003	2004	2005
Harajatlari, jami	29,5	27,0	26,1	24,6	22,9	22,5
1. Ijtimoiy soha	10,4	10,2	9,8	9,3	9,1	9,5
2. Ijtimoiy himoya	2,3	2,2	2,0	2,1	1,8	1,8
3. Iqtisodiyot uchun harajatlari	3,0	2,3	2,3	3,0	3,1	3,0
4. Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish harajatlari	6,0	5,0	4,7	3,3	2,7	2,4
5. Davlat hokimiyati, boshqaruv va sud organlari faoliyatini moliyalashtirish harajatlari	0,6	0,6	0,5	0,5	0,6	0,5
6. Boshqa harajatlari	7,2	6,8	6,5	6,4	5,6	5,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

Byudjet harajatlarining ijtimoiy yo'naltirilganlik darajasini yanada kuchaytirish maqsadida ijtimoiy soha va ijtimoiy himoya uchun sarflangan harajatlarning (Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy Dasturini amalga oshirishga bo'lgan harajatlari bilan birgalikda) jami harajatlari tarkibidagi ulushi 2004 yildagi 47,5 % dan 50,8 % gacha o'sdi. Shunday qilib, Davlat byudjeti harajatlarining yarmidan ko'pi quyidagilarga yo'naltirildi:

- byudjet muassasalari va tashkilotlari xodimlarining ish haqi, barcha turdagi pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar, stipendiyalarning miqdorini inflyatsiya darajasidan yuqoriroq darajada oshirish.

Bundan ko'zlangan maqsad, respublika aholisining turmush darajasini yanada oshirish va fuqarolarga ijtimoiy madadni kuchaytirishdan iborat;

- jamiyatni yangilash va o'tkazilayotgan islohotlarning asosiy bo'gini sifatida maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy Dasturini amalga oshirish uchun. Buning doirasida, umumta'lim maktablari o'qituvchilarining turmush tarzini yaxshilash, ijtimoiy-maishiy va moddiy shart-sharoitlar yaratish, ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida umumta'lim maktablarining o'qituvchilarining, birinchi navbatda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mehnatlarini moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Bundan tashqari mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining tutgan o'rniga e'tibor qaratilib va iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan tuzilmaviy o'zgarishlar talablaridan kelib chiqib byudjet mablag'lari, eng avvalo quyidagi masalalarni yechishga: qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish; sug'oriladigan yerlarni suv bilan yyetarlicha ta'minlash; fermer xo'jaliklarini rivojlantirish; qishloq joylarda ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirish; bozor printsiplariga mos ravishda qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning uyushgan boshqaruv tizimini joriy etish; qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chikaruvchilarning erkinligini oshirishga qaratilgan.

Davlat byudjeti kamomadi 2001 yildan beri davlat byudjeti kamomadi kamayishi tendentsiyasi kuzatilmoqda.

Oxirgi olti yil ichida o'rtacha hisobda davlat byudjeti defitsiti YAIM ga nisbatan 0,6% ni tashkil etdi. Daromadlarning harajatlardan doimiy kamligini davlat byudjeti daromadlar qismini harajatlar qismiga nisbatan kamroq pasayishi (YAIM dagi ulushi pasayishi) hisobiga qisqartirishga erishilmoqda. 2005 yilda birinchi marta davlat byudjeti profitsiti kuzatildi. Bu daromadlarni yig'ishda o'rnatilgan prognozning (kutilgan hajmdan 1,4 barobar ko'p) ortiq bilan bajarilganligi bilan izohlanadi.

Hududlar moliyasi. Mavjud 14 hududdan 6 tasida mahalliy byudjetlar harajatlari hududlar daromadlaridan ko'proq. Bundan dotatsiya va maqsadli subvensiyalarga ob'yektiv zaruriyat kelib chiqadi. Iqtisodiy rivojlanish darajasi nisbatan past hududlarning byudjet harajatlarida dotatsiya miqdori ko'proq hajmni tashkil etganligi kuzatildi. Misol uchun, Koraqalpog'iston Respublikasida dotatsiya miqdori byudjetning umumiy hajmida 35,2 % ni, Jizzax viloyatida 36,1 % ni, Surxondaryo viloyatida 19,9 % ni, Namangan viloyatida 23,5 % ni, Andijon viloyatida 19,1 % ni va Xorazm viloyatida jami harajatlarning 12,6 % ini tashkil etdi. Shu bilan bir vaqtda, iqtisodiyoti birmuncha rivojlangan hududlarda ularning daromadlari hajmi harajatlari hajmidan oshadi. Masalan, Toshkent shahri byudjeti tarkibida daromadlar hajmi harajatlar hajmidan uch barobar ortiq ekanligini ko'rish mumkin, Navoiy viloyatida bu ko'rsatkich 2,5 barobarni, Buxoro viloyatida ham ushbu ko'rsatkich taxminan 2 barobarga teng. Daromadlarning ushbu ortiqcha qismi respublika byudjetiga kelib tushadi va u orqali dotatsiyadagi hududlarga yo'naltiriladi.

Davlat byudjetini bundan keyingi takomillashtirish ishlarida eng muhim vazifalar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi yangi taxririni tugatish va amaliyotga joriy qilish;
- Korxonalarga soliq yukini tenglashtirish, soliqqa tortish va soliq;
- ma'murchiligi tizimida islohotlarni chuqurlashtirish va soliq to'lovchilarni iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmini tadbiq etish;
- byudjet ijrosining respublika va mahalliy darajasini o'zida mujassam etgan hisob-kitobning gazznachilik tizimini joriy etish;
- byudjet muassasalari va tashkilotlarini moliyalashtirishda nobyudjet manbalar tutgan o'rnini oshirish;
- Mahalliy byudjetlarning tutgan o'rnini oshirish, ularning davlat byudjetidagi ulushini ko'paytirish, hududlar soliq salohiyatlaridan samarali foydalanishda mahalliy hokimiyat organlarining mas'uliyatini oshirish.

2.18-jadval. Davlat byudjeti daromadlarining tarkibi (YAIM ga nisbatan % hisobida)

Ko'rsatkichlar	2000	2001	2002	2003	04/I	04/I-II	04/I-III	2004	05/I	05/I-II	05/I-III	2005
Daromadlar	28,5	26,0	25,2	24,2	30,2	28,2	24,9	22,5	29,1	28,2	24,2	22,6
1.To'g'ri soliqlar	7,5	7,4	6,8	6,4	7,4	7,0	6,3	6,0	8,0	7,6	6,6	6,1
2.Egri soliqlar	16,0	13,5	13,8	14,0	18,3	16,6	14,5	12,6	13,9	13,2	11,2	10,5
3.Resurs uchun to'lovlari va mulk to'lovi	2,8	2,4	1,9	2,3	2,9	3,0	2,7	2,6	5,3	5,5	4,8	4,6
4.Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq	0,3	0,3	0,5	0,4	0,5	0,5	0,4	0,4	0,6	0,5	0,4	0,4
5.Boshqa daromadlar	1,9	2,4	2,2	1,1	1,2	1,1	1,0	0,9	1,4	1,4	1,2	1,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.

2.19-jadval. To'g'ri soliqlar tarkibi

	2000	2001	2002	2003	04/I	04/I-II	04/I-III	2004	05/I	05/I-II	05/I-III	2005
To'g'ri soliqlar	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100
1.Korxonalarning foyda solig'i	49,4	39,7	34,4	34,1	28,0	28,4	29,5	29,9	30,7	29,7	30,7	30,4
2.Yalpi daromad solig'i	-	-	-	-	8,6	8,7	8,7	8,5	8,3	8,1	7,9	7,8
3.Yagona soliq		7,8	13,1	14,1	10,6	10,2	10,3	10,2	10,9	10,1	10,0	10,0
4.Jismoniy shaxslar daromad solig'i	44,5	44,9	45,6	46,7	47,8	47,5	46,3	46,2	45,5	47,1	46,4	46,9
b.Tadbirkorlar daromadiga qat'iy belgilangan soliq.	6,1	7,6	6,9	5,1	5,0	5,2	5,2	5,2	4,6	4,9	5,0	4,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.

2.20-jadval. Egri soliqlar tarkibi

	2000	2001	2002	2003	04/I	04/I-II	04/I-III	2004	05/I	05/I-II	05/I-III	2005
Egri soliqlar	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
1.Qo'shilgan qiymat solig'i	47,3	48,8	43,9	39,6	37,4	39,4	39,6	42,5	50,6	50,3	51,9	51,1
2.Aktsiz solig'i	48,4	46,3	48,3	51,3	53,7	51,5	51,6	48,2	38,5	38,6	36,7	37,7
3.Bojxona boji	2,0	2,7	2,9	3,0	3,5	3,4	3,4	3,6	4,8	4,8	4,8	4,7
4.Jismoniy shaxslardan undiriladigan yagona bojxona to'lovi	2,3	2,2	2,4	3,3	2,8	3,0	2,5	2,5	2,4	2,1	2,0	2,1
5. Benzin iste'moli uchun jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq	-	-	2,5	2,8	2,6	2,7	2,9	3,2	4,0	4,2	4,6	4,4

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.

2.21-jadval. Davlat byudjeti harajatlarining tarkibi, YAIM ga nisbatan % hisobida)

Ko'rsatkichlar	2000	2001	2002	2003	04/I	04/I-II	04/I-III	2004	05/I	05/I-II	05/I-III	2005
Xarajatlar - jami	29,5	27,0	26,1	24,6	26,2	26,6	23,4	22,9	27,2	27,0	23,7	22,5
1.Ijtimoiy soha	10,4	10,2	9,8	9,3	9,2	10,5	9,3	9,1	11,5	12,4	10,2	9,5
2.Ijtimoiy himoya	2,3	2,1	2,0	2,1	2,2	2,1	1,8	1,8	2,0	2,1	1,9	1,8
Z.Iqtisodiyotga harajatlar	3,0	2,3	2,3	3,0	3,4	3,4	3,2	3,1	3,1	3,6	3,4	3,0
4.Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishga harajatlar	6,0	5,0	4,7	3,3	4,0	3,6	2,8	2,7	3,7	2,9	2,2	2,4

b.Davlat hokimiyati, boshqaruv va sud organlari faoliyatini moliyalashtirish harajatlari	0,6	0,6	0,5	0,5	0,5	0,6	0,6	0,6	0,6	0,6	0,5	0,5
b.Boshqa harajatlari	7,2	6,8	6,5	6,4	6,9	6,4	5,6	5,6	6,1	5,3	5,4	5,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.

2.22-jadval. Davlat byudjeti kamomadi, (YAIM ga nisbatan % hisobida)

Ko'rsatkichlar	2000	2001	2002	2003	04/I	04/I-II	04/I-III	2004	05/I	05/II	05/III	2005
Defitsit (-); Profitsit (Q)	-1,0	-1,0	-0,8	-0,4	4,0	1,6	1,5	-0,4	1,9	1,2	0,5	0,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.

2.1.4. Valyuta bozori va tashqi savdo

2.1.4.1. Milliy valyutani xorijiy valyutaga nisbatan munosabatlari

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2005 yilda ayirboshlash kursining barqarorligini ta'minlash, pul-kredit va valyuta siyosatini amalga oshirish uchun valyuta zahiralarini yetarli darajada ushlab turilishi bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Natijada, oltin-valyuta zahiralarining o'sishi davom etib, tahlil qilinayotgan davrda 1,3 martaga ko'paydi. O'zbekiston valyuta bozorida asosiy ayirboshlash kursi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasi tomonidan banklararo savdo sessiyalaridagi o'rtacha kurs asosida belgilanadigan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi hisoblanadi. Mazkur kurs buxgalteriya hisob-kitoblari, statistika va boshqa hisobotlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida bojxona to'lovlarini amalga oshirish uchun qo'llaniladi. So'mning ayirboshlash kursini belgilash uchun asosiy zahira valyuta sifatida AQSH dollari foydalaniladi va unga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri kotirovka qo'llaniladi. Boshqa valyutalarga nisbatan so'mning ayirboshlash kursi kross-kurs qo'llash yo'li bilan belgilanadi. Tijorat banklari naqd chet el valyutasini oldi-sotdi qilish operatsiyalarini asosiy 4 ta valyuta - AQSH dollari, Evro, Britaniya funt sterlingi va Yapon ienasi orqali amalga oshiradi.

Nominal ayirboshlash kurslari. 2005 yil yakunlariga ko'ra, so'mning AQSH dollariga nisbatan nominal ayirboshlash kursi barqaror sur'atlar bilan devalvatsiyalandi va yil yakuniga ko'ra 11,5 % ga, oldingi chorak bilan taqqoslaganda - 3,5 % ga pasaydi. 2005 yilda naqd xorijiy valyutaning ayirboshlash kursi 12,7 % ga, oldingi chorakka nisbatan esa 3,7 % ga pasaydi (2.23-jadval).

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, oldingi yillardan farqli o'laroq, valyuta kurslarini unifikatsiyalash hamda valyutani tartibga solish tizimini takomillashtirish tufayli inflyatsiyani keltirib chiqaradigan manbalar tarkibida so'mning devalvatsiyasining ulushi sezilarli darajada pasaydi.

2.23-jadval. So'mning AQSH dollariga nisbatan ayirboshlash kursi (2003-2005 yy.)

Davr	MB ayirboshlash kursi (so'm/\$)	O'tgan davrga nisbatan o'zgarishi (%)	Naqd xorij valyuta kursi (so'm/\$)	Avvalgi davrga nisbatan o'zgarishi (%)
2003	979,39	26,0	995,1	-9,0
2004	1058,0	8,0	1062,5	6,8
2005	1180,0	11,5	1197,6	12,7
04/I	1000,0	1,0	1006,9	1,1
04/II	1020,0	2,1	1024,6	1,8
04/III	1040,0	2,96	1041,7	1,6
04/IV	1058,0	1,73	1062,5	1,9
05/I	1080,0	2,1	1083,5	2,0
05/II	1115,0	3,2	1118,1	3,2
05/III	1140,0	2,2	1155,4	3,3
05/IV	1180,0	3,5	1197,6	3,7

Manba: «Bankovskie vedomosti» gazetasi, muallif hisob-kitoblari.

Boshqa zahira valyutalariga nisbatan so'm kursining dinamikasi quyidagi o'zgarishlar bilan tavsiflanadi: 2005 yil yakuniga ko'ra so'm funt sterlingga nisbatan 1,5 % ga devalvatsiyalandi, evroga nisbatan 1,8 % ga va yapon ienasiga nisbatan esa 1,3 % ga devalvatsiyalandi.

AQSH dollari kursining qatorasiga ikkinchi yil davomida iena va evroga nisbatan o'sishi kuzatilmoqda. 2005 yilda jahon valyuta bozorida AQSH dollari kursining tebranib turishi bir qator holatlar bilan bog'liq, ulardan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: AQSH Federal zahira tizimi foiz stavkalarining barqaror va doimiy ko'tarilishi va Evropa Ittifoqida ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning yomonlashuvi - Evrozonaning ayrim mamlakatlarida konstitutsiyaning qabul qilinmaganligi va iqtisodiy pasayish yuz berganligi. 2005 yilda amerika dollari kursining pasayishiga sabab bo'lgan omillardan biri sifatida bir qator davlatlarning markaziy banklari (xususan, Janubiy Koreya, Yaponiya va Hindiston) tomonidan oltin-valyuta zahiralar tarkibida evro ulushining ortishi va amerika valyutasi ulushining kamayishining taxmin qilinganligi haqidagi ma'lumotni qayd etib o'tish lozim.

2005 yil yakunlariga ko'ra, so'm kursining Rossiya rubliga nisbatan devalvatsiyalanishi 8,6 % ni tashkil etdi va bu holat Rossiya ichki valyuta bozorida AQSH dollari kursi dinamikasining AQSH dollari rasmiy kursiga nisbatan yuqori bo'lishi bilan bog'liq (umuman, 2005 yil Amerika valyuta kursi Rossiya rubliga nisbatan 3,7 % ga o'sdi). 2005 yilda Rossiya valyuta bozorida AQSH dollari kursi dinamikasiga eng ko'p ta'sir etgan omillar sifatida quyidagilar kuzatildi: mamlakatga eksporterlarning katta miqdordagi valyuta daromadlari kirib kelishiga sabab bo'lgan Rossiya eksportining asosiy xom-ashyo tovarlari (eng avvalo, neft)ning yuqori narxlari; boshqa jahon asosiy valyutalariga nisbatan AQSH dollari kursining o'zgarishi (asosan, yagona evropa valyutasiga nisbatan).

Real ayirboshlash kurslari. 2005 yil yakunlariga ko'ra, milliy valyuta real ayirboshlash kursi AQSH dollariga nisbatan 0,13 %, Evroga nisbatan 0,91 % va ienaga nisbatan 1,4 % ga revalvatsiyalandi. Bu iste'mol narxlari indeksining unchalik yuqori bo'lmagan darajasi hamda so'mning nominal ayirboshlash kursining o'rta me'yorda devalvatsiyasi bilan izohlanadi.

Milliy valyuta kursining yaqiniqiy mustahkamlanishi aholi jamgarmasining milliy valyuta foydasiga transformatsiyasini ta'minlaydi va milliy ishlab chiqarishning asosiy omillari narxlari oshishining hamda aholining real turmush darajasi yaxshilanishining uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyasiga muvofiq keladi.

Real samarali ayirboshlash kursi. Tashqi savdoni tahlil qilishda muhim ko'rsatkich bo'lib so'mning real samarali ayirboshlash kursi hisoblanadi. Mamlakatning tashqi savdo aloqalari faqat bitta hamkor-mamlakat bilan chegaralanib qolmaganligi tufayli, so'mning AQSH dollariga real ayirboshlash kursi hisob-kitoblari boshqa asosiy savdo hamkor-mamlakatlar valyutalariga nisbatan real kurs hisob-kitoblari bilan to'ldiriladi. So'mning har bir valyutaga nisbatan real kurslarining tegishli davlatning tashqi savdo aylanmasidagi ulushi bo'yicha o'rtacha kursini aniqlash real samarali valyuta kursini beradi. Bu O'zbekiston ichki narxlari darajasining savdo hamkor-mamlakatlardagi o'rtacha narx darajasiga nisbatan o'zgarishini ko'rsatadi. 2005 yil yakunlariga ko'ra, so'mning real samarali ayirboshlash kursi 1,7 % ga devalvatsiyalandi. Mazkur tendentsiya so'mning real ayirboshlash kursining revalvatsiyalanishi hamda O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlari valyutalariga nisbatan past sur'atda devalvatsiyalanishiga (ayrim holatlarda revalvatsiyalanishiga) olib keldi.

Shunday qilib, jahonning asosiy valyutalari kurslari o'zgarishlariga Markaziy Bankning har tomonlama asoslangan chora-tadbirlari va mos ravishda so'mning samarali kursi tebranishlarini pasaytirishning amalga oshirilishi, AQSH dollariga nisbatan so'm kursining me'yoriy devalvatsiyalanishi tashqi qarzlarni qisqartirishga, mamlakat ichkarisida valyutani tartibga solish va pul aylanmasini barqarorlashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishda davom etdi.

2.1.4.2.Savdo balansi, eksport va import hamda tashqi savdo dinamikasi tuzilishi va hamkorlik chegaralarining kengayishi

2005 yil tashqi savdo sohasida eksportning importga nisbatan barqaror o'sishi bilan tavsiflanadi. Tashqi savdo rivojlanishidagi 2004 yilda boshlangan ijobiy tendentsiyalar 2005 yilda yanada mustahkamlandi. Tashqi savdo aylanmasi 9,6 % ga o'sdi va 9,5 mlrd. AQSH doll. ni tashkil etdi (2.24-jadval). Bunda, tashqi savdo aylanmasi umumiy hajmining 56,9 % ini eksport operatsiyalari va 43,1 % ini import operatsiyalari tashkil qildi.

Eksportning (o'sish ko'rsatkichi - 11,5 %) importga (o'sish ko'rsatkichi - 7,2 %) nisbatan yuqori sur'atda o'sishi kuzatildi. 2005 yilda umumiy tashqi savdo, jumladan eksport o'sish sur'atining birmuncha pasayishi 3 chorak hisobiga yuzaga keldi. Oldingi uch chorak davomida kuzatilib kelinayotgan eksportning 1,3 mlrd. dollar miqdoridagi o'sish zanjiri aynan 2005 yilning uchinchi choragida uzildi (1,05 mlrd. doll). Bu asosan xorijiy davlatlarga eksport hajmining odingi davrlarga nisbatan deyarli 50 % gacha kamayib ketishi natijasida yuzaga keldi (1009,2 mln. AQSH doll. dan 580 mln. AQSH doll.ga). Ushbu holat asosan paxta tolasi, boshqa sanoat tovarlari guruhi (qimmatbaho metallar va toshlar, yog'och buyumlar, qogoz massasi va karton, bosmaxona mahsulotlari) bo'yicha eksportning kamayishi natijasida yuz berdi. Biroq, ushbu kamayish 4-chorak hisobiga qisman qoplandi, ya'ni bunda xorijiy davlatlarga eksport hajmini avvalgidek 1 mlrd. doll dan ko'proq bo'lgan hajmni tashkil etgan bo'lsa (1,11 mlrd. doll.), jami eksport hajmi 1,5 mlrd. AQSH doll. dan oshdi. 2005 yilning 4-choragida o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslashganda eksportning (o'sish sur'ati - 116,1 %) importga (o'sish sur'ati - 101,6 %) nisbatan yuqori sur'atlarda o'sishi kuzatildi.

Respublikada ishlab chiqarilayotgan asosiy eksport tovarlariga jahon bozoridagi qulay narxlar kon'kturasi 2005 yilda eksport hajmi o'sishining asosiy omillaridan biri sifatida saqlanib qoldi. Yil davomida paxta xom-ashyosi va tolasining jahon bozoridagi narxlarining o'sishi dunyo bo'yicha paxta ishlab chiqarish hajmining qisqarishi va iste'molning oshishi natijasida davom etdi. 2005 yilning dekabr oyi o'rtalariga kelib oltinning bir untsiyasining narxi 536,5 dollargacha ko'tarildi, bu esa so'nggi 24 yil uchun rekord darajadaga kotirovkadir.

Oltin narxining yuqoriligi "Katrina" to'foni tufayli AQSH iqtisodiyotiga yetkazilgan zarar oqibatida iqtisodiy inkqirozning yuzaga kelishi mumkinligi sababli Amerika dollariga bo'lgan qiziqishning pasayishi, neft bahosining yuqoriligi va markaziy banklar tomonidan oltinni rasman sotilmaganligi natijasida yuzaga keldi. Chunki Evropa Ittifoqiga a'zo davlatlarning banklari oltinni sotish bo'yicha qo'shma bitimlar asosida 2005 yilning iyul oyiga qadar oltinni yillik hajmini butunlay sotib bo'lishgani sababli 2006 yil boshigacha o'zlarining oltin zahiralari sota olmadilar. Bir vaqtning o'zida Argentina Markaziy banki oltin bozorida uni sotib olishni faollashtirdi. Misning narxi o'z tarixidagi eng yuqori darajasiga etdi. Joriy yilning o'rtalaridan boshlab misning narxi bir tonnasi uchun 3469 dollarga teng bo'lib, bu 2004 yilga nisbatan 41 % ga ko'p. Metall narxining oshishiga sabab sifatida Arizona va Zambiya ruda konlarida ishchilarning ish tashlashlarini, London birjasida tovar zahiralari qisqarishini, shuningdek "xitoy omili" revalvatsiyalanishi va ushbu davlat iqtisodiyotining yuqori o'sish sur'atiga ega bo'lishini keltirish mumkin.

Importning eksport bilan qoplanish koeffitsienti 1,32 ni tashkil etdi, natijada, faol savdo balansining ijobiy saldosi 2004 yil bilan taqqoslaganda 280,5 mln. dollarga ortib, 1317,5 mln. dollarga teng bo'ldi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2005 yilning 4-choragida tashqi savdo ijobiy saldo 416,5 mln.doll.ni tashkil qildi. 2005 yilda tovar ayirboshlashning faol sal'dosining 97 % i yoki 1275,7 mln. dollari xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalari hisobiga olindi. MDH davlatlari bilan tovar ayirboshlashning ijobiy sal'dosi 41,8 mln. dollarni tashkil etdi va bunga asosan ikkinchi va uchinchi choraklar hisobiga erishildi. Birinchi chorakdagi tovar ayirboshlash natijasida 52,9 mln. AQSH dollari miqdorida, to'rtinchi chorakda esa 28,2 mln. AQSH dollari miqdorida salbiy sal'do yuzaga keldi.

2.24-jadval. O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (mln, doll.)

			shu jumladan		hajmining o'zgarishi,%	
			04/IV*	05/IV*	2005y. 2004y. ga nisbatan	05/IV 04/IV ga nisbatan
Tashqi savdo aylanmasi	8669,0	9500,1	2430,9	2662,1	109,6	109,5
MDH davlatlari	3002,6	3403,4	857,2	883,8	113,3	103,1
xorijiy davlatlar	5666,4	6096,7	1573,7	1778,3	107,6	113,0
Eksport	4853,0	5408,8	1326,3	1539,3	111,5	116,1
MDH davlatlari	1528,4	1722,6	425,9	427,8	112,7	100,4
xorijiy davlatlar	3324,6	3686,2	900,4	1111,5	110,9	123,4
Import	3816,0	4091,3	1104,6	1122,8	107,2	101,6
MDH davlatlari	1474,2	1680,8	431,3	456	114,0	105,7
xorijiy davlatlar	2341,8	2410,5	673,3	666,8	102,9	99,0
Savdo balansi	1037,0	1317,5	221,7	416,5	X	X
MDH davlatlari	54,2	41,8	-5,4	-28,2	X	X
xorijiy davlatlar	982,8	1275,7	227,1	444,7	X	X
Tashqi savdo aylanmasi tarkibi, %	100,0	100,0	100,0	100,0	X	X
MDH davlatlari	34,6	35,8	35,3	33,2	X	X
xorijiy davlatlar	65,4	64,2	64,7	66,8	X	X

Manba: O'zR Davlat statistika qo'mitasi *O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

Tayyor mahsulot va xizmatlarning eksportdagi ulushi uning jami hajmining 50 % dan ko'prog'ini tashkil etdi. Bu holat mustaqillik yillarida tashqi savdo balansida eng yuqori - 1.3 mlrd.dan ortiq, AQSH dollari hajmidagi ijobiy sal'do bo'lishiga imkon yaratdi. Natijada, respublikaning oltin-valyuta zahiralari 1.3 barobarga ko'paydi, bu, eng avvalo, tashqi bozor o'zgarishlariga nisbatan iqtisodiyotimiz barqarorligining mustahkamlanganligidan dalolat beradi.

2005 yilda barcha tovarlar guruhlariga bo'yicha eksport hajmining o'sishi kuzatildi. Xom-ashyo mahsulotlariga (1,0-1,2 barobar) nisbatan xom-ashyo bo'lmagan mahsulotlar (1,1-1,3 barobar) eksportining sezilarli o'sishi kuzatildi. 2005 yilning to'rtinchi choragida 2004 yilning tegishli davri bilan taqqoslaganda oziq-ovqat mahsulotlari va mashina va uskunalar kabi tovarlar guruhlariga bo'yicha eksport hajmi kamaydi. 2005 yilning 4-choragida 2004 yilning 4-choragi bilan taqqoslaganda mashina va uskunalar bo'yicha eksport hajmining kamayishi qisman 2004 yilning 4-choragida 2003 yilning mos davriga nisbatan ushbu guruhdagi eksport hajmining rekord darajada (2 barobarga) oshib ketganligi bilan izohlanadi. 2005 yil yakunlari bo'yicha 2004 yilga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari eksporti hajmi 1,1 barobarga, mashina va asbob-uskunalar eksporti hajmi esa 1,3 barobarga oshdi.

Xom-ashyo bo'lmagan mahsulotlar guruhi eksportidan farqli ravishda, 2005 yilning 4-choragi xom-ashyo mahsulotlari eksporti uchun qulay keldi. Ayniqsa, paxta-tolasi eksportining o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori sur'atda o'sganligini (1,6 barobarga) alohida ta'kidlash lozim, Ushbu usul 2005 yilning oxirigacha paxta tolasi narxlarining sezilarli oshishi bilan bog'liq (2.25-jadval).

Noorganik kimyo mahsulotlari, o'g'itlar, parfyumeriya va kosmetika vositalari, plastmassalar, don mahsulotlari, sabzavotlar, mevalar, un va yorma mahsulotlari, avtomobillar kabi tovarlar bo'yicha eksport hajmi oshdi. Yengil sanoat mahsulotlari orasida trikotaj kiyim-kechaklar va ipak gazlamalarning eksport hajmi sezilarli darajada o'sdi. "O'zeltexsanoat", "O'zmetkombinat" "O'zkimyosanoat", "O'zqishloqxo'jalikmash-holding", "O'zavtosanoat" assotsiatsiyalari korxonalarining ham eksport qilish hajmining oshishi kuzatildi.

2.25-jadval. Eksportning tovarlar bo'yicha tarkibi va uning o'zgarishi (%da)

	Eksportning umumiy hajmidagi ulushi				hajmining o'zgarishi	
			shu jumladan			
			04/IV	05/IV		
Paxta tolasi	18,1	19,1	19,2	25,8	117,9	155,6
Oziq.-ovqat mahsulotlari	3,8	3,8	4,0	3,3	110,3	97,5
Kimyo mahsulotlari, plastmassalar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	4,7	5,3	5,2	5,2	123,9	117,8
Energiya tashuvchilar	12,4	11,5	11,6	11,1	103,6	111,3
Rangli va qora metallar	8,6	9,2	8,9	8,2	119,5	107,2
Mashina va uskunalar	7,4	8,4	8,7	6,5	126,6	87,4
Xizmatlar	11,8	12,2	11,5	11,4	114,9	114,3
Boshqalar	33,2	30,5	30,9	28,4	102,5	106,6
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	111,5	116,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Xizmatlar eksportining hajmi 2004 yildagiga nisbatan 14,9 % ga o'sdi, jumladan 4- chorakda 14,3 % ga o'sgan. Xizmatlar bo'yicha jami Eksportning 68,7 % ini transport xizmatlari, jumladan 50 % dan ortishni temir yo'l va xavo transporti xizmatlari tashkil etdi.

2005 yilda kam ulushga ega bo'lgan xizmatlar sifatida moliyaviy xizmatlar - 0,1 %, kompyuter va axborotlar xizmatlari - 0,1 % va yuridik, buxgalteriya, maslahatchilik va boshqaruv xizmatlari -0,2 % miqdorida yuzaga keldi. Garchi meditsina xizmatlarining ulushi unchalik ko'p bo'lmasada (0,3 %), aynan ushbu guruhda eng yuqori o'sish sur'ati qayd etildi — 225 %.

Importning tovarlar bo'yicha tarkibida ham ijobiy o'zgarishlar yuzaga keldi. Import tarkibining yanada optimallasuvi, respublikada ishlab chiqarilmaydigan va korxonalarning ishlab chiqarish jarayoni uchun muhim sanalgan mahsulotlar importi hajmining oshishi kuzatildi. Jumladan, mashina va asbob-uskunalar, kimyo mahsulotlari va qora metallar importi o'sdi (2.26-jadval).

2005 yil yakunlari bo'yicha importning tovarlar bo'yicha tarkibida eng katta o'sish energiya tashuvchilar guruhida qayd etildi, ya'ni 2004 yil bilan taqqoslaganda 27,9 % ga o'sdi. Biroq, jami import hajmidagi ulushi bo'yicha haligacha asosiy o'rinni mashina va asbob-uskunalar guruhi egallaydi va 2005 yilda jami import hajmining 43,3 % ini tashkil etdi. Kimyo mahsulotlari importi hajmi 16,9 % ga, oziq-ovqat mahsulotlari esa-10,1 % ga o'sdi. Ularning jami import hajmidagi ulushi mos ravishda 13,6 % va 7,0 % ni tashkil qiladi.

2.26-jadval. Importning tovarlar bo'yicha tarkibi va uning o'zgarishi (%da)

Tovarlar guruhi	Eksportning umumiy hajmidagi ulushi				hajmining o'zgarishi	
	2004	2005	Shu jumladan		2005, 2004 ga nisbatan	05/IV, 04/IV ga nisbatan
			04/IV	05/IV		
Oziq.-ovqat mahsulotlari	6,8	7,0	7,2	7,0	110,1	98,2
Kimyo mahsulotlari, plastmassalar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	12,5	13,6	11,3	14,4	116,9	129,2
Energiya tashuvchilar	2,1	2,5	2,5	3,8	127,9	151,8
Rangli va qora metallar	10,3	10,3	9,9	9,1	106,7	93,7
Mashina va uskunalar	46,0	43,3	48,9	40,7	101,0	84,6
Xizmatlar	11,1	10,4	8,8	12,4	100,0	142,8

Boshqalar	11,2	12,9	11,4	12,7	124,0	113,8
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	107,2	101,6

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Shuningdek, texnologik asbob-uskunalar, organik kimyo birishalari, farmatsevtika mahsulotlari, o'g'itlar, parfyumeriya-kosmetika va yuvish vositalari, plastmassalar yetkazib berishning o'sishi davom etmoqda.

Garchi 2005 yilning 4-choragida 2004 yilning mos davriga nisbatan xizmatlar importining 42,4 % ga o'sishi kuzatilgan bo'lsada, yil yakunlariga ko'ra, xizmatlar importi hajmi o'zgarmasdan qoldi.

"Boshqa" tovarlar guruhi bo'yicha import hajmi 24,0 % ga o'sdi va uning umumiy import hajmidagi ulushi 12,9 % ni tashkil qildi. Mazkur o'sish asosan yog'och va undan yasalgan buyumlar, to'qimachilik buyumlari, qog'oz va undan tayyorlangan buyumlar, gips, asbest, tsement va mebellar importining o'sishi bilan izohlanadi.

Oziq-ovqat mahsulotlari importining asosan shakar va qandolatchilik mahsulotlari, un va yorma sanoati mahsulotlari (solod va kraxmal bilan birga) hajmining o'sishi hisobiga oshishi kuzatildi. Ushbu o'sish nomlari keltirilgan ingredientlardan foydalanib oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sishi bilan izohlanishi mumkin.

Tashqi savdo ko'rsatkichlarining hududiy tarkibida MDH davlatlari bilan savdo munosabatlari yaxshilanganligi kuzatildi. Natijada, 2005 yilda MDH davlatlari bilan tovar ayirboshlash 3,4 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,1 barobarga oshdi. Qaralayotgan davrda uzoq xorijiy mamlakatlar bilan tovar ayirboshlash 6,1 mlrd. AQSH dollariga teng bo'ldi va 1,1 barobarga oshdi. MDH davlatlaridagi savdo hamkorlari bilan tashqi savdo aylanmasining ulushi tahlil qilinayotgan davrda 2004 yildagi 34,6 % dan 35,6 % ga oshdi, xorijiy mamlakatlar bilan esa 65,4 % dan 64,2 % ga kamaydi.

MDH, davlatlari bilan eksport hajmi 2004 yil bilan taqqoslaganda 1,13 barobarga, uzoq xorijiy davlatlar bilan esa 1,1 barobarga o'sdi. Bunda MDH, davlatlariga eksport hajmining jami eksportdagi ulushi 31,5 % dan 31,8 % gacha oshdi va o'z navbatida xorijiy mamlakatlarga eksport ulushi esa 68,5 % dan 68,2 % gacha kamaydi (2.27-jadval). Bunday tendentsiya butun tahlil qilinayotgan davr mobaynida saqlanib qoldi. 2005 yilning boshlaridan MDH, davlatlariga oziq-ovqat mahsulotlari, mashina va asbob-uskunalar, rangli metallarni yetkazib berish hajmi oshdi. Xorijiy mamlakatlarga esa paxta tolasi, kimyo mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlari va rangli metallarni eksport qilish hajmining eng yuqori bo'lishi kuzatildi. Biroq, avvalgidek MDH davlatlari oziq-ovqat mahsulotlari, energiya tashuvchilar, mashina va uskunalar sotish uchun, xorijiy mamlakatlar esa paxta tolasi, kimyo mahsulotlari, rangli metallar uchun an'anaviy bozor bo'lib qolmoqda.

2005 yilda o'tgan yilning mos davriga nisbatan MDH davlatlaridan import hajmining 1,14 barobarga, xorijiy mamlakatlardan esa 1,03 barobarga oshishi kuzatildi. O'z navbatida MDH davlatlaridan qilinadigan import ulushi 38,6 % dan 41,1 % gacha ortdi va xorijiy mamlakatlar importi ulushi 61,4 % dan 58,9 % gacha kamaydi. MDH davlatlari energiya tashuvchilar, qora va rangli metallar bo'yicha, xorijiy mamlakatlar esa oziq-ovqat tovarlari, mashina va asbob-uskunalar, xizmatlar bo'yicha asosiy yetkazib beruvchilar bo'lib qoldi.

Eksport bo'yicha sakkizta davlat butun yil davomida yetakchi savdo hamkorlari bo'lishdi: Rossiyaning ulushi - 19,0 % (2004 yilga nisbatan 141,6 %), Eron - 8,0 % (128,3%), Turkiya - 6,4% (160,4 %), Buyuk Britaniya - 6,2 % (87,6 %), Qozog'iston - 4,6 % (133,7 %) Xitoy - 4,2 % (225,0 %), SHveytsariya - 2,6 % (93,3%), Tojikiston - 2,5% (92,9 %), AQSH - 2,0 % (73,6 %). Hindistonga va Belgiyaga eksport hajmining kamayib ketganligini ham ta'kidlab o'tish lozim.

Importning ham asosiy qismi (70,6 %) sakkizta davlatga to'g'ri keldi: Rossiyaning jami

importdagi ulushi 25,3 % ni tashkil etdi (2004 yilga nisbatan 112,7 %), Janubiy Koreya - 12,5 % (145,8 %), Qozog'iston - 6,6 % (111,8 %), Xitoy-6,3 % (96,8 %), Ukraina - 6,0 % (144,3 %), Germaniya - 5,9 % (89,0 %), Turkiya – 4,3 % (103,1 %) va AQSH - 3,7 % (38,6 %).

Tovar ayirboshlash bo'yicha ijobiy sal'doning yuqori ko'rsatkichlariga Eron, Buyuk Britaniya, Turkiya, Tojikiston, Shveytsariya bilan o'zaro savdo munosabatlarida erishilgan bo'lsa, salbiy sal'do - Janubiy Koreya, Ukraina va Germaniya bilan munosabatlarda yuzaga keldi.

Umuman, 2005 yilda 2004 yilda erishilgan tashqi savdoni rivojlantirish ko'rsatkichlari yanada yaxshilandi. Eksport va importning tovarlar bo'yicha tarkibida sifat o'zgarishlari davom etdi. Yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan tovarlarni eksport qilishning yanada o'sishi, import tarkibining yanada optimallasuvi kuzatildi. MDHdagi hamkorlar bilan savdo aloqalari yaxshilandi. Tovar ayirboshlashning faol sal'dosi o'sdi.

2006 yil uchun tashqi savdoni rivojlantirish istiqbolari ijobiy baholanmoqda. Ushbu yo'nalishdagi ustuvor masala eksportni har tomonlama rag'batlantirish va valyuta resurslarini tejash, undan ratsional va samarali foydalanishni ta'minlash hisoblanadi.

2.27-jadval. Eksport va importning jug'rofik tarkibi (%)

Mamlakatlar	Umumiy hajmdagi ulushi			
	Eksport		Import	
	2004Y.	2005Y.	2004Y.	2005Y.
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0
MDH davlatlari	31,5	31,8	38,6	41,1
Qozog'iston	3,8	4,6	6,3	6,6
Rossiya	14,9	19,0	24,0	25,3
Tojikiston	3,0	2,5	1,0	0,5
Ukraina	2,3	1,6	4,5	6,0
Boshqa davlatlar	7,5	4,1	2,8	2,7
Uzoq xorijiy davlatlar	68,5	68,2	61,4	58,9
Belgiya	1,1	0,7	0,5	0,7
Buyuk Britaniya	7,9	6,2	1,8	2,3
Germaniya	1,0	1,6	7,1	5,9
Hindiston	2,5	0,5	0,7	0,9
Eron	6,9	8,0	0,9	0,7
Xitoy	2,1	4,2	7,0	6,3
Janubiy Koreya	1,2	1,0	9,2	12,5
Niderlandiya	0,5	0,7	0,8	0,7
AQSH	3,1	2,0	10,3	3,7
Turkiya	4,5	6,4	4,5	4,3
Fransiya	0,7	1,6	1,2	1,1
Sveytsariya	3,1	2,6	0,4	0,8
Yaponiya	0,4	0,6	2,1	1,3
Boshqa mamlakatlar	33,5	32,1	14,9	17,7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida navbatdagi yilda eng avvalo Evroosiyo iqtisodiy hamjamiyati (EvrOsIH) bilan munosabatlar muhim o'rin tutadi. O'zbekistonning ushbu tashkilotga qo'shilishi mazkur tashkilotning mavqeini yangi bosqichga ko'tardi va bu unga a'zo davlatlar, shuningdek butun hudud iqtisodiyotini rivojlantirishda sezilarli turtki bo'ladi.

Mamlakat Prezidenti I.Karimov tomonidan ta'kidlanganidek, O'zbekistonning Evroosiyo iqtisodiy hamjamiyatiga (EvrOsIH) qo'shilishi munosabati bilan bojxona tartib-qoidalarini

unifikatsiyalash bo'yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi. Ushbu vazifani amalga oshirish Rossiya, Ukraina, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarini rivojlantirish uchun rag'bat bo'lib xizmat qiladi.

Tashqi savdo dinamikasi tuzilishi va hamkorlik chegaralarining kengayishi

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 2003 yil natijalari shuni aniq ko'rsatib turibdiki, jahon iqtisodiy aloqalari tizimiga mamlakatimiz integratsiyasi jarayoni davom etmoqda va o'sib bormoqda, O'zbekistonning jahon mamlakatlari bilan investitsiya va savdo hamkorligini yanada rivojlantirish uning asosidir. Respublika tashqi savdo aylanmasi 17,3 foizga oshdi, savdo operatsiyalari esa borgan sari rivojlanib, turli-tumanlik kasb etmoqda, ya'ni tovar va xizmatlarning keng ko'lamli ro'yxati, tashqi iqtisodiy aloqalar ishtirokchilarining geografiyasi hajmi va soni kengayib bormoqda.

Geografik jihatdan tovar ayirboshlashning o'sishi uzoq, xorij mamlakatlari bilan 18,2 foizni, MDH mamlakatlari bilan esa 15,4 foizni tashkil qildi. Uzoq xorij mamlakatlarining respublika tovar ayirboshlashidagi solishtirma ogirligi o'sib, umumiy hajmi 68,5 foizga, MDH davlatlari buydjeti tovar ayirboshlashning solishtirma ogirligi esa, 31,5 foizga teng bo'ldi.

Tovar ayirboshlashda respublika korxonalari eksport faoliyatining faollashuvi hisobiga chet eldan tovar va xizmatlarni sotib olish ham oshdi, eksport va import mos ravishda 2002 yilga qaraganda 124,6 foiz va 109,3 foizni tashkil qildi.

Eksportning o'sish sur'ati importga nisbatan o'rtacha 2-3 marta oshdi mamlakatning to'lov qobiliyati mustahkamlandi, 1998 yildan boshlab, tovar ayirboshlash ijobiy sal'dosi ta'minlana boshladi. Investitsiya faolligi o'sishida davlat kafolatisiz berilayotgan bevosita chet el investitsiya va kreditlarining hajmi 2,5 martaga o'sdi.

Tashqi sovdoning rivojlanishida O'zbekiston eksport nomenklaturasidagi an'anaviy tovarlarga jahon konyunkturasining yaxshlanishi yordam berdi. 1998 yildagi jahon narxlarining keskin tushib ketishidan so'ng, barqarorlik alomatlari ko'rinib, paxta tolasi narxlari o'sishi boshlandi. Energotashuvchilarga ko'ra, rangli metallga nisbatan birja kotirovkalari oshdi, shunga mos ravishda xom-ashyolarga, tovarlarga nisbatan ham narxlar ko'tarildi.

Makroiqtisodiy barqarorlik muhitida tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirilishi, almashuv kursini bir xillashtirish va tashqi savdo joriy operatsiyalari bo'yicha milliy valyutaning konvertatsiyalashga o'tilishi bilan, tashqi iqtisodiy aloqalar faollashuviga va mamlakat iqtisodiyotining tashqi dunyo bilan bo'lgan munosabatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatildi.

Bunday makroiqtisodiy vaziyat iqtisodiyot sektorida izchil ravishda olib borilgan islohotlar natijasida shakllandi. So'nggi yillarda olib borilgan islohotlar tahlil qilib ko'rilsa, asosiy ustuvor yo'nalish - tashqi iqtisodiy faoliyatning xilma-xilligi va erkinlashtirilishiga harakat qilinganligi kuzatiladi.

Mahalliy xom-ashyoning solishtirma hajmi uzluksiz oshirilib borilishi hisobiga, sanoatda qayta tuzilmaviy o'zgarishlar o'tkazilishi natijasida importga bo'lgan talablar qisqartirilishiga erishildi. Chet el investitsiyalari jalb qilinishi va eksport salohiyati rivojlanishi respublika korxonalarida ishlab chiqarishni o'stirishga yangi-yangi mahsulot turlarini eksport qilish uchun shart-sharoitlar yaratyapti.

Mustaqillikning so'nggi yillarida yanada rivojlanayotgan transport kommunikatsiya, bank, marketing axborot tuzilmalari to'la hajmda tashqi savdoga xizmat ko'rsatishda tadbirkorlarning yuqori darajadagi talablarini ta'minlayapti.

Umuman olganda, islohot yillari davomida aniqlangan tashqi savdo infratuzilmasi hozirgi vaqtda hech qanday to'siqsiz savdo operatsiyalarini amalga oshirgan, hamkorlarning geografik joylashuv masofasidan qat'iy-nazar, investitsiya faoliyatini rivojlantirish imkonini beryapti.

2000 yildan boshlab, YAIMda tovar almashinuvi za eksport ulushining o'sib borishi ko'rsatib o'tilgan chora-tadbirlar natijalari ekanligini isbotladi.

Mahalliy xom-ashyoni qayta ishlashning chuqurlashtirilishi, sanoat ishlab chiqarilishida

qayta ishlash tarmoqlarini solishtirma hajmining ko'payishi eksportning yangi tuzilmasini shakllantiradi, bunda qayta ishlash darajasi ko'proq bo'lgan tayyor buyumlar eksporti muhim rol o'ynaydi.

2003 yilda eksport tarkibidagi mahsulotlar qayta ishlanishining o'sish sur'atlari xom-ashyo o'sish sur'atidan oshib ketdi, shuning natijasida eksportning 57 foiz o'sishi tayyor mahsulot va xizmatlar hisobidan bo'ldi.

Respublika korxonalarining xom-ashyo eksport ulushi pasaymoqda, qayta ishlangan mahsulotlar eksporti esa ko'paytirilmoqda. Bugungi kunda, ip-gazlama va trikotaj hamda boshqa to'qimachilik mahsulotlari eksport ulushi 2003 yildagi hajmi 14,3 foizni tashkil etadi. Eksport nomenklaturasiga polietilen, paxta tsellyulozasi, shisha tolasidan quvurlar, kabel-sim va elektrotexnika mahsulotlari va ko'pgina boshqa tovarlar qo'shildi. Shuningdek, yil yakuni bo'yicha mineral va kimyo mahsulotlarining eksporti 1,4 martaga o'sganligi, qora va rangli metall, ulardan tayyorlangan mahsulotlar 25,5 foizga, mashina va uskunalar 87,4 foizga, boshqa tovarlar 28,4 foizga turli xildagi pudrat ishlari, nerezident sub'ektlarning nomoddiy xizmatlari 12,6 foizga oshdi.

Sanoat tarmoqlari talablari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi bizga chet eldan kelayotgan tovarlarning tegishli nomenklaturasini shakllantiradi.

Importda ishlab chiqarish jihozlari-mashina va uskunalar solishtirma hajmi doimo oshmoqda. Investitsion loyihalar yo'nalishi bo'yicha olib kelingan ushbu mahsulotlar, lokalizatsiya dasturi doirasida, shuningdek, chet el investorlari qo'shma korxonalarining nizom fondiga qo'shgan ulushlari hisobiga amalga oshirilyapti.

Sanoat korxonalarida, respublika hududida xom-ashyo resurs larini ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilish uchun yo'naltirilgan qator ustuvor dasturlar amalga oshirilayapti. Bu 2004 yilning investitsiya dasturi, hududlarda Qo'shma korxonalar tashkil qilish bo'yicha dasturlar, xom-ashyo bazasida mahsulot ishlab chiqarishni lokalizatsiyalash dasturi, xalq iste'moli mollari kabilarni ishlab chiqarishni ko'paytirish dasturlaridir.

2003 yilda mashina va uskunalarining importi 192,1 mln. AQSH dollariga oshdi, unda ishlab chiqarish vositalarining ulushi 3 foizga o'sdi. Import dinamikasi va iste'molga mo'ljallangan tovarlarning ko'plab turlari bo'yicha iste'mol tarkibi ichki bozorning xorijiy mollarga bo'lgan talabi ta'minlanganligini ifodalaydi.

Tashqi savdo sohasiga kichik biznes tobora jadal sur'atlarda kirib kelmoqda. Respublika hududida tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shayotgan 1,5 mingdan oshiq kichik va xususiy korxonalar ishlab chiqarishda faol ishtirok etmoqda. Ishlab chiqarishdagi ushbu sektorning respublika iqtisodiyotidagi roli va ahamiyati solishtirib bo'lmaz darajaga keldi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ko'rsatkichlari sanoat korxonalari ko'rsatkichlaridan deyarli ikki barobar oldinda bormoqda. 2003 yilda ularning eksporti - 56,1 foizga, importi - 44,7 foizga ortdi. Ishlab chiqarish faoliyati rivojlanishi yangi turdagi mahsulotlar, xizmatlarni o'zlashtirish, yangi ishlab chiqarishlar tashkil qilinishi o'z navbatida, ijtimoiy masalalar hal qilinishiga ham yordam beradi. AHOLINING bandligi oshirilishi ta'minlanadi, ichki bozor arzon narxlardagi mahsulotlar bilan to'ldiriladi, hozirgi kunda ba'zi tovar va xizmatlar sifati chet elnikidan o'tsa o'tadiki, ammo undan qolishmaydi.

Yil sayin tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari soni ko'paymoqda va tashqi iqtisodiy aloqalarning geografiyasi ham kengaymoqda. Hozirgi vaqtda jami tashqi savdo almashinuvinin 60,3 foizi Evropa qit'asi mamlakatlari bilan bo'lgan iqtisodiy aloqalarga tegishli. Osiyo mamlakatlari bilan tovar almashinuvi hajmi 33 foizdan ko'proqni tashkil etadi, 2003 yilda ular bilan olib borilgan savdo operatsiyalari uzluksiz o'sib bordi. Amerika bilan tovar almashinuvinin umumiy hajmidan tushgan ulush ancha past (6,5 %), shu jumladan, Shimoliy Amerika mamlakatlari bilan savdo operatsiyalari 80,9 foizga to'g'ri kelyapti. Afrika, Avstraliya va Okeaniya mamlakatlari bilan tovar almashinuvinin solishtirma hajmi uncha ahamiyatsiz va davlatning tashqi iqtisodiy aloqalariga ta'siri deyarli sezilmayapti.

So'nggi yillarda O'zbekistonning EI, MDH, SHanxay hamkorligi tashkilotlari bilan tashqi iqtisodiy hamkorligining rivojlanishi keskin darajada o'sdi. Mamlakatimizning Buyuk Britaniya, Germaniya, Polsha, Turkiya, Yaponiya, Xitoy, Hindiston kabi doimiy hamkorlari va bir qator boshqa mamlakatlar bilan tashqi savdosi hajmi o'sdi. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tovar almashinuvi 2003 yilda 5,2 foizni tashkil etdi. Respublika korxonalarining Afg'oniston, Eronga eksporti keskin ko'tarildi.

O'zbekistonning tashqi savdo sohasidagi asosiy hamkorlari - Buyuk Britaniya, Germaniya, Amerika Qo'shma SHtatlari, Janubiy Koreya, Turkiya, Xitoy, Eron, MDH davlatlaridan esa - Rossiya, Ukraina, Qozog'iston hisoblanadi.

Mamlakatimizning ishlab chiqarish va resurslar salohiyati xorijiy investorlarni tobora ko'proq o'ziga jalb qilayapti. Vaqt o'tgan sari respublika korxonalari bilan savdo va iqtisodiy aloqalar o'rnatishga intilayotgan nufuzli, dunyoga mashhur firma va kompaniyalarning doirasi kengaymoqda. O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasi u Osiyoning markaziy qismida joylashganligi, ya'ni SHimoldan Janubga, SHarqdan G'arbga o'tuvchi savdo yo'li chorrahasida geosiyosiy o'rin egallaganligi ham yordam beradi. Markaziy Osiyo va MDH davlatlarining 200 milliondan ortiq aholisi va butun dunyo resurslar salohiyati hajmining 40 foizdan ko'prog'ini tashkil qilgan bozori, yuqori industriya va iqtisodiy taraqqiy etgan Evropa, Amerika Qo'shma SHtatlari. Yaponiya, Janubiy Koreya, hamda endi kuchga kirayotgan Janubiy-SHarqiy Osiyo, Hindiston, Xitoy va boshqa mamlakatlarning bozorlari uchun katta imkoniyatlar eshigi ochilayapti,

Ushbu jihatlarni inobatga olgan holda, xalqaro moliya institutlari va tashkilotlari bilan ikkiyoqlama va ko'pyoqlama hamkorlik aloqalari rivojlanib, 1994 yildan beri O'zbekiston kuzatuvchi bo'lib kelayotgan Xalqaro Savdo Tashkilotiga kirish bo'yicha tadbirlar amalga oshirilayapti.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi 30 dan ortiq, xalqaro tashkilotlarni hisobga olganda, Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Islom taraqqiyot banki, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB) kabi moliya institutlarining a'zosi. Ushbu tashkilotlar ishtirokida O'zbekistonda ijtimoiy infratuzilma, sog'liqni saqlash, transport, ta'lim, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik va boshqa sohalarda turli loyihalar amalga oshirilmoqda.

Bugunga kelib, Jahon banki tomonidan O'zbekiston Respublikasiga 596,84 million AQSH dollarlik 12 ta zayom, ETTB - 795,2 million AQSH dollarlik, OTB bilan birga amalga oshirilayotgan jami loyihalar portfelining umumiy qiymati 1 mlrd. 340 million AQSH dollarini tashkil etadi.

Hozirgi vaqtda respublika korxonalariga tashqi iqtisodiy faoliyatlari rivojlantirilishi uchun barcha qulay shart-sharoitlar yaratildi. Investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish ko'p hollarda xo'jalik faoliyati sub'ektlari tashabbusiga, bevosita ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchilarga, ularning iqtisodiy sharoitlarini o'rganish qobiliyatiga, amal qilayotgan marketing mexanizmlaridan samarali foydalanishlariga bog'liqdir.

O'tgan davr asosan, tashqi savdo rivojlanishining erishilgan yutuqlari saqlanishini ta'minladi. Hozirgi vaqtda erishilgan natijalarni mustahkamlash, tashqi savdo va respublikaning tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish sohasidagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini amaliyotga joriy qilish ishlari davom ettirilmoqda.

2.1.5. Respublikada tashqi va ichki innovatsion jarayonlarning moliyalanishi va rivojlanishi

O'zbekistonda ilmning davlat sektori moliyalashda ham (90 % ilmiy harajatlar, har qaysiga qaraganda ham federal byudjet hisobidan boradi) ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari (ITTKI)ni bajarishi, hamda (tadbirkorlik tuzilmalariga 15 % dan ko'pi to'g'ri kelmaydi) ta'sirlanuvchi bo'lib qolaveradi. Bu sektor davlat dasturlarining bajarilishiga yaxshi

o'rgangan, ilmning sovet modelidan ko'p narsani meros qilib olgan, lekin bu model hattoki ishlab chiqarish va tekshirishning amaliy qismida ham iqtisodiy talablarga javob bera olmasdi.

Bozor islohatlari bu qarama-qarshiliklarni juda tez va og'riqli boshdan kechirdi. Ilmni davlatlashtirish muamolari rivojlangan davlatlarga qaraganda qiyinroq kechdi, chunki ular nafaqat davlat buyurtmalarining qisqarishiga balki to'lovga layoqatli talabga mo'ljallangan-ilmning yangi printsiplial segmentining yaratilish zaruriyatiga ham bog'liq.

Respublikada ITTKI sektori 2 yo'nalish bo'yicha shakllanadi:

Birinchisi-bu yirik xususiy korxonalar tarkibiga kiruvchi ilmiy-tekshirish bo'limlarining evalyuiyasi. Atigi bir qancha xususiy korxonalar unchalik muhim bo'lmagan masshtablarda o'z hisoblaridan ITTKI ni qo'llab-quvvatlash imkoniyatiga egalar.

Ikkinchisi-ichki bozorning tez o'suvchi segmentlarga xizmat ko'rsatuvchi uncha katta bo'lmagan yangi yuqori ilmiy kompaniyalarni yaratish, asosan informatsion va moliyaviy. Bu sektor ITTKI o'tkazilishiga mo'ljallanganligi muhim darajada unchalik yuqori emas, ilmiy injenerlik xizmatlarida esa yuqoriroq. Investitsion jarayonning jonlanishi va iqtisodiy kon'kturaning yaxshilanishi natijasida u quvvatlanishi, o'zining funktsiyalarini kengaytirishi mumkin va pozitiv o'zgarishlarda generator bo'lishi mumkin.

Innovatsion jarayonlarning moliyalashtirilishi. Innovatsion faoliyatning rivojlanishi alohida korxona darajasida ham integratsiyalashgan va davlat strukturasida ham umumiy hammasi bo'lib moliyalashning samarali sistemasini tashkil qiladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va innovatsion korxonalarning moliyalari, uning boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va banklar bilan ilmiy-texnik mahsulotlar to'lovida hakorlikda, material va qo'shimcha buyumlarni yetkazib berishda, mehnat jamoasi va davlat boshqaruv organlarining hisob-kitoblarining pulli munosabatlarini o'z ichiga oladi.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitlarida innovatsion faoliyatni moliya sistemasi davlatning moliyaviy siyosatida tarkibiy element sifatida bir qancha masalalarni echimini ta'minlashi zarur:

- mamlakatning xalq xo'jaligi kompleksining barcha zvenolarida texnik yangiliklardan samarali va tez foydalanish uchun muhim ishlanmalarni yaratish va ularning strukturaviy-texnologik qayta qurilishini ta'minlash.
- iqtisodiyotning ustivor yo'nalishida strategik ilmiy-texnik potentsialning rivojlanishi va saqlanishi;
- texnikaviy va ilmiy kadrlarning potentsialini saqlab qolish uchun kerakli ham ashyoli shart-sharoitlarni yaratish.

Ilmiy texnikaviy va innovatsion rivojlanishini moliyalash sistemasi doimiy rivojlanishdagi va juda murakkab mexanizm hisoblanadi. Bu erda moliyalashning asosiy vositalarining omillari bo'lib quydagilar hisoblanadi:

- Davlat va hududiy darajalarda ajratiladigan byudjet assignovaniyasi;
- Hududiy boshqaruv organlari va korxonalar bilan tashkil topuvchi, ITTKI ni moliyalaydigan nobyudjet fondlarning maxsus vositalari;
- Korxonalarning xususiy vositalari;
- Tijorat strukturalarining har xil turlarining moliyaviy resurslari;
- Davlat tomonidan maxsus vakolatli investitsion banklarning kredit resurslari;
- Sanoat va tijorat firma va kompaniyalarning chet el xorijiy investitsiyalari;
- Milliy va xorijiy ilmiy fondlarning vositalari;
- jismoniy shaxslarning shaxsiy boyliklari;

Innovatsion sohaning islohati ITTKIni moliyalashda davlatning ish-ustuvorligini aniqlamasdan ilmiy-texnik faoliyatini shakllanishi, xususiy sektorning innovatsion faolligi mumkin emas.

Innovatsion faoliyat uchun yaxshi iqtisodiy shart-sharoitlarning yaratilishida ilmiy va texnologik rivojlanish sohasida davlatning bosh vazifasi, bojxona, kredit, amortizatsiya, soliq siyosatlarida uzviy bog'liqlik kerak bo'ladigan ramkalarda ko'chma boshqaruv kengaytirishdir. Davlatning to'g'ri qo'llab-quvvatlashi fundamental ilm va muhim texnologiyalarning chegaralangan miqdori uchun to'g'ri keldi.

Ilmiy izlanishlarning soliq rag'batlantirishdi uning muhimligi ITTKIning yangi ish o'rinlarini yaratishda, sanoatning raqobotbardoshligining alohida rol o'ynaydi.

ITTKIning bozor iqtisodiyotida soliq rag'batlantirishi byudjet subsidiyalariga qaraganda bir qator imtiyozlarga ega. CHunki u :

- xususiy sektorning avtonomalligini va izlanishlar, qayta ishlatishlarni tanlashda va ularni realizatsiyasida iqtisodiy javobgarlikni saqlaydi;
- maqsadga muvofiq bozor bilan tan olgan texnologik innovatsionlarning davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishini tahlil qiladi;
- alohida kompaniya va tarmoqlar uchun sharoitlar yaratilmaganligi uchun, raqobatning rivojlanishini rag'batlantiradi.

Rivojlangan davlatlarda soliq imtiyozlarining quyidagi turlari mavjud: ITTKI ga harajatlarning foyda summasidan soliq tortishni qisqartirish; ITTKIga to'lanadigan soliq miqdorini chegirmalash, investitsion soliq kredit; soliqa tortish vositalari bo'yicha alohida imtiyozlar, fundamental izlanishlarni moliyalashtirish, kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish uchun soliq imtiyozlarini yaratish.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning malakalaridan iqtisodiyotning ustuvor sohasida funktsional bo'lgan tadbirlar uchun respublikada qabul qilingan barcha imtiyozlarni innovatsion tadbirlarda ko'paytirish lozim.

Innovatsionlarning shakillanishi O'zbekistonda shuningdek tadbirkorlikning innovatsion shaklining rivojlanishi ham shakllantiradi. Qimmatli qog'ozlar bozorini boshqaruv bo'yicha choralar ko'riladi, davlatning kredit asosida moliya va soliq imtiyozlari tadbirkorlarga kafolatlar beradi, amortizatsiyaning chiqarib tashlashning tezkor metodlari qo'llaniladi, tadbirkorlarni o'qitish va boshqalar amalga oshiriladi. Ijtimoiy so'roq shuni respublikadagi innovatsion korxonalarning ishchilari korxonalarning innovatsion faoliyatiga ta'sir ko'rsatish bo'yicha eng muhim davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash uchun ko'rsatadigan choralaridan, qurollanish uchun yordam, soliq imtiyozlari, xususiy mulklarning huquqiy himoyasi, moliyaviy ta'minlash va boshqalarni eng muhim deb ko'rsatdilar. Hozirgi kunda O'zRsining ilm va texnika bo'yicha davlat qo'mitasi realizatsiyasi FTM ning muammosi maslahatini amalga oshiruvchi ilmiy ishlab chiqarish strukturasining tarmoqli va hududiy birlashtiruvchi innovatsion faoliyatning milliy dasturini ishlab chiqishmoqda. O'zbekiston davlatning amaliy va innovatsion dasturlarni molilashning o'ziga xosligi shundaki, ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlarni ilmiy texnik muvaffaqiyatlarining tijorat realizatsiyasiga mo'ljallantiradigan, vositalarning qaytarilib berilishini talab qilinishidadir.

O'zbekistondagi iqtisodiyotni tashkil qilish eksport yo'nalishlarini tarkibi 2.28-jadvalda keltirilgan.

2.28-jadval

№	Eksport yo'nalishidagi mahsulotni iqtisodiy tashkil qilishni tuzilishi	Kerakli o'tkazish, realizatsiya qilish, eksport yo'nalishi iqtisodiyotini tashkil qilish	Bozor mexanizmini kamchiligi va davlatni kuchligini roli
1	YUqori sifatni bahosi hamma yo'nalishdagi iqtisodiyotda, raqobatni kuchaytirish va imkoniyatni ichki rezervlarini ishlatilishi	Valyuta bozorini erkinlashtirilishi eskilarini ko'pgina almashtirish kursi va erkin raqobat kirishi hisobiga keyingi operatsiyalarni kirib kelishi; eksport tovarlarini jahon bo'yicha kengaytirish xizmati raqobatni	Jahon bozorida mavjud emasligi va effekti iqtisodiy masshtabni ishlab chiqarishi ko'pgina jahon bozorini erkinmasligi; oligopoliya, bunday bozorda yangi ishlab chiqaruvchilar kerakmas raqobatni to'g'ri katta

		harakatini xalq xo'jaligi ishlari yo'lida importni effektini mustaqil ishlab chiqarish bahoni belgilash yaratilishi.	kuchli ishlab chiqaruvchilarini mamlakatda tashkil etish. Bu shuni chaqiradiki: turli mashsshtabdagi ishlab chiqarish har xil sotib oluvchi mamlakat; turli xil infrastruktura bunda NIOKR turli xil tizimini aralashishi va ishlab chiqarishni keyingi bosqichini qo'llab quvvatlash va shunday tovarni jahon bozoriga kiritishni tarkibiga kerakli ishlab chiqarish davlat strategiyasini qo'llab-quvvatlashga va korxona kerakli iqtisodiy barpo etish masshtab bo'yicha ishlab chiqarish yoki marketingi.
2	Baho o'zgarishi jarayonini yaxshilash va cheklangan resurslarni nomi bilan ishlatilishi	Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish deb kerakli xayotiy xo'jalik erkinligini yaratish va iqtisodiy erkinlik.	Xususiy va jamoat qiziqishlarini tarqalishi xususiy firmalar har xil sabablar bilan ishlab chiqarish boshqarishni hohlamaydi, qandaydir o'sishi hukumat tomonidan ko'rib chiqiladi. Mamlakatda umum foyda ijtimoiy xususiy kompaniyani eksport qilishga o'sha mahsulotni majburan almashtirish moliyaviy imtiyozlar va xorijiy raqobatlarini himoya qilinishi.
3	Uzoq va tez ta'minlash iqtisodiy o'sishni tuzilishi o'rtasi eksportni tashkil qilishni ta'minlash.	Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish ular bunday shartlarni yaratishda xo'jalik sub'ekti imkoniyatlarini yaratish va tashqi iqtisodiy qonunlar shug'ullanishi bunday funtsiyalarni qayta ko'rishi MVJ, bozor iqtisodiy shartlarini harakati yo'q.	Texnikaviy uzoq muddatli aspektlarini tashkil etish. Bozorlarni kerakli tizimni chiqarishi yangi texnologiyalarni zararlarini qonunda o'zgarishi ishlab chiqarish va xalqaro savdoni tahlil qismi. Bundan keyin ichki siyosatdir.
4	Ishchilar joyini sonini katta yaratish import qilish tashqi bozorda kuchli raqobatbardoshligini qiyin mehnat kiritilishi.	Moliyaviy tartibga solish. U yuqori inflyatsiyani kamayishini yaratish va moliyaviy bozorni umumiyliigi.	Infrastrukturani o'sishi salbiyligi infratuzilish muhim rol savdoni tashkil etadi. Katta investitsiyani yaratishda uzoq muddatli institutsional o'zgarishidir. Bitta muhim maqsad davlat aralashuvini yaratmog'i yengil jarayoni ichki savdoni moliyasini yaratish.


2.29-jadval. MDH mamlakatlarida yalpi ichki mahsulot (1991 yilga nisbatan % hisobida)

yillar	1999	2000	2001	2002	2003
O'zbeki ston	94,0	98,6	102,7	107,0	111,4
Ozarbayjon	53,3	59,3	65,1	72,0	80,1
Armaniston	72,5	76,8	84,2	95,0	108,2
Belorusiya	84,8	89,7	94,0	98,7	105,4
Gurjiston	46,7	47,6	49,8	52,5	57,1
Qozog'iston	71,0	78,0	88,5	97,2	106,1
Qirg'iziston	68,5	72,2	76,1	76,1	81,2
Moldova	41,0	42,0	45,0	48,5	51,6
Rossiya	64,4	70,8	74,3	77,8	83,3
Tojikiston	38,0	41,0	45,0	49,3	54,3
Ukraina	44,7	47,4	51,7	54,2	58,8

Manba: MDH statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

YAIM 1991 yilga nisbatan o'sishi bo'yicha O'zbekiston MDH mamlakatlari orasida yetakchilikni saqlab kelmoqda (2.29-jadval). 1997-2003 yillar mobaynida YAIM o'rtacha yillik o'sishi 4,3 %, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6,1 %, yalpi qishloq xo'jalik mahsuloti hajmi esa 5 % darajasida qayd qilindi. Ushbu ijobiy holat sababchilaridan bittasi investitsion va innovatsion loyihalarni amaliyotga tadbiri deb qarash mumkin.


Inkubatorlarni rivojlantirish kontseptsiyasiga muvofiq, biznes-inkubator yangi korxonalar tuzish jarayonini sistemalashtiradigan tashkilot va ularga har-xil xizmatlarni ko'rsatadi. O'zbekistonda bir xil inkubatorlar yo'q, lekin ular ko'rsatayotgan xizmatlar turi juda yaqin va quyidagilardan iborat: ofis uchun kerakli muddatga va aniq shartlarida joy berish; ofis xizmatiga doir umumiy xizmatlar ko'rsatish; biznes-inkubatorlar, o'qitish va kerakli ixtisoslashgan yordamni ta'minlash; loyihalarni sarmoyalarga qarab harakatlantirish; ish yuzasidan aloqalar o'rnatish; loyihalarni investitsiyalarga qarab harakatlantirish (2.4-chizma). 2003 yil uchun biznes-inkubatorlari eksportlar tomonidan tadbirkorlarga investitsion loyihalarni 870 mln.so'm. va 568 ming AQSH dollari qiymati bo'yicha sotish yordamini ko'rsatdi.



2.4-chizma. Respublikamizda mavjud biznes-inkubatorlar, dona.

Jumladan, Evrosiyo fondi 16825 AQSH dollari miqdorida Biznes-inkubatorlar va texnoparklar assotsiatsiya tomonidan olingan grant.

O'zbekiston tadbirkorlarining ko'p qismi tadbirkorlik faoliyatini muvaffaqiyatli rivojlantirish asosiy to'sig'i deb moliyalashtirish qiyinchiligini ta'kidlaydi. Kichik korxonalarda mablag' yetishmovchiligini sababi shundaki, ular yetarli darajada katta obro'ga va kafolatga ega emas va shuning uchun moliyaviy manbalardan foydalana olmaydilar, zahirali sarmoyalar va aksiyadorlar ishonchiga sazovar emas. Zahirali tashkilotlar-sarmoyachilar soni juda kam sharoitda inkubatorlik tashkilotlarining loyihalrini sarmoyalarga qarab harakatlantirish juda qiyin, moliyaviy bozor esa takomillashmagan (2.5-chizma).



2.5-chizma. Biznes-inkubator tomonidan sarmoyaviy dasturlarni amalga oshirilishi.

O'zR TIA milliy banki va tijorat banklarining o'zaro aloqalaridagi roli istiqbolda shunday bo'ladiki uning oqibatida FTM va Milliy bank xalqaro texnologiyalar va innovatsion loyihalar bo'yicha agentlik tuzdilar. Ularning asosiy vazifasi xorijiy investitsiyalarning jalb qilish bugungi kunda respublikamizning Davlat mulki qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasining moliya vazirligi xalqaro bank yordamida investitsiya fondlari bo'yicha loyihalarni ishlab chiqishadi.

2.1.6.Xorijiy sarmoya iqtisodiyotimizga jalb qilish vositasi: Yevroobligatsiyalarning respublika iqtisodiyoti uchun ahamiyati

Milliy iqtisodiyotni har tomonlama rivojlantirish faol investitsiya siyosatini yurgizishni talab qiladi. Bu o'z navbatida respublikada chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishni ta'minlaydi. Milliy iqtisodiyot sohalariga ayniqsa xorijiy investitsiyalar oqimini faollashtirish iqtisodiy yuksalishning ilk bosqichini boshlab beradigan asosiy omil hisoblanadi.

Bugun milliy iqtisodiyotga chet el investitsiyalarini keng miqyosda jalb qilishning bir qancha ko'rinishlari mavjud bo'lib, shulardan biri-davlat yoki firmalar nomidan evroobligatsiyalarni muomalaga chiqarish hisoblanadi. Buning afzalligi shundaki, ularni jahon qimmatli qog'ozlar bozoriga joylashtirish orqali chet el yirik kompaniyalari kapitalini O'zbekiston iqtisodiyoti hamda ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini kengaytirishga va rivojlantirishga jalb qilish imkoniyati tug'iladi.

Demak, evroobligatsiyalar xalqaro obligatsiyalarning bir ko'rinishi bo'lib, uning yordamida emitentlar o'z aktivlarini real baholash, o'z obligatsiyalarini chet ellik investorlarga sotib, katta hajmdagi investitsiyalarni o'z faoliyatlariga yo'naltiradilar va katta foyda olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Umuman, evroobligatsiya Evropa bozoridan mablag' jalb qilish uchun chiqarilgan bo'lib, uning qiymati dunyo jamiyatida. Evroobligatsiyalar odatda Londondagi Evropa moliya markazida joylashtiriladi. Shuni alohida aytish lozimki, hozirgi vaqtda "evro" qo'shimchasi - birinchi evroobligatsiya Evropada paydo bo'lganligi sababli - an'anaviy bo'lib qolgan. Uning emitentlari bo'lib, kompaniyalar, bank va moliyaviy tashkilotlar hukumat va davlat tashkilotlari hamda xalqaro tashkilotlar hisoblanishi mumkin.

Shuni ta'kidlash lozimki, rivojlangan mamlakatlarda obligatsiyalar birjada emas, balki birjadan tashqari bozorlarda muomalada bo'ladi. Savdoda elektron tarmoq mavjud bo'lib, uni banklar obligatsiyalarni sotib olish-sotishda ishlatadilar. Agar kimdir obligatsiyalarni sotib olmoqchi yoki sotmoqchi bo'lsa, u investitsion bankka murojaat qiladi. Bank esa o'zining elektron tarmog'i orqali ushbu ishni bajarib beradi.

Xalqaro qonunchilik talablariga ko'ra, evroobligatsiya bozorining qatnashchisi bo'lish uchun eng asosiysi kredit reytingini olish lozimdir. Bunday kredit reytingini beruvchilar sirasiga Moody's va Standart & Poor's yetakchi reyting agentliklarini kiritish mumkin.

O'z mohiyatiga ko'ra, kredit reytingini olish bu emitentning qarz qimmatli qog'ozlari bo'yicha asosiy qarz va foizlarni o'z vaqtida to'lash borasidagi qobiliyati va yuridik majburiyati to'g'risidagi kafillik xulosasidir. Xalqaro kredit reytingini beruvchi agentliklar emitentning reytingini aniqlash uchun bir qator huquqiy shartlar bajarilishini ta'minlash, ya'ni siyosiy tashkilotlarning legitimligini ta'minlash; xalqaro moliya tashkilotlarining qimmatli qog'ozlar bo'yicha unifikatsiyalagan me'yoriy hujjatlarini qabul qilish; jahon qimmatli qog'ozlar bozori bilan munosabatlar o'rnatish; milliy obligatsiyalar haqida keng ma'lumotlarni Internet tarmog'i orqali butun jahonga tarqatish; milliy valyutaning erkin ayirboshlanishini ta'minlash; davlatning to'lovga qodirligini oshirish; davlat qarzining oqilona darajasini ta'minlash; katta kapital resurslariga ega bo'lish; davlat byudjet taqchiligining mo'tadil darajasiga erishish; davlat byudjet va soliq tizimining moslashuvchanligiga erishish; moliya va bank tizimining xalqaro miqyosda yuqori reytingga ega bo'lishi va xokazo.

Misol uchun, Qozog'iston reytingi jahonning yetakchi reyting agentliklari-Moody's, Standart& Poor's va IBCA tomonidan o'rnatilgan bo'lib, asosan mamlakatning tashqi qarzi va umumiy reyting ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlangan. Barcha agentliklar Qozog'istonga deyarli bir xil baho berganlar, ya'ni VaZ Moody's, VV Standart& Poor's va IBCA. Unga ko'ra, mamlakatda ichki iqtisodiy vaziyatning nobarqarorlashishi emitentning to'lov qobiliyatiga ta'sir etishi mumkin. Chiqarilgan obligatsiyalari esa, quyi guruhning o'rta sifatli, biroq to'lolmaslik tavakkaliga ega bo'lgan, deb topilgan.

Fikrimizcha, iqtisodiyotimizga evroobligatsiyalarni jalb etish uchun, emitent va investorlarning evroqog'ozlar bilan bog'liq faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazani yanada batafsil ishlab chiqish, aksariyat emitentlarning qimmatli qog'ozlari yuqori likvidligiga erishish, Respublika fond birjasi ikkilamchi bozorini rivojlantirish, shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozori faoliyati va bozordagi kunlik (soatlik) yuz berayotgan o'zgarishlar to'g'risida respublika miqyosida keng axborot berish zarurdir.

Shuningdek, respublikamizga xorij sarmoyalarini yanada faol jalb qilish uchun Internet va boshqa xorijiy telekanallar orqali O'zbekistondagi shart-sharoit hamda imtiyozlar haqidagi ma'lumotlarni yoritib borish maqsadga muvofiq bo'lur edi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish uchun chet el investitsiyalarini jalb etish muhim ahamiyatga ega. Bu borada so'nggi yillarda chet el sarmoyasini o'z iqtisodiyotiga keng ko'lamda kiritishga erishgan davlatlar tajribasini har tomonlama tahlil etish va bu tajribani respublikamizdagi shart-sharoitlarni hisobga olgan holda amaliyotga joriy etish ham katta ahamiyatga egadir.

2.1.7.Lafferni fiskal nuqtalarini invariantligi va invariantligini buzilishi muammolari

Lafferni fiskal nuqtalarini invariantligi. Masalani qisqacha tarixi. Iqtisodiy fanni soliq tizimini optimal moyilligiga bo'lgan qiziqish kamaymayapti. Qoida bo'yicha, muammo soliq yuklamasini umumiy ko'rsatkichga taalluqli quyidagicha nomlangan laffer nuqtalarini qidirish yo'li bilan hal qilinadi. Bu tadqiqotni yo'nalishi ko'p va'da berishga o'xshaydi, ammo vaqt, ko'pgina havola qilinayotgan laffer nuqtalarini baholovchi usullari va algoritmlari uslubiy berkligini ko'rsatdi. Bunga batafsil yondashamiz. Laffer nuqtasini ma'nosini aniqlash bilan parallel holda uni sonli tenglash bo'yicha ham ish olib borildi. Ammo huddi shu yo'lda eng jiddiy muammolar paydo bo'ldi. Gap shundaki, laffer nuqtalarini analitik andozalari va baholash uslubi, amaliyotda, qoida bo'yicha, juda ajoyib natijalar beradi. Ularga muvofiq laffer nuqtalari yo yo'q bo'ladi, yoki noaniq ahamiyatga ega, yo nohaqiqatnoma yillar bo'yicha sakraydi. Bularni hammasi jiddiy amaliy hisoblarga o'tishda sergaklikka undaydi.

Laffer nuqtalarini invariantligini buzilishi muammolari. Laffer nuqtalarini iqtisodiy baholashga harakat qilish oldingi ishda ko'rsatilgan, unda o'zini keyingi hisoblarda yaxshi tavsiyalangan negizli (bazali) ishlab chiqarish-institutsional funktsiya (ICHIF) taklif etilgan. U quyidagi ko'rinishdadir;

$$V=vDK(a-bd)dL(p-t)d \quad (2.1)$$

(Bunda chiqarish (VVP mamlakat hajmi) K-kapital (asosiy fondlar hajmi); L- mehnat (iqtisodiyotda bo'lgan xodimlar soni); d- soliq yuklamasi VVP dagi soliqlar kirimini ulushi Tdan hisoblangan, nisbiy soliq og'irligi $-v=T/V$; D-trendli operator (j vaqtga bog'liq funktsiya) v, a, v, p va t – retrospektiv dinamik qatorlar asosida statik ravishda baholanadigan parametrlar. O'zgaruvchan V, K, L va d taalluqli yillar uchun olinadi. (2.1) funktsiyani xususiyati shundaki, mamlakatni makror mahsuloti mehnatdan, kapital va soliq og'irligidan bog'liq bo'ladi. SHu bilan birga mehnat va kapitalni iqtisodiy o'sishiga ta'siri fiskal sharoitga bog'liq. (2.1) funktsiya ishlab chiqarish egrilishini beradi, ya'ni chiqarish va soliq yuklamasi orasidagi bog'lanishdir. Bunda fiskal egrilik (yig'ilayotgan soliqlar miqdori va nisbiy soliq yuklamasi orasidagi bog'lanish) quyidagi funktsiya orqali ko'rsatiladi;

$$T=VdDK(a-vd)d(n-md)d \quad (2.2)$$

ICHIF negizidagi fiskal tahlilni sterjenli g'oyasi (2.1) va (2.2) 1nchi va 2lnchi xildagi laffer nuqtalarini o'zaro joylanishi va soliq yuklamasi (7)ni haqiqiy miqdorini aniqlash bo'lib hisoblanadi. Berilgan fiskal indikatorlarni ko'rib chiqish soliq sharoiti va iqtisodiy o'sish dinamikasini shakllanshini to'la ko'rinishini tasvirlashga imkon beradi.

Esga solamizki, 1nchi xildagi lafferni fiskal nuqtasi d^* ishlab chiqarish egriligini (2.1) cho'qqisi deyiladi (ya'ni maksimum nuqtasi). Bunda $dV|dq-O$. (2.1) funktsiya uchun, 1nchi xildagi laffer nuqtasi uchun ifoda quyidagicha;

$$q^* = \frac{1n1nL-a1nK}{2t1nK-b1nK} \quad (2.3)$$

SHunga o'xshash 2nchi xildagi laffer fiskal nuqtasini aniqlanadi d^{**} , uni sifatida fiskal egriligini (2.3) cho'qqisi (ya'ni maksimum nuqta) hisoblanadi. Bunda $bT|dq-O$, 2nchi xildagi laffer nuqtasi uchun formula quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

$$q = \frac{1-V(nLnL-a1nK)-8(mLnL-d1nK)-n1nK-a1nK}{m1nL-d1nK} \quad (2.4)$$

(2.4) formula tushuntirish uchun talabiga egadir. (2.4) ga muvofiq ikki statsionar nuqtadan faqat bittasi tanlanadi, bu maksimal nuqta bo'lib hisoblanadi. Ammo ikki kritik nuqtadan biri maksimum nuqta bo'ladi deb aytish mumkin emas, (4) formulada 2nchi xildagi lafferi ikki potentsial nuqtasi.

Mumkin bo'lgan laffer gipotetik va empirik egriligini va soliq yuklamasi doimiy ma'lumotlarni joylanishi.

CHunki nisbatni o'ng qismi (2.3) va (2.4) nafaqat andoza parametrlaridan bog'liq bo'ladi, biroq instrumental (asbobiy) o'zgarishlardan ham o'z navbatida vaqtdan ham bog'liq, unda 1nchi va 2nchi xilli laffer nuqtalari ham tadqiqotni hamma intervalida konstanta bo'lib hisoblanmaydi. Teskarisi, ular vaqt ichida suzuvchan bo'lib ko'rinadi, bu esa o'tkaziladigan tahlilni katta plyusi bo'lib hisoblanadi.

(2.1)-(2.4) formulalar bo'yicha o'tkazilgan amaliy hisoblar Rossiya, AQSH, SHvetsiya, Buyuk Britaniya uchun hamma bog'lanishlarni statistik ahamiyati nuqtai nazaridan juda umidvor natijalar berdi. Muhokama qilinuvchi, hisoblanadigan muammo bunda nimadan iborat?

Muammoni birinchi klass muammosi-sof ekonometrikdir. Qisman xavf mavjud, dastlabki dinamik qatorni vaqt ichida cho'zilishi, qisqarishi yoki surilishi andoza (2.1) parametрни qo'zg'atishiga olib kelishi mumkin, u o'z navbatida laffer nuqtalari ahamiyatini qo'zg'alishiga olib keladi. Bu muammoni (2.1) andoza bilan keyingi eksperiment va qo'shimcha test o'tkazish bilan echish mumkin. Sof ekonometrik sifatida juda kam muhokama qilinadigan keyingi muammo

shundaki (VVP) chiqishini va soliq og'irligini bog'lashga imkon beruvchi (2.1) andoza yagona bo'lib hisoblanmaydi. O'xshash natijaga chiziqli, eksponentsiyaviy yoki qandaydir boshqa andoza chegarasida erishish mumkin. Buning ustiga izlanadigan andozalarda statistik testlar taxminan bir xil yaxshi bo'lishi mumkin. Ammo har xil andozalar laffer nuqtalarini mutlaqo har xil mohiyatlarini yuzaga keltiradi, ya'ni bir ekonometrik andozadan boshqasiga o'tayotganda laffer nuqtalarini o'zgarmaslik (inventarlik) sharti buziladi.

Umumiy holda laffer nuqtalarini aniqlash masalasi quyidagicha qo'yiladi. Qandaydir har jihatidan yaxshi (ideal) lafferni ishlab chiqaruv egriligi mavjud, uni biz o'zgaruvchanligi mavjud bo'lgan empirik mohiyati asosida ma'lum regressiyaviy funktsiyasi bilan approksimirlaymiz. Taxmin qilingandek, funktsiyani ikkalasi maksimum nuqtaga ega. Masala shundaki regressiya parametrlarini shunday tanlash kerakki, har tarafdin yaxshi va regressiyaviy funktsiya maksimal o'xshash bo'lsin va maksimum nuqtalari imkoniyati boricha unga to'g'ri kelsin.

Ammo, bunday masalani har doim echish mumkin emas. Gap shundaki, yaxshi approksimatsiya uchun empirik nuqta q ta'rifni (opredeleniya) maksimal katta jabhasida joylansin. Laffer egriligida bo'lgan qing'irlikni e'tiborga olib, empirik nuqta q laffer nuqtasi atrofida undan ikki tomonida guruhlanishi kerak. Faqat shundagina, to'g'ri hisoblar uchun zarur bo'lgan, ekonometrik bog'lanishni axborotli (ma'lumotni) to'liqligi ta'minlanadi. Mabodo, bu shart bajarilmasa va empirik mohiyat q faqat laffer nuqtasini faqat bir tomonidan to'planaversa, ya'ni, laffer egriligini gap (o'suvchi) yoki o'ng (tushuvchi) sho'basida (tarmog'ida), unda izlanayotgan ekonometrik bog'lanishni samarali tenglashtirish (o'xshatish) uchun axborotli yetishmovchilik muammosi paydo bo'ladi.

Bu vaqtda shunday bo'lishi mumkinki, mavjud bo'lgan anchagina empirik mohiyatlarida q laffer gipotetik egriligini ekonometrik funktsiya juda yaxshi apiroksimatsiya qiladi, ammo laffer nuqtasi bu ikki egrilikda bir biriga nisbatan kuchli siljiydi. Bu samara jadval ravishida rasm 1 da ko'rsatilgan, bunda Vo-har jihatidan yaxshi (approksimirlanuvchi) funktsiya, V-ekonometrik (approksimirllovchi) funktsiya. qo –lafferni haqiqiy nuqtasi, q- lafferni empirik nuqtasi; punktir bilan empirik nuqtalarni q yig'ilishi sho'basi belgilangan. Bunday vaziyatda gipotetik va approksimirluvchi funktsiyalar orasidagi ko'pgina farqi emperik kuzatuvlar chegarasidan tashqarida boshlanadi. Bu laffer nuqtasini joylanishi funktsional bog'lanishi turiga bog'liq, tanlashni asossizligi amaliy ravishda hech narsa bilan chegaralanmagan.

Ko'rib chiqilgan axborotli ettishmijvchilikni samarasini riyoziyot tili bilan ifodalash mumkin; agarda hamma empirik nuqtalar q lafferni gipotetik – egriligini sho'balaridan birida bo'ylamasiga joylashsa, unda laffer nuqtasi interpolyatsiya yo'li bilan aniqlanmay, balki eksrapolyatsiya yo'li aniqlanadi. Shunday qilib, uni mohiyati approksimirlangan egrini algebrak shakli bilan oldindan aniqlanadi.

Axborotli yetishmovchilikni samarasini iqtisodiy interiretatsiyasi shunda; laffer nuqtasini samarali baholashi uchun zarur; soliqli yuklama haqidagi empirik ma'lumotlar orasida shular bo'lsinki, ular laffer nuqtasidan oshirsin, va shundayki, ulardan kichik bo'lsin. Boshqacha qilib gapirganda laffer nuqtasini aniq o'xshatish uchun zarur; o'rganilayotgan iqtisodiy tizim o'tgan davrda, vaqtini qismi qulay soliq rejimida bo'lsin (ya'ni soliq yuklamasi laffer nuqtasidan kichik), vaq qismi esa – fiskal ortiqchali rejimida (soliq yuklamasi laffer nuqtasidan yuqori). SHubhasiz, bu ba'zan mumkin.

Shunday qilib, laffer nuqtalarini ekonometrik andozalar asosida baholash faqat bir printsiptial shartni bajarishda maqsadga muvofiq; hisoblarni axborotli ta'minlanishi shunday bo'lishi kerakki, unda empirik nuqtalar q laffer nuqtasini ikkala tomonidan sochilsin.

Oldindan ko'rsatamizki, bu shart AQSH iqtisodiyoti uchun bajariladi, ammo Rossiya iqtisodiyoti uchun bajarilmaydi. Boshqacha qilib aytganda, mamlakatlar borki, ular uchun ekonometrik apparatni (asbobni) ishlash printsiptial holda laffer nuqtasini aniqlash uchun mumkin emas ekan. Bu vaqtda biz ekonometrik asbobni (insrumentariyani) o'zini chegaralanishi bilan

to'qnashamiz.

Agar biz sharoiti yaxshi bo'lmagan mamlakatlarni ko'rib chiqsak, ular uchun axborotli yetishmovchilik muammo tavsiflidir, unda turli approksirovchi funktsional bog'lanishlarga nisbatan hisoblash eksperimentlarni o'tkazishga harakat qilish mumkin.

Ba'zan, sifati ko'proq yoki kamroq bo'lgan-andozalarni turli turkumlari (statistikasiga asosan) laffer nuqtasiga yaqin mohiyatini beradi (bunday natija Rossiya iqtisodi uchun olingan). Bu shartlilikni ma'lum darajasi bilan laffer nuqtasini topishiga imkon beradi, umumiy holda axborotli yetishmovchilik muammosi baribir qoladi.

Uchinchi va juda qiziqarli muammo boshqa narsada. Biz andozani to'g'ri tasniflarini va a'lo darajada to'g'riladik deylik (ya'ni oldingi ikki muammo hal qilindi). (2.1) andoza o'rni mazmuni bilan mikroiqtsodiyot omillarini hisobga olinishini bir nechta usullarini taxmin qiladi. Masalan, milliy iqtisodiyotda (L) band bo'lgan sonli shaxsdek, mehnat asosiy variantda jismoniy ifodada e'tiborga olinadi. SHu bilan birga mehnat omilini narx shaklida (W) ham olib borish mumkin. Boshqa mikro omilga (kapitalga) nisbatan quyidagi variantlar mumkin; narx ifodasidagi asosiy ishlab chiqarish fondlari (K) va asosiy ishlab chiqarish fondidagi investitsiyalar (I) narxli ifodada. Bu ko'rsatkichlarni turli kombinatsiyalari imkoniyatini e'tiborga olgan holda, negizli andozani to'rt xilma xilligini ko'rib chiqish mumkin (2.1); mikroomillar juftligi (K,L), (I,L),(K,W) va (I,W).

Qoida bo'yicha, (2.1) andoza, hamma to'rt turlanishi (modifikatsiya) bo'yicha testdan o'tadi. Unda savol tug'iladi; qaysi andoza eng yaxshi? Albatta, bunday savol doimo nosog'lik bo'lavermaydi. Agarda turlanishni turli andozalari bo'yicha laffer nuqtasini unchalik katta bo'lmay siljishiga to'g'ri kelsa (qandaydir doimo bo'ladi), unda qidirilayotgan nuqtada bo'lgan chegarani chizish imkonini beradi. Bu vaqtda laffer nuqtalarini o'zi yuvilib ketgandek bo'ladi va interval ahamiyatiga ega bo'ladi. Mabodo, laffer nuqtalarini ko'proq farqi kuzatilsa, unda ularni haqiqiy mohiyatiga nisbatan dezorientatsiya paydo bo'ladi. Bu vaqtda, chamasi andozadan foydalanish imkoniyatini o'rinli savolga qo'yish kerak.

Shunday qilib, (2.1) andoza bo'yicha laffer nuqtasini o'xshatish (identifikatsiyalash)da, amaliy hisoblarda mikroomillarni hisobi usulini o'zgarishida ularni invariantligini mavjudligi to'g'risida o'ziga xos test o'tkazish zarur. Faqat bu testni muvaffaqiyatli o'tgani taqdirda laffer nuqtalarini haqiqiy mohiyati haqida yakuniy fikr yuritish mumkin.

Ko'rib chiqilgan muammo tajriba (fakt)ga asoslanmagan holda hal qilinmaydi. Ko'rsatkich LW dan yaxshi yoki teskarisiligini tasdiqlash mumkin emas. Qisman W ish kuchidagi yuklama darajasini yaxshiroq payqaydi, chunki u band bo'lishini qisman va vaqtdan tashqariligini to'playdi (akkumulyatsiyalaydi). SHu bilan birga (YAIM)ni chiqarish miqdori bilan muvofiq holga keltirgan holda, W ko'rsatkichni defliratsiyalash zarur, bunda dastlabki statistik ma'lumotga bo'lgan qo'shimcha talab qo'yiladi. O'xshash boshqa juftlikka taxminan o'shani aytish mumkin. Ko'rsatkich K, nafaqat joriy yilda qo'shimcha ishlatilgan ishlab chiqarishni hamma miqdorini hisobga oladi. Ammo fondlarni haddan tashqari baholash o'z-o'zidan shunday uslubiy va hisobiy muammoni tasavvur qiladiki, u ijobiy mazmunli, masalliq K ni qadrsizlantiradi.

Kutilishi mumkin bo'lgan hisoblarni qisqartirish uchun hisobli ustunlikni ikki juftlikka berish mumkin; (K,L), va (I,W). Bunda mantiq oddiy; asosiy fondlarni va bandlik soliqlari hisoblashda bir xil mikro omillarni yuklanish darajasi e'tiborga olinmaydi. Investitsiya hajmlarini asosiy kapital va mehnat haqi fondidan foydalanilganda moddiylashtirilgan va tirik mehnatga to'lashni hozirgi kundagi harajatlari bir xil darajada e'tiborga olinadi. Bu vaqtda ishlab chiqarish intensivligi hisobi noaniq shaklda ro'y beradi.

Shunday qilib, laffer nuqtasini invariantlik muammosini tadqiq qilish juft resurslar (K,L), va (I,W) uchun (2.1) negizli andoza chegarasida solishtirish uchun keltirish mumkin, boshqa ikki juftliklar qo'shimcha andoza sisnariyalari olish uchun foydalanilinishi mumkin.

2.1.8.Subsidiarlik (mablag' bilan yordamlashuv) yevroittifoqni tamoyili va mexanizmidir

Subsidiarlik-hukumat piramidasini turli darajasida bo'lgan, faktorlar orasidagi vakillik va vakolatni taqsimlash asosida yotgan tamoyildir. Subsidiarlik tamoyili (ST) shuni nazarda tutadiki, maqsadga muvofiq bo'lganda, boshqaruv mumkin qadar ko'proq past darajada amalga oshiriladi; bu vaqtda evropa darajasi milliylikka nisbatan xuddi qo'shimchadek chiqadi. (masalan, alohida mamlakatlarni o'z tomonidan almashtirmay EI evropa ittifoqi darajasidagi moliyalashtirishni odatda qo'shadi). ST Maastrixstik shartnoma bilan 1992 yilda kiritilgan edi. SHunda maslahatchi organ sifatida regionlar qo'mitasi tuzilgan edi.

Evropa ittifoqi (EI) shartnomasini 5 moddasiga (oldin 36 edi) asosan uyushma, haqiqiy shartnoma va uni oldida bu erda qo'yilgan maqsadlar bilan aniqlanadigan, o'zini vakillik chegarasida harakat qiladi. Maxsus vakolatiga tushmaydigan sohalarda, uyushma STga asosan harakat qiladi, agar nazarda tutadigan harakatni maqsadi davlatlar-a'zolar tomonidan yetarli darajada erisha olmasa, va shuning uchun, nazardagi harakat miqyoslar kuchi va natijalari, uyushma tomonidan muvaffaqiyatliroq erishiladi. Uyushmani har qanday harakati haqiqiy shartnomani maqsadga erishish uchun zarur bo'lganidan uzoqroq ketishi kerak emas. Shunday qilib, ularni "miqyosli" hisoblaganida uyushma o'rinli vakolatini yangi sohalarga kengaytirishi mumkin, shartnomani 5 moddasiga, har bir alohida olingan uyushma dalolatnoma (akt), tayanishi mumkin, u oxirgi faoliyati doiralarini qonuniy tartibda chegaralab qo'yishga imkon beradi.

Subsidiarlikni shunday qilib, uyushma ishlarini siyosiy rahbarlik tamoyilini va uni vakolatini qonuniy chegaralash deb tushunish mumkin.

Maastrixt shartnomasida imzo qo'yilmasdan oldin subsidiarlik haqida baxslar uyushma organlari tomonidan initsinirovka qilindi, imzolangandan so'ng ST milliy mamlakatlarda keng muhokama qilindi. 5 modda subsidiarlik tamoyilini har xil interpretatsiyasi uchun imkon qoldiradi, ommaviy norozilik sharoitida esa EI siyosatida millat usti kuchlanishi bilan subsidiarlikni aniq tushunchasi va undan foydalanish qoidalari talab qilingan. Bu modda chegarasiz va istisnosiz harakat qiladi. EI shartnomasini 5 moddasida regional daraja umuman eslatilmaydi, so'z faqat evropa darajasida va davlat-a'zolari haqida boradi, bu degani, milliy davlatlar uchun imkoniyat submilliy daraja ko'rib chiqilmasin va qarorni qulay paytda o'zida qoldirsin. ST va uni bayon qilish usuli millat usti kuchlanishi bilan kelishib chiqqan keskinlikni kamaytirdi. ST past maastrixt davrida evropa siyosatini tushunish uchun juda muhim ahamiyatga ega.

Subsidiarlik g'oyasi yangi emas. Evropa siyosatida, oxirgi o'n yilliklarda, doktrini izlash davom etmoqda, qaysiki, an'anaviy holda mustaqillikni milliy sohasi hisoblangan holda milliy va regional doiralar vakolatida bo'lgan, muammoni echishda uyushmaga imkon bersin.

EIda subsidiarlik tamoyilini g'oyachisi bo'lib J.Delor hisoblanadi. Uyushma faqat u sohalarda harakat qilishi mumkinki, unda mamlakat-ishtirokchilar unga taalluqli hokimiyat bersin, u Bryusselni o'rab olgan "byurokratik to'siqni", buzish fuqarolarni uyushmani qobiliyatligiga ishonitirish yaxshi vosita deb hisobladi. SHu bilan birga uni foydali deb ham hisobladi, agar uni qo'llab-quvvatlashda rivojlanishni xohlasa ST, Delor fikri bo'yicha, umumiy kursni aniqlashi kerak; unda uyushma, milliy hukumatlardan avtonom ravishda bir joyda harakat qilishi, bir joyda esa harakat qila olmasligi mumkin, AQSH konstitutsiyasiga o'xshash, shtatlarga huquqlar qoldiradi, qaysiki federal hukumatga bo'linmaydi, yoki, maxsus ravishda belgilanmagan, yerni hamma vakolatiga ega bo'lgan, prerogativdan tashqari, federativ Germaniya Respublikasini asosiy qonuniga o'xshash, "Federalist yondoshish Kim va nima qilarini ravshan aniqlashga undaydi",-yozgan edi J.Delor.

ST ba'zi bir mamlakat-ishtirokchilarni salbiy munosabatlarini yengishga imkon berdi, avvalo, ittifoqni rivojlanishidagi federal tendentsiyalarini belgilagan Buyuk Britaniyadir. 1991 y. EI haqidagi Shartnoma loyihasida evropa integratsiyasi, maqsadi Federatsiya bo'lgan, Ittifoq tuzishga

yetaklagan jarayondek aniqlanar edi. Angliya bunga salbiy javob berdi, agar kontinental Evropada federalizm munozara chiqarmaydi, izhor qildi, unda Buyuk Britaniyada uni mulohazasi o'zida yashirin sodiq turmaslikni olib boradi.

Ayniqsa federalizmga salbiy munosabat Buyuk Britaniyani konservativ partiyasida kuzatildi. Uni vakillari evropa federalistlarini, bryussel amaldorlarini qo'lidagi hukumatni ortiqcha markazlashtirishga intilishida aybladilar. M.Tetcher hokimiyatni markazlashtirish, erkinlikni eng noxohishlik chegaralashuvi, deb hisobladi. Ma'lum darajada 1991 yilda bunday nigohlar ta'sirida Evropa hay'ati siyosiy ittifoq haqidagi muzokarada yagona bo'lishiga oz qolgan STni ishlab chiqish bilan shug'ullandi, qaysiki u bilan, turli sabablarga ko'ra, hamma delegatlar rozi bo'lishdi.

EI hujjatlarida subsidiarlik tamoyilini aniq tushunchasini yo'qligi, uni huquqiy meyordek qarashga imkon bermaydi. Bu siyosiy tamoyildir. Undan foydalanish, EIda siyosiy kuchlarini qo'yilishini aniqlovchi, aniq interpretatsiya va vaziyatga bog'liq. Bu integratsiya jarayoni ko'pgina ishtirokchilari uchun qulay qiladi, turli siyosiy kuchlar bilan uni qo'llanishini ta'minlaydi, qaysiki ular subsidiarlik tushunchasiga ma'no kirgazishlari mumkin. Buyuk Britaniyaga o'xshash davlatlar STda, integratsiyaviy jarayonni susayishi va milliy davlatlarni vakolatini kuchayishi vositasini ko'rishadi, keyinroq ko'rsatiladiki, STdan foydalanish EI siyosatida millat usti vektorni kuchaytiradi.

STni rivojlanishini muhim rag'bati bo'lib, Daniya, Frantsiyaga o'xshash mamlakatlarda Maastricht shartnomasini ratifikatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan murakkabliklar bo'ldi, qiyinchiliklar Buyuk Britaniyada ham bo'ldi. Evropa hay'ati bo'shashganida ba'zi sohadagi rahbarlik, eng avvalo qonunchilik sohasida raqobat qoidasi haqida, ba'zi bir mamlakat-ishtirokchilarida "noqulaykil"ni ishlab chiqishda millat ustidan chetga chiqish vositasidek, STdan foydalanish niyati paydo bo'ldi.

Evropa ittifoqida subsidiarlik asosida birinchi navbatda regional muammolari echiladi, shuning uchun maqolada so'z EIda hukumatni umum milliy darajasini safga tizilishida subsidiarlik roli haqida boradi. Region EI ko'p qavatli tuzilmasida muhim daraja bo'lib hisoblanadi, madomiki Uyushma hukumatini qaysi bir qavatida qaror qabul qilinmasin, ular bevosita u yoki bu regionda amalga oshiriladi. Region-bu investitsiyalarni bog'lash aniq joyi.

EIni tuzilmali operatsiyasi regional siyosatini o'tkazilishini keng spektr usullarini nazarda tutadi, unga har yili 32 mlrd. evro sarf etiladi, bu EI bujetini uchdan ortig'ini tashkil etadi. Tuzilmani yordamini amalga oshirish regionlar tomonidan iqtisodiy va ijtimoiy mustaqillikka, ular tomonidan submilliy umumiylikka erishish uchun turtki bo'ladi, hamda mamlakat-ishtirokchilariga Evropa hay'ati ta'sirini quvvatli asbobi bo'lib hisoblanadi, madomiki undan bu yordamni oluvchi mamlakat yoki regionlarni tanlash ko'proq bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, ST millat ustini rivojlanishiga imkoniyat beradi, madomiki rivojlanish mantiqi shunday, o'ziga xos tub mohiyatini yaratib, regionlarni iqtisodiy mustahkamlanishi, institut milliy tuzilmani rivojlantirish yo'li bilan ularni makonini tarkiblashtirishga yordam beradi. Regional darajada paydo bo'ladigan huquqiy negiz (baza), mulkchilik huquqi, ta'lim tizimi va boshqa institutlar, unday yoki bunday, holda milliylarni tiklashadi, qaysiki o'z navbatida EIni millat usti tizimiga yanada ko'proq tortadi. Bu vaqtda milliy va submilliy chegaralar, millat usti siyosiy qarorlar uchun juda "o'tkazuvchan" bo'lib qoladi, chegaralarga ustun qismi "yuqoridan" EI tomonidan, va "pastdan"-regionlar tomonidan bo'ladi.

Regional rivojlanishni Evropa fondi, Evropa ijtimoiy fondi, qishloq xo'jaligini yo'nalishini aniqlash va kafolatlash Evropa fondi va baliqchilikni yo'nalishini aniqlashni moliyaviy asbobiga o'xshash tuzilmali fondlar- bu uyushmani regional rivojlanishi sohasidagi asosiy mexanizmlaridir. Iqtisodiy rivojlanishni turli doiralari orasidagi harakatlarni taqsimlash va ustunligini aniqlash Evropa hay'atini to'g'ridan-to'g'ri ta'siridagi taalluqli mamlakatlar hukumati tomonidan amalga oshiriladi. EIni regional siyosati amalda bo'lgan regionlarda mamlakat a'zolari aholisini 50 foizdan ortig'i yashaydi, ya'ni u ko'p yoki kam darajada Ittifoq davlatlariga hamma kiruvchilari manfaatiga tegadi. Tuzilmali fondlar regional siyosatni ustunlik yo'nalishini shu bilan bir qatorda rivojlanishi orqada

qolgan regionlar tuzilmasini qaytadan tashkil qilish va inqirozli sanoat regionlarini o'zgartiruvchi (konversil qilish)ni hamda juda miqyosli bo'lmagan, ammo mustaqil regional dasturni moliya bilan ta'minlaydi. Oxirgi ulushiga byujetni uncha ko'p bo'lmagan qismiga –9 foizga to'g'ri keladi. Regional rejalardan farqi, qaysiki mamlakat a'zolari tomonidan eng boshida ishlab chiqiladigan, dasturlar hay'at direktivalariga asoslanadi va qandaydir ma'noda uni merosi bo'lib hisoblanadi; U yangi yondashishni sinab ko'rish bo'yicha eksperimentlar (tajribalar) o'tkazishga imkon beradi, hay'atga o'z ixtiyori bilan urg'u (aktsient)ni joy-joyiga qo'yishga imkoniyat berishadi.

Tuzilmalar fondini siyosati ikki va uch pog'onali (qiziqqan regionlarni ichiga olgan holda) rejalashtirish jarayoni atrofida (aniq ustunliklarga bog'liq bo'lgan) tiziladilar. STda qurilgan regional rivojlanishini rejalari boshida turli kombinatsiyadagi sheriklarni (davlat departamentlari jalb qilingan holda mahalliy hukumatlar, rivojlanishi bo'yicha agentliklar, o'quv institutlari, ekologik tashkilotlar) mamlakat-ishtirokchilari tomonidan regional darajada ishlab chiqiladi. O'rta tezlikdagi dasturlar uchun rejalari Evropa hay'atini milliy hukumatlari bilan umumiy strategiya ishlab chiqish, ustunligini, qo'llash va moliyaviy yordam ko'rsatish tadbirlarini aniqlash maqsadida muvofiqlashtiriladi. Odatda fondlar iqtisodiy rivojlanishni turli doiralaridagi loyihalarni qisman moliyalashtirish (biznesga yordam, infratuzilma, ilmiy tadqiqot, texnik jihatidan modernizatsiyalash, inson resurslari, atrof muhiti, turizm, transport, shaharlarni tiklash)da ishlatiladi.

Regional siyosat Elni ko'pgina mamlakatlarida uzun tarixga ega, regionlar va markazlar munosabati o'z vaqti uchun dolzarb masalalar paydo bo'lishida yuzaga kelgan. Zamonaviy hukumat organlari tuzilmalari xilma-xillikni saqlaydilar va milliy xususiyatlari bu mamlakatlarni ma'muriy tuzilishini aniqlash davom etmoqda. Har bir alohida olingan mamlakat oldida turgan masalalar darajasi, huddi shunday turlidir. Buni hammasi hay'at ishini murakkablashtiradi, qaysiki ko'psonli milliy tuzilmalar bilan birgalikda o'zaro harakat qilishga majbur bo'ladi, takliflar tayyorlanayotganida ularga tayanadi, madomiki har qanday nazarda tutiladigan Uyushma tadbiri faqat uni mamlakatda ko'rib chiqilganidan so'ng direkta shaklini qabul qiladi.

STni amaliy qo'llanishi har bir hollarda har turlidir, u EIda qarorlarni qabul qilishadigan tartibini murakkablashtiradi, va albatta, qandaydir yagona formuladan uzoqlashadi. Regional darajada vazifani yechilishi har bir alohida olingan mamlakatni potentsialini amalga oshirishga va ularni echish uchun eng qulay darajasidan foydalanishga imkon beradi. ST farqlarga moslashishga imkon beradi, ularni bartaraf qilmay gohida nihoyatda miqyosli va ko'p qiyofalidir.

EI mamlakatlarni regional siyosatini vazifalarini yechishda, STni roli haqida gapirsa, unda tahlil maqsadida orqadagilar turli tabiatni va uni oldida turgan regional muammolarni murakkabligini aks ettiruvchi to'rt katta guruhga bo'linadi. Eng avvalo bu Germaniya, Irlandiya, Portugaliya va Ispaniya-bular Evroittifoqda eng kam rivojlangan bo'lib hisoblangan mamlakatlardir, qaysindaki EI regionlarida eng kam kambag'allari to'plangan.

Ikkinchi guruhlarini Germaniya va Italiya tashkil qiladi. Bu mamlakatlarda alohida regionlarni rivojlanish darajasida Germaniya yerlarini "eski" va "yangi"lari orasida, Italiyani shimol va janubi orasida eng ko'p ichki farqlar paydo bo'ldi.

Uchinchi guruhni aholini past ishligi uzoqlashgan tumanlar uchun tavsifli bo'lgan sovuq iqlim sharoitlari va aholi joylashgan punktlar orasi uzoq bo'lgan Finlyandiya va SHvetsiya tuzadi.

To'rtinchi guruh-bu shunday Evropa mamlakatlariki, unda regionlar rivojlanishi nisbiy bir maromligi bilan ajralib turadi; Avstriya, Daniya, Frantsiya, Belgiya, Niderlandlar, Lyuksemburg va Buyuk Britaniya.

Bunda regional muammolar bandlikni ta'minlash va uni tuzilmasi bilan bog'liqdir.

Mamlakatlarni birinchi guruh uchun milliy rivojlanish masalalarini ustunligi va alohida regionlarni notekis rivojlanishini yo'q qilinishi odatda baxslanadi, ammo, qoida bo'yicha, ish umum milliy iqtisodiy rivojlanish va kamroq regional darajasi foydasiga hal qilinadi. Bu vaqtda Gretsiya, Irlandiya va Portugaliyada markazlashgan yondoshish ishlatiladi. Masalan Gretsiyada regional siyosatni o'tkazish milliy iqtisodiyotni milliy Vazirligi qo'l ostida bo'ladi. Regional darajada katta

bo'lmagan loyihalar uchun javobgarlikni berib yuborishga 1989 yilda qat'iy o'rinish ko'rishgan, ammo joylarda zarur bo'lgan tajribani yo'qligiga duch kelishdi. Portugaliyada regional siyosatni o'tkazish uchun javobgarlik asosan rejalashtirish va regional rivojlanish Vazirligini regional rivojlanish bosh direktoriga yuklatilgan.

Ispaniyada regional hukumat yetarli aniq ifoda qilingan. Bu mamlakatdagi regional siyosatni tashkil etilishini tavsifli xususiyati bo'lib, uni ispan regionlarida Avtonom uyushmalarni ishlab chiqishda ishtirok etish hisoblanadi. Bu vaqtda markaziy hukumatni ishtirok etishi regional siyosatni aniqlashda huddi shunday muhim ulush kirgizadi. Ispaniya, EIda qattiq pozitsiyani egallab, ST davlatni avtonom viloyatlar bilan o'zaro munosabatiga tegishi mumkin emasligini ta'kidlaydi.

O'ziga xos proteksionizm (o'z milliy iqtisodiyotini xorijiy raqobatdan himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy harakat) iqtisodiy munosabatdagi bo'sh kuchsiz mamlakat uchun tavsiflidir. Kuchsiz regionlar raqobatbardoshli emas. Shunday ekan ular integratsiyani hamma imkoniyatidan to'la holda foydalanishga qodir emaslar. Regional darajada vakillikni nomarkazlashtirish va taqsimlash, u yoki bu mamlakatlarni siyosiy va davlatli tuzilishi bilan bog'liq, ammo, bu guruh mamlakatlaridagi regional siyosatni shakllanishida, regionlarni chegaralangan mustaqilligini, davlat tomonidan, huddi "proteksionizm"dek noraqobat bardosh, iqtisodiy kuchsiz regionlarga nisbatan qabul qilinadi. Italiyada urushdan keyingi davrda mamlakatni janubi uchun "maxsus interventsia" deb nomlangan dastur ishlagan. Ammo, taalluqli siyosatni samarasizligi, hamda mamlakatni shimoliy va markaziy tumanlarida ishsizlik muammosini hal etish zaruriyatligi bilan bog'liq nomalumlik, yangi qonuniyatni qabul qilishga olib keldi, qaysiki butun mamlakat tumanlarini rivojlanishiga siyosiy ahamiyat kasb etdi. Subsidiarlik tamoyilini harakati nuqtai nazaridan 1992 yil 19 dekabrda 488 sonli Italiyani qonuni mohiyati yuqori, uni yordamida milliy regional siyosatni o'tkazish uchun aniq izohlangan asos tuzildi.

Regional muammolarni o'rganish uchun Germaniya ko'proq qiziqish uyg'otadi. STni "idealida" (namunasida)-bu Evropa federal demokratiyasiga yo'ldir,-bu milliy davlatlar federatsiyasidir (ba'zi hollarda regionlar), EIni o'zi esa milliy darajaga bo'ysinmaydi, ammo unga subsidiarlidir. Ayni Germaniya siyosiy arboblari boshqalardan ko'proq Evropa Federatsiyasini tuzish imkoniyati hamda o'z fikrlarini bildirishmoqda. "SHubhasiz, STni qo'llash faqat federativ mamlakatda, masalan, Germaniya, ammo hech ham Buyuk Britaniya emas. EIni shakli va uni real qo'llanishi EI keyingi evolyutsiyasidan shu vaqtda bog'liq bo'ladiki agarda EI Evropa davlatlari va xalqlarini Federativ Ittifoqi tomoniga qarab rivojlanadi", - deb yozadi keyinroq I.Busichina.

Germaniyada regional siyosatini mustahkamlashda asosiy qonun muhim rol o'ynaydi, qaysiki, qisman mamlakatni hamma qismlarida ishlash va odamlar hayoti uchun bir xil sharoit yaratish zaruriyatini uqtiradi. Bundan kelib chiqqan holda, regional siyosatni birinchi darajali vazifasi-iqtisodiy juda kuchsiz regionlarga siyosatda teng huquqli ishtirok etishlariga imkoniyat yaratib berishdir.

Asosiy qonunga asosan (33 va 28 moddalari) regional siyosat amalga oshirilishidagi mas'uliyat butunlay erlar ma'muriyatida bo'ladi, federal hukumatni funktsiyasi bo'lib, u bilan sherikchilik munosabatlarini o'rnatish hisoblanadi. 1969 yilda tuzilgan qo'shma ishchi guruhi ularni faoliyatini yo'lga qo'yadi. Guruh tarkibi rejalashtirish qo'mitasi tomonidan aniqlanadi, unda federal hukumat va er vakillari teng vakillikka egadirlar. Rejalashtirish Qo'mitasi regionlarga yordam ko'rsatishni har yillik bosh rejasi loyihasini ishlab chiqadilar. Regional siyosatni moliyalashtiruvchi Qo'shma ishchi guruhi tomonidan olib boriladi va teng ulushda federal hukumat va erlar tomonidan amalga oshiriladi. Germaniyada bunday ahvolni bo'lishi EI pozitsiyasiga ta'sir etadi, unda u qaror qabul jarayonlarida federal erlarni bevosita ta'sirini kuchaytirish zaruriyatini doimiy ravishda uqtiradi, erlar esa o'z navbatida ST, EI ishlariga aralashishga qarama-qarshi turishiga yordam berishiga umid qiladi.

EIni tarkibiy fondlari jiddiy ravishda Germaniya va Italiyani milliy regional siyosatini saqlashiga ta'sir etadi. 1992 yilda qabul qilingan regional siyosatni qayta ko'rilishi, milliy hukumat va tarkibiy

fondlar tomonidan birgalikda moliyalashtirish imkoniyatini ta'minlash maqsadiga ega edi, taxminan uni chorak resurslari regionlarni iqtisodiy rivojlanishga sarf bo'lar edi (ustun bo'lib quyidagilar hisoblanadi; infratuzilma – 22 foiz. Qishloq xo'jaligi-16 foiz, hamda aloqa va inson resurslari-14,5 foiz). Umuman ko'rib chiqilayotgan mamlakatlardagi boshqaruvni nomarkazlashtirish tendentsiyalari haqida gapirish mumkin. Misol bo'lib birinchi navbatda Italiya bo'lib xizmat qilishi mumkin, unda qonuniyatda davlat ma'muriy tizimni islohati haqida ko'rib chiqiladi, shu bilan birga hukumat faoliyatini nomarkazlashtirish bilan bog'liq bo'lgan vazifa ham.

Skandinaviya davlatlari siyosatida amaldagi boshqaruv tizimi yetarli darajada markazlashgan, bu kichik bo'lmagan davlatlar uchun tabiiydir. Ammo, shimoliy va kam aholili mamlakatlar qismidagi ba'zi tumanlar joylashuvi bilan bog'liq bo'lgan spetsifik muammolar, boshqaruvni regional darajasini bo'lishiga sababchi bo'ldi va hamma mamlakat bo'yicha regionlarni "balanslashgan" rivojlanish tushunchasini kelib chiqishiga imkon tug'dirishdi.

Uch darajalar (Evropa, milliy va regional) orasida aniq chegaralanish mavjud emas. Agarda u bo'lganida, birinchi tomondan, siyosat va EI dasturlari orasida farqini o'tkazish evropaliklarga oson bo'lar edi, ikkinchi tomondan, milliy siyosati bilan. Ammo, aniqlashdagi ustunlik va hatto Ittifoq institutlari vakolatini o'zgarishi qat'iy ravishda o'z tomonlarida saqlashga intiladilar.

Amaliy faoliyat va qonun ijodi jarayonida Evropa, milliy va regional hukumatlar vakolatligi sohalarida aniq chegaralash bo'lgan va bo'lmoqda. Bu vaqtda, huddi boshqa doiralardagidek ular orasidagi chegaralar yetarli darajada harakatlangan bo'lib qoladi. Regionlarni evropa jarayoniga jalb qilinishi umuman yetarli emas. Regional faktorlarini millat usti darajasiga juda faol siyosiy holda chiqish tendentsiyasini anglash mumkin. Mamlakatni iqtisodiy rivojlanish darajasi o'z-o'zini boshqarish yoki subsidiarlik darajasi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq emas. SHunga qaramasdan taalluqli jarayonlarga o'zini sezilarli darajada ta'sirini ko'rsatadi, madomiki regional siyosatni tavsifli xususiyatlaridan biri bo'lib, u bu tomonidan iqtisodiyotni turli tarmoqlarini qoplab olish hisoblanadi, bundan markaziy hukumatni turli departamentlari bu regionalarda o'z manfaatlariga ega bo'ladi, deb hisoblash mumkin.

Regional muammolarini tabiati shundayki, u hal bo'lishi uchun qator milliy vazirliklar va muassasalar, turli regional darajadagi tashkilotlar, hamda iqtisodiyotni shaxsiy sho'basi ishtirok etishini talab etadi. Turli tenglik sharoiti natijasida boshqaruvdagi subsidiarlik darajasi regionlarni rivojlanishi natijasida o'sib boradi.

Jamoa fikrini bilishdagi so'roqlar shuni ko'rsatadiki, regionlarni boshqarish nuqtai nazaridan, rivojlangan va rasmiylashtirilgan- millat ustini kuchayishiga imkon beruvchi muhim omil hisoblanadi. Siyosiy regionallashtiruv jarayoni tugallangan shaklga ega bo'lgan mamlakatlarda, tugallanmagan mamlakatlarga qaraganda (yoki ma'muriy tavsifga ega bo'lsa), regional va evropa fuqaroligiga ega bo'lishini xoxlovchi fuqarolar ulushi 4,5 foizni, EIni boshqa mamlakatlarida esa u 2,8 foizdir. Shunday qilib, o'z regioniga sodiqlik qilish ba'zi bir fuqarolarda milliy tuyg'u bilan to'ldiriladi. Bu ma'noda ST ob'yektiv qonuniyat bilan javob beradi; regional muammolarida evropaliklarni kuchlanishini ko'proq to'planishi ular tomonidan Submilliy o'xshashlikni sezishlariga imkon beradi. SHaxsiy mulkchilikka asoslangan ijtimoiy hayot bo'lgan g'arbiy Evropani tarixiy tajribasi, amaldagi muammolarni echilishiga subsidiarlik yondoshishni shakllanishiga qulaylik tug'diradi, madomiki, yetakchi ijtimoiy institutdek bo'lgan shaxsiy mulkchilik, yuqoridagi tuzilmalarga qattiq bog'liq qilmagan holda, o'z boyligi bilan idora qilishga insonga imkon beradi. Biznes-muhit deb nomlangan shaxsiy ish bilarmonlikni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratishga Evropa ittifoqini regional siyosatiga jiddiy e'tibor beriladi, va bu uchun birlashma byujetidan sezilarli mablag' ajratiladi.

2.2.Xorijiy investitsiya munosabatlari

2.2.1.Chet el investitsiyalari

O'zbekiston Respublikasida *chet ellik investorlar* quyidagilar bo'lishi mumkin:

chet el davlatlari, chet el davlatlarining ma'muriy yoki hududiy organlari;

davlatlararo bitimlar yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tashkil topgan yoki xalqaro ommaviy huquq sub'ektlari bo'lgan xalqaro tashkilotlar;

chet el davlatlarining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil topgan va faoliyat ko'rsatib kelaётgan yuridik shaxslar, boshqa har qanday shirkatlar, tashkilotlar yoki uyushmalar;

chet el davlati fuqarolari bo'lmish jismoniy shaxslar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va chet ellarda doimiy yashaydigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari.

Chet el investitsiyalarini amalga oshirish shakllari. Chet ellik investorlar O'zbekiston Respublikasi hududida investitsiyalarni quyidagi yo'llar bilan amalga oshirishlari mumkin: O'zbekiston Respublikasining yuridik va (yoki) jismoniy shaxslari bilan birgalikda tashkil etilgan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarining, banklar, sug'urta tashkilotlari va boshqa korxonalarining ustav jamg'armalarida va boshqa mol-mulkida ulush qo'shib qatnashish;

chet ellik investorlarga to'liq qarashli bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarini, banklar, sug'urta tashkilotlari va boshqa korxonalarni barpo etish va rivojlantirish;

mol-mulk, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qarz majburiyatlarini sotib olish;

intellektual mulkka, shu jumladan mualliflik huquqlari, patentlar, tovar belgilari, foydali modellar, sanoat namunalari, firma nomlari va nou-xauga, shuningdek ishchanlik nufuziga (gudvillga) huquqlar kiritish;

kontsessiyalar, shu jumladan tabiiy resurslarni qidirish, ishlab chiqish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga bo'lgan kontsessiyalar olish;

savdo va xizmat ko'rsatish sohalari ob'yektlariga, turar joy binolariga ular joylashgan er uchastkalari bilan birgalikda mulk huquqini, shuningdek yerga egalik qilish va undan foydalanish (shu jumladan ijara asosida foydalanish) hamda tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqlarini sotib olish orqali.

Chet ellik investorlar O'zbekiston Respublikasi hududida investitsiyalarni amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa shakllarda ham amalga oshirishlari mumkin.

Chet el investitsiyalari birlamchi yoki takroran amalga oshirilayotgan shakllarining o'zgartirilishi ularning investitsiya sifatidagi mohiyati o'zgarishiga olib kelmaydi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar. Chet ellik investorlar O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tashkil etishlari hamda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan o'zlariga berilgan barcha huquqlar, kafolatlar va imtiyozlardan foydalanishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar deganda aksiyalarining (ulushlari, paylarining) yoki ustav jamg'armasining kamida o'ttiz foizini chet el investitsiyalari tashkil etadigan korxonalar tushuniladi. Ular O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid kelmaydigan har qanday tashkiliy-huquqiy shakllarda faoliyat ko'rsatadilar. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona qatnashchilaridan biri chet ellik investor bo'lishi shart.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona uni ta'sis etish yo'li bilan yoki ilgari chet el investitsiyalari ishtirokisiz ta'sis etilgan korxonada ishtirok etish ulushini (payini, aksiyalarini) yoxud bunday korxonani butunlay, shu jumladan xususiylashtirish jarayonida chet ellik investor tomonidan sotib olinishi natijasida tashkil etilishi mumkin.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona davlat ro'yxatiga olingan paytdan e'tiboran yuridik shaxs huquqiga ega bo'ladi. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tashkil

etish va ularni davlat ro'yxatiga olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarning sho'ba korxonalari, filiallari va vakolatxonalari. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining talablariga rioya etgan holda O'zbekiston Respublikasi hududida yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan sho'ba korxonalar, filiallar, shuningdek yuridik shaxs bo'lmagan vakolatxonalar va boshqa alohida bo'linmalar tashkil etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarning sho'ba korxonalari, filiallari, vakolatxonalari va boshqa alohida bo'linmalari tashkil etilishi mumkin.

Korxonalarning xo'jalik birlashmalari. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar ixtieriy ravishda

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida uyushmalar, kontsernlar, korporatsiyalar, konsortsiumlar va boshqa xo'jalik birlashmalari tashkil etishi, amal qilib turgan birlashmalar tarkibiga to'la huquqli a'zo sifatida kirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el investitsiyalari uchun huquqiy rejim. Davlat O'zbekiston Respublikasi hududida chet ellik investorlar investitsiya faoliyatini amalga oshirishlari chog'ida ularning barcha huquqlarini kafolatlaydi va himoya qiladi.

Chet ellik investorlar va chet el investitsiyalari uchun adolatli va teng huquqli rejim, ularning to'liq va doimiy himoyasi hamda xavfsizligi ta'minlanadi. Bunday rejim O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilab qo'yilgan rejimga qaraganda noqulayroq bo'lishi mumkin emas.

Chet el investitsiyalarining huquqiy rejimi O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiyalarning tegishli rejimiga qaraganda noqulayroq bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligi manfaatlarini himoya etish maqsadida iqtisodiyot va faoliyatning muayyan sohalarida chet el investitsiyalari uchun cheklashlar yoki taqiq nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

Chet ellik investorlarning O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan kafolatlangan huquqlari va manfaatlari buzilganda ularni tiklash O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga, shu jumladan xalqaro shartnomalari bilan tartibga solinadi.

Chet ellik investorlarning huquqlari. Chet ellik investor xalqaro huquq printsiplari va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi huquqlarga ega:

investitsiyalashni amalga oshirishning hajmlari, turlari va yo'nalishlarini mustaqil belgilash;

investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzish;

o'zining investitsiyalariga va investitsiya faoliyatining natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish.

Chet ellik investorning qaroriga binoan investitsiyalarga, ularning natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish, ularni tasarruf etish huquqlari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga berilishi mumkin. Huquqlar boshqa shaxsga berilganda taraflarning o'zaro munosabatlari shartnomalar asosida tartibga solinadi;

O'zbekiston Respublikasidagi investitsiya faoliyati natijasida olingan o'ziga qarashli ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalarini chet ellarda va O'zbekiston Respublikasida patentlashtirish to'g'risida mustaqil ravishda qaror qabul qilish;

investitsiya faoliyati natijasida olingan daromadni mustaqil va erkin tasarruf etish (shu jumladan uni moneliqsiz repatriatsiya qilish);

O'zbekiston Respublikasiga kreditlar va qarzlar tariqasida pul mablag'lari jalb etish;

o'z hisobvarag'idagi milliy valyuta mablag'laridan ichki valyuta bozorida chet el valyutasini sotib olish uchun foydalanish;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va shartlarda yer uchastkalariga doir huquqlarni sotib olish;

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq, o'ziga mulk huquqi asosida qarashli bo'lgan mol-mulk va har qanday mulkiy huquqlardan zimmaga olgan majburiyatlarning, shu jumladan qarz mablag'larini jalb etishga qaratilgan majburiyatlarning barcha turlari bo'yicha ta'min sifatida foydalanish;

o'z investitsiyalari va boshqa aktivlari rekvizitsiya qilingan taqdirda mutanosib ravishda tovon olish;

davlat boshqaruv organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining hamda ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) hamda qarorlari natijasida etkazilgan zararlarni undirish.

Chet ellik investor O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham egadir.

Chet ellik investorlarning majburiyatlari. Chet ellik investorlar O'zbekiston Respublikasi hududida investitsiya faoliyatini amalga oshirganda: O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga rioya etishlari;

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa to'lovlar to'lashlari;

investitsiyalash munosabati bilan o'z zimmalariga olgan shartnoma majburiyatlari bo'yicha javob berishlari;

investitsiya loyihalarida O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlaridan kelib chiqadigan sanitariya-gigiena, ekologiyaga oid va boshqa talablarga rioya etilganligi xususida ekspertiza xulosasini olishlari;

o'z raqobatchilariga nisbatan qo'shimcha imtiyozlar va afzalliklar olish maqsadida investitsiya faoliyati bo'yicha sheriklariga yoki davlat boshqaruv organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlariga bevosita va (yoki) bilvosita noqonuniy ta'sir o'tkazishning har qanday shakllaridan o'zlarini tiyishlari shart.

Chet ellik investor O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga rioya etmaganlik uchun umumiy asoslarda javobgar bo'ladi hamda o'ziga mulk huquqi asosida qarashli bo'lgan, O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq undirish qaratilishi mumkin bo'lgan o'zining mol-mulki bilan javob beradi.

Chet ellik investorlarning xo'jalik faoliyati, shu jumladan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar, ularning sho'ba korxonalari, filiallari va boshqa tuzilmalarini, shuningdek xo'jalik uyushmalari va birlashmalarini tashkil etish, sotish, qayta tashkil etish yoki tugatish, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarning fondlarini shakllantirish, ijara shartnomalari va boshqa shartnomalarini tuzish bo'yicha faoliyati O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq, soliqlar va boshqa to'lovlarni, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hisoblanuvchi o'z xodimlari uchun ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot bo'yicha to'lovlarni amalga oshiradi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarning chet el valyutasidagi barcha harajatlari ularning o'z valyuta tushumlari hisobiga, shuningdek chet el valyutasini olishning O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ruxsat etilgan boshqa manbalari hisobiga

ta'minlanishi lozim. Ularning valyutada o'zini o'zi qoplashi tuziladigan konsortsiumlar, birlashmalar va boshqa tashkiliy tuzilmalar doirasida ham ta'minlanishi mumkin.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari talablariga rioya etgan holda eksport-import operatsiyalarini mustaqil ravishda amalga oshiradilar. O'zlari ishlab chiqargan mahsulotni eksport qilganlarida bunday mahsulot litsenziyalanmaydi va kvotalanmaydi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun mahsulotni litsenziyasiz import qilishga haqli. Eksportga chiqariladigan o'zining ishlab chiqargan mahsulotini va korxonalar tomonidan o'z ehtiyojlari uchun import qilinadigan mahsulotni aniqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Chet ellik investorlar O'zbekiston Respublikasiga o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun, shuningdek chet ellik investorlarning va chet ellik investorlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasida turgan chet davlatlar fuqarolarining shaxsiy ehtiyojlari uchun olib kiriladigan mol-mulkdan boj to'lovi olinmaydi.

Chet ellik investorlarga hamda chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarga tegishli, ularning investitsiyalari sifatida qo'shiladigan ixtirolarni patentlash va sanoat namunalarini joriy etish O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar korxona fondlari ro'yxatini, ularni vujudga keltirish va ulardan foydalanish tartibini mustaqil ravishda belgilaydi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar xodimlarining mehnat munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona xodimlarini ijtimoiy sug'urta qilish va ijtimoiy ta'minlash (chet ellik xodimlarni ijtimoiy sug'urta qilish va ta'minlash bundan mustasno) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va shartlarda yer uchastkalari sotib olishlari mumkin.

Imoratlar va inshootlarga bo'lgan mulk huquqi boshqaga o'tayotganda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda shu ob'yektlar bilan birgalikda yer uchastkasidan foydalanish huquqi ham o'tadi.

Chet ellik investorlarga mol-mulkni ijaraga berib qo'yish ijaraga beruvchi tomonidan shartnomalar asosida va qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisob-kitobni va hisobotni amalga oshiradilar. Ular buxgalteriya daftarlari va yozuvlarini O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida, shuningdek, o'z xohishlariga ko'ra, erkin ayrboshlanadigan valyutada yuritadilar.

Kontsessiya shartnomalari. Chet ellik investorlarga tabiiy resurslarni qidirish, qazib olish va ulardan foydalanish hamda boshqa xo'jalik faoliyatini yuritish uchun kontsessiyalar berish chet ellik investorlar O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvining vakolatli organlari bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzadigan kontsessiya shartnomalari asosida amalga oshiriladi. Kontsessiyalarga, agar ular O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida taqiqlanmagan bo'lsa va tuziladigan kontsessiya shartnomalarining maqsadlariga javob bersa, faoliyatning barcha sohalari va turlarida yo'l qo'yiladi.

Chet ellik xodimlarni jalb etish. Chet ellik investorlar va chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq, har qanday chet davlat fuqarolari bilan va O'zbekiston Respublikasidan tashqarida yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilan investitsiya faoliyatini amalga oshirish maqsadida erkin mehnat shartnomalari tuzish huquqiga ega. Bunday shaxslar tegishli ko'p martalik vizalar olgan holda

mehnat shartnomasining butun amal qilish davri uchun O'zbekiston Respublikasi hududiga kirib kelish va unda qolish huquqiga ega.

Chet ellik xodimlar mehnatiga haq to'lash, ularga ta'tillar berish, ularni pensiya bilan ta'minlash masalalari ularning har biri bilan tuzilgan mehnat shartnomalarida hal etilishi lozim. Bunday xodimlar ish haqi va qonuniy yo'l bilan olgan o'zga daromadlarini boshqa davlatlarga, qonunda belgilangan soliqlar va majburiy to'lovlar to'langanidan keyin, biron-bir cheklovsiz o'tkazishlari mumkin.

Chet ellik investor, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona chet ellik xodim doimiy yashaydigan mamlakatdagi tegishli fondlarga shu xodim uchun ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot to'lovlarini o'tkazadi.

Yurish erkinligi. Investitsiya faoliyati bilan bog'liq holda O'zbekiston Respublikasida bo'lib turgan chet ellik investorlar, ularning vakillari va chet ellik xodimlar O'zbekiston Respublikasining butun hududida erkin yurish huquqiga egadirlar. Basharti, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida erkin yurishga cheklovlar belgilangan bo'lsa, faqat milliy xavfsizlikni ta'minlash maqsadlarini ko'zlab muayyan cheklovlar qo'llanilishi mumkin.

Chet el investitsiyalarini sug'urta qilish. Investitsiyalar va chet ellik investorlarning tavakkalchiligini sug'urta qilish ixtieriy ravishda amalga oshiriladi. Chet ellik investorlar mamlakatning o'z investorlari bilan teng ravishda O'zbekiston Respublikasi hududida qonuniy faoliyat ko'rsatayotgan har qanday sug'urta tashkilotida sug'urta himoyasi huquqidan foydalanadilar. Chet el investitsiyalarini siyosiy va boshqa xavflardan sug'urta qilish xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlarning eksport kredit agentliklari, boshqa sug'urta kompaniyalari tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Chet el investitsiyalarini sug'urta qilishni amalga oshiruvchi sug'urta tashkilotlari O'zbekiston Respublikasining majburiyatlari yuzasidan javob bermaydi. Davlat sug'urta tashkilotlarining majburiyatlari yuzasidan javob bermaydi, taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Chet el investitsiyalarini sug'urta qilish siyosiy va boshqa xavflardan, shu jumladan: mulkning ekspropriatsiya qilinishini, shuningdek mulkning olib qo'yilishi yoki boshqa shaxsga o'tkazilishiga, mulk yoki u orqali olinadigan daromadlar ustidan nazorat qilish imkoniyati yo'qotilishiga olib keluvchi har qanday qonun chiqarishga oid yoki ma'muriy choralarni; chet el valyutasini mamlakatdan tashqariga o'tkazishga cheklovlar joriy etilishini; qonun hujjatlariga investorlarning ayrim guruhlariga nisbatan kamsitish tusidagi o'zgartishlar kiritilishini;

davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va ular mansabdor shaxslarining investorlarning shartnomaviy munosabatlariga aralashuvini;

urushlar, fuqarolarning g'alayonlari yoki boshqa shu kabi hodisalarni;

chet ellik investorlar va chet el investitsiyalari bilan bog'liq o'zga turdagi siyosiy hamda boshqa xavflarni o'z ichiga oluvchi xavflardan sug'urta himoyasi va kafolatlarni ta'minlaydi.

Majburiyatlarni ta'minlash. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonaning mol-mulki va mulkiy huquqlaridan korxona zimmasidagi barcha turdagi majburiyatlarini ta'minlash, shu jumladan zayom mablag'larini jalb qilish kafolati sifatida foydalanishi mumkin. Uning savdo va xizmat ko'rsatish sohasi ob'yektlariga, shuningdek joylashgan yer uchastkalari bilan birgalikda uy-joy binolariga bo'lgan mulk huquqi, binolar, inshootlar, uskunalar bo'lgan mulkiy huquqlari hamda boshqa ashyoviy huquqlaridan majburiyatlarning ta'mini sifatida foydalanilishi mumkin.

Chet ellik investor o'ziga mulk huquqiga tegishli barcha mol-mulki va mulkiy huquqlaridan, ularning qayerda joylashganligidan qat'i nazar, o'z majburiyatlarining ta'mini sifatida foydalanishi mumkin.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonani qayta tashkil etish yoki tugatish. Chet el

investitsiyalari ishtirokidagi korxona O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi mumkin. Davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran bir yil ichida o'z ustav fondini ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan miqdorda shakllantirmagan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, belgilangan tartibda tugatiladi. Shu bilan birga o'z ustav fondini belgilangan muddatda ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan miqdorda shakllantira olmagan korxona uni amalda shakllantirib ulgurgan, ammo qonun hujjatlarida belgilangan eng kam miqdordan oz bo'lmagan darajada kamaytirishi yoki o'zi boshqa tashkiliy-huquqiy shaklga aylantirilishi mumkin.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona tugatilganida uning aktivlariga belgilangan tartibda soliq solinadi. Aktivlarning qolgan qismi, basharti ta'sis hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona qatnashchilari o'rtasida ularning korxona mol-mulkidagi ulushlariga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Chet ellik investor chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonadan chiqib ketgan yoki bu korxona tugatilgan taqdirda, korxona mol-mulkidagi o'z ulushi pul yoki bozor bahosiga muvofiq ravishda tovar shaklida qaytarilishi huquqini oladi. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona qayta tashkil etilgan yoki tugatilganda mehnat shartnomalari bekor bo'lgan xodimlarning huquq va manfaatlariga rioya etilishi qonun hujjatlariga muvofiq kafolatlanadi.

Chet el investitsiyalari bo'yicha davlat majburiyatlari. Davlat, davlat boshqaruv organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari chet el investorlari bilan tuzilgan tegishli shartnomalarda o'z zimmasiga olgan, vakolatlari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan shaxslar imzolagan majburiyatlar bo'yichagina javob beradilar.

Davlat chet el investitsiyalarini jalb etayotgan O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining majburiyatlari yuzasidan javob bermaydi, bunday majburiyatlar qonunda belgilangan tartibda davlat tomonidan kafolatlangan hollar bundan mustasno.

Chet el investitsiyalarini jalb etishni amalga oshiruvchi organlarning vazifalari. Chet el investitsiyalarini jalb etish, ro'yobga chiqarish va himoya qilish maqsadida hukumat tomonidan vakolat berilgan organ, davlat boshqaruvining boshqa organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek hukumatga qarashli bo'lmagan manfaatdor tashkilotlar:

O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatining imkoniyatlari va shart-sharoitlari to'g'risida axborot tayyorlaydilar hamda tarqatadilar;

potentsial investorlarga faoliyatning yuridik, iqtisodiy va boshqa jihatlarini bo'yicha maslahatlar beradilar hamda yuzaga keluvchi masalalarni hal etishda zarur yordam ko'rsatadilar;

chet ellik investorlar faoliyatining huquqiy bazasini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadilar; chet el investitsiyalari masalalari bo'yicha xalqaro munosabatlarda o'z vakolatlari doirasida O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radilar;

chet el investitsiyalarini jalb etish, ro'yobga chiqarish va himoya qilishga qaratilgan boshqa vazifalarni bajaradilar.

Chet ellik investorlarning faoliyati ustidan nazorat qilish bo'yicha davlat organlarining vakolatlari. Chet ellik investorlar va chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining talablariga rioya etishi ustidan nazoratni soliq organlari va O'zbekiston Respublikasi Hukumati vakolat bergan boshqa davlat organlari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlari doirasida amalga oshiradilar.

Nazorat qiluvchi organ nazorat vazifalarini amalga oshirishda tijorat siri saqlanishini ta'minlashi shart. Tijorat sirini oshkor qilish O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga binoan ta'qiq qilinadi.

O'zaro zid qoidalar. Qonun hujjatlari yoki O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari o'rtasida biron-bir nomuvofiqlik bo'lgan holda, chet ellik investorlar uchun birmuncha qulay bo'lgan qoidalar ustuvor kuchga ega bo'ladi.

2.2.2.Xorijiy sarmoyalar bo'yicha agentlikni faoliyati va xorijdan mablag' jalb qilish

Agentlikning ishi uning ishchi apparati va Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan ta'minlanadi, kengash tarkibi davlat boshqaruv organlarining vakillaridan, iqtisodiyot sohasidagi olimlar va mutaxassislardan, turli mulkchilik shaklidagi korxonalarning xorijiy firmalar, kompaniyalar va banklarning rahbarlaridan iborat bo'ladi.

Agentlik faoliyatini tashkiliy-texnikaviy jihatidan ta'minlash byudjetdan ajratiladigan mablag'lar, BMT rivojlanish Dasturi va boshqa xalqaro tashkilotlarning investitsiya faoliyatini institutsional rivojlantirish maqsadlariga yo'naltirilgan mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Xorijiy sarmoyalar bo'yicha Agentlikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- investitsiya faoliyati sohasida xorijiy tashkilotlar va fondlarning ishtirokida xalqaro hamkorlik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- xorijiy sarmoyalarni jalb etishning me'yoriy-huquqiy negizi sohasida takliflarni ishlab chiqishda qatnashish;
- iqtisodiyotning turli sektorlarida investitsiya muhitini organish, O'zbekistondagi va xorijiy davlatlardagi investitsiya muhitini qiyosiy tahlil etish;
- O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyati va siyosat masalalari bo'yicha axborot -reklama nashrlarini tayyorlash, ularni xalqaro tadbirkorlar orasida tarqatish;
- investitsiya sohasidagi takliflarni ishlab chiqish, ularni rasmiylashtirish va amalga oshirish tartibi yuzasidan vazirliklarga, idoralarga, barcha mulkchilik shakllaridagi korxonalarga, shuningdek mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlariga ko'mak berish;
- amaldagi texnikaviy ko'maklashish dasturlaridan va xalqaro tashkilotlarning ma'lumot bazalaridan foydalangan holda manfaatdor xorijiy sarmoyadorlarni izlash;
- amaliy aloqalarni kengaytirish, chet el tajribasini yoyish va xorijiy sarmoyalarni jalb etish bo'yicha seminarlar, konferentsiyalar hamda boshqa tadbirlarni tayyorlash va o'tkazish;
- xorijiy va mahalliy tadbirkorlar ishtirokida davra suhbatlari uyushtirish orqali amaliy sheriklik muassasalarini tashkil etishga ko'maklashish;
- sarmoyalarni jalb etishning turli shakllarini o'rganish bo'yicha chet mamalakatlarning sarmoyalarga ko'maklashuvchi xizmatlarida, kompaniyalari va korxonalarida o'zbek mutaxassislarning malaka oshirishlarini tashkil qilish;
- yuqorida aytib o'tilgan ishlar va tadbirlarni amalga oshirishga xorijiy ekspertlarni jalb etish.

Xorijdan mablag' quyidagi yo'llar bilan jalb qilinadi:

- davlat yoki O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lmish yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan zayomlar, tovarlar yoki xizmatlarni import qilish shaklida kreditlar jalb etilishi;
- nerezidentlar mablag'larining O'zbekiston Respublikasi moliya institutlari tomonidan depozitlarga jalb etilishi;
- lizing operatsiyalari;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va rezidentlarning obligatsiyalar, veksellar hamda boshqa xil qimmatli qog'ozlar chiqarib, chet el bozorlarida joylashtirishi;
- boshqa tur va shakllardan foydalanish.

Davlatning xorijdan mablag' jalb qilishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi nomidan shartnomalar tuzish huquqiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki u vakolat bergan organ egadir. Davlat navbatdagi moliya yili uchun xorijdan jalb qiladigan mablag'ning eng ko'p miqdori O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlanadi.

Davlatning xorijdan mablag' jalb qilishi to'g'risidagi shartnomalarni tuzish tartibi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining kafolatlari. Qarz oluvchi rezident xorijdan mablag' jalb qilish to'g'risidagi

shartnomaga binoan o'z to'lov majburiyatlarini bajarmagan taqdirda uning qarzini to'lash haqida olingan majburiyat O'zbekiston Respublikasining kafolati hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi nomidan kafolatni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki u vakil qilgan organ qarz oluvchi bilan tuzilgan shartnoma shartlari asosida beradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o'zi bergan kafolatlar bilan bog'liq to'lovlarni amalga oshirgach, ana shu to'lovlar summasi hamda u bilan bog'liq xarajatlarni qarz oluvchidan so'zsiz undirib olish huquqiga ega. Qarz oluvchi kafil oldidagi o'z shartnoma majburiyatlarini bajarmasa, u kafil bilan kelishmasdan foydani taqsimlashga hamda boshqa qarzlarni bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishga haqli emas.

Kafolatlarni berish tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi. Agar rezidentlarning qarz majburiyatlari kafolatlangan bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi ular yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

Kafolat fondi. Davlatning tashqi qarzi bo'yicha qarz majburiyatlari yuzasidan to'lovlarni bajarish uchun kafolat fondi tuziladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining o'zi kafolatlangan tashqi qarz bo'yicha majburiyatlari bilan bog'liq barcha to'lovlar kafolat fondi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Kafolat fondining mablag'lari yetishmagan taqdirda, yetishmayotgan summa davlat byudjeti hisobidan to'ldiriladi. Kafolat fondini tashkil etish va uning mablag'laridan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Qarz oluvchining majburiyatlari. Qarz oluvchi quyidagilarni bajarishi:

- o'zi tuzgan shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarishi;
- xorijdan mablag' jalb qilish to'g'risida tuzilgan shartnomalar hamda ular yuzasidan operatsiyalar haqida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga, kafolatlangan qarzlarni bo'yicha esa O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga ham hisobotlar taqdim etishi;
- har bir alohida tashqi qarz bo'yicha qarzning to'liq to'langanligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga xabar berishi shart.

Xorijdan mablag' jalb qilish borasida O'zbekiston Respublikasi *Moliya vazirligi vakolatlariga* quyidagilar kiradi: - xorijdan mablag' jalb qilish masalalari yuzasidan xalqaro moliya tashkilotlari bilan muzokaralar olib borish;

- davlatning xorijdan mablag' jalb qilishi bo'yicha loyihalarni baholash;
- davlatning xorijdan mablag' jalb qilishi bo'yicha shartnomalarni va kafolatlarni ro'yxatga olish;
- davlat tashqi qarzini hisobga olish va kuzatib borish;
- davlatning xorijdan mablag' jalb qilishi bo'yicha to'lovlar balansini yuritish, jalb etilgan mablag'lardan foydalanish va ularni to'lash ustidan nazoratni amalga oshirish;
- davlat tashqi qarzi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga axborot taqdim etish;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

Xorijdan mablag' jalb qilish borasida O'zbekiston Respublikasi *Markaziy bankining vakolatlariga* quyidagilar kiradi: - xorijdan mablag' jalb qilish masalalari bo'yicha xalqaro moliya tashkilotlari bilan muzokaralar olib borish;

- O'zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlanmagan xorijdan mablag' jalb qilish to'g'risidagi shartnomalarni ro'yxatga olish;
- xorijdan mablag' jalb qilishga doir operatsiyalarni hisobga olish va kuzatib borish;
- umumiy tashqi qarzning hisobini yuritish;
- davlat tashqi qarzlari hisob-kitob-bank xizmati ko'rsatilishini tashkil etish;

- O'zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlangan xorijdan jalb qilingan mablag'larga hisob-kitob-bank xizmatlari ko'rsatish yuzasidan vakolatli banklarga agentlik vakolatlarini berish;

- xorijdan mablag' jalb qilish bo'yicha ma'lumotlar ba'zasini yaratish;
- Vazirlar Mahkamasiga rezidentlarning tashqi qarzi bo'yicha axborotlar taqdim etish;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

Xalqaro moliya tashkilotlariga axborot taqdim etish. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki xalqaro moliya tashkilotlariga O'zbekiston Respublikasining tuzilgan shartnomalarga muvofiq xorijdan mablag' jalb qilishi to'g'risida axborot taqdim etadi.

Xorijdan mablag' jalb qilish to'g'risidagi shartnomalar bilan bog'liq masalalar yuzasidan qarz beruvchi bilan qarz oluvchi o'rtasida *chiqqan bahslar*, agar xalqaro shartnomalarda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, sud tartibida yoki taraflarning kelishuviga ko'ra-holislar tekshiruvchi tartibida hal etiladi.

Xorijdan mablag' jalb qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

2.2.3.O'zR xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni huquqiy ekspertizadan, davlat ro'yxatidan o'tkazish va tugatish

Joriy etiladigan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar (bundan keyin Korxona deb ataladi) jumlasiga quyidagilar kiradi:

qo'shma korxonalar, shuningdek aktsiyalari ulushi (payi) xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlar;

xorijiy investitsiyalar ustav jamgarmasining 100 foizini tashkil qiladigan xorijiy korxonalar;

bosh korxonasi respublika tashqarisida joylashgan va xo'jalik faoliyatini amalga oshiradigan sho'ba korxonalar va filiallari;

O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning sho'ba korxonalari va filiallari.

Davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim bo'lgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar jumlasiga quyidagi shartlarga javob beradigan korxonalar kiradi:

korxonaning ustav jamg'armasi 300 ming AQSH dollariga teng summadan kam bo'lishi mumkin emas;

korxona ishtirokchilaridan biri albatta xorijiy yuridik shaxs bo'lishi shart;

xorijiy investitsiyalar ulushi korxona ustav jamg'armasining kamida 30 foizini tashkil etishi zarur.

Ko'rsatib o'tilgan shartlarga muvofiq kelmaydigan korxonalar xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar jumlasiga kirmaydi

va korxona joylashgan hududdagi shahar va tumanlar hokimliklarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak.

Xorijiy korxonalarning vakolatxonalarini O'zbekiston Respublikasi hududida akkreditatsiya qilish belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Tashkil etish tartibi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar O'zbekiston respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tashkil etiladi va o'z faoliyatini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi hududida korxona tashkil etish yoki mavjud O'zbekiston korxonasini 20 mln. va undan ko'proq AQSH dollariga teng summa bilan baholanadigan investitsiyalash dasturiga ega bo'lgan qo'shma korxonaga aylantirish to'g'risida qaror

qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda o'zbekistonlik qatnashchi tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat ro'yxatidan o'tkazish vaqtigacha korxona ustav jamg'armasiga ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan ustav jamg'armasi miqdorining kamida 30 foizini qo'yishi kerak.

Agar ko'rsatib o'tilgan 30 foiz 100 ming AQSH dollariga teng summadan oshsa, u holda korxona davlat ro'yxatidan o'tkazish vaqtigacha ustav jamgarmasiga 100 ming AQSH dollariga teng summani qo'yadi, vaqtinchalik jamg'arish schyotlariga qo'yilmalar summasi bank Muassasalarining tegishli hujjatlari bilan tasdiqlanadi.

Huquqiy ekspertizadan va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi. O'zbekiston Respublikasi hududida tashkil etiladigan korxonalar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida va uning hududiy organlarida davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin yuridik shaxs huquqiga ega bo'lishadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar hududlarida joylashgan 500 ming AQSH dollarigacha miqdorda ustav jamg'armasiga ega bo'lgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi Korxonalar Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligida va viloyatlar hokimliklarining adliya boshqarmalarida hujjatlarning huquqiy ekspertizasidan hamda davlat ro'yxatidan o'tadilar. Ustav jamg'armasi 500 ming AQSH dollaridan ko'p bo'lgan, shuningdek Toshkent shahrida joylashgan korxonalar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida huquqiy ekspertizadan va davlat ro'yxatidan o'tadilar.

Korxonalar huquqiy ekspertizadan va davlat ro'yxatidan o'tish uchun ro'yxatdan o'tkazuvchi organga quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida ariza;

b) ta'sis hujjatlari (ta'sis yig'ilishi protokoli, ta'sis shartnomasi va ustav)ning asl nusxalari va bittadan notarial tasdiqlangan nusxasi;

v) ta'sis hujjatlarida belgilangan ustav jamg'armasi miqdoridan 30 foizi so'm va valyutadagi vaqtinchalik jamg'arish schyotlariga o'tkazilganligini tasdiqlovchi bank to'lov hujjati yoki dastlabki badal hisobiga O'zbekiston Respublikasi hududiga mol-mulk yoki asbob-uskunalar keltirilganligini tasdiqlovchi bojxona hujjati. Ko'rsatilgan 30 foiz 100 ming AQSH dollariga teng bo'lgan summadan ko'p bo'lgan taqdirda 100 ming AQSH dollariga teng summaga bank to'lov hujjati;

g) korxonani ro'yxatdan o'tkazganlik uchun belgilangan miqdorda davlat poshlinasi to'langanligini tasdiqlovchi bank to'lov hujjati;

d) O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasasi yoki mazkur mamlakatda O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasasi bo'lmagan taqdirda Rossiya Federatsiyasining konsullik muassasasi tomonidan tegishli tarjimai bilan belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan xorijiy muassis to'grisida u ro'yxatdan o'tgan joydagi savdo reestridan ko'chirma va bank tavsifanomasini;

e) ro'yxatdan o'tkazilayotgan korxona ustavida faoliyatning litsenziyalanadigan turi mavjud bo'lgan taqdirda amaldagi qonunchilik bilan talab qilinadigan hujjatlar.

Agar ustav jamg'armasiga dastlabki badal sifatida intellektual mulk qo'yilsa, u holda Korxona ro'yxatdan o'tkazuvchi organga O'zbekiston Respublikasi Fan va texnika davlat qo'mitasining mazkur mulk bahosi to'g'risidagi xulosasini taqdim etishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi hududida korxona tashkil etishda yoki mavjud O'zbekiston korxonasini 20 mln. va undan ko'p AQSH dollariga teng bo'lgan summada baholanadigan investitsiyalash dasturi bilan qo'shma korxonaga aylantirishda ro'yxatdan o'tkazuvchi organga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining roziligi taqdim etiladi.

Agar korxonaning O'zbekiston tomonidan muassasi davlat mulki shaklidagi yoki davlat mulki ulushi ishtirokidagi korxona bo'lsa, ro'yxatdan o'tkazuvchi organga qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi yoki uning hududiy organlarining korxonaga

beriladigan mol-mulkni baholash va berish to'g'risidagi qarori taqdim etiladi.

Sho'ba korxonalar va filiallarni ro'yxatdan o'tkazishda qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasasi, mazkur mamlakatda O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasasi bo'lmagan taqdirda esa Rossiya Federatsiyasi konsullik muassasasi tomonidan tarjimai bilan belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan xorijiy firmaning notarial tasdiqlangan ustavining nusxasi taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasida ishlab turgan korxonani xorijiy investor tomonidan to'liq o'z mulki qilib sotib olishda xorijiy investor ro'yxatdan o'tkazuvchi organga korxona egasi bilan kelishilgan tegishli shartnoma matnini, mulkini va foydalanish huquqini sotib olishda esa – mulk egasi bilan kelishilgan oldi-sotdi yoki ijara shartnomasining matnini taqdim etadi.

Ko'rsatib o'tilgan ro'yxatdan ortiqcha qo'shimcha materiallar so'rab olish qat'iyani taqiqlanadi.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning huquqiy ekspertizadan va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini buzishda aybdor bo'lgan xodimlari ma'muriy javobgarlikka tortilishi kerak.

Qo'shma korxonalar, ularning sho'ba korxonalari va filiallarini davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun milliy valyutada eng kam oylik ish haqining 5 baravari miqdoridagi poshlini, shuningdek 500 AQSH dollari undiriladi. Poshlinaning 20 foizi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining markazlashtirilgan schyotiga, qolgan qismi respublika byudjetiga (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilganda) yoki qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarning mahalliy byudjetlariga o'tkaziladi.

Xorijiy korxonalarni, ularning sho'ba korxonalari va filiallarini davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun 2000 AQSH dollari miqdorida boj undiriladi. Bu mablag'larning 15 foizi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining markazlashtirilgan schyotiga, qolgan qismi respublika byudjetiga (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilganda) yoki qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarning mahalliy byudjetlariga o'tkaziladi.

Davlat bojining chet el valyutasidagi ko'rsatib o'tilgan summasi Markaziy bankning to'lov kunidagi kursi bo'yicha milliy valyutada to'lanadi, bunda ro'yxatdan o'tkazuvchi organga to'langan mablag'larning qonuniyligi haqida hujjat taqdim etiladi.

Ta'sis hujjatlarini davlat ro'yxatidan o'tkazgan holda huquqiy ekspertizadan o'tkazish yoki korxonani yuridik shaxs sifatida qayta ro'yxatdan o'tkazish ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan zarur hujjatlar ilova qilingan ariza olingan vaqtdan boshlab 5 ish kunigacha bo'lgan muddatda amalga oshiriladi.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ ro'yxatdan o'tkazish uchun kiritilgan hujjatlar amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq kelmagan taqdirda xujjatlarni qaytadan kiritish uchun puxta ishlashga qaytarish huquqiga egadir. Bunday hollarda u qaytarib yuborishning aniq mulohazalari ro'yxatini yozma holda bayon qilishi zarur.

Hujjatlarni takroran ko'rib chiqishda ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan ilgari arizachiga yozma ravishda bayon qilinmagan yangi mulohazalar bildirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Agar ariza beruvchi ko'rsatib o'tilgan mulohazalarni bartaraf etmasa, xujjatlar puxta ishlash uchun qaytarilishi mumkin. korxonaning Ustavda ko'rsatilgan faoliyatida faoliyatning amaldagi qonun hujjatlari bilan taqiqlangan turlarini amalga oshirish nazarda tutilgan yoki ataylab qalbaki hujjatlar taqdim etilgan taqdirdagina uni davlat ro'yxatidan o'tkazish rad etilishi mumkin.

Ariza beruvchi ro'yxatdan o'tkazish rad etilganligidan qarori bo'lgan taqdirda sud organlariga murojaat qilishga haqlidir.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ davlat ro'yxatidan o'tgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning Davlat reestrini yuritadi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Koraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar hokimliklarining adliya boshqarmalari korxona ustavini ro'yxatdan o'tkazadilar. Ro'yxatdan o'tkazish organlarida

korxonaning ro'yxatdan o'tkazilgan ta'sis hujjatlari va boshqa xujjatlari nusxalari saqlash uchun qoldiriladi.

Davlat ro'yxatidan o'tgan korxonaga korxona ustavining ro'yxatdan o'tkazilgan asl nusxasi ta'sis shartnomasi va ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risida tegishli namunadagi guvohnoma beriladi. Ushbu hujjat ro'yxatdan o'tkazuvchi organ rahbariyati tomonidan imzolanadi va muhr bilan tasdiqlanadi.

Ro'yxatdan o'tkazilgan korxona bir hafta muddatda O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiy va statistika vazirligining Davlat statistika departamenti yoki tegishli hududiy organida uning korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registriga kiritilganligi va unga Korxonalar va tashkilotlar umumrespublika klassifikatorining identifikatsiya kodlari berilganligi to'g'risidagi guvohnomani olishga majburdir.

Korxona ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab bir hafta muddatda o'zi joylashgan joydagi soliq inspeksiyasida ro'yxatdan o'tishga majburdir.

O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab turgan korxonalar ta'sis hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan taqdirda bir hafta muddatda ularni ro'yxatga olgan organga qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

qayta ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida ariza;

xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxona yuqori organining o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi protokoli;

o'zgartirish va qo'shimchalar matni;

korxonaning nomi yoki tashkiliy-huquqiy shakli o'zgargan taqdirda ro'yxatdan o'tkazilganlik to'g'risidagi guvohnomaning asl nusxasi;

ustav jamg'armasi o'zgargan taqdirda ustav jamg'armasining shakllanishi to'g'risidagi hujjat taqdim etiladi;

korxonaning pochta va yuridik manzilini tasdiqlovchi hujjat;

korxona qayta ro'yxatdan o'tkazilganligi uchun belgilangan miqdorda davlat boji to'langanligi haqida bank tomonidan berilgan to'lov hujjati.

Muassislar tarkibi o'zgargan taqdirda ro'yxatdan o'tkazishda muassislardan talab qilingan hujjatlar za chiqib ketgan muassisning roziligi haqidagi hujjat ko'shimcha ravishda taqdim etiladi.

Ta'sis hujjatlari o'zgartirilganda va unga qo'shimchalar kiritilganda, shuningdek korxonani qayta tashkil etishda korxona qayta ro'yxatdan o'tkaziladi, buning uchun ro'yxatdan o'tkazilganlik uchun milliy valyutada to'lanadigan summaning 20 foizi miqdorida boj undiriladi. Qayta tashkil etish va tugatish tartibi

Korxonani qayta tashkil etish va tugatish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga va korxonaning ta'sis xujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Korxona tomonidan ustavda qayd etilgan faoliyat qo'pol ravishda buzilgan, ataylab qalbaki hujjatlar taqdim etilgan, shuningdek korxona ro'yxatdan o'tkazilgan vaqtdan boshlab bir yil mobaynida o'z faoliyatini (statistika organlari hisobotlariga ko'ra) boshlamagan taqdirda ro'yxatdan o'tkazuvchi organ korxonaga ushbu tartibni buzishlarni bartaraf etish to'g'risida ogohlantirish yuboradi. Agar ogohlantirishda ko'rsatilgan qoida buzilishlari bir oy muddatda bartaraf etilmasa, adliya organlari korxonani tugatish to'g'risidagi da'vo bilan xo'jalik sudiga murojaat qilish hukuqiga ega. Bunday da'vo xo'jalik sudi tomonidan qondirilgandan keyin korxonalarning davlat reestridan chiqariladi.

Korxonani tugatishda ro'yxatdan o'tkazuvchi organga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

Korxonalarning davlat reestridan chiqarish haqida ariza;

xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxona yuqori organining Korxonani tugatish to'g'risidagi karori;

xo'jalik sudining korxonani tugatish to'g'risidagi qarori (korxona sudining qarori bilan

tugatilganda);

xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxona tugatilganligi haqida matbuotda e'lon berilganligini tasdiqlovchi hujjat (e'lon tugatishdan kamida 2 oy oldin beriladi);

bank hisob-kitob hujjatlari, shu jumladan valyuta schyotlari yopilganligini tasdiqlovchi xujjat;

xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi tugatilayotgan korxona muhrlari va shtamlari yo'k qilinganligi haqida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarining ma'lumotnomasi;

Korxona yuqori organi tomonidan tasdiqlangan tugatish balansi;

soliq organlarining soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzlar yo'qligi haqidagi tugatish balansini tekshirish yuzasidan ma'lumotnomasi.

Muassislardan biri mulkchilikning davlat shaklidagi korxona yoki davlat mulki ulushi qo'shilgan korxona hisoblangan xorijiy investitsiyalar

ishtirokidagi korxonalar uchun tugatish balansi O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi yoki uning hududiy bo'linmalari bilan kelishilgan bo'lishi kerak.

Korxona korxonalarning davlat reestridan chiqarilgan vaqtdan boshlab tugatilgan hisoblanadi.

Tugatilgan korxonalarning davlat reestridan chiqarish ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan Korxona muassislarining qarori, yoxud xo'jalik sudining qarori asosida amalga oshiriladi.

Korxona tugatilganda va u korxonalarning davlat reestridan chiqarilganda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bir hafta muddatda O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiy va statistika vazirligining Davlat statistika departamentiga, Davlat soliq Ko'mitasiga va Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligiga bu haqda ma'lum qilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va uning hududiy organlari ro'yxatdan o'tkazuvchi organ sifatida korxonalar tomonidan o'z ta'sis hujjatlariga va ustavda ko'rsatilgan faoliyatga, qayta ro'yxatdan o'tkazish va tugatish tartibiga rioya qilingani ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan qoidalar buzilgan taqdirda ro'yxatdan o'tkazuvchi organ korxonadan xo'jalik sudi orqali eng kam oylik ish haqining 200 baravarigacha miqdorda jarima undirishga haqlidir.

Jarimaning 20 foizi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining markazlashtirilgan schyotiga, qolgan mablag'lar esa -respublika byudjeti daromadiga o'tkaziladi. Bunday da'volar bilan xo'jalik sudiga murojaat qilishda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va uning organlari davlat boji to'lashdan ozod qilinadi.

2.2.4.Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan xorijiy valyutadagi tushumni majburiy sotish tartibi

Korxonalar majburiy sotishni tovarlar va xizmatlar eksportidan olingan xorijiy valyutadagi tushumdan amalga oshiradilar. Bunda xorijiy valyutadagi tushum dekanda eksport qilingan tovarlar va xizmatlar uchun korxonalarning vakolatli banklardagi hisob raqamlariga va kassalariga amalda tushgan xorijiy valyutadagi pul mablag'leri tushuniladi; a)vositachilik faoliyatidan daromad oluvchi korxonalar uchun majburiy sotish maqsadlari uchun xorijiy valyutadagi tushum deganda bajarilgan bitishuvlar bo'yicha olingan vositachilik haqi (foizlar) miqdori tushuniladi;

b)banklar bo'yicha xorijiy valyutadagi tushum deaganda vositachilik haqi ko'rinishida olingan mablag'lar , vakolatli banklarning xorijiy banklardagi hisob raqamlari bo'yicha qo'shilgan foizlar, shuningdek banklar tomonidan norezidentlarda olingan xorijiy valyutadagi boshqa daromadlar (maslahat xizmatlari ko'rsatishdan olingan daromadlar, olingan jarimalar, penya va hakoza) tushuniladi;

v) sug'urta tashkilotlari bo'yicha xorijiy valyutadagi tushum deganda sug'urta muddati tamom bo'lgandan keyin sug'urta to'lovni to'lovlari chiqarib tashlangan holda hisoblab chiqilgan sug'urtalanuvchilarning sug'urta badallari sifatida olingan mablag'lar, shuningdek boshqa tushumlar tushuniladi;

v) chet elda loyiha -qidiruv , qurilish-montaj, ishga tushurish-sozlash va otaliq -montaj ishlarini, shuningdek qurilgan ob'yektlarni mukammal tuzatish, rekonstruktsiya qilish, zamonaviylashtirish va texnik tekshirish ishlarini amalga oshiruvchi, qurilgan ob'yektlardan foydalanish va kadrlar tayyorlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar bo'yicha xorijiy valyutada ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatishga loyiha qiymati miqdorining mazkur kontraktlar bo'yicha valyuta harajatlaridan ortiq bo'lishi tushuniladi. Bunda xorijiy valyutadagi tushumni majburiy sotish bo'yicha hisob-kitoblar kontraktlar bo'yicha ishlar (ishlarning bosqichlari) tamom bo'lgandan keyin amalga oshiriladi, bu tegishli hujjatlar va to'lov hujjatlari bilan tasdiqlanadi;

g) buyurmachilardan olinadigan avanslar kontraktlar bo'yicha majburiyatlar bajarilishi uchun asbob-uskunalar, texnika, mashinalar, qurilish materiallari, yonilg'i, ehtiyot qismlar sotib olish, mutaxassislarni xizmat safariga yuborish uchun banklar tomonidan beriladigan kreditlar xorijiy valyutadagi tushum hisoblanmaydi va majburiy sotish hisoblab chiqiladigan bazaga kirmaydi. Majburiy sotish miqdorini hisoblab chiqish, avans to'lovini hisobga olgan holda, buyurmachidan barcha valyuta tushumi tushgandan keyin amalga oshiriladi;

d) sug'urtalovchilar bo'yicha xorijiy valyutadagi tushum deganda sug'urta(qayta sug'urta) muddati tamom bo'lgandan keyin sug'urta to'lovni to'lovi, vositachilik va agentlik to'lovlari chiqarib tashlangan holda hisoblab chiqilgan sug'urtalanuvchilar (qayta sug'urtalanuvchilar)ning to'lovlarini sug'urta qilish sifatida olingan mablag'lar, shuningdek faoliyatning boshqa turlaridan olingan xorijiy valyutadagi boshqa tushumlar tushuniladi. Xorijiy sug'urta kompaniyalari bilan operatsiyalar amalga oshirilgan taqdirda xorijiy valyutadagi tushum deganda sug'urta (qayta sug'urta) muddati tamom bo'lgandan keyin xorijiy qayta sug'urtalovchiga o'tkazilishi kerak bo'lgan mablag' sug'urta to'lovni to'lovi;

vositachilik va agentlik to'lovlari chiqarib tashlangan holda hisoblab chiqilgan sug'urtalanuvchilarning sug'urta to'lovlari sifatida olingan mablag'lar tushuniladi;

e) barter asosida amalga oshiriladigan eksport-import kontraktlar bo'yicha xorijiy valyutadagi tushum deganda kontraktlarning xorijiy valyutada bajarilgan qismi qiymati tushuniladi. Bunda korxonalar shartnomalar va kontraktlarda valyuta tushumi vakolatli banklarga belgilangan miqdorda majburiy sotilishini ko'rsatishlari zarur;

j) O'zbekiston Respublikasi bojxona hududida mahsuloti olib keladigan xom ashyoni qayta ishlash, yoxud bojxona nazorati ostida qayta ishlash yuzasidan kontraktlar bo'yicha xorijiy valyutadagi tushum deganda rezidentlar tomonidan xom ashyoni qayta ishlash bo'yicha norezidentlarga ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati tushuniladi.

Xorijiy valyutadagi tushumi majburiy sotishdan:

a) xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilayotgan, ustav fondida xorijiy sarmoya ulushi 50 foizdan ortiq bo'lgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab 5 yil muddatga ozod qilinadi. Mazkur korxonalar, agar ushbu tovarlarni o'zining ishlab chiqarishi ulushi xo'jalik faoliyatidan olingan tushum umumiy miqdorining 60 foizidan ortiqni tashkil etsa, halq iste'mol tovarlari ishlab chiqarishga ixtisoslashayotgan korxonalar deb hisoblanadi

b) xayriya maqsadlariga xadya sifatida tushuvchi xorijiy valyutadagi mablag'lar, grantlar, ulardan maqsali foylanaligan taqdirda, ustav sarmoyaga ulushlar, shuningdek korxonalarning chet eldagi xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarga sotilgan aktsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlariga haq to'lash uchun tushgan mablag'lar ozod qilinadi.

v) xorijiy valyutadagi kreditlar;

g) valyuta bozorida sotib olingan xorijiy valyutadagi mablag'lar;

d) bajarilmagan import kontraktlar bo'yicha qaytariladigan avans to'lovlari ozod qilinadi.

e) mikrofirmalar, kichik va o'rta korxonalar o'zlari ishlab chiqargan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni eksport qilishdan tushadigan valyuta tushumi;

Dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi a'zolari tomonidan mustaqil ravishda yoki ular tomonidan tashkil etiladigan dehqon va fermer xo'jaliklari etishtirgan meva-sabzovot mahsulotlarini va ularni qayta ishlash mahsulotlarini eksport qiluvchi tayyorlov kooperativlari orqali tuziladigan barter kontraktlar bo'yicha valyuta tushumi majburiy sotilmaydi.

Majburiy sotilishi kerak bo'lgan xorijiy valyutadagi tushum;

a) korxonalar bo'yicha - O'zbekiston Respublikasidan tashqarida bojxona tartibotlari, yuklarni transportda tashish, sug'urtalash, ekspeditsiya qilishga, vositachilik haqi bo'yicha harajatlar miqdoriga, kontraktlarga muvofiq xorijiy banklarning va O'zbekiston Respublikasi vakolatli banklarning kreditlari uchun foizlar, shu jumladan xorijiy valyutadagi kafilliklar foizlari bo'yicha to'lovlar miqdoriga (muddati o'tqazib yuborilgan va muddati kechiktirilgan qarzlarni foizlardan tashqari) kamayadi;

b) banklar bo'yicha:

- bank mijozlarning depozit hisob raqamlari va omonatlaridagi mablag'lar qoldiqlari bo'yicha xorijiy valyutada to'lanadigan foizlar miqdoriga;

- xorijiy banklardan olingan xorijiy valyutadagi kreditlar uchun foizlar bo'yicha to'lovlar, shuningdek xorijiy banklarning xorijiy valyutada haq to'langan xizmatlari qiymatiga;

- xorijiy valyutadagi tushumning chet elda asbob-uskunalar ijarasi (lizing) uchun haq to'lanadigan qismiga kamayadi;

v) O'zbekiston Respublikasi hududida erkin almashtiriladigan valyutaga xom ashyo harid qilishga istisno tariqasida ruxsat berilgan korxonalar bo'yicha valyuta tushumining bir qismini majburiy sotish miqdori

eksport qilinadigan mahsulotni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xom ashyo va materiallarni respublika ichida harid qilish uchun foydalaniladigan valyuta harajatlari miqdoriga kamayadi.

Korxonalar foydasiga xorijiy valyutada tushgan tushum, agar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'zgacha ruxsat bo'lmasa, respublika vakolatli banklaridagi hisob raqamiga majburiy o'tkazilishi kerak.

Buning uchun vakolatli bankda korxonalarga:

xorijiy valyutadagi tushumni to'liq miqdorda o'tkazish uchun xorijiy valyutadagi talab qilib olinadigan ikkilamchi (tranzit) depozit hisob raqami (keyingi o'rinlarda-tranzit valyuta hisob raqami deb ataladi) ochiladi;

xorijiy valyutadagi tushum majburiy sotilgandan keyin korxonalar ixtiyorida qoladigan mablag'larni hisobga olish uchun xorijiy valyutadagi talab qilib olinadigan depozit hisob raqami (keyingi o'rinlarda-valyuta hisob raqami deb ataladi) ochiladi.

Valyuta tushumini korxonalarning tranzit valyuta hisob raqamlariga o'tkazishda vakolatli banklar navbatdagi ish kunidan kechikmay bu haqda shakl bo'yicha ularni xabardor qiladilar (tranzit valyuta hisob raqamidan ko'chirma ilova qilingan holda).

Majburiy sotilishi kerak bo'lgan mablag' korxonalar tomonidan mazkur tartib talablari hisobiga olingan holda aniqlanadi. Markazlashtirilmagan valyuta tushumini majburiy sotish tushum korxonaning tranzit valyuta hisob raqamiga tushgan sanadan boshlab 5 bank kunidan kechikmay, markazlashtirilgan eksport bo'yicha esa 3 bank kunidan kechikmay amalga oshiriladi. Bunda 500 AQSH dollariga teng bo'lgan miqdordan oshmaydigan xorijiy valyutadagi tushumdan majburiy sotishni har o'n kunda amalga oshirishga ruxsat beriladi.

Oldindan to'langan to'lov (avanslar) korxonalarning tranzit valyuta hisob raqamiga tushganda ushbu mablag'lar eksport qiluvchilarning buyurtmanomalari bo'yicha keyinchalik eksport haqiqatida amalga oshirilgandan keyin majburiy sotilgan holda valyuta hisob

raqamlariga o'tkazilishi mumkin.

Sotilgan xorijiy valyutaning so'mdagi teng qiymati majburiy sotish amalga oshirilgan sanadan boshlab bir kundan kechikmay korxonalarining hisob raqamlariga o'tkaziladi.

Valyuta tushumini majburiy sotish uchun korxonalar o'zining valyuta hisob raqamlari ochilgan vakolatli banklarga shakl bo'yicha xorijiy valyutadagi mablag'larni o'tkazishga topshiriqni taqdim etadilar.

Mablag' tushgandan keyin korxonalar belgilangan muddatda majburiy sotishni amalga oshirish uchun topshiriqni taqdim etmagan hollarda vakolatli banklar valyuta mablag'larini mustaqil sotish huquqiga ega bo'ladilar.

Korxonalar tomonidan xorijiy valyutani majburiy sotish topshiriqlari bajarilmagan taqdirda vakolatli banklar valyuta tushumining belgilangan topshiriqlariga etmayotgan miqdorini ushbu korxonalarining valyuta hisob raqamlaridan aktseptsiz tartibda sotishni amalga oshiradilar.

Korxonalar tomonidan xorijiy valyuta xorijiy banklardagi hisob raqamlarida belgilangan tartibda ruxsat berilmasdan saqlanishi yoki boshqalarga berib turilishi valyuta tushumini yashirish hisoblanadi. Valyuta tushumining yashirilishi yoki boshqalarga berib turilishi hollari aniqlangan taqdirda soliq organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq jarimalar qo'llaniladi.

Mazkur Tartib qoidalari buzilganligi uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan ularning vakolatlari doirasida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan jarimalar qo'llaniladi.

2.2.5. Xorijiy investorlar harid qiladigan aktsiyalar paketlari va ob'yektlar uchun haq to'lash shakllari

Aktsiyalar yoki ob'yektlarni sotish to'g'risida qaror qabul qilish. Birja va birjadan tashqari savdolarga sotish uchun qo'yilgan aktsiyalar paketlari (ulush) yoki ob'yektlarni xorijiy investorlarga sotish to'g'risidagi qarorni Davlat mulki qo'mitasi qabul qiladi.

Aktsiyalar paketlari (ulushlar) yoki ob'yektlarni xorijiy investorlarga sotishda haq to'lashning qo'shma shakllaridan foydalanish tug'risidagi qarorni Tender savdolarini o'tkazish bo'yicha davlat komissiyasi qabul qiladi.

Haq to'lash shakllari. Xorijiy investorlar aktsiyalar paketlari (ulushlar) yoki ob'yektlarni:

erkin konvertatsiyalanadigan valyuta (EKV)ga;

keyinchalik davlatga aktsiyalar yoki ob'yektlar qiymatini to'lagan holda korxonani texnik jihatdan qayta jihozlash va ishlab chiqarishni takroran yangilash bo'yicha investitsiya majburiyatlarini amalga oshirish yo'li bilan;

haq to'lashning qo'shma shaklini qo'llash yo'li bilan harid qilish huquqiga egadirlar. Bunda haq to'lashning qo'shma shakli yuqorida ko'rsatilgan uchala yo'l hisobiga ham, ulardan ikkitasining hisobiga ham amalga oshirilishi mumkin.

Xorijiy investorlar erkin konvertatsiyalanadigan valyutaga (naqdsiz shaklda) birja va birjadan tashqari savdolarga erkin sotish uchun qo'yilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ayrim qarorlariga muvofiq belgilangan tartibda sotish uchun mo'ljallangan aktsiyalar paketlari (ulushlar) va ob'yektlarni harid qilishlari mumkin.

Naqd xorijiy valyutaning kelib chiqishi qonuniyligini tasdiqlaydigan hujjatlar ilova qilingan holda xorijiy investorlardan aktsiyalar paketlari (ulushlar) va ob'yektlarni EKVdagi naqd mablag'larga harid qilish bo'yicha takliflar kelib tushganda Davlat mulki qo'mitasi bu masalani ko'rib chiqish uchun Pul-kredit siyosati bo'yicha respublika komissiyasiga (bundan so'ng - PKSRK) taqdim etadi.

PKSRK ijobiy qaror qabul qilgan taqdirda EKVdagi naqd mablag'larni xorijiy investor O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasining maxsus valyuta hisobvarag'iga

kiritish uchun Markaziy bankning Toshkent shahri bo'yicha bosh boshqarmasi RMMga topshiradi. Bunda investor quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

aktsiyalar paketlari (ulushlar) va ob'yektlarning oldi-sotdisi bo'yicha Davlat mulki qo'mitasi bilan tuzilgan sharnomaning ko'chirma nusxasi;

xorijiy investorlarga aktsiyalar paketlari (ulushlar) va ob'yektlar haqini EKVdagi naqd mablag'larda to'lashga ruxsat berilgan PKSRK qarorining ko'chirma nusxasi.

Sotishga qo'yilgan aktsiyalar paketlari (ulushlar) yoki ob'yektlarni xorijiy investorlar belgilangan tartibda plastik kartochkalardan foydalangan holda erkin konvertatsiyalanadigan valyutaga harid qilishlari mumkin.

Korxonani texnik jihatdan qayta jihozlash va ishlab chiqarishni takroran yangilash bo'yicha investitsiya majburiyatlarini amalga oshirish yo'li bilan, keyinchalik emitent va/yoki investor tomonidan davlatga aktsiyalar paketlari (ulushlar) yoki ob'yektlar qiymatini milliy valyutalarda to'lash bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ayrim qarorlari bilan belgilangan korxonalar bo'yicha Tender savdolarini o'tkazish davlat komissiyasining qaroriga ko'ra aktsiyalar paketlari (ulushlar) yoki ob'yektlar harid qilinishi mumkin.

Tovar-xom ashyo birjalari va "O'zko'rgazmasavdo" AJning hisob-kitob (kliring) palatalari hisobraqamlarida bo'lgan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarining ustav fondida ishtirok etishdan aktsiyalar va ulushlar bo'yicha dividendlar ko'rinishida olingan O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi - so'mda xorijiy investorlar quyidagilarni harid qilishlari mumkin:

- birja va birjadan tashqari bozorlarda erkin sotishga qo'yilgan aktsiyalar paketlari (ulushlar)ni;

- ko'chmas mulk birjalarida erkin savdoga qo'yilgan ob'yektlarni;

- Tender savdolarini o'tkazish bo'yicha davlat komissiyasining qaroriga ko'ra sotiladigan aktsiyalar (ulushlar) va ob'yektlarni (haq to'lashning qo'shma shakli qo'llanilganda).

Aktsiyalar paketlari (ulushlar) yoki ob'yektlarni harid qilganda mablag'larni o'tkazish (haq to'lash) O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalarining maxsus hisobvaraqlarida amalga oshiriladi.

Qatnashchi birja va birjadan tashqari savdolarida, tender yoki auktsionda yutib chiqmagan taqdirda qaytarilishi kerak bo'lgan deponentlangan mablag'lar investorga aktsiyalar paketi (ulush) yoki ob'yekt uchun summalar kiritilgan valyutada hisoblab o'tkaziladi.

Aktsiyalar paketlari (ulushlar) yoki ob'yektlar oldi-sotdisiga doir bitimlar shartnomalar bilan rasmiylashtirilib, quyidagilar uning taraflari hisoblanadi:

- Davlat mulki qo'mitasi;

- xo'jalik birlashmasi (mavjud bo'lsa);

- xorijiy investor.

Oldi-sotdi shartnomasi taraflari o'rtasidagi barcha nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal qilinadi.

Nazorat savollari:

1. Iqtisodiyot tarmoqlarida asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi hikoya qiling?
2. Lafferni fiskal nuqtalarini invariantligi va invariantligini buzilishi muammolari nimalardan iborat?
3. Mamlakatdagi inflyatsiyaning dinamik holati qanday darajada?
4. Valyuta bozori va tashki savdodagi asosiy natijalar bayon qiling?
5. Evroittifoqini subsidiarlik tamoyillari sanab chiqing?
6. Chet el investitsiyalarni mohiyati tushintirib?
7. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni huquqiy ekspertizadan, davlat ro'yxatidan o'tkazish va tugatish qay tarzda amalga oshiriladi?
8. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan xorijiy valyutadagi tushumni majburiy sotish tartibi qisqa hikoya qiling?
9. Xorijiy investorlar harid qiladigan aktsiyalar paketlari va ob'yektlar uchun haq to'lash shakllarini qanday?

Test savoli:

O'zbekistonda xalqaro moliya tashkilotlariga qaysi organlar axborot taqdim etish huquqiga ega:

- a) O'zR Vazirlar mahkamasi, Markaziy bank;
- b) Markaziy bank; Moliya vazirligi;
- v) Oliy majlis; Markaziy bank;
- g) TIF Miliy bank; Markaziy bank;
- d) Moliya vazirligi; TIF Miliy bank;

3 bob. Xalqaro sub'ektlar va inson resurslarini boshqarish

Tayanch iboralar

Xalqaro sub'ektlar; qo'shma korxonalar; vakolatni chegaralash; chet eldagi vakolatxonalar; chet eldagi kasb faoliyati; xorijiy ishchi kuchlari

3.1.Xalqaro sub'ektlarning amaldagi faoliyati

3.1.1.Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar

3.1.1.1.O'z.Respublikasida xorijiy investitsiyalar ishtirokidiga korxonalarning asosiy ko'rsatkichlari, importi va eksporti

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga (XIK) kulay sharoit yaratish borasida olib borilgan siyosat va investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha amalga oshirilgan dasturlar, bu korxonalarning faoliyati natijalariga ijobiy ta'sir etdi. 2005 yilda me'yoriy-huquqiy konunchilikni takomillashtirish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini muvofiklashtirish, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va qo'shma korxonalarni tashkil qilish maqsadida makroiqtisodiy sharoitlarni yaxshilash bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar t'arisida"gi farmoni mamlakat iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarni ishtirokini kengaytirish uchun muhim karorlardan biri bo'ldi. Farmonga asosan 2005 yil 1 iyo'lidan boshlab, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni mehnat resurslari ko'p bo'lgan hududlarda tashkil qilish sharti bilan daromad (investitsiya hajmidan kelib chikkan holda 3 yildan 7 yilgacha), mol-mulk, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va obodonlashtirish, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliqlar va boshqalardan ozod etilgan.

2005 yilda faoliyat yuritayotgan XIKlar soni 215 taga ko'paygan (3.1-jadval). Tashki savdo aylanmasining o'sishi 2005 yilda 23,8 %ni, jumladan 4 chorakda 13,4%ni tashkil etgan. XIKlarni O'zbekiston tashki savdo aylanmasidagi ulushi mos ravishda 0,8 foiz darajaga ortgan.

3.1-jadval. O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar ishtirokidiga korxonalarning asosiy ko'rsatkichlari

	Ulchov kattaligi	2004 i.	2005 i.	04/ IV	05/ IV	2005 yilda 2004 yilga nisbatan, %	05/ IV 04/ IV nisbatan, %
Faoliyat yuritayotgan korxonalar (davri oxiriga)	dona	2412	2627	X	X	108,9	X
Tashqi savdo aylanmasi	mln. doll.	1950,9	2416	531,1	602,3	123,8	113,4
Eksport	mln. doll.	785,2	823,1	201,1	187,1	104,8	93,0
Import	mln. doll.	1165,7	1592,9	331	415,2	136,7	125,4
XIKlarning respublika tashki savdo aylanmasidagi ulushi	%	22,5	25,4	21,8	22,6	X	X
XIKlarning respublika eksportidagi ulushi	%	16,2	15,2	15,2	12,2	X	X
XIKlarning respublika importidagi ulushi	%	30,5	38,9	29,9	37,0	X	X
Eksportning importga nisbati	koef-t	0,7	0,5	0,61	0,5	X	X

Manba: UzR Davlat statistika qo'mitasi.

Eksport. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar eksporti 2005 yilda 2004 yilga nisbatan 104,8 %ga oshib, 823,1 mln. dollarni yoki mamlakat eksportining 15,2 %ni tashkil qilgan. Lekin, 2005 yilning 4 choragida eksport hajmi 2004 yilning shu davriga nisbatan (7%ga) kamaygan.

Vositachilik bilan shugullanayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning eksportini kamayishi eksportning tovar tarkibidagi ijobiy tendentsiya sifatida belgilandi. Jumladan, 2005 yilda vositachilik bilan shugullanayotgan korxonalar tomonidan paxta-tolasi eksportining qisqarishi 2 martadan ko'proqni tashkil qildi, jami eksportdagi ulushi esa 1,3 foiz darajaga kamaydi.

Kimyo majmuasi (70,6%ga), metallurgiya (72,6%), mashinasozlik (59,7%), oziq-ovqat sanoati (22,8%) mahsulotlari eksporti hajmi yuqori sur'atlarda o'sdi (3.2-jadval). Eksport hajmining yuqori o'sish sur'atlariga asosan, "Uzkimyosanoat" DAK, "Uzeltexsanoat", "Uzavtosanoat" va "YOg-moy va oziq-ovqat sanoati" Assotsiatsiyalari tizimidagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning ishlab chiqarish hajmining ortishi hisobiga erishilgan.

Bunday tendentsiya 2005 yil 4 choragi yakunlari bo'yicha ham kuzatilgan, lekin, bu davr ichida "energiya tashuvchilar" va "xizmat ko'rsatish" tovar guruhlarning eksport hajmi va jami xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar eksportidagi ulushi kamaygan,

3.2-jadval. XIKlar tomonidan eksport qilingan tovarlar tarkibi va o'sish sur'atlari, (%)

	O'sish sur'atlari, %		Jami eksport hajmidagi ulushi, %			
	2005 yilda 2004 yilga nisbatan	05/ IV chorakda 04/ IV chorakka nisbatan	2004	2005	04/ IV	05/ IV
Jami	104,8	93,0	100	100	100	100
Paxta-tolasi	47,4	6,4	2,3	1,0	1,4	0,1
Oziq-ovqatlar	122,8	122,1	3,9	4,5	3,9	5,2
Kime max.sulotlari	170,6	136,1	2,6	4,2	2,9	4,3
Energiya tashuvchilar	103,4	61,0	3,6	3,6	5	3,3
Kora va rangli metallar	172,6	370,1	0,7	1,2	0,8	3,1
Mashina i uskunalari	159,7	134,2	28,4	43,3	29,5	42,5
Xizmatlar	102,3	62,3	5	4,9	6,1	4,1
Boshqalar	73,0	69,2	53,5	37,3	50,3	37,5

Manba: UzR Davlat statistika qo'mitasi.

Eksport tarkibida engil avtomobillar ("UzDEUavto" qo'shma korxonasi 1 oktyabr 2005 yildan O'zbekiston Respublikasi hisobiga utdi), avtobuslar, elektrotexnika, meva-sabzavot mahsulotlari, tukimachilik mahsulotlari, rangli metallurgiya mahsulotlari va boshqa mahsulotlar hajmi ko'p bo'lgan.

Respublika XIKlar jami eksportining hududiy tarkibida eksport hajmi bo'yicha Andijon (41,2%), Navoiy (20,1%) viloyatlari va Tashkent shaxri (13,9 %) yetakchilik qilishmolda (3.3-jadval). Bu hududlar eksportini mashinasozlik, oltin qazib olish, elektrotexnika, kimyo, oziq-ovkat va engil sanoat mahsulotlari tashkil etadi.

Korakolpogiston Respublikasi (7,4 marta), Andijon (1,6 marta), Sirdaryo (1,6 marta) va Surxondaryo (1,5 marta) viloyatlari XIKlari eksporti hajmi yuqori sur'atlarda oshgan. SHu bilan birga, respublika hududlarining yarmida eksport xajmi qisqargan. Hududlarda xorijiy investitsiyalarni jalb k'ilish bo'yicha ishlab chiqilgan dasturni amalga oshirish, 2006-2007 yillardayok xorijiy investorlar ishtirokida yangi gashkil etilgan korxonalar eksport salohiyatini oshirish bo'yicha ijobiy natijalarni Zerishi mumkin.

Jadval 3.3. XIKlar eksportining hududiy tarkibi va o'sish sur'atlari, %

Hududlar	O'sish sur'atlari, %	Respublika XIKlarini jami eksportidagi ulushi, %
	2005 yilda 2004 yilga nisbatan	
O'zbekiston Respublikasi	104.8	100
Krrakalpogiston Respublikasi	737.1	0,8
Andijon viloyati	160.4	41,2
Buxoro viloyati	56.5	1,1
Jizzax viloyati	110.1	0,2
K.ashkadaryo viloyati	45.2	0,8
Navoiy viloyati	74.9	20,1
Namangan viloyati	94.9	1,9
Samarqand viloyati	100.6	2,3
Surxondaryo viloyati	147.6	0,4
Sirdaryo viloyati	158.6	0,6
Toshkent viloyati	79.0	8,6
Fargona viloyati	76.8	7,8
Xorazm viloyati	82.7	0,3
Tashkent sh.	110.9	13,9

Manba: UzR Davlat statistika qo'mitasi

Import. 2005 yil yakunlari bo'yicha XIKlarning mahsulotlar, ish va xizmatlar importi respublika bo'yicha 1592,9 mln. AQSH dollarini eki respublika o'zida jami importning -37,0% ni tashkil etdi (3.4-jadval). Import hajmining o'sishi 2004 yil va shu yilning 4 choragiga nisbatan - 36,4% va 25,4%ni tashkil qildi.

Energoresurslar importning nisbatan yuqori o'sish sur'atlariga karamay 2005 yil 4 choragi va 2005 yil yakunlari bo'yicha neftni qayta ishlash sanoati mahsulotlari importi (6%ga) kamayishi kuzatilgan.

2005 yilda import hajmida 2004 yil kabi investitsiyalar tovarlar asosiy salmokka ega bo'ldi. Metallurgiya mahsulotlari importi 2 marta, mashina va uskunalar 1,4 marta, kimyo mahsulotlari 1,3 martaga ortdi. Bunday o'sish asosan takror ishlab chiqarish talablari, xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil qilingan yangi korxonalar, shuningdek, respublika krunchiligida urnatilgan mashina, stanoklar, texnologik uskunalar va boshqa investitsion tovarlar importiga nolinch stavka bo'yicha bojxona to'lovlari belgilangan kulay savdo tartibi bilan izohlanadi.

3.4.-jadval.Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar importining tovar tarkibi va o'sish sur'atlari.

	O'sish sur'atlari, %		Respublika XIKlarini jami import hajmidagi ulushi, %			
	2005 yilda 2004 yilga nisbatan	05/ IV chorakda 04/ IV chorakka nisbatan	2004	2005	04/ IV	05/ IV
Jami	136,7	125,4	100	100 '	100	100
Oziq-ovqatlar	112,2	80,2	12	9,8	15,2	9,7
Kime maxsulotlari	125,8	143,2	13,9	12,8	12,3	14,1
Energiya tashuvchilar	94,0	144,0	0,6	0,4	0,4	0,4
Kora va rangli metallar	202,2	172,7	6	8,9	5,9	8,1
Mashina va uskunalar	136,6	117,8	56,3	56,3	54	50,7
Xizmatlar	148,1	269,2	4,5	4,9	4,5	9,8
Boshqalar	140,8	117,6	6,7	6,9	7,7	7,2

Manba: UzR Davlat statistika qo'mitasi.

Joriy yil yakuni bo'yicha "xizmatlar" va "boshqa" tovarlar tarkibi bo'yicha xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar importining o'sishi o'rtacha respublika ko'rsatkichidan yuqori bo'lgan. "Boshqa" tovarlar guruhi bo'yicha importni o'sishi (40,8%ga), sanoat qurilish materiallari, kimmat baho metall va toshlardan tayyorlangan buyumlar, kiyim-kechak, poyavzal va boshqa iste'mol sanoat tovarlarini olib kelishning ko'payishi hisobiga ta'minlangan. "Xizmatlar" guruhi bo'yicha importni o'sishida qurilish ishlari va telekommunikatsiya xizmatlari asosiy o'rin to'tgan.

2005 yilda, shu jumladan 4 chorakda XIKlar jami importida ikki tovarlar guruhi: ya'ni, "mashina va uskunalar" (davrlar bo'yicha mos ravishda 56,3% va 50,7%) hamda "kimyo maxsulotlari" (12,8% va 14,1%) guruhlarining yuqori ulushi saqlanib qoldi.

Eksportga (104,8%) nisbatan importning yuqori o'sish sur'ati (136,7%) natijasida XIKlar importini eksport bilan koplanish koeffitsienti kamaygan. Eksportga nisbatan importni koeffitsienti 2004 yilda 0,7 ni, 2005 yilda esa -0,5ni tashkil etgan.

XIKlar eksport-importning choraklik dinamikasi shuni ko'rsatadiki, 2005 yil 4 choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan importning yuqori o'sish sur'ati (25,4%ga) va eksport hajmining (7%ga) kamayishi kuzatilgan 2005 yil 2 choragida importning yuqori o'sishi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga investitsiyey tovarlarni ko'p miqdorda olib kelish zaruriyati va xorijiy kapitallar ishtirokida yangi loyihalarni amalga oshirish natijasida ro'y bergan.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tashki savdosining geografik tarkibi shuni ko'rsatadiki, MDH, davlatlariga eksportning yuqori o'sish sur'atlari (147,3%) va boshqa xorijiy davlatlarga eksport hajmining qisqarishi (79,1%gacha) MDH, davlatlari bilan savdo-sotik. tizimini faollashganligi va an'anaviy sotish kanallarini yo'lga qo'yilganligi bilan izohlanadi (3.5-jadval).

XIKlarni MDH, davlatlari bilan tashki savdo aylanmasi ulushi tadqiq qilinayotgan davr davomida 25,5%dan 31,6%ga, shu jumladan, eksportda - 37,7%dan 53%gacha, importa 17,3%dan 20,5%gacha ortgan. MDH, davlatlaridan Rossiya Federatsiyasi, Krzogiston va Tojikiston Respublikalari asosiy savdo hamkorlar bo'lgan. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning MDH, davlatlari bilan savdodagi importni eksport bilan koplanish koeffitsienti (foiz) 133,5 %ni tashkil qildi (ijobiy savdo balansi 109,5 mln. dollarni tashkil etdi).

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning boshqa xorijiy davlatlar bilan tovar aylanmasidagi ulushi, ularning eksport hajmini kamayish tendentsiyasiga karamay, 2005 yilda nisbatan yuqori - 68,4% saqlanib qoldi. Uzoq xorijiy davlatlardan import qilingan maxsulotlarning asosiy qismini oziq-ovqat maxsulotlari, mashinasozlik va kimyosanoati tovarlari tashkil etgan. AQSH, Turkiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Shveytsariya davlatlari yetakchi savdo hamkorlari sifatida saqlanib qoldi.

3.1.1.2.Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qo'shma korxonalarning MDH va boshqa xorijiy davlatlar bilan tashki savdo aylanmasi

2005 yil yakunlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi ishlab chiqarishni tashkil qilish dasturlari muvaffaqiyatli bajarilishi kuzatildi. 90-dan ortiq qo'shma korxonalar ishga tushurildi, jumladan, "Akbar Ali" tukimachilik mahsulotlari ishlab chikaruvchi qo'shma korxona, "Ai Demir" paypok, erkaklar shimi, va boiha tiqilgan maxsulotlar ishlab chikaruvchi qo'shma korxona, "Bursel Tashkent" trikotaj tovarlari ishlab chikaruvchi qo'shma korxona, "Xonbugda" maishiy texnika-muzlatkich, changyutkich, kir yuvish mashinasi kabi tovarlar ishlab chikaruvchi qo'shma korxonalar ishga tushurildi. 2005-2007 yillarda hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish Dasturini amalga oshirilishi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni Korakalpog'iston Respublikasi, Kashkadaryo, Surxondaryo, Sirdaryo viloyatlarida ustivor joylashtirish hisobiga ularni rivojlantirishdagi hududiy nonomutanosibliklarni xal qilishda ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

3.5-jadval. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qo'shma korxonalarning MDH, va boshqa xorijiy davlatlar bilan tashki savdo aylanmasi

	Hajmi, mln. doll		Jami hajmidagi ulushi, %	
	2004	2005	2004	2005
Taidi savdo aylanmasi	1950,9	2416,0	100	100
MDH davlatlari	497,2	762,5	25,5	31,6
Boshqa davlatlar	1453,7	1653,5	74,5	68,4
Eksport	785,2	823,1	100	100
MDH davlatlari	296,0	436,0	37,7	53,0
Boshqa davlatlar	489,2	387,1	62,3	47,0
Import	1165,7	1592,9	100	100
MDH davlatlari	201,2	326,5	17,3	20,5
Boshqa davlatlar	964,5	1266,4	82,7	79,5
Savdo balansi (qoldik)	-380,5	-769,8	X	X
MDH davlatlari	94,8	109,5	X	X
Boshqa davlatlar	-475,3	-879,3	X	X

Manba: UzR Davlat statistika qo'mitasi.

Sungi davrda samolyotsozlik sohasi bo'yicha O'zbekiston-Rossiya hamkorligi faollashdi. Jumladan, CHkalov nomidagi Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi DAJ ("TAPOiCH") va Rossiya Federatsiyasining "Ilyushin" nomidagi OAJ Konstruktorlik Byurosi bilan hamkorlikda, ichki, MDH x.amda Osiyo bozorlariga muljallangan avia texnikalarning yangi na'munalari yaratildi va Rossiyadagi MAKS-2005 aviasalonida muvaffaqiyatli namoyish etildi.

O'zbekiston iqtisodiyotining ustivor tarmoqlaridan biri bo'lgan tukimachilik sanoatida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyati sezilarli darajada kengaydi. Tukimachilik sanoatidagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar, jumladan; Bursel Toshkent Tekstil, Aydemir Tekstil, Shayhontohur Tekstil, YaDem Tekstil, IP Alkim Tekstil qo'shma korxonalari Amerika va Evropaning yirik kompaniyalarining, ya'ni Fruit of the Loom, Target, JCPenney, Anvil, WaltMart, Quelly, Normann, Neckerman, Kik va boshqa shu kabi kompaniyalarning buyurtmalarini yil davomida muvaffak,iyatli bajarib keldi.

Hozirda "Uzbekengilsanoat" DAK eksportining umumiy hajmida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qo'shma korxonalar va 100% xorijiy kapital kiritilgan korxonalarning ulushi 85%3 ni tashkil kilmokda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining karori bilan tasdiklangan "2005-2008 yillarda tukimachilik sanoatiga investitsiyalarni jalb qilish dasturi" bu tarmoqdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning eksport hajmini oshishida mux.im ax.amiyat kasb etdi. Mazkur dasturda ishlab chikilayotgan tukimachilik mahsulotlarining 80%dan kam bulmagan miqdorini eksport qilish masalasi qo'yilgan. Misol tarikasida, Germaniya, Gollandiya, Rossiya, Turkiya bozorlariga ishlab chiqarilgan max,sulotlarining 95% eksport qilingan "Alkim Tekstil" xorijiy investitsiya ishtirokidagi qo'shma korxonani keltirish mumkin. Bu korxona 2005 yil davomida 2 mln. AQSH dollaridan ortiq summaga tayyor mahsulotlarni eksport qilgan. Eksport qilingan mahsulotlar qatorida - bolalar uchun tayyor kiyim-kechak, ichki kiyim va trikotaj mato va boshqalar mavjud.

3.6-jadval. Tashki savdo balansi (mln. doll.)

Davr	Eksport	Import	Savdo balansi
2000	3264,7	2947,4	317,3
2001	3170,4	3136,9	33,5
2002	2988,4	2712,0	276,4
2003	3725,0	2964,2	760,8
2004	4853,0	3816,0	1037,0
2005	5408,8	4091,3	1317,5

04/I	1210,0	874,2	335,8
04/II	1209,9	856,6	353,3
04/III	1106,8	980,6	126,2
04/IV	1326,3	1104,6	221,7
05/I	1327,9	965,4	362,5
05/II	1495,4	1049,9	445,5
05/III	1046,2	953,2	93,0
05/IV	1539,3	1122,8	416,5

Manba: Iqtisodiy yo'nalishlar. Choraklik nashr. O'zbekiston, Tacis, Iyul –sentyabr 2001 i.;

3.7-jadval. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi koorxonalar eksportining tovar tarkibi, (%da)

	Jami, mln, dollar,	Jami, %	Paxta-tolasi	Oziq-ovqat	Kime maxsulotlari	Energiya tashuvch i par	Kora va rangli metal-lar	Mashina va uskunalar	Xizmatlar	Boshk alar
2000	451,6	100	4,8	7,4	1,5	3,7	0,3	16,0	3,9	62,4
2001	416,9	100	2,4	4,4	2,6	4,7	0,2	21,1	4,4	60,2
2002	443,0	100	1,0	4,1	2,1	2,9	0,5	16,5	3,8	69,1
2003	564,4	100	3,3	4,2	2,3	3,3	0,8	19,4	4,4	62,3
2004	785,2	100	2,3	3,9	2,6	3,6	0,7	28,4	5,0	53,5
04/ I	164,3	100	1,4	5,7	3,0	2,5	1,5	22,7	3,8	59,4
04/ II	211,3	100	3,7	3,5	2,3	3,4	0,7	26,0	3,4	57,1
04/ III	208,5	100	2,3	2,8	2,3	3,3	0,1	34,3	6,6	48,2
04/ IV	201,1	100	1,4	3,9	2,9	5,0	0,8	29,5	6,1	50,3
2005	823,1	100	1,0	4,5	4,2	3,6	1,2	43,3	4,9	37,3
05/ I	206,4	100	1,5	4,5	3,3	3,4	0,4	44,1	4,2	38,6
05/ II	211,4	100	1,8	4,7	4,3	4,7	0,7	42,6	5,3	35,9
05/ III	218,3	100	0,6	3,9	4,9	2,8	1,0	43,8	5,9	37,1
05/ IV	187,1	100	0,1	5,2	4,3	3,3	3,1	42,5	4,1	37,5

Manba: UzR Davlat statistika qo'mitasi.

3.8-jadval. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar importining tovar tarkibi, (%da)

	Jami, mln, dollar,	Jami, %	Oziq-ovkat	Kime mahsulotlari	Energiya tashuvchilar	Kora va rangli metallar	Mashina va uskunalar	Xizmatlar	Boshqalar
2000	760,5	100	12,9	20,5	0,8	5,1	47,4	1,1	12,2
2001	937,2	100	8,8	13,3	0,6	5,9	62,5	1,0	7,9
2002	704,8	100	15,0	13,2	0,6	4,4	57,5	1,1	8,2
2003	858,4	100	15,1	12,4	0,4	5,4	55,4	2,8	8,5
2004	1165,7	100	12,0	13,9	0,6	6,0	56,3	4,5	6,7
04/ I	243,9	100	16,2	12,0	0,4	5,0	56,2	4,2	6,0
04/ II	275,4	100	11,3	15,8/	0,8	7,0	53,3	4,7	7,1
04/ III	315,4	100	6,0	15,5	0,5	6,0	61,4	4,6	6,0
04/ IV	331,1	100	15,2	12,3	0,4	5,9	54,0	4,6	7,7
2005	1592,9	100	9,8	12,8	0,4	8,9	56,3	4,9	6,9
05/ I	367,2	100	9,7	10,7	0,3	6,8	62,3	3,5	6,7
05/ II	444,0	100	9,7	12,2	0,2	10,2	58,4	3,2	6,2
05/ III	366,4	100	10,4	14,4	0,5	10,2	53,9	2,9	7,7
05/ IV	1177,7	100	9,7	14,1	0,4	8,1	50,7	9,8	7,2

Manba: UzR Davlat statistika qo'mitasi.

3.1.2. Tashqi iqtisodiy faoliyatda kichik tadbirkorlik sub'ektlarining ishtiroki

Sanoatda kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni 2004 yilga nisbatan 3,0%ga kamayganligi kuzatilmokda. Bu kichik korxonalar sonining turli tarmoqla bo'yicha nooptimal bulinishi saqlanib kolganligidan dalolat beradi. Sanoat tarmogida kichik biznesning yaxshi rivojlanmayotganligi asosiy kapitalga investitsiya quyilmalarning kamayishi, soliq to'lovchilar, ayniqsa xorijiy korxonalarga

nisbatan mahalliy korxonalar uchun teng bo'lmagan shart-sharoitning mavjudligi kabi omillar natijasida yuzaga keldi..

Sanoat max.sulotlarini ishlab chiqarishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 9,8%ni yoki

o'tgan yilga nisbatan 0,3 foiz bandiga past bo'ldi. Bu kichik korxonalar va yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan mahsulotlarni ishlab chiqarishning kamayishi tufayli yuzaga keldi.

Ishlab chiqarish kulamining kengayishi iste'mol tovarlari bo'yicha kayd etildi va uning o'sish sur'ati 123,2%ga, jumladan nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish - 135,7%ga va oziq-ovqat max.sulotlari ishlab chiqarish 118,4%ga etdi. Ushbu yo'nalish bo'yicha jami ishlab chiqarish hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 22% ga teng bo'ldi yoki o'tgan yil bilan solishtirganda 1,7 foiz bandiga kamaydi (3.9-jadval).

3.9-jadval. Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha max,sulot ishlab chiqarishda kichik tadbirkorlik sub'ektlarini ulushi

Ko'rsatkichlar	2004Y.	2005Y.
Sanoat		
Kichik tadbirkorlikning sanoat max,sulotlarini ishlab chiqarishdagi ulushi	10,1	9,8
shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlik	3,9	3,5
Kichik tadbirkorlikning iste'mol tovarlari ishlab chiqarishdagi ulushi	23,7	22,0
shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlik	13,0	12,2
Kichik tadbirkorlikning oziq-ovqat max,sulotlarini ishlab chiqarishdagi ulushi	36,5	36,4
shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlik	26,0	26,4
Qishloq xo'jaligi		
Kichik tadbirkorlikning k.ishloq, xo'jaligi mahsulotlari yalpi ishlab chiqarishdagi ulushi	80,9	84,7
shu jumladan dex,krn xo'jaliklari	59,7	60,2
CHakana tovar aylanmasi		
Kichik tadbirkorlikning umumiy tovar aylanmasidagi ulushi	41,8	44,0
shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlik	27,8	27,1
Pullik xizmatlar		
Kichik tadbirkorlikning pullik xizmatlar ko'rsatishdagi ulushi	47,4	52,0
shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlik	41,6	44,7

Manba: UzR Davlat statistika qo'mitasi

2005 yilda oziq-ovqat tovarlarini ishlab chiqarishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik ulushi 0,1 foiz bandiga kamaydi va 36,4%ni tashkil qildi. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 4.7%ni tashkil etdi. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 84,7%i yoki 2004 yilga nisbatan 3,8 foiz bandiga ko'p qismi ishlab chikarildi. Mahsulotlarning asosiy qismi dexkon xo'jaliklari (60,2%), 22% dan ortiqrok qismi mikrofirmalar tomonidan ishlab chikarildi. Tovar aiirboshlashning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo bo'yicha ulushi 44%gacha o'sdi yoki 2004 yil bilan taqqoslaganda asosan kichik korxonalar (2,2 foiz darajasiga) va mikrofirmalar (1,1 foiz darajasiga) hisobiga 1,8 foiz bandiga yuqori bo'ldi. Tovar aiirboshlashning umumiy hajmida yakka tartibdagi tadbirkorlar ulushining birmuncha pasayishiga karmasdan (0,7 foiz darajasiga), u yuqori darajada saqlanib qoldi va 27% dan ko'proqni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlikning pulli xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 52%ni tashkil qildi yoki 2004 yilga nisbatan 4,6 foiz bandiga yuqori bo'ldi. Ushbu sohada kichik tadbirkorlik ulushining

o'sishi birinchi navbatda, ularning o'tgan yilga nisbatan yuqori o'sish sur'atiga ega bo'lishi bilan bog'lindir. Aholiga pulli xizmatlar ko'rsatishning umumiy hajmining 44,7%ini tashkil qilgan yakka tartibdagi tadbirkorlikning ulushi ham o'sdi. 2005 yilda kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan amalga oshirilgan eksportning tarkibida ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Paxta tolasi eksporti hajmi 53%ga, kimyo mahsulotlari 46,2%ga kamayib, ushbu kamayish asosan kichik tadbirkorlikning umumiy eksport hajmidagi hissasiga to'g'ri keldi, ya'ni u 2004 yildagi 7,3% o'rniga 6,0%ni tashkil qildi. Bunda, rakobatbardosh tayyor mahsulotlar - oziq-ovqatlarning 66,5%ga, mashina va asbob-uskunalarining 48,4%ga oshganligi kayd etildi. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan xizmatlar va boshqa tovarlarning eksporti ham o'sdi (3.10 va 3.11-jadval).

3.10-jadval. Tashki iqtisodiy faoliyatda kichik tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi, (%)

Ko'rsatkichlar	04/I	04/I-II	04/I-III	2004	05/I	05/I-II	05/I-III	2005
Eksport								
kichik tadbirkorlikning jami eksport hajmidagi ulushi	8,7	5,1	7,1	7,3	4,6	4,8	5,8	6,0
shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlik	1,2	1,2	1,4	1,5	1,0	1,3	2,0	1,9
Import								
kichik tadbirkorlikning jami import hajmidagi ulushi	29,4	30,9	31,6	32,7	29,4	31,4	32,4	33,7
shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlik	5,2	5,2	4,8	4,5	4,1	4,5	4,7	5,2
Tashk.i iqtisodiy faoliyatda katnashuvchi kichik biznes korxonalar soni, birlik	1806	2625	3217	3781	2015	2891	3472	3890

Manba: UzR Davlat statistika qo'mitasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari importining respublika bo'yicha jami import hajmidagi ulushi 33,7%ni tashkil etdi va 2004 yil bilan taqqoslaganda 1,0 foiz bandiga k'paydi. Ushbu ko'payish oziq-ovqatlar importining 19,4%ga, kimyo mahsulotlarining 7,7%ga, boshqa tovarlarning 16,6%ga oshishi evaziga ta'minlandi. Importning tovarlar bo'yicha tarkibida mashina va asbob-uskunalar pozitsiyasi bo'yicha 7,9%ga va rangli va kora metallar bo'yicha 20,3%ga kamayish kuzatildi (3.11-jadval).

3.11-jadval. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari import eksport faoliyatining tovarlar bo'yicha tarkibi, (%)

	2004g.	2005g.
Eksport	100,0	100,0
Paxta tolasi	35,0	16,2
Oziq-ovqatlar	21,2	35,3
Kime max.sulotlari	2,6	1,4
Energiya tashuvchilar	7,4	9,0
Ranli va kora metallar	0,7	0,9
Mashina va asbob-uskunalar	6,2	9,2
Xizmatlar	10,0	10,6
Boshqalar	16,9	17,4
Import	100,0	100,0
Oziq-ovqatlar	9,3	11,1
Kime max<:ulotlari	16,9	18,2
Energiya tashuvchilar	0,2	0,2
Rangli va kora metallar	8,4	6,7
Mashina va asbob-uskunalar	44,5	41,0
Xizmatlar	3,8	3,1
Boshqalar	16,9	19,7

Manba: UzR Davlat statistika qo'mitasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarining amalga oshirilishiga karamasdan (tovarlar eksporti bojxona to'lovlaridan ozod qilingan, eksport mahsulotlari ishlab chikaruvchilar bir qator imtiyozlarga ega), 2005 yilda ularning eksport-import operatsiyalarida katnashayotganlarining soni 2,8%ga oshdi yoki 2004 yilgi eksportchi kichik korxonalar safi 100 taga o'sdi, holos.


Hududlar tarkibi bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlari eksporti hajmining oshishi Krrakalpogiston Respublikasida 92,4%ga, Sirdaryo viloyatida — 89,5%, Surxondaryo viloyatida - 84,6%, Namangan viloyatida - 15,8% va Toshkent shaxrida - 10,8% ni tashkil etdi. Ushbu hududlarda eksport hajmining o'sishi tashki bozorga oziq-ovqat mahsulotlarini, birinchi navbatda meva va sabzavot konservalari, vino-sharob mahsulotlari, usimlik yogi, quruq mevalar, djemlar va shu kabilarni yetkazib berish hisobiga ta'minlandi. Samarqand, Toshkent, Fargona va Xorazm viloyatlari kichik tadbirkorlari eksportining hissasi sezilarli kamaydi.

3.12-jadval. Tashki iqtisodiy faoliyatda kichik tadbirkorlik sub'ektlarining hududlar bo'yicha ulushi,

e	Eksportning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik eksportining ulushi		Importning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik importining ulushi	
	2004	2005	2004	2005
O'zbekiston Respublikasi	7,3	6,0	32,7	33,7
Krrakalpogiston Respublikasi	6,6	12,7	36,2	71,1
Andijon	4,2	2,2	5,6	5,2
Buxoro	4,1	3,8	61,1	65,0
Jizzax	4,2	3,5	91,5	57,9
Kashkadaryo	2,5	1,4	20,2	65,2
Mavo'y	0,2	0,3	2,1	3,0
Namangan	64,0	74,1	64,9	57,4
Samarqand	31,7	23,3	41,7	50,0
Surxondaryo	6,5	12,0	82,2	70,5
Sirdaryo	1,9	3,6	70,1	71,4
Toshkent viloyati	19,4	5,6	42,0	44,0
Fargona	19,0	14,6	42,1	38,2
Xorazm	7,7	2,8	72,5	63,6
Toshkent shaxri	6,5	7,2	34,8	38,7

Manba: UzR Davlat statistika qo'mitasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari importi hajmining jami import hajmidagi ulushi Krrakalpogiston Respublikasida deyarli 2 barobar, Kashkadaryo viloyatida 3 barobardan ko'p, Samarqand viloyatida 19,9%ga va Toshkent shaxrida 11,2%ga ko'paydi. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan amalga oshirilgan import hajmining kamayishi Andijon, Jizzax, Namangan va Fargona viloyatlarida kuzatildi (3.12-jadval).



3.1-chizma.

Mamlakat hukumati tomonidan kichik tadbirkorlikning YAIM dagi ulushini 2007 yilgacha 45%gacha etkazish vazifasi kuyildi. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun amalda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sonini oshirish, oilaviy va kichik xususiy korxonalarni rivojlantirish, shuningdek ularning faoliyatining samaradorligini oshirish zarur. Bu, birinchi navbatda, davlat boshqaruv organlarida ma'muriy jarayonlarni amalga oshirish bilan botik yuqori harajatlarni kamaytirish zaruriyatini ko'rsatadi. Amaldagi korxonalarning faoliyati samaradorligini oshirish masalalarini xal etish ishlab chiqarish faoliyatiga qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilishni amalga oshirish, turli harajatlar va risklarni kamaytirish bilan bog'liq.

3.1.3. Iqtisodiyot tamoqlarida tashqi va ichki munosabatlarni rivojlantirishni yo'llari

3.1.3.1. Xizmat infratuzilmalarini rivojlantirish yo'llari

Yetakchi eksport kiluvchilar tomonidan mamlakatning hamma korxonalari uchun qiziq.ish uygotuvchi chet el infzatzilmalaridan samarali fsydalanish tajribalari tuplangan.

Chet elgik x,amkorlar bilan aloqalarini kuchaytirish maqsadida "O'zbekengilsanoat" DAK korxonalarin,uning marketing xizmat-lari va eksport bulimlari tashkil kilindi. Ushbu bulinmalar eksport iikoniyatlarini tahlil k,ilish, ishlab chikarilayotgan mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, eksport qilinayotgan max,sulot nomenklaturasini ko'paytirii ishlarini olib bor-mokdalar. Ular tomonidan max,sulotlarni eksport qilish, xom-ashyo, material va tayyor max.sulotlar ishlab chik,arishni tashkil qilish buylcha shartnoma ishlari olib borilmokda, marketing tadbikotlari o'tkazilmokda.

Chet elda investitsiyalarni joylashtirishyi muvofiklashtirish, tashki cavdo infratuzilmalari samaradorligini oshirish maqsadida. Tashk,i iqtisodiy alok.alar agentligi xo'jalik sub'ektlariga chet elda investitsiyalash samaradorligining dastlabki ekspertizalarini taklif etadi. Bundan tashqari, agentlik chet elda korxona tashkil etish loyix.asini ishlab chik,ish bosqichida investitsiya loyix^alarini amalga oshirish, marketing tadbikotlari utkazishda yordam ko'rsatadi. Bunday yordam tufayli, rezidentlar tashk,i sav-doda xorijiy infratuzilmalar tashkil etish masalalarini ishlab chiqishda uz harajatlarini kamay-tirish imkoniga ega bo'ladi.

Tashki iqtisodiy aloqalar agentligi va uning tuzglmaviy bulinmalari respublikamiz xo'jalik

sub'ektlari faoliyatini koordinatsiyalashni, chet elda savdo infratuzilmalari tashkil etish va saklash bo'yicha harakatlar birlashtirilishini ta'minlaydi. U chet ellarda mamlakat umumiy aktivlarining joylashishini muvofiklashtiradi, chet ellik sub'ektlar orqali amalga oshirilgan eksport mahsulotlarini tartiblashtiradi va ko'paytiradi.

Sunggi yillar davomida jahon savdo-sotigida davlatlararo tovarlar va sarmoyalarning samarali harakatini ta'minlovchi xalqaro korporativ korxonalar ulushi ortmokda. Korporatsiyalar tashkili iqtisodiy faoliyatda marketing strategiyasi bo'yicha savdo-sotik bozorida doimiy izlanishlar olib boradi, uz mahsulotlarini utkazish yo'lida xalqaro, noan'anaviy siyosat olib boradi. SHu bilan birga, ular milliy savdotartibi bilan bog'liq. savdo harajatlarni qisqartirishning samarali shakllari va uslublarni kullaydi. Hozirgi paytda jahon bozoridagi rakobat tobora kattiklashmokda^eksportni tashkil etishda yuqori malaka bilan yondashilmasa, tashkili iqtisodiy faoliyatda muvaffak,iyatlarga erishishning hech xalqaro iloji yuk. TIAA mintakaviy va tarmoq, bulinma rezidentlarini milliy iqtisodiyot mustaxkamlanishiga uz ulushlarini k,ushishlarida ularni har jihatdan qo'llab-quvvatlashga tayyor.

Axborot-maslahat tizimining funksional tuzilishi. Axborot-maslahat xizmati (AMX) uch buginli komp'yuterlashgan tizim sifatida loyi^alashtiriladi. Yuqori buginda respublika axborot-maslahat markazi (RAMM) mustatsil faoliyat ko'rsatadi va tegishli masalalar bo'yicha viloyat (mintaka) markazlari ish faoliyatini mukobillashtiradi. RAMM viloyatlar bilan elektron aloqani operativ yoki paketli ish tartibida umummilliy kommunikatsiya tarmogidan foydalanuvchi informatsiey kommunikatsiya markazi orqali amalga oshiradi.

RAMM ilmiy va boshqa nashrlar, hamda bozorga muljallangan axborot yaratuvchilaridan olingan ruknlashtirilgan manbalar asosida respublika qishloqxo'jaligi ishlab chiqarishi barcha tarmoqyaari bo'yicha ma'lumotlar bazasi (MB) va bilimlar bazasi (BB)ni tashkil etadi.

AMX viloyat (mintaka) markazlari RAMM vazifalarini UZ viloyat (mintaka) ishlab chiqarishi bo'yicha joriy etadi va AMXning tuman punktlari ish faoliyatini boshqaradi. Bumarkazlar ham, uz MB va BBlarini mustakil yuritib, o'zaro RAMM tashabbusi va viloyat AMX surovlari yordamida tuldinib boriladi. AMX tuman markazlari ham, viloyat buginida tuldinilgan uz bazalarini yuritadi va ularni yukrrida aytilgan bevosita aloqa orqali ishlab chiqarish ob'yektlarida amalga oshiradi.

Korxona xo'jaligi tovar ishlab chikaruvchilari axborot iste'molchilari sifatida zaruriy texnologik ishlanma va ilmiy-texnik axborot uchun tuman axborot-maslahat markaziga murojaat kiladilar. Ular kelgan surovga javobni mavjud MBdan kidirib topishadi va iste'molchiga javob qaytaradi. Agarda javob topilmasa, u holda shtatli mutaxassis maslahatchilarga murojaat qilinadi. Ular ham javob bera olmasa, u holda keyingi buginga, viloyat (mintaka) axborot-maslahat xizmati bilan borlanadi. Javob kidiruv texnologiyasi shu zaylda amalga oshiriladi.

Agarda javob uchala bo'rinda ham topilmasa, ishlanmalarga buyurtmalar rasmiylashtiriladi. Tovar ishlab chikaruvchilarning surovlarni ko'paytirish uchun ommaviy axborot vositalari va nashrlar orqali reklamalardan doimiy ravishda foydalanish zarur. Yuqori buginning kadrlar tarkibi MB va BBni kullab-kuvvatlaydigan (baza ma'muri). komp'yuter texnologiyalarini tushunadigan (sistemali va amaliyotchi mutaxassislar), tashkili tashkilotlar bilan operativ ravishda hamkor-likni tashkil etadigan (dispetcherlik guruhi), texnik vositalardan xabardor yuqori malakali mutaxassislardan tuziladi. Viloyatda kadrlarni tanlashda asosiy rolni mutaxassis-maslahatchilar (bosh maslahatchilar, maslahatchilar) uynaydi. Ularning tarkibida ham, baza ma'muri va texnik mutaxassislar bo'lishi zarur. Tumanda esa, shtatli maslahatchi-tashkilotchilar va qishloq xo'jaligi boshqaruv xodimlaridan tuzilgan tashkili konsultantlar bo'ladi. Tuman boshqaruvining yangi tartib koidasi bo'yicha uning asosiy vazifalaridan biri ishlab chiqarish tuzilmalariga maslahatlar berishni tashkil etishdir.

Bu ishni tashkil etuvchilar tuman AMXlari bo'lib, ular boshqaruv tarkibiga kiradi. Viloyat boshqaruv tarkisiga AMX markazlari, RAMM esa, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv

xo'jaligi vazirligi tarkibiga kirishi lozim.

Hozircha ayrim rejali-taksimot vazifalar saklanar ekan, amalda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chikaruvchilari va ularning zaruriyatlariga yaqinlashish maqsadida sekin-astalik bilan konsalting va marketing xizmatlariga g'tib borilaveradi. Tuman qishloq xo'jaligi boshqaruvi uzining umumiy Uch poyo'nali axborot-maslahat xizmatining ommaviy ko'rinishi, Javob kidirish texnologiyasi, Ishdanmalarga byurtmalarni rasmiylashtirish.

Texnologik va axborot ta'minotining asosiy vazifalari quyidagilardir:

- ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxini va serkuvvatligini kamayti.
- zamonaviy texnologik jarayonlarni qo'llash hisobiga maxsulot sifatini yaxshilash;
- ishlab chiqarishni makbul tashkil etish asosida xo'jalikda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish.

Ishlab chiqarishni rejalashtirish ishlab chiqarishni texnologik jarayonlar buginida boshqarish bilan mustaxkam bog'liq. Bu erda konkret texnologik jarayonlarda resurslarni tejash, noishlab chikarish harajatlarini kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish maqsadida qayta taksimlashni amalga oshirish kabi masalalar xosil bo'ladi. Bu esa, AMX eng avvalo, qishloq, xo'jaligi tovar ishlab chikaruvchilarining yuqoridagi masalalarini xalqilishga karatilganligini ko'rsatadi. Ayni vaqtda AMXlarni tashkil etishdagi asosiy kamchiligi konkret masalalarning matematik ta'minoti yetarlicha ishlanmaganligidir.

3.1.3.2.Respublikada innovatsiya faoliyatini ustuvor yo'nalishga aylantirish tadbirlari

Bugungi kunda respublikada investitsiya-innovatsiya milliy Dasturi yagona maqsadga yo'naltirilgan holda, izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Mazkur Dasturda yaqin yillarga mo'ljallangan ustuvor va strategik ahamiyatga ega loyihalar belgilangan bo'lib, Dastur iqtisodiyotining yoqilg'i-energetika, mashinasozlik, tog'-konchilik, kimyo, engil sanoat hamda qishloq xo'jaligi mahsulotini qayta ishlash sohasi kabi deyarli barcha sohalarini qamrab olgan.

Dasturni amalga oshirishda respublika hukumati huzuridagi fan va texnologiyalar Markazi muammolar bo'yicha kengashi, tarmoq ilmiy-texnika markazlari, viloyatlar qoshidagi fan va texnika xalqaro markazlari hamda ilg'or texnologiyalar markazlari ishtirok etadilar. Xalqaro markazlarda amaliy (ishlab chiqarish tuzilmalarida tayyorlangan) va innovatsion (fan va ilmiy xizmat ko'rsatish sohasidagi) vazifa hamda muammolar shakllantirilib, konsalting va axborot xizmatlari ko'rsatiladi. SHu bilan birga bu sohada hali amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar ko'p. Jumladan, innovatsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish zarur. Innovatsion faoliyat markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan turda moliyalashtiriladi. Birinchi usulda pul mablag'lari: davlat byudjeti, ilmiy-texnik rivojlanish davlat Dasturiga kiritilgan loyihalarni maqsadli moliyalashtirish: tanlov ishlarini bajarish bo'yicha jamg'armalar; muayyan loyiha uchun ajratilgan va qaytarilishi kutilmaydigan grantlar hamda subsidiyalar; hokimiyatlar va boshqaruv organlari maxsus buyurtmalarini moliyalashtirish; davlat banklarining kreditlari hisobidan taqdim etiladi.

Moliyalashtirishning markazlashtirilmagan usuli korxonalarining xususiy mablag'lari, xorijiy investorlar, xususiy shaxslar, maxsus moliya yoki xayriya jamg'armalari hamda kredit mablag'laridan foydalanishga asoslangan. Masalan, AQSHda sanoat kompaniyalari va banklari, universitetlar, kollejlari, federal hukumat idoralari hamda mahalliy boshqaruv organlari, sohalar va ularning uyushmalari, xususiy shaxslar ilmiy jamg'armalarini tashkil qilishda faol qatnashadilar.

O'zbekistonning Davlat investitsiya siyosati birinchi navbatda iqtisodiyotda tuzilmaviy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, korxonalar investitsiya faoliyatini jadallashtirish hamda chet el investitsiyalarini keng miqyosda jalb qilish, shuningdek, investitsiya loyihalari tanlovi asosida ijtimoiy masalalarni hal etishga yo'naltirilgandir.

Bozor xo'jaligiga mos bo'lgan soliq tizimiga o'tish innovatsiya tuzilmasining moliyaviy jihatdan ta'minlanishi yaxshilanishiga ko'maklashadi. Mazkur tizimining mohiyati belgilanayogan

soliq miqdori mahsulotning yangi yaratilgan qiymati miqdori, olingan foyda hamda mavjud bo'lgan mulk qiymatiga bevosita bog'liqligidan iborat.

SHuni ta'kidlash joizki, amaldagi soliq tizimi kichik korxonalar, jumladan, innovatsiya korxonalari faoliyat yuritish sharoitlarini hisobga olmaydi. Innovatsiya korxonalari, boshqa xususiy korxonalar kabi, foyda solig'ini to'lash paytida soliqqa tortiladigan foyda miqdorini aniqlashda imtiyozga egadirlar. Jumladan, ularga ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta tashkil qilish, texnikaviy jihozlash uchun yo'naltirilgan foydani chegirish huquqi taqdim etilgan. Ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan mahsulot hamda qurilish materiallarini yetkazib beradigan baʼzi bir korxonalar olgan foydasi ushbu korxona ro'yxatga olingan kundan boshlab, dastlabki ikki yil mobaynida soliqqa tortilmaydi.

Mazkur imtiyoz tugatilgan yoki davlat tasarrufidan chiqarilgan yoxud sanatsiya natijasida qayta tuzilgan innovatsiya korxonalari, ularning filiallari hamda tuzilmaviy bo'linmalariga tegishli emas.

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar tajribasiga ko'ra, innovatsiya korxonalari uchun respublikada qabul qilingan hamda iqtisodiyotning ustuvor sohaslarida amal qilayotgan barcha imtiyozlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, ilmiy izlanishlarni bajarayotgan innovatsiya korxonalari tadqiqot ishlari uchun ilmiy-texnik asbob-uskunalar sotib olgan yilning o'zidayoq, 50 foizli amortizatsiya huquqiga, qolgan asosiy mablag''lar hisobidan esa jadallashgan amortizatsiya huquqiga ega bo'lishlari lozim.

Sanoat sohasi uchun innovatsiyalarni joriy etadigan korxonalarga litsenziyalar va "nou-xau"larni sotish jarayonida soliqqa tortish vaqtida chegirmalar taqdim etilishi, ishlab chiqarishni kengaytirishni amalga oshiradigan korxonalarga esa –soliqqa tortiladigan mablag''lar hisobidan yangi asbob-uskunalar qiymatini chiqarib tashlash huquqi berilishi lozim.

Oqilona investitsiya siyosatini yuritishda davlat tomonidan innovatsion tadbirkorlikka sarmoya qo'yishning o'ziga xos afzalliklari yaratiladi. Ko'pchilik salohiyatli investorlar uchun qimmatli qog'ozlar aylanish sohasining qonunchilik bazasini takomillashtirish bo'yicha tadbirlar, xususiy kredit tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan qarz kafolatlari eng jozibador bo'lib hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlarni mahalliy va xalqaro bozorlarda tarqatilishi samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekistonda "Davincom" investitsiya firmasi tashkil qilingan. Ushbu firma qimmatli qog'ozlar bozorini takomillashtirish yuzasidan davlat vakili hisoblanadi.

Salohiyatli sarmoyadorlar erkin pul mablag''larini jalb etishida eng muhim iqtisodiy instrument fond bozoridir. Aktsiyalar likvidligi, firmaning reklama-axborot faoliyati, valyuta maydonchasida sotuvga qo'yilgan aktsiyalar harakatining tahlili va aktsiyalar paketini chet el investorlariga sotish Fond bozori holatining yanada yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Innovatsion biznes bo'yicha faoliyat yuritadigan tadbirkorlar va investorlarning daromadi, investitsiya korxonalari aktivlarining bozor qiymati o'sishiga belgilangan soliq stavkasiga, ya'ni fond bozorida sotiladigan qimmatli qog'ozlarning sotuv qiymatiga o'rnatiladigan soliq stavkasiga bog'liqdir. Soliq stavkasi innovatsiya korxonalarini moliyalashtirish tavakkalchiligi darajasini oshiruvchi yoki kamaytiruvchi omil hisoblanadi. SHuning uchun ham qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarda dividendlardan, qimmatli qog'ozlarni sotib olishdan undiriladigan soliq shuningdek, tarkibiga qimmatli qog'ozlar qiymati kiritilgan korxonalar mulkidan olinadigan soliq kabi undiriladigan turli xil qayta-qayta soliqlarga yo'l qo'ymaslik lozim. Soliq solishning bu kabi amaliyoti natijasida ishbilarmonlik faolligi pasayadi, ya'ni innovatsion korxonalar tashkil topishi sur'atlari qisqaradi, oqibatda hozirgi kunda korxonalarning faoliyat yuritish imkoniyatlari kamayib boradi. Soliq yukining pasayishi innovatsion tadbirkorlikka hamda iqtisodiyotning xususiy sektoriga investitsiyalar jalb qilishda ikkilamchi kapital (qimmatli qog'ozlar bozori)ning ahamiyatini oshiradi. Shunday qilib, innovatsiya va investitsiya siyosatning asosiy vazifalari: iqtisodiy faoliyatda barqarorlikning ta'minlanishi (soliqlar, foiz stavkalari, amortizatsiya me'yorlari); ustuvor sohalarda salohiyatli, istiqbolga ega korxonalarni qo'llab-kuvvatlash hamda

ichki va tashqi investitsiyalarni, ishlab chiqarish sohalariga jalb qilishdan iborat bo'lishi zarur.

AQSH va Buyuk Britaniya mamlakatlari tajribasidan ravshan bo'ladiki, qulay innovatsion tadbirkorlikni tashkil qilish uchun imtiyozli aktsiyadorlik opsiyonini qonun asosida belgilash maqsadga muvofiqdir. Bu opsiyonga ko'ra, innovatsion korxonalarining ma'lum bir qismini emissiyadan bir necha yil o'tganidan so'ng, opsiyon berilgan paytdagi nominal qiymatga teng bo'lgan narx asosida sotib olish huquqi taqdim etiladi. Natijada yuqori malakali xodimlar va menejerlar uchun innovatsiya korxonalaridagi mehnat jozibadorligi oshadi, chunki kichik korxonalar yirik korporatsiyalar kabi yuqori ish haqini belgilay olmaydilar, biroq ularda kelgusi foydadan daromad olish imkoniyati mavjud.

O'zbekistonda innovatsiya faoliyatini tadbirkorlikning ustuvor yo'nalishiga aylantirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- uzoq muddatga (10 yil) hamda yaqin 2-3 yilga mo'ljallangan davlat innovatsiya siyosatining asosiy yo'nalishlarini qamrab olgan innovatsiya tuzilmasini rivojlantirish dasturini yaratish. Ushbu dasturda davlat organlari va ilmiy birlashmalarning (O'zR Fanlar Akademiyasi, sohalar bo'yicha ilmiy-texnik va muxandislik jamiyatlari va boshqalar) vazifalari aniq ishlab chiqilishi lozim:

- innovatsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazishning samarali tizimini tashkil qilish. Bu tizimda loyihalarga quyiladigan talablar: bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, qaytarilmaslik, mualliflar bilan muloqat, ekspertlarning javobgarligi, ularni rag'batlantirish muddati chuzilganligi va boshqalar:

- mualliflik huquqiga rioya qilish. Ilmiy-texnika va innovatsion firmalar faoliyat yuritishi uchun qulay sharoit yaratish. Mazkur firmalarda asosiy texnik echimlarning mualliflari bilan bir vaqtda korxona egalari ham hal qiluvchi rol o'ynaydi:

- innovatsiya tashkilotlari sektoriga moliyaviy qo'yilmalar va real investitsiyalar uyg'unlashuvini ta'minlaydigan innovatsiya loyihalarini moliyalashtirishning venchur tizimini tashkil qilish;

- innovatsiya loyihalari haqida ma'lumotga ega bo'lgan kuchli axborot tizimini tashkil qilish;

- qonunchilik-me'yoriy bazasini, soliq solish, hisoblash tartibi va undirilishini soddalashtirish hamda innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish jihatlarini takomillashtirish:

- innovatsiya loyihalarini moliyalashtirishning nodavlat tizimini rag'batlantirish;

- qaytarilish asosidagi loyihalar moliyalashtirilishini rivojlantirish, texnoparklar shaklidagi ilmiy tashkilotlar tuzilmasini shakllantirish:

- lizingni rivojlantirish:

- yirik loyihalarga birgalikda sarmoyalar qo'yish uchun moliyaviy uyushmalar faoliyatini rivojlantirish (banklar uyushmasi);

- investitsiya, kredit va sug'urta moliya institutlarini rivojlantirish;

- Fond bozori va qimmatli qogozlar bozorining ikkilamchi bozorini rivojlantirish;

- qo'shimcha imtiyozlar taqdim etish yo'li bilan ustuvor innovatsion loyihalar hamda O'zbekiston hududlariga chet el investitsiyalari oqimini davlat tomonidan tartibga solinishini takomillashtirish;

- depozitlar va qo'yilmalarga foiz stavkalarini oshirish yo'li bilan korxonalar va aholini bo'sh pul mablag'larini investitsiya maqsadlarga jalb qilish;

- davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag'lardan samarali foydalanish.

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish iqtisodiyot tuzilmasini tubdan o'zgartirish, xom ashyo jarayonidan tayyor raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga o'tish, O'zbekistonning jahon xo'jaligi aloqalariga integratsiyalashuvini jadallashtirish vazifalariga muvofiq ilmiy-tadqiqotlar, ishlanmalar va innovatsiya loyihalarining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi mamlakatimizda investitsiya-innovatsiya milliy Dasturi asosidagi loyihalarining jadallik bilan amalga oshirilishida muhim omil hisoblanadi.

3.1.4. Hukumat darajasi orasida vakolatni chegaralash: jahon tajribasi

3.1.4.1. Kafolat (muxtor vakillik)ni – chegaralash tamoyillari

Federativ mamlakatni xal qiluvchi tavsifi-bu hukumatni ikki asosiy darajasi orasidagi munosabat balansi- umummilliy va regionallidir. Bu balans sub'ektlarni atonomiyali darajasini, ularni siyosiy resurs negizini va bir vaqtda mamlakatni nomarkazlashtirish darajasi aniqlaydi. Balansni o'zgarishi vaziyatni dinamikasi, balansni qaysi tomonga o'zgarishi haqida gapirishga imkon beradi. "Markaz-regionlar" munosabatini balansini muhim sifati bo'lib hukumat darajasi orasidagi akolat (muxtor vakillik) ni chegaralashi bo'lib hisoblanadi. Markaz vakolati va sub'ektlar orasidagi chegara masalasi Rossiyada juda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. SHuning uchun xalqaro tajribani tahlilab chiqishni ma'nosi bor.

oliy va yuqori darajada davlatlararo tashriflarni tayyorlashda va amalga oshirishda, shuningdek, davlat, va hukumat delegatsiyalari tashriflarini tayyorlash va amalga oshirishda qatnashish;

O'zbekiston Respublikasining Elchixona joylashgan davlat bilan xalqaro shartnomalari loyihalarini, shartnomalar tuzish, ularni bajarish, amal qilishini to'xtatish va to'xtatib qo'yish to'g'risidagi takliflarni tayyorlashda qatnashish, O'zbekiston Respublikasining Elchixona joylashgan davlat bilan ikki tomonlama shartnomalari, shuningdek, ko'p tomonlama shartnomalari, shuningdek, Elchixona joylashgan davlat bilan O'zbekiston Respublikasi munosabatlariga tegishli qismi bajarishini kuzatish;

Elchixona joylashgan davlatning hokimiyat organlari idoralari, jamoat birlashmalari, ishbilarmonlari, ilmiy va madaniy doiralari, ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar o'rnatish va ularni qo'llab-quvvatlash;

Elchixona joylashgan davlatda yashovchi vatandoshlar va milliy markazlar bilan aloqalar va munosabatlar o'rnatilishi va rivojlantirilishiga ko'maklashish;

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining topshirig'iga ko'ra O'zbekiston Respublikasi delegatsiyalarini va davlat hokimiyati organlari vakillarini Elchixona joylashgan davlatga yuborish masalalarini kelishib olish;

Elchixona joylashgan davlatda O'zbekiston Respublikasi va uning fuqarolarining mulkiy huquqlari va manfaatlarini himoya qilish;

Elchixonaning, uning xodimlari va ularning oila a'zolarining xavfsizligini ta'minlashga

doir zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish, favqulodda vaziyatlar sharoitida O'zbekiston Respublikasining chet eldagi muassasalari va uning fuqarolarining xatti-harakatlarini belgilangan tartibda tashkil etish hamda ular xatti-harakatlariga rahbarlik qilish;

Elchixonona joylashgan davlatning oldindan bergan roziligi bilan va Elchixonona joylashgan davlatda vakili bo'lmagan uchinchi davlatning iltimosiga ko'ra uchinchi davlat va uning fuqarolarining manfaatlarini vaqtincha himoya qilish;

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, Elchixonona joylashgan davlat qonun hujjatlariga, xalqaro huquq normalariga muvofiq, boshqa funktsiyalarni bajarish.

Ushbu maqsadda Elchixonona Elchixonona joylashgan davlatda O'zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat muassasalari, tashkilotlari va korxonalari vakolatxonalarining, ularning delegatsiyalari va mutaxassislari guruhlarining, shuningdek, o'quvchilarining ishiga ko'maklashadi va ularga faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Ko'rsatib o'tilgan vakolatxonalar, delegatsiyalar va mutaxassislar guruhlari Elchixonona o'z funktsiyalarini amalga oshirishida unga ko'maklashadi va o'z faoliyati to'g'risida Elchixononaga axborot beradi.

Elchixonona tuzilmasi va uning faoliyatini tashkil etish. Elchixononaga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tayinlanadigan va Elchixonona joylashgan davlatda akkreditatsiya qilingan O'zbekiston Respublikasining yuqori rasmiy vakili hisoblanuvchi O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatdagi Favqulodda va Muxtor Elchisi boshchilik qiladi. Elchi O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini ifodalaydi, Elchixonona ishiga bevosita rahbarlik qiladi, Elchixononaga yuklangan vazifalar bajarilishi va uning funktsiyalari amalga oshirilishi uchun shaxsan javob beradi, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining me'yoriy hujjatlariga muvofiq Elchixonona tuzilmasini belgilaydi, uning xodimlari o'rtasidagi lavozim vazifalarini taqsimlaydi.

Elchixonona joylashgan davlatda Elchi bo'lmagan taqdirda uning funktsiyalarini Elchixononaning katta diplomatik xodimlaridan belgilangan tartibda tayinlanadigan O'zbekiston Respublikasi ishlari bo'yicha vaqtinchalik ishonchli vakil bajaradi.

Elchixonona, uning xodimlari va ular oila a'zolarining xavfsizligini ta'minlash, davlat va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirlarni muxofaza qilishni tashkil etish, moliyaviy mablag'larni tasarruf etish, xodimlar ishini tashkil etish va Elchixonona bo'linmalarining o'zaro hamkorligi bevosita Elchi tomonidan yoki Elchi tomonidan tayinlanadigan katta diplomatik xodim tomonidan amalga oshiriladi.

Elchixonona shtat jadvali va harajatlar smetasi belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadi.

Elchixononada tasdiqlangan shtat jadvali va harajatlar smetasi doirasida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va Moliya vazirligining qaroriga ko'ra quyidagi: tashqi siyosat, ichki siyosat, ikki tomonlama munosabatlar, iqtisodiy ishlar, fan va texnika, matbuot va axborot, madaniyat, konsullik, protokol yo'nalishlari va boshqa masalalar bo'yicha bo'limlar va guruhlar tashkil etilishi mumkin.

Tashqi ishlar vazirligi Moliya vazirligi bilan birgalikda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan xodimlar doirasida navbatdagi moliyaviy yil uchun byudjetda tasdiqlanadigan chet eldagi muassasalarni mablag' bilan ta'minlash hajmlaridan kelib chiqqan holda faoliyatning ikkinchi va kelgusi yillari uchun Elchixononaning harajatlar smetasini har yili tasdiqlaydi.

Elchixonona xodimlarining huquqlari va vazifalari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, lavozim O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining me'yoriy hujjatlari, lavozim yo'riqnomalari bilan belgilanadi. Elchixonona xodimlari Elchining, u bo'lmaganda O'zbekiston Respublikasi ishlari bo'yicha vaqtinchalik ishonchli vakilning buyruqlari va ko'rsatmalarini bajarishga majburlirlar.

Elchixonona ishi O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan

rejalar asosida tashkil etiladi.

Elchixonona shtatiga tayinlash, shuningdek, xodimlarni boshqa lavozimga o'tkazish va almashtirish O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Xodimlar Elinxonada ishlash uchun, qoidaga ko'ra, ikki yil muddatga xizmatga yuboriladi. Ishlash muddati uzaytirilishi mumkin, lekin u ko'pi bilan ikki yildan oshib ketmasligi kerak.

Elchixonada lavozimdan keyingi tayinlash ikki yildan keyin amalga oshiriladi.

Elchilar va vakillarning lavozimda bo'lish muddatlari har biri alohida holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq Elchixonada siyosiy partiyalar tuzilmalari, diniy va jamoatchilik birlashmalari tashkil etilishi mumkin emas, kasaba uyushmalari bundan mustasno.

Elchixonona yuridik shaxs hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasvirlangan va o'z nomi yozilgan muhrga, tegishli muhrlar va shtamplarga, banklarda hisob raqamlariga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining mulki hisoblangan er uchastkalari, binolar, inshootlar va Elchixonaning boshqa mol-mulkleri unga O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda biriktirilib qo'yiladi.

Elchixonona o'ziga biriktirilib qo'yilgan mol-mulkka nisbatan o'zi joylashgan davlat qonun hujjatlarini hisobga olgan holda ularga egalik qilish, ulardan foydalanish va tasarruf etish huquqini belgilangan tartibda amalga oshiradi. Elchixonona faoliyatini ta'minlash bilan bog'liq moliyaviy va boshqa masalalar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Tashqi ishlar vazirligi me'yoriy hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

Mazkur qoidalar xalqaro tashkilotlar huzuridagi O'zbekiston Respublikasi missiyalari va vakolatxonalari faoliyati uchun ham tatbiq etiladi.

3.2.3.O'zR Diplomatik vakolatxonalari va Tashqi ishlar vazirligi xodimlarining diplomatik martabalari

Diplomatik vakolatxonalarning boshliqlariga, elchixonalar, missiyalar va konsulliklarning diplomatik xodimlariga, O'zR Tashqi ishlar vazirligi markaziy apparati xodimlariga quyidagi diplomatik martabalar beriladi:

Favqulodda va Muxtor Elchi

Birinchi darajali favqulodda va Muxtor vakil

Ikkinchi darajali favqulodda va Muxtor vakil

Birinchi darajali maslahatchi

Ikkinchi darajali maslahatchi

Birinchi darajali birinchi kotib

Ikkinchi darajali birinchi kotib

Birinchi darajali ikkinchi kotib

Ikkinchi darajali ikkinchi kotib

Uchinchi kotib

Attashe

Diplomatik martabalar elchixonalar, missiyalar, xalqaro tashkilotlar va konsulliklar huzuridagi doimiy vakolatxonalari, O'zR Tashqi ishlar vazirligi markaziy apparati xodimlariga ijobiy attestatsiyaga, oliy ma'lumotga ega bo'lingan taqdirda, ularning malakasiga, egallab turgan lavozimiga hamda ish stajiga muvofiq, shuningdek, malaka unvonlarini va boshqa farqlovchi belgilarini hisobga olgan holda tadrijiy tartibda beriladi.

Diplomatik martabalar quyidagi lavozimlarni egallab turgan shaxslarga beriladi:

Favqulodda va Muxtor Elchi O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziriga, O'zbekiston Respublikasining Favqulodda va Muxtor Elchisiga, O'zbekiston Respublikasining BMT dagi Doimiy vakolatxonasi boshlig'iga, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirining O'rinbosariga, O'zbekiston Respublikasining Alohida topshiriqlar bo'yicha Elchisiga;

Birinchi darajali Favqulodda O'zbekiston Respublikasining va Muxtor Vakil Favqulodda va Muxtor Elchisiga, O'zbekiston Respublikasining Favqulodda va Muxtor Vakiliga, O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotdagi doimiy vakiliga, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirining o'rinbosariga, O'zbekiston Respublikasini Alohida topshiriqlar bo'yicha Elchisiga;

Ikkinchi darajali Favqulodda O'zbekiston Respublikasining va Muxtor Vakil Favqulodda va Muxtor Elchisiga, O'zbekiston Respublikasining Favqulodda va Muxtor Vakiliga, O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotdagi doimiy vakiliga, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar Alohida topshiriqlar bo'yicha Elchisiga Birinchi darajali maslahatchi Bosh konsulga, xalqaro tashkilot Elchixonona maslahatchisiga huzuridagi doimiy vakil O'rinbosariga, Elchixonaning maxsus attashesiga, vazir maslahatchisiga

Ikkinchi darajali maslahatchi Bosh konsulga,
Elchixonona maslahatchisiga,
xalqaro tashkilot huzuridagi
doimiy vakil O'rinbosariga,
Elchixonaning maxsus attashesiga,
Tashqi ishlar vazirligi
boshqarmasi va mustaqil bo'limi
rahbariga,
vazir maslahatchisiga

Birinchi darajali birinchi Xalqaro tashkilot huzuridagi kotib doimiy vakil O'rinbosariga, Elchixonaning birinchi kotibiga,

konsulga, Tashqi ishlar vazirligi
boshqarmasi va mustaqil bo'limi
rahbariga, rahbar O'rinbosariga,
vazir yordamchisiga, Tashqi ishlar
vazirligi bo'limining birinchi
kotibiga

Ikkinchi darajali birinchi Elchixonaning birinchi kotibiga, kotib konsulga, Tashqi ishlar vazirligi bo'limining birinchi kotibiga Birinchi darajali ikkinchi Elchixonaning ikkinchi kotibiga, kotib vitse-konsulga, Tashqi ishlar vazirligi bo'limining ikkinchi kotibiga

Ikkinchi darajali ikkinchi Elchixonaning ikkinchi-uchinchi kotiblariga, vitse-konsulga,

Tashqi ishlar
vazirligi bo'limining ikkinchi-
uchinchi kotiblariga

Uchinchi kotib Elchixonaning uchinchi kotibiga,
vitse-konsulga, konsullik
agentiga, Tashqi ishlar
vazirligi bo'limining uchinchi
kotibiga

Attashe: Elchixonaning uchinchi kotibiga, Tashqi ishlar vazirligi bo'limining uchinchi kotibiga, attashega.

Favqulodda va Muxtor Elchining, birinchi va ikkinchi darajali Favqulodda va Muxtor Vakilning diplomatik martabalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari beriladi.

Birinchi va ikkinchi darajali Maslahatchining, birinchi va ikkinchi darajali birinchi

kotibning, birinchi va ikkinchi darajali ikkinchi kotibning, uchinchi kotib hamda attachening diplomatik martabalari O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirining buyruqlari bilan beriladi.

Lavozimda ishlash muddatlari har bir diplomatik martaba uchun quyidagichadir: attashe, uchinchi va ikkinchi kotiblari 2-3 yil, birinchi kotib va maslahatchilar 3-4 yil, Attachening boshlang'ich diplomatik martabasi diplomatik xizmatda kamida bir yil ishlagan shaxsga beriladi.

Favqulodda va Muxtor Elchining, birinchi va ikkinchi darajali Favqulodda va Muxtor vakilining martabalari umrbod beriladi. Boshqa diplomatik martabalarga ega bo'lgan shaxslarda ular ushbu mansabdor shaxslar O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimidan pensiyaga chiqqan taqdirda ham saqlanib qoladi.

Diplomatik martabalarga, shu jumladan, Favqulodda va Muxtor Elchi, birinchi va ikkinchi darajali Favqulodda va Muxtor Vakil diplomatik martabalariga ega bo'lgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi davlat manfaatlariga qarshi qaratilgan, shuningdek, diplomatik xizmat talablariga zid xatti-harakatlar uchun mazkur unvonlardan mahrum etilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri:

a)oldingi diplomatik martabada belgilangan xizmat muddati o'tgunga qadar ishda alohida namuna ko'rsatilganlik uchun;

b) navbatga rioya qilmagan holda, ammo xodimning yuqori lavozimga ko'tarish vaqtidagi diplomatik martabasidan ko'pi bilan ikki diplomatik martaba yuqori;

v)birinchi marta attestatsiyadan o'tkazilayotgan xodimlarga, egallab turgan lavozimda nazarda tutilganiga nisbatan bir diplomatik martaba past;

g)Tashqi ishlar vazirligining mustaqil, shu jumladan, xo'jalik hisobidagi bo'linmalari rahbarlariga, xizmat vazifalarini muvaffaqiyatli bajarilganligi va ishdagi katta yutuqlari uchun unvonlar berishga haqlidir.

Bir diplomatik martabada belgilangan muddatda xizmat qilgan, biroq xizmat faoliyatida yoki xulq-atvorida jiddiy kamchiliklar bo'lgan elchixonalar, missiyalar, xalqaro tashkilotlar huzuridagi doimiy vakolatxonalar va konsulliklarning diplomatik xodimlariga, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi markaziy apparati xodimlariga navbatdagi diplomatik martaba berilmaydi.

Xizmat burchini qo'pol ravishda buzganligi yoki xizmat vazifalarini muntazam ravishda, zarur darajada bajarmaganligi uchun xodimning martabasi pasaytirilishi mumkin.

Favqulodda va Muxtor Elchi, birinchi va ikkinchi darajali Favqulodda va Muxtor Vakil martabasiga ega bo'lgan shaxslarni diplomatik martabadan mahrum etish yoki martabasini pasaytirish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan amalga oshiriladi.

Boshqa diplomatik martabalardan mahrum etish O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri tomonidan amalga oshiriladi.

Elchixonalar, missiyalar, xalqaro tashkilotlar huzuridagi doimiy vakolatxonalar va konsulliklar diplomatik xodimlariga, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi markaziy apparati xodimlariga diplomatik martaba berish uchun attestatsiyadan o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

Diplomatik martabalarga ega bo'lgan Elchixonalar, missiyalar, xalqaro tashkilotlar huzuridagi doimiy vakolatxonalar va konsulliklarning diplomatik xodimlariga, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi markaziy apparati xodimlariga tasdiqlangan namunadagi guvohnoma beriladi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan miqdorlarda lavozim maoshlariga qo'shimcha to'lovlar belgilanadi.

3.2.4.O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet eldagi kasb faoliyati

O'zR fuqarolari respublika qonunchiligiga muvofiq idoralararo shartnomalar, ishga joylashish to'g'risidagi bitimlar, shuningdek xususiy mehnat kontraktlari asosida o'z kasb

faoliyatlarini amalga oshirish maqsadida chet elga faqat Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi ko'magida chiqish huquqiga egadirlar.

Fuqarolarning xususiy kontraktlar bo'yicha chet elda o'z kasb faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun chiqish hujjatlarini rasmiylashtirishni O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi tomonidan ilovaga muvofiq shaklda beriladigan ruxsatnoma asosida amalga oshiradi.

Tashqi mehnat migratsiya masalalari agentligi tomonidan ruxsatnoma berilgandan so'ng fuqarolar Ichki ishlar vazirligining turar joy bo'yicha kelish va ketish va fuqarolik bo'linmasiga chiqib ketishni rasmiylashtirish uchun ariza beradilar.

O'zbekiston Respublikasining xususiy mehnat kontraktiga ega bo'lgan fuqarolari chet elda ijtimoiy himoyalashni ta'minlash maqsadida. Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi quyidagi hujjatlarni ikki nusxada taqdim etadilar: ariza;

xorijiy firma (ish beruvchi)dan olingan, barcha ijtimoiy kafolatlar va tibbiy sug'urta ko'rsatilgan, shuningdek ish beruvchining mehnat vizasi (Employment visa)ni ta'minlashdagi majburiyatlarini nazarda tutadigan, davlat tiliga tarjimai ilova qilingan notarial tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasining chet eldagi konsullik muassasasida rasmiylashtirilgan kontrakt nusxasi;

ish beruvchi to'g'risida qisqa ma'lumotlar;

ma'lumotnoma;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tasdiqlagan tegishli shakldagi sog'lig'i to'g'risida ma'lumotnoma.

Ruxsatnoma blankasida ruxsatnomani bergan organ nomi, uning yuridik manzili, qayd etish raqami, ruxsatnoma berilgan mutaxassis ismi, ushbu shaxs qaysi davlat fuqarosi ekanligi, faoliyat turi, ruxsatnoma amalda bo'ladigan hudud, ruxsatnoma amalda bo'ladigan muddat, uzaytirilgan vaqt ko'rsatiladi. Ruxsatnoma Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi vakil qilingan rahbari tomonidan imzolanadi va muhr bilan tasdiqlanadi.

Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi ruxsatnomasi va mehnat kontrakti asosida chet elga ketgan fuqarolari ishga joylashayotgan mamlakatdagi O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasasida ro'yxatdan o'tishlari shart, respublikaning vakillik organlari yo'q bo'lgan hollarda O'zbekistonlik fuqarolar O'zbekiston Respublikasi Hukumati vakolat bergan MDH konsullik organlarida ro'yxatdan o'tishlari kerak.

Fuqarolarga chet elda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsatnoma Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari nazarda tutilgan hujjatlarni bergan kundan boshlab 15 kun mobaynida beriladi.

Chet elda kasb faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsatnoma berishni rad etish to'g'risidagi asoslangan qaror arizachiga ushbu qaror qabul qilingandan so'ng bir hafta muddatda yuboriladi.

Ruxsatnoma mehnat kontrakti amalda bo'ladigan muddatga beriladi. Mazkur kontrakt muddati uzaytirilgan taqdirda arizachining iltimosiga ko'ra ruxsatnomaning amalda bo'lish muddati belgilangan tartibda qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Ruxsatnoma berganlik va uning muddati uzaytirilganligi uchun belgilangan tartibda to'lov undiriladi. Mazkur to'lov ruxsatnomalarni berish hujjatlarini ko'rib chiqish va rasmiylashtirishga aloqador harajatlarni qoplashga, shuningdek ruxsatnomalarni berish bilan shug'ullanuvchi xodimlarga mehnat haqi to'lash va O'zbekiston Respublikasiga mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun kelayotgan xorijiy fuqarolar hamda chet elga ishlash uchun ketayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ma'lumotlarining komp'yuter bazasini yaratishga sarflanadi.

Belgilangan ruxsatnomalar olishning majburiy tartibi O'zbekiston Respublikasining quyidagi fuqarolariga nisbatan joriy qilinmaydi:

a) O'zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik va konsullik muassasalari

xodimlariga;

b) ta'tillar vaqtida oliy kasb ta'limi muassasalarining hukumatlararo dasturlari doirasida ishlab chiqarish amaliyotini o'tayotgan talabalarga;

v) O'zbekiston Respublikasining chet ellardagi muxbirlari va jurnalistlariga;

g) chet el akademiyalari va oliy kasb ta'limi ta'lim muassasalariga ma'ruzalar kursini o'qishga va boshqa ishlarga taklif etilgan ma'ruzachilar hamda yo'riqchilarga;

d) O'zbekiston Respublikasining chet mamlakatlar bilan davlatlararo bitimlarida ishga joylashtirishning boshqacha tartibi belgilangan shaxslarga.

3.2.5. Respublikaga xorijiy ishchi kuchlarini jalb qilish va ulardan foydalanish

Xorijiy ishchi kuchlarini jalb qilish ruxsatnomasi respublika hududida ishlash uchun yollanadigan xorijiy xodimlarning umumiy va kasblar guruhi bo'yicha yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan eng ko'p sonini belgilaydi.

Kasb faoliyatini amalga oshirish maqsadida respublikaga keluvchi xorijiy fuqaro tegishli shakl bo'yicha va ish beruvchi tomonidan berilgan ruxsatnoma asosida uning nomiga berilgan mehnat faoliyati huquqi tasdiqnomasi bo'lgandagina respublika hududida ishlashi mumkin.

Ruxsatnomalar o'zbekistonlik yuridik shaxslarga, O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarga, shuningdek o'z shaxsiy xo'jaligida yollangan xodimlar mehnatidan foydalanuvchi ayrim o'zbekistonlik va O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi xorijiy jismoniy shaxslarga berilishi mumkin. Bunda xorijiy xodimlar mehnat faoliyatlarining davom etish muddati ruxsatnomaning amalda bo'lish vaqtidan oshib ketmasligi kerak.

Ruxsatnoma berish Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Ruxsatnoma (tasdiqnoma) berganlik va uning muddatini uzaytirganlik uchun belgilangan tartibda to'lov undiriladi.

Ruxsatnoma olish uchun ish beruvchi Agentlikka quyidagi hujjatlarni topshiradi:

ariza;

kontrakt loyihasi yoki xorijiy fuqarolar yoxud chet el firmalari bilan tuzilgan xorijiy mutaxassislarni jalb qilish maqsadi va shartlari to'g'risidagi oldindan ahdlashilganlikni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar;

xorijiy mutaxassisga berilgan fotosuratli anketa;

ruxsatnomani rasmiylashtirish va berish uchun to'lov to'langanligi haqidagi bank (kassa) hujjati va Agentligining talabiga ko'ra boshqa zarur hujjatlar;

"VICH-infektsiya" yo'qligi to'g'risida sertifikat.

Agentlik xorijiy ishchi kuchlarini jalb qilish va ulardan foydalanish uchun ruxsatnoma berishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining bo'sh ish joylarini egallash bo'yicha ustunlik huquqlari printsiptan, so'ralayotgan joyda qadri bir xil ishchi kuchlari borligidan kelib chiqishi kerak.

Ruxsatnoma berish to'g'risida qaror ish beruvchi hujjatlarni bergan kundan boshlab 30 kun mobaynida - Agentlik tomonidan qabul qilinadi.

Xorijiy ishchi kuchini jalb qilish va undan foydalanish uchun ruxsatnoma berishni rad etish to'g'risidagi asoslangan qaror arizachiga ushbu qaror qabul qilingandan so'ng bir hafta muddatda yuboriladi.

Ruxsatnoma bir yil muddatga beriladi, mehnat kontrakti muddatini uzaytirish tomonlarning roziligiga ko'ra va ish beruvchining hujjatlarni berishi asosida, mehnat shartnomasining amalda bo'lish muddati tugagunga qadar, amalga oshiriladi.

Ish beruvchidagi ruxsatnoma, boshqa ish beruvchilarga berilmasligi kerak, Ruxsatnoma asosida jalb qilinadigan xorijiy xodimlar boshqa ish beruvchiga ishlash uchun o'tkazilishi mumkin

emas.

Ruxsatnoma blankasida: ruxsatnoma bergan organing nomi, ruxsatnoma berilgan ish beruvchining nomi va manzili, uning davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, ushbu shaxs qaysi davlat fuqarosi ekanligi, faoliyatining turi, ruxsatnoma amalda bo'ladigan hudud, amalda bo'lish muddati, muqobil shakl bo'yicha uzaytirish vaqti ko'rsatiladi. Ruxsatnoma Agentlik rahbari tomonidan vakil qilingan mas'ul mansabdor shaxs tomonidan imzolanadi va muhr bilan tasdiqlanadi.

Ish beruvchi ruxsatnomada ko'rsatilgan mazkur Nizom shartlarini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini buzganda, buning oqibatida xorijiy mutaxassislarning huquqlari jiddiy kamsitilgan hollarda - Agentlik yo'l qo'yilgan buzilishlar bartaraf etilgunga qadar ruxsatnomani to'xtatib qo'yishi yoki ularni muayyan muddatda bartaraf etish to'g'risida ko'rsatma berishi mumkin.

Buzilishlar belgilangan muddatda bartaraf etilmagan taqdirda ruxsatnoma O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi qaroriga ko'ra bekor qilinishi mumkin.

Mehnat faoliyatini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasiga kelgan va mazkur Nizomni buzgan holda ishga qabul qilingan xorijiy mutaxassislar ish beruvchi mablag'lari hisobiga O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasidan chiqarib yuboriladilar.

Agentlik xorijiy mutaxassislarni hisobga olishni amalga oshiradilar, xorijiy mutaxassislarni ishga joylashtirishning va mehnat shartlarining qonuniyligini tekshiruvdan o'tkazadilar, yilning har choragida O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligini va ichki ishlar hududiy organlarida xorijiy mutaxassislarning soni, kasb-malaka tarkibi, bo'lish muddatlari haqida xabardor qilib turadilar.

Ruxsatnomalar berishning mazkur Nizom bilan belgilangan majburiy tartibi, shuningdek-mehnat faoliyati huquqiga egalik tasdiqnomalari quyidagi xorijiy fuqarolarga nisbatan qo'llanmaydi:

a)diplomatik va konsullik muassasalarining, O'zbekiston Respublikasi hududidagi diplomatik maqomdan foydalanuvchi tashkilotlarning xodimlariga;

b)O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida akkreditatsiya qilingan xorijiy davlatlarning xalqaro hukumatlararo tashkilotlari va hukumat tashkilotlari vakolatxonalari xodimlariga;

v)3 oygacha muddatda keladigan, O'zbekiston Respublikasi hududida ishlayotgan yoki tashkil etilayotgan qo'shma korxonalar yoki firmalarning ta'sischilari yoki paychilari hisoblanadiganlarga.

Ko'rsatilgan tartib quyidagi xorijiy fuqarolarga nisbatan ham qo'llanmaydi;

davlatlararo bitimlarga muvofiq tashkil etilgan O'zbekiston hududidagi muassasalarda ishlovchi fan va madaniyat arboblarga;

ta'til vaqtida O'zbekiston oliy kasb ta'limi ta'lim muassasalari dasturlari doirasida ishlab chiqarish amaliyotini o'tayotgan talabalarga;

O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan muxbirlar va jurnalistlarga;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida akkreditatsiya qilingan xalqaro va xorijiy nodavlat (hukumatga qarashli bo'lmagan) notijorat tashkilotlarning vakolatxonalari va filiallari xodimlariga.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tomonidan akkreditatsiya qilingan, chet el tijorat tashkilotlar vakolatxonalarining xodimlariga;

O'zbekiston akademiyalari va oliy kasb ta'limi ta'lim muassasalarida ma'ruzalar kursini o'qish va boshqa ishlar uchun jalb qilingan ma'ruzachilar va yo'riqchilarga;

O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar bilan tuzilgan davlatlararo bitimlarga ko'ra ishga joylashtirishning boshqa xil tartibi belgilangan shaxslarga.

Nazorat savollari?

1. Respublikada xorijiy investitsiyalar ishtirokidiga korxonalarning asosiy ko'rsatkichlari qay darajada?
2. Tashqi iqtisodiy faoliyatda kichik tadbirkorlik sub'ektlarining o'rni va ishtirokini tushintirish?
3. Iqtisodiyot tamoqlarida tashqi va ichki munosabatlarni rivojlantirishning qanday yo'llari bor?
4. Jahonda hukumat darajasida vakolatni chegaralash qanday ro'y beradi?
5. O'zbekistonni xorijdagi vakolatxonalari faoliyat ko'rsatishini bayon eting?
6. Tashqi ishlar tizimi xodimlarining diplomatik martabalarini sanab bering?
7. Mamlakat fuqarolarining chet eldagi kasb faoliyati qay tarzda amalga oshiriladi?
8. Respublikaga xorijiy ishchi kuchlarini jalb qilish va ulardan foydalanishni huquqiy jihatlarini tushintirish?

Test savoli

O'z kasb faoliyatlarini amalga oshirish maqsadida chet elga faqat Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi ruxsatnomalari qanday fuqarolarga nisbatan joriy qilinmaydi:

- a) O'zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik va konsullik muassasalari xodimlariga;
- b) ta'tillar vaqtida oliy kasb ta'limi muassasalarining hukumatlararo dasturlari doirasida ishlab chiqarish amaliyotini o'tayotgan talabalarga;
- v) O'zbekiston Respublikasining chet ellardagi muxbirlari va jurnalistlariga;
- g) chet el akademiyalari va oliy kasb ta'limi ta'lim muassasalariga ma'ruzalar kursini o'qishga va boshqa ishlarga taklif etilgan ma'ruzachilar hamda yo'riqchilarga;

Adabiyotlar

1. Avdokushin E.F. Mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya. Uchebnoe posobie. -4-e izd., pererab. I dop. –M.: IVTs “Marketing”, 1999, -264 c.
2. Asqarov M.A. Xususiyl sektorni rivojlantirish yo’lida. «Mulkdor», 5*2004y 4-5 b.
3. Amerika transmilliy korporatsiyasi. Mirovaya ekonomika va mejdunarodnie otnoshenie. 2004 y. №8 s.45-60.
4. Asosiy e’tibor – ustuvor yo’nalishlarga. «Mulkdor», 06*2003y 3 b.
5. Ismoilova G. Lizing xizmati va iqtisodiyot ravnaqi. «Mulkdor», 39-40*2003y 12 b.
6. Nikolaev V. Kredit tavakkalchiligini kamaytirish yo’lida. «Mulkdor», 22*2003y 3 b.
7. Subsidirovat ekonomiku. Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie otnoshenie. 2005 y. №5 s.95-100.
8. Pivovarov S.E. i dr. Mejdunarodniy menejment. Uchebnik. Kiev.Harkov.Minsk.2005 g.
9. Pushkareva G.V. Politicheskij menejment. –M. 2002 g.
10. Rahimov M. Itisodiyot sohalarida tashqi munosabatlarni rivojlantirish yo’llari. BMI. TAQI. 2006 y. –91 b.
11. O’zbekiston Respublikasining “Chet el investitsiyalari to’g’risida”gi qonuni. 1995.
12. O’zR xorijiy ishchi kuchlarini jalb qilish va ulardan foydalanish tartibi to’g’risida nizom. O’zR Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 19 oktyabrdagi 408-son qarori.
13. O’zR fuqarolarining chet eldagi kasb faoliyati tartibi to’g’risida nizom. O’zR Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 19 oktyabrdagi 408-son qarori.
14. O’zR Diplomatik vakolatxonalari va Tashqi ishlar vazirligi xodimlarining diplomatik martabalari to’g’risida nizom. O’zR Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 16 martdagi 140-son qarori.
15. O’zbekiston Respublikasining Elchixonasi to’g’risida nizom. O’zR Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 24 martdagi 102-son qarori.
16. O’zbekiston Respublikasi vazirliklari, idoralari, davlat boshqa organlari, tashkilotlari va korxonalarining chet ellardagi vakolatxonalari to’g’risida namunaviy nizom. O’zR Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 24 martdagi 102-son qarori.
17. O’zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni huquqiy ekspertizadan, davlat ro’yxatidan o’tkazish va tugatish tartibi to’g’risida nizom. O’zR Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 2 iyo’ldagi 336-son qarori.
18. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Tashqi iqtisodiy aloqalar kompleksini tashkil etish to’g’risida. O’zR Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 22 oktyabrdagi 364-sonli qarori.
19. O’zR Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 5 martdagi 112-son qarori
20. O’zbekiston Respublikasi “Bojxona tariflari to’g’risida” Qonuni. 2000.
21. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 25 iyuldagi “Tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish va takomillashtirish choralari to’g’risida” 287-raqamli qarori.
22. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 31 martdagi “O’zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish bo’yicha qo’shimcha tadbirlar to’g’risida 137-sonli qarori.
23. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, "O’zbekiston", 1992.
24. Tashqi iqtisodiy faoliyat to’g’risida. O’zR 2000 yil 26 may 77-II-sonli qonuni.
25. Xorijdan mablag’ jalb qilish to’g’risida. O’zR 29 avgust 1996 yil 263-I-sonli qarori.
26. Xorijiy investorlar harid qiladigan aktsiyalar paketlari va ob’yektlar uchun haq to’lash shakllari to’g’risidagi nizom. O’zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo’mitasining 2001 yil 29 martdagi 01.06.5-son qarori.
27. Xorijiy sarmoyalar bo’yicha agentlikni tashkil qilish to’g’risida. O’zR Prezidentining 1995 yil 21 avgust PF-1234-sonli farmoni.
28. Xo’jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan xorijiy valyutadagi tushumni majburiy sotish

tartibi. O'zR Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 29 iyundagi 245-sonli qarori.

29. [www. bisnes.ru](http://www.bisnes.ru).

30. www. bistrast.ru.

31. www. ceep. uz

32. www. pca. uz

33. www. referat from. ru

34. www. mfa. uz

Glossariy

"xorijdan mablag' jalb qilish" - O'zbekiston Respublikasi yoki uning rezident tomonidan xorijiy davlatlar yoki norezidentlar aktivlarining (kreditlar, zayomlar va boshqalarning) mazkur xorijiy davlatga yoki norezidentga yoxud ularning talabiga ko'ra uchinchi shaxsga shartlashilgan davrda adekvat aktivlarni, shu jumladan aktivlardan foydalanganlik uchun to'lovlarni taqdim etish majburiyatini o'z zimmasiga olgan holda jalb etilishi;

"davlatning xorijdan mablag' jalb qilishi" - aktivlarni chet el manbalaridan (xorijiy davlatlar, ularning yuridik shaxslaridan va xalqaro tashkilotlardan) jalb etish hamda buning natijasida O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o'z kreditlari (zayomlari)ni to'lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga kelishi;

"rezidentning tashqi qarzi" - uning xorijdan mablag' jalb qilishi natijasida yuzaga kelgan majburiyatlari yig'indisi;

"davlat tashqi qarzi" - davlatning xorijdan mablag' jalb qilishi natijasida yuzaga kelgan O'zbekiston Respublikasining majburiyatlari yig'indisi;

"umumiy tashqi qarz" - rezidentlarning davlat tomonidan kafolatlanmagan tashqi qarzlari hamda davlat tashqi qarzi summasi;


"qarz oluvchi" - xorijdan mablag' jalb qilgan yohud xorijdan mablag' jalb qilish niyatini hujjat bilan tasdiqlagan O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'ruvchi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki rezident;


"kredit beruvchi"- xorijdan mablag' jalb qilish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha aktivlar bergan yoki aktivlar berish niyatida bo'lgan xorijiy davlat yoki norezident (xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari). Agar norezidentlar bir nechta bo'lsa, u holda kreditorlar guruhidagi vakolatli boshqaruvchi vazifasini bajaruvchi norezident kredit beruvchi hisoblanishi mumkin.

chet ellik investorlar asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat ob'yektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka doir huquqlar, shuningdek chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari deb e'tirof etiladi.

tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat ob'yektlariga chet ellik investorlar tomonidan reinvestitsiya tariqasida qo'shiladigan daromad deganda O'zbekiston Respublikasida investitsiyalashdan olingan har qanday mablag', shu jumladan foyda, foizlar, dividendlar, royalti, litsenziya va komission mukofotlar, texnikaviy yordam, texnik xizmat ko'rsatish uchun to'lovlar va boshqa shakldagi mukofot pullari tushuniladi.

Ilvalar





XIKlar eksportining hududiy tarkibi, (%da)

	Jami (mln, dollar)	Jami (%)	O'zbekiston Respublikasi	Andijon	Buxoro	Jizzax	Qashqadaryo	Navoiy	Namangan	Samarqand	Surxondaryo	Sirdaryo	Toshkent	Farg'ona	Xorazm	Tashkent sh.
2000	451,6	100	0,0	13,3	0,3	0,1	0,0	31,9	4,2	2,8	0,0	5,0	14,0	7,2	0,2	21,0
2001	416,9	100	0,0	18,6	0,1	0,3	0,0	29,0	2,0	2,2	0,0	1,0	18,7	7,4	0,2	20,5
2002	443,0	100	0,2	14,0	0,4	0,1	1,6	35,9	2,2	1,8	0,1	0,8	17,4	11,0	0,4	14,1
2003	564,4	100	0,1	18,4	2,8	0,2	2,3	28,3	2,9	2,4	0,3	0,8	15,7	12,7	0,7	12,4
2004	785,2	100	0,1	26,9	2,1	0,2	1,9	28,0	2,1	2,3	0,3	0,4	11,5	10,7	0,4	13,1
04/I	164,3	100	0,0	21,8	1,3	0,0	2,1	26,8	3,1	3,8	0,1	0,5	13,1	13,4	0,6	13,4
04/II	211,3	100	0,0	24,5	2,7	0,0	1,7	33,3	1,7	1,9	0,2	0,2	12,3	9,0	0,2	12,1
04/III	208,5	100	0,1	32,2	2,1	0,2	2,1	24,9	1,7	1,6	0,4	0,3	11,1	8,5	0,4	14,3
04/IV	201,1	100	0,3	28,2	2,2	0,4	1,7	26,9	2,1	2,1	0,4	0,8	9,6	12,4	0,4	12,7
2005	823,1	100	0,8	41,2	1,1	0,2	0,8	20,1	1,9	2,3	0,4	0,6	8,6	7,8	0,3	13,9
05/I	206,4	100	0,8	43,2	1,2	0,2	1,2	16,9	2,5	2,5	0,4	0,3	10,9	7,8	0,1	12,0
05/II	211,4	100	0,9	40,5	1,7	0,1	0,9	19,3	2,0	1,8	0,3	0,4	9,0	7,9	0,3	14,8
05/III	218,3	100	0,9	36,8	0,8	0,1 ~	0,7	21,4	1,5	2,1	0,6	0,3	8,3	8,1	0,4	18,0
05/IV	187,1	100	0,6	44,9	0,9	0,3	0,5	22,8	1,6	2,3	0,3	1,8	6,1	7,4	0,5	10,1

Manba: O'zR Davlat statistika qo'mitasi.

XIKlar importuning hududiy tarkibi, (%da)

	Jami (mln, dollar)	Jami (%)	Qoraqa lpo g'iston Respub likasi	Andi jon	Bux oro	Jizza x	Qash qad aryo	Navoiy	Naman gan	Sama rq and	Sur xon d aryo	Sirda ryo	Tos hke nt	Far g'o na	Xor azm	Tashke nt. sh.
2000	760,5	100	0,3	28,3	1,0	1,1	0,3	4,6	1,6	4,3	0,3	0,2	8,4	1,4	0,1	48,1
2001	937,2	100	0,3	25,3	1,0	3,3	5,1	6,5	2,2	2,1	0,0	0,9	10,3	9,8	1,0	32,2
2002	704,8	100	0,4	27,1	2,1	3,8	0,7	4,1	2,2	3,9	0,2	0,3	5,9	5,7	3,8	39,8
2003	858,4	100	1,1	28,2	0,8	0,3	0,8	5,3	1,8	3,8	1,0	0,1	3,8	4,1	0,3	48,6
2004	1165,7	100	1,4	27,1	0,8	0,2	0,4	6,9	2,1	2,6	0,3	1,8	4,7	1,4	1,2	49,1
04/I	243,9	100	0,2	25,3	0,6	0,0	0,5	5,4	4,4	3,0	0,3	0,1	4,3	2,0	0,7	53,2
04/II	275,4	100	0,5	26,7	0,8	0,4	0,6	8,9	1,7	3,3	0,8	1,6	4,6	1,5	0,8	47,9
04/III	315,4	100	2,4	31,7	0,3	0,2	0,4	7,4	1,7	2,2	0,1	5,1	3,6	1,2	2,7	41,0
04/IV	331,1	100	2,2	24,1	1,3	0,1	0,3	5,7	1,2	2,2	0,1	0,1	6,2	1,0	0,3	55,2
2005	1592,9	100	1,0	34,4	0,3	0,2	1,9	5,1	0,9	2,8	0,0	0,5	3,5	1,4	0,3	47,7
05/I	367,2	100	0,4	42,6	0,3	0,2	1,0	3,4	1,2	1,5	0,1	0,4	3,7	2,0	0,2	43,0
05/II	444,0	100	0,2	31,5	0,3	0,0	3,7	4,8	0,8	2,1	0,1	0,8	3,3	0,8	0,2	51,4
05/III	366,4	100	0,1	30,1	0,4	0,2	2,5	5,4	1,1	3,2	0,0	0,0	3,4	1,8	0,5	51,2
05/IV	1177,7	100	3,1	34,0	0,4	0,4	0,3	6,8	0,8	4,1	0,0	0,5	3,7	1,0	0,2	44,6

Manba: O'zR Davlat statistika qo'mitasi.

Оглавление

Введение.	5
Глава 1. Международная стратегия менеджмента и основы внешнеэкономической деятельности.	
1.1. Международная стратегия менеджмента, фискальная эффективность в хозяйственной системе и производственные функции	
1.1.1. Зарубежная (США) транснациональная корпорация, стратегия, формы деятельности	
1.1.1.1. Транснациональная корпорация стратегия и формы деятельности	8
1.1.1.2. Новые направления с использованием прямых иностранных инвестиций	10
1.1.1.3. Новые организационные формы.	11
1.1.2. Фискальная эффективность в вертикально интегрированной хозяйственной системе.	
1.1.2.1. Фискальное положение вертикально интегрированной хозяйственной структуры.	13
1.1.2.2. Прибыль в интегрированной и неинтегрированной системе.	14
1.1.2.3. Абсолютная экономия налогов в интегрированной системе.	15
1.1.2.4. Относительная экономия налогов в интегрированной системе.	17
1.1.3. Производственные функции в международном экономическом анализе.	
1.1.3.1. Виды производственных фондов.	18
1.1.3.2. Международный опыт учета интеллектуального капитала.	19
1.1.3.3. Учет социально-политического и географического положения государства	20
1.1.3.4. Влияние информационных технологий на экономическое развитие.	22
1.2. Основы внешнеэкономической деятельности.	
1.2.1. Нормативное обеспечение внешнеэкономической деятельности.	24
1.2.2. Комплекс внешнеэкономических отношений Кабинета Министров Республики Узбекистан.	28
1.2.3. Деятельность департамента внешнеэкономических связей и иностранных инвестиций	30

Глава 2. Международный финансовый менеджмент и отношения в иностранных инвестициях

2.1. Динамика международного финансового менеджмента.	
2.1.1. Структура основного капитала по отраслям экономики и формам собственности	35
2.1.2. Динамика инфляции в Республике Узбекистан и СНГ	39
2.1.3. Структура и выполнение расходов прибыли государственного бюджета.	43
2.1.4. Валютный рынок и внешняя торговля.	
2.1.4.1. Национальная валюта по отношению иностранной валюте	48
2.1.4.2. Торговый баланс, экспорт и импорт, а также состав динамики внешней торговли и расширение границ сотрудничества.	50
2.1.5. Финансирование и развитие внешнего и внутреннего инновационного процесса в Узбекистане	57
2.1.6. Способы привлечения иностранного капитала в экономику Узбекистана. Роль еврооблигаций на экономическое развитие республики	62
2.1.7. Инвариантность точек фискала Лафферти и проблемы нарушения инвариантности.	63
2.1.8. Субсидирование – принципы и механизмы, принятые в Евросоюзе	67
2.2. Отношения при иностранном инвестировании	
2.2.1. Иностранные инвестиции	72
2.2.2. Деятельность агентства по иностранному капиталу и привлечение иностранных средств.	78
2.2.3. Проведение правовой экспертизы и государственная регистрация и ликвидация предприятий при участии иностранных инвестиций в Республике Узбекистан.	80
Глава 3. Международные субъекты и управление людскими ресурсами.	
3.1. Практическая деятельность международных субъектов	
3.1.1. Предприятия при участии иностранных инвестиций	
3.1.1.1. Основные показатели, импорт и экспорт предприятий при участии иностранных инвестиций в Республике Узбекистан.	90
3.1.1.2. Внешнеторговый оборот совместных предприятий при участии иностранных инвестиций с СНГ и другими иностранными государствами	93
3.1.2. Участие субъектов малого предпринимательства во внешнеэкономической деятельности.	95
3.1.3. Пути развития внешних и внутренних отношений в отраслях экономики и строительстве	
3.1.3.1. Пути развития инфраструктуры услуг.	99
3.1.3.2. Мероприятия по превращению инновационной деятельности в РУз в приоритетное направление.	101
3.1.4. Разграничение полномочий на государственном уровне: Мировой опыт.	
3.1.4.1. Принципы разграничения полномочий.	104
3.1.4.2. Правила разграничения полномочий.	106

3.1.4.3. Разграничение полномочий в экономике.	107
3.1.4.4. Распределение полномочий в наземном, подземном и аграрном секторах	107
3.1.4.5. Разграничение полномочий в социальной сфере.	109
3.1.4.6. Разграничение полномочий в отраслях инфраструктуры	110
3.2. Зарубежные полномочия Узбекистана и управление людскими ресурсами.	
3.2.1. Зарубежные полномочия министерств, учреждений, других государственных органов, организаций и предприятий Республики.	112
3.2.2. Полномочия посольств Республики Узбекистан.	115
3.2.3. Дипломатические посольстве Республики Узбекистан и дипломатические должности сотрудников министерства иностранных дел.	118
3.2.4. Профессиональная деятельность граждан Республики Узбекистан за границей.	120
3.2.5. Привлечение и использование иностранной рабочей силы в Узбекистан	122
Литература	125
Глоссарий	127
Приложения	128

Contents

	page
Introduction	5
Chapter 1. Strategy of the international management and a basis externally economic activities.	
1.1. The international management: strategy, fiscal efficiency in economic structure and function of manufacture.	
1.1.1. Transnational corporations of America abroad: strategy, forms of a direction.	8
1.1.1.1. Strategy and forms of a direction transnational corporations.	10
1.1.1.2. New directions in actions of direct foreign investments.	11
1.1.1.3. New structural forms.	13
1.1.2. Fiscal efficiency in economic structure of vertical integration.	14
1.1.2.1. A fiscal condition in economic structure of vertical integration.	15
1.1.2.2. Profit in the integrated and not integrated system.	17
1.1.2.3. Absolute economy of taxes in the incorporated systems.	18
1.1.2.4. Economy of taxes in the integrated systems	19
1.1.3. The industrial organizations in the analysis of economic.	20
1.1.3.1. Types of production assets.	22
1.1.3.2. The international researches in the countries with the intellectual capital.	24
1.1.3.3. A sociopolitical and geographical condition of the country.	28
1.1.3.4. Influence of information technologies on economic growth.	30
1.2. Bases externally economic activities.	
1.2.1. The normative sides externally economic activities.	24
1.2.2. A complex externally economic activities of the Cabinet of Republic.	28
1.2.3. Activity of department of foreign investments and externally economic relations.	30
Chapter 2. The relation of the international financial management of foreign investments.	
2.1. Dynamics of the international financial management.	
2.1.1. Structure of investments into a fixed capital on economic branches and kinds of the property.	35
2.1.2. A dynamic condition of inflation in Republics of Uzbekistan and the countries CIS.	39
2.1.3. Structure and performance of the income and charges of the state budget.	43
2.1.4. The currency market and foreign trade.	48
2.1.4.1. Ratio of national currency to a foreign currency.	50
2.1.4.2. Trading balance, export and import.	57
2.1.5. Structure of dynamics of foreign trade and expansion of borders of cooperation, financings and developments of external and internal innovative processes.	62
2.1.6. Introductions of the foreign capital in a national economy: a role of Eurobonds for economy of republic.	63
2.1.7. Invariance of fiscal points Laffer's both problems and its mixture.	67
2.1.8. The help means - a principle and the mechanism of the European Community.	
2.2. The relation of foreign investments.	

2.2.1. Foreign investments.	72
2.2.2. Activity of agency on foreign the capital and their introduction.	78
2.2.3. Carrying out of legal examination and as state registration of the enterprise with participation of the foreign investment of Republic Uzbekistan.	80
2.2.4. A mode of obligatory payment from arrival of a foreign currency on the part of managing subjects.	84
2.2.5. Forms of payment for a share holding and objects bought by foreign investors.	87
Chapter 3. The international subjects and management of human resources.	
3.1. Practical activities of the international subjects.	
3.1.1. The enterprise with participation of foreign investments.	
3.1.1.1. The basic parameters, import and export of the enterprises with participation of foreign investments into Republics Uzbekistan.	90
3.1.1.2. Externally a trade turnover of the enterprises with participation of foreign investments and the countries CIS together with other foreign countries.	93
3.1.2. Participation of small enterprise subjects in external economic activities.	95
3.1.3. Ways of development of external and internal attitudes to branches of economy and construction.	99
3.1.3.1. Ways of development of a service infrastructure.	101
3.1.3.2. Measures of formation of innovative activity in the basic direction of Republic.	104
3.1.4. Restriction at a level of the state: world experience.	106
3.1.4.1. Principles of restriction of a guarantee (the direct representative).	107
3.1.4.2. Idea of restriction of direct representation.	107
3.1.4.3. Restriction of representation in economy.	109
3.1.4.4. Distributions of representation in ground, and agrarian branches.	110
3.1.4.5. Restriction of representation in social circles.	
3.1.4.6. Restriction of representation in branches of an infrastructure.	
3.2. Consulates of Uzbekistan abroad and management of human resources.	
3.2.1. The Ministry for Foreign Affairs of Republic Uzbekistan, establishment, other state bodies and foreign consulates.	112
3.2.2. The Ministry for Foreign Affairs: activity of embassy of Republic Uzbekistan	115
3.2.3. Diplomatic posts of the personnel of consulate and the Ministry of a foreign affair	118
3.2.4. Professional work of citizens of Republic Uzbekistan abroad.	120
3.2.5. An inclination and use of a foreign labour in Republics.	122
The literature	125
Glossary	127
Appendices	128

**RIFQAT GIMUSH, FARHOD MATMURODOV,
ERKIN SHAMIRZAEV**

XALQARO MENEJMENT

O'quv qo'llanma